A.G.IBRAGIMOV, Z.R.MADAMINOVA,
M.E. RAXMATALIYEV

134.8
6

# MOLIYAVIY MENEJMENT

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

A.G.IBRAGIMOV, Z.R.MADAMINOVA,
M.E. RAXMATALIYEV

# MOLIYAVIY MENEJMENT

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan5230900-Bugalteriya hisobi va audit (Suv xo‘jaligida) yo‘nalishi mutaxassisligi bo‘yicha taxsil olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2016

65.5(54)26
И 152

**UO'K: 65.01:336 (075)**
**KBK 65.231-93**
**I-14**

**I-14** **A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E. Raxmataliyev. Moliyaviy menejment. – T.: «Barkamol fayz media», 2016, 232 bet.**

**ISBN 978–9943–11–378–7**

Mazkur O'quv qo'llanma moliyaviy menejmentninig iqtisodiy mohiyati, rivojlanish bosqichlari, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishxususiyatlari, Korxonalarda moliyaviy ta'minot jarayonini boshqarish, korxonalar faoliyatida moliyaviy rejalashtirish, Aylanma mablag'larni moliyalashtirish jarayonini boshqarish, Xo'jalik sub'ektlarida pul oqimlarini boshqarish, Xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni maksimallashtirish masalalari, Debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish, Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish, korxonalarda soliq menejmentini tashkil etish masalalari, Moliyaviy risklar mohiyati va ularni kamaytirish yo'llari, korxonalarda narxlar shakllanish jarayonini boshqarish, korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv mohiyati, korxonalarda bankrotlik jarayonini boshqarish, korxonalarda bankrotlik jarayonini boshqarish kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

O'quv qo'llanma bakalavriantlar, magistrantlar, iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari va moliyaviy muammolar bilan qiziquvchi barcha o'quvchilarga mo'ljalangan.

***

Данное учебное пособие по финансовому менеджменту включает в себя ряд тем таких как: экономическое значение финансового менеджмента, этапы развития, организационные свойства финансового менеджмента в различных форм собственности предприятий, управление финансовыми снабжениями в предприятиях, финансовое планирование в жизнедеятельности предприятия, финансовое управление денежных оборотов, управление денежными потоками хозяйственных субъектов, задачи по оптимизации расходов и максимизация доходов, управление инвестициями в предприятиях, организация налогового менеджмента в предприятиях, значение финансового риска и пути их устранений, управления ценообразования в предприятиях, значение финансового управления при кризисной ситуации предприятия, управление предприятием при банкротстве.

Данное пособие предназначено для бакалавров, магистрантов, для преподавателей высших учебных заведений, для специалистов, а также для всех студентов заинтересованных в финансовых вопросах.

***

This textbook on financial management includes a number of topics such as: the economic importance of financial management, stages of development, organizational features of financial management in various forms of enterprise ownership, management of financial endowments in the enterprises, the financial viability of the Company in planning, financial management, money circulation, management of cash flows of economic entities, the task of optimizing costs and maximizing revenues, investment management companies, business tax management in the enterprises, the value of financial risk and ways to overcome them, pricing management in enterprises, the value of financial management in a crisis situation of the enterprise, business management in bankruptcy.

This textbook is intended for students, undergraduates, graduate students, for academics, as well as for all students interested in financial matters.

**UO'K: 65.01:336 (075)**
**KBK 65.231-93**

***Taqrizchilar:***
**T. Juraev** – TDIU «Sanoat iqtisodiyoti» kafedrasi dotsenti, i.f.n.;
**M. Saidova** – TIMI «Iqtisodiy nazariya asoslari» kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**ISBN 978–9943–11–378–7**

**© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2016.**

# KIRISH

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab, quvvatlash, ularga keng sharoitlar yaratish va imtiyozlar berish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy rejalar bevosita korxonalar tomonidan ishlab chiqilib, bashoratlash tavsifga ega bo'lib qoldi. Yurtimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan biri sanalgan, kompaniyalarning faoliyat turi, maqsadlari, boshqarishning yangi vazifalari vujudga keldi. Marketing, audit, moliyaviy menejment, innovatsion menejment, boshqarishning foyda olish va mablag'lardan oqilona foydalanishga qaratilgan an'anaviy funksiyalari (texnik-texnologik ta'minot, rejalashtirish) roli o'sdi. Korxonalarning mustaqilligi va xo'jalik faoliyati natijalariga iqtisodiy javobgarlik sharoitlarida moliyaviy menejment markaziy boshqaruv funksiyasini bajaradi va boshqa barcha vazifalarni muvofiqlashtiradi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda rejalashtirish va bashorat qilishga katta ahamiyat beriladi. Kompaniyalarda moliyaviy menejmentni to'g'ri yo'lga qo'yilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni samarali faoliyat yuritishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxona, firma va kompaniyalarning iqtisodiy mustaqil hamda moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishlarida ularni oqilona boshqarish, hisob-kitob yuritilishini bozor iqtisodiyoti talablariga moslash, moliyaviy menejment ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat boyliklaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish, natijada yuqori foyda olib, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish va korxona ixtiyorida turli jamg'armalar tashkil etish eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

51735

Bu vazifalarni bajarish uchun eng avvalo moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati. Moliyaviy menejmentning korxona boshqaruvi bilan o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy menejment tadbirkorlik faoliyatida takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz moliyaviy ta'minlashga qaratilgan boshqaruv faoliyati sifatida. Moliyaviy menejment xo'jalik subyektining strategik va taktik maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan moliyani boshqarish ilmi sifatida hamda moliyaviy menejmentning boshqaruv obyektlari to'g'risida eritilgan

O'quv qo'llanmaning birinchi bobida moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati maqsad va vazifalari bayon etilgan.

Ikkinchi bobda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarda moliyaviy menejmentning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Uchinchi bobda korxonalarda moliyaviy ta'minot jarayonini boshqarish to'grisida qisqacha bayon etilgan.

To'rtinchi bobda korxonalarda moliyaviy rejalashtirish har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri ekanligi bayon qilingan.

Beshinchi bobda korxona aktivlari tarkibi, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, kapital qo'yilmalar, kapital qo'yilmalarni baholash, aktivlarni tasniflash, moddiyaktivlar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar, operatsion aktivlar, investitsion aktivlar to'risida so'z boradi.

Oltinchi bobda aylanma mablag'larni boshqarish maqsadi, aylanma mablag'lar miqdorini optimallashtirish, aylanma mablag'lar strukturasini optimallashtirish, aylanma mablag'lar zaruriy likvidligini ta'minlash, aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligini oshirish yoritilgan.

Ettinchi bobda pul oqimlarini boshqarishning mohiyati, pul oqimlarini rejalashtirish va bashoratlash ochib beriladi.

Sakkizinchida bobidaxarajatlarni moliyaviy boshqarishning mohiyati, xarajatlar va tannarx kategoriyalarining umumiylik va o'xshash jihatlari, tannarx tarkibiga kiruvchi xarajatlarni guruhlashtirish, tannarxga tegishli va foyda hisobidan qilinadigan xarajatlarni muvofiqlashtirish va bu boradagi muammolar o'z echimini topgan.

To‘qqizinchi bobda Moliyaviy menejerning korxona qarzlarini boshqarishdagi vazifalari, debitorlik va kreditorlik qarzlarining iqtisodiy mohiyati va turlari, debitorlik qarzlarining aylanish ko‘rsatkichlari, korxona kredit siyosati, debitorlik va kreditorlik qarzlari vujudga kelish sabablari: bir tizimga bo‘ysunuvchi korxonalar o‘rtasida zanjirli bog‘lanish mavjudligi; korxonalarda moliyaviy beqarorlik holatlarining yuzaga kelishi; debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha ta’sir doirasining pastligi; maroiqtisodiy beqarorlik holatlari yuzaga kelishi; avans to‘lovlari amal qilishi to‘grisida berilgan.

O‘ninchi bobda korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mohiyati, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar investitsion faoliyatini boshqarishning zarurati va ahamiyatli jihatlari keltirilgan.

O‘n birinchi bobda Soliq menejmentining mohiyati, soliq menejmentining tarkibiy qismlari, korxonalarda soliq to‘lovlarini rejalashtirish, soliqlarni rejalashtirish bosqichlari, korxonalarda soliq munosabatlarini boshqarishni optimallashtirish, soliqlarning korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta’sirini baholash, korxonalarda soliq majburiyatlarini boshqarish yo‘nalishlari yoritilgan.

O‘n ikkinchi bobda moliyaviy risklar mohiyati va ularni kamaytirish yo‘llari yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanmani har bir bobidan so‘ng muzokara va muhokama uchun savollar keltirilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma hukumatimiz tomonidan belgilangan xamda respublikamizdagi korxona va tashkilotlar tizimizdagi o‘zgarish va talablar asosida yaritilgan bo‘lib, u hukumatimiz tomonidan moliyaviy direktor yoki moliyaviy menedjr kasbini takomillashtirish borasida qabul qilingan, iqtisodchi olimlarimiz tomonidan bu sohani rivojlantirish borasida ko‘plab nazariy, amaliy, ilmiy izlanishlar, risola va zamonaviy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan.

# I BOB. MOLIYAVIY MENEJMENTNING IQTISODIY MOHIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI

## 1-§. Moliyaviy menejmentning nazariy va konseptual asoslari

Moliyaviy menejmentning mustaqil fan sifatida shakllanishi yaqin o'tmishga borib taqaladi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi, iqtisodiyotni bozor qonuniyatlariga asoslangan holda boshqarish tizimining takomillashuvi, biznesning turlari va zamonaviy yo'nalishlarini vujudga kelishi hamda ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishda oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida moliyaviy resurslarning ahamiyati va ularni optimal boshqarishni tashkil qilish va shu kabilar, moliyaviy menejmentni mustaqil fan sifatida shakllanishiga muhim turtki bo'ldi.

Fanning dastlabki nazariy asoslari XX asrning 30-yillarida paydo bo'la boshlagan. Xususan, J.Vilyams tomonidan 1938-yilda, «moliyaviy aktivlarning qiymatini baholash» modelini yaratilishi moliyaviy menejment fanining nazariyasini shakllanishiga muhim turtki bo'lgan. 60-yillarga kelib G.Markovitsa, U.Sharpa, J.Mossina kabi olimlar tomonidan, moliyaviy aktivlarning daromadliligini baholash modeli – (Capital Asset Pricing Model CAPM)ning ishlab chiqilishi yuqoridagi nazariyaning keyingi rivojlanish bosqichi bo'ldi. Bundan tashqari ushbu yo'nalishda ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanmalar amalga oshirilgan, jumladan: «Opsion baho shakllanish nazariyasi» («Option Pricing Theory»). Opsionlardan foydalanishni o'z ichiga olgan investitsion strategiyalar, ko'plab mashxur olimlar, shu jumladan V.Sharp, R.Merton, F.Blek, M.Shoulz ishlarida ko'rib chiqilgan. Optsion baho shakllanishga bag'ishlangan nazariyalarda, qimmatli qog'ozlar bozorining turli ishtirokchilarini optsionlar bilan savdo qilish tizimlari yoritilgan va taqqoslangan. V.Sharp tomonidan 0 vaqtdagi opsion-

ning ichki (haqiqiy) qiymatini aniqlash imkonini beruvchi, opsion qiymatini baholashning binominal modeli ishlab chiqilgan.

Lekin, opsionni amal qilishining butun davri mobaynida asosiy aktivni doimiy o'zgaruvchanligi va tavakkalchiliksiz o'zgarmas stavkani ko'zda tutuvchi asosiy aktiv va opsionning ayrim kombinatsiyasini o'z ichiga olgan, tavakkachiliksiz portfelni tuzish yo'li bilan xedjirlash g'oyasiga asoslangan Blek Shoulz modeli optsion baho shakllanish nazariyasida asosiy o'rinni egallaydi.

Stiven Ross tomonidan ishlab chiqilgan «Arbitraj baho shakllanish nazariyasi» («Arbitrage Pricing Theory». ART) tavakkalchilikni oshirmasdan o'z portfeli daromadliligini orttirish imkoniyatidan, har bir sarmoyador foydalanishga intilishi g'oyasiga asoslanadi. Arbitraj portfel yordamida bunday imkoniyat amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy menejmentda arbitraj *(arbitrage)* deganda bir xil aktivlarga turli baholardan foydalanish yo'li bilan tavakkalchiliksiz daromad olish tushuniladi. Arbitraj keng tarqalgan investitsion taktika bo'lib hisoblanadi va bir davrning o'zida bir xil aktivlarni (yoki uning funktsional ekvivalentini) nisbatan yuqori baholarda sotish va nisbatan past narxlarda sotib olishdan iborat.

Arbitraj qimmatli qog'ozlarning zamonaviy samarali bozorlarini (bozor oldi-sotdi bitimlarining majmui) muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tariflar bo'yicha arbitraj amaliyotlardan olingan daromadlar tavakkalchiliksiz bo'lganligi bois, barcha sarmoyadorlar bu kabi daromadlarni olishga intiladi va buning uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi. Qimmatli qog'oz o'zining investitsion tavsiflariga ko'ra arbitrajga qay darajada muvofiqligini aniqlash talab etiladi.

Arbitraj amaliyotlar uchun qimmatli qog'ozlar yoki portfel tanlovi qo'yidagilarga asoslanadi:

1) qimmatli qog'ozning haqiqiy daromadliligi ikki unsurni o'z ichiga oladi: kutilayotgan (normal) va noaniq (tavakkalli) daromad;

2) qimmatli qog'ozning daromadliligiga ayrim noma'lum omillar ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, qimmatli qog'ozlar daromadliligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili, tanlovning asosiy usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda o'xshash omillarga sezgirligi bir xil bo'lgan qimmatli

qog‘ozlar yoki portfel birdek kutilayotgan daromadga ega bo‘lishi nazarda tutilgan.

Arbitraj portfel o‘zining joriy portfelini kutilayotgan daromadliligini oshirish uchun sarmoyador tomonidan shaklantirilib, qo‘shimcha mablag‘lar talab etmaydi va unga hech qanday tavakkalchilik ta’sir ko‘rsatmaydi. Boshqacha aytganda, arbitraj portfel nolga teng bo‘lgan omilsiz tavakkalchilikka (omillar ta’siri nolga teng) ega bo‘lishi lozim. Haqiqatda tavakkalchilik doimo mavjud, biroq arbitraj portfel holatida u sezilarsiz bo‘lib, unga e’tibor bermasa ham bo‘ladi.

Arbitraj baho shakllanish nazariyasining asosiy g‘oyasini matematik formallashtirish omilli deb nomlangan bir nechta modellarda namoyon bo‘ladi. Umuman olganda amaliyotda, bir omilli, ikki omilli va ko‘p omilli modellar mavjud.

50-yillarning ikkinchi yarmiga D.Dyuran, F.Modilyani va M.Miller kabi olimlar tomonidan moliyaviy menejmentning muhim nazariy unsurlaridan hisoblangan kapitalning tarkibi va moliyalashtirish manbalari yo‘nalishlarida muntazam ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borish natijasida «kapital strukturasi nazariyasi» ishlab chiqilgan. «Kapital strukturasi nazariyasi»ni ishlab chiqish bilan ko‘plab mualliflar shug‘ullangan, bular orasida «Kapital qiymati, korporativ moliya va investitsiyalar nazariyasi» nomli asarni 1958-yilda chop etgan F.Modilyani va M.Miller birinchilardan sanaladi. Kapital strukturasi nazariyasi moliyaviy menejmentning quyidagi birinchi darajali savollariga javob beradi: tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish uchun zarur va yetarli bo‘lgan kapitalni shakllantirish hamda jalb qilingan mablag‘larni samarali (foydali) joylashtirish.

Korxona passivlari ikki asosiy guruhdan tashkil topgan moliyalashtirish manbalaridan iborat: o‘z (ichki) va chetdan jalb qilingan (qarz) mablag‘lar. Bunda u yoki bu manbani shakllantirish korxona uchun birdek kechmaydi. Jalb qilingan kapital qiymati har bir manbani saqlab turish va faoliyatni zarar bilan yakunlamaslik bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun zarur bo‘lgan daromadning minimal darajasini ifodalaydi. Kapital qiymatini miqdor jihatdan baholash korxonani moliyalashtirish manbalarining muqobil variantlarini tanlab olishda muhim ahamiyatga ega.

Korxonani moliyalashtirish manbalari qiymatini aniqlash uchun o‘z va qarz mablag‘i o‘rtasidagi nisbatga bog‘liq bo‘lgan va uning o‘zgarishi bilan o‘zgarib boruvchi, jalb qilingan kapitalning o‘rtacha qiymati hisoblanadi. Bunda o‘z va qarz mablag‘lar qiymatini o‘zgarish sur’atlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shu tariqa, aksiyadorlar qarz mablag‘lari qiymatini oshishiga tezkor munosabat bildira olmaydi va o‘z qo‘yilmalari bo‘yicha o‘sib boruvchi tavakkalchilik uchun tovon sifatida dividendlarni ko‘paytirishni talab qilishi mumkin.

Mazkur nazariya mualliflari, aksariyat hollarda kapital strukturasi deb nomlanuvchi, moliyalashtirish manbalari strukturasini samarali boshqarish muammosini hal qilish bo‘yicha ikki yondashuvni taklif etadi. Shu vaqtning o‘zida, boshqa mualliflar moliyalashtirish strukturasi deganda barcha moliyalashtirish manbalarini, kapital strukturasi deganda esa faqatgina uzoq muddatli manbalarni (o‘z va uzoq muddatli qarz kapitalini) nazarda tutadi.

Birinchi yondashuv tarafdorlarining fikricha, moliyalashtirish manbalarining qiymati ularning strukturasiga bog‘liq. Bunda kapitalning o‘rtacha qiymati minimal va mos ravishda korxonaning bozor qiymati maksimal bo‘lgan moliyalashtirishning maqbul strukturasi mavjud. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari, shu jumladan F.Modilyani va M.Miller aksincha, qarz kapital qiymati va korxonaning bozor qiymatining o‘zaro aloqadorligini rad etib, moliyalashtirish manbalari qiymatini pasaytirish hisobiga korxona bozor qiymatini oshirish mumkin emasligi haqidagi fikrni ilgari suradi.

F.Modilyani va M.Miller yondashuviga ko‘ra korxona aksiyalari aylanmasi amaliyotlar hajmi, aksiyalar bozor bahosi ularning ichki qiymatiga qanchalik mosligiga bog‘liq bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarning samarali bozorida amalga oshiriladi.

Bozor bahosi ko‘plab omillarga, shu jumladan asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiluvchi axborotga bog‘liq. Shu tariqa, bozorning samaradorlik darajasi axborotni baholarga ta’sir etish tezligiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Bunda iqtisodiy samaradorlik emas, axborotning samarasi tushuniladi. Bozordagi axborotni olishda uning barcha ishtirokchilari birdek imkoniyata ega emas. Xalqaro amaliyotda simmetrik va assimmetrik axborotlar mavjud. Birinchi holatda

axborotdan barcha foydalanishi mumkin va bu hech qanday afzalliklarni bermaydi; ikkinchi holatda axborotdan faqatgina bozorning muayyan ishtirokchilari foydalanishi mumkin va bu ularga ma'lum afzalliklarni beradi.

Bozor samaradorligining uch darajasi mavjud: past, o'rta va yuqori. Samaradorlikning past darajasi aksiyalarning joriy bozor baholari o'tgan davrlardagi baholar dinamikasini to'liq aks ettirilishini bildiradi. Samaradorlikning o'rtacha darajasi aksiyalarning joriy bozor baholari faqat o'tgan davrlardagi baholar dinamikasinigina emas, balki barcha foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan axborotlarni ham to'liq aks ettirilishini bildiradi. Samaradorlikning yuqori darajasi aksiyalarning joriy bozor baholari o'tgan davrlardagi baholar dinamikasini, shuningdek, barchaga ma'lum va cheklangan axborotlarnigina emas, ham aks ettiradi. Shunday qilib, axborotlardan barcha ishtirokchilar foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, hech biri ortiqcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

F.Modilyani va M.Miller amal qilinishi natijasida bozor samarali bo'lishi mumkin bo'lgan qo'yidagi shartlarni belgilaydi:

1) transaksion harajatlarning yo'qligi;

2) axborotdan bozor ishtirokchilarining barchasi foydalanish imkoniyatiga egaligi;

3) sarmoyadorlar xatti harakatlarining oqilonaligi.

Bozor samaradorligining qayd qilingan shartlariga muvofiq F.Modilyani va M.Miller quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

1) korxonaning bozor qiymati kapital strukturasiga bog'liq emas va mazkur korxonaning tavakkalchilik yo'nalishiga mos bo'lgan stavka bo'yicha uni joriy (operatsion) foydasining kapitallashuvi yordamida aniqlanadi;

2) moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lgan korxona o'z kapitalining qiymati moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lmagan korxona o'z kapitalining qiymati va tavakkalchilik uchun mukofotlar yig'indisiga teng; bunda tavakkalchilik uchun mukofot o'z va qarz mablag'lar ayirmasini moliyaviy dastak miqdoriga ko'paytmasiga teng.

Mazkur yondashuvlarga asoslangan holda mualliflar, nisbatan arzon moliyalashtirish manbalarini jalb qilish yordamida kapital strukturasining o'zgarishi, korxona qiymatining oshishiga xizmat

qilmaydi degan g'oyalarni ilgari suradilar. Yuqoridagi sanab o'tilgan va boshqa moliyaning zamonaviy nazariyalarini rivojlanishi va takomillashuvi bilan bir qatorda moliyaviy menejment fani mustaqil fan sifatida vujudga keldi. Moliyaviy menejment fani bo'yicha dastlabki darslik va adabiyotlar 60-yillarning boshlarida nashr qilindi.Moliyaviy menejment fanining mustaqil fan sifatida paydo bo'lishi va shakllanishida, uzoq-yillik tarixga ega bo'lgan «Moliya» va «Buxgalteriya hisobi» kabi fanlar asos bo'lgan.

## 2-§. Moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Hozirgi kunda moliyaviy menejment tushunchasining mohiyatini yoritishda iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar bildirib o'tilmoqda. Umuman olganda, moliyaviy menejment tushunchasiga rus iqtisodchi olimlari, qolaversa MDH davlatlariga kiruvchi qator davlatlari olimlarining qarashlari bilan, G'arbiy Evropa va AQSh olimlarining qarashlari nisbatan farqlanadi. Buning o'ziga xos sabablari mavjud bo'lib, buning asosiylaridan biri MDH tarkibiga kiruvchi davlatlarda bo'lgani singari moliyaviy menejment fani Rossiya Federatsiyasida ham yangi rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi, yana bir sabab esa, ushbu davlatlarda firma va kompaniyalarning boshqaruv tizimidagi o'ziga xos turli xil jihatlarining mavjudligi hisoblanadi. Bundan tashqari, AQSh va Evropada mavjud kompaniyalarining aksariyat qismi asosiy faoliyatlaridan tashqari, ularning xo'jalik faoliyatida fond bozorlaridagi ishtiroki, xususan qimmatli qog'ozlar savdosi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirilishi muhim o'rin egallaydi.Shuning uchun ham ularning amaliyotida, moliyaviy menejmentning funksiyalari ko'p holatlarda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni boshqarishga yo'naltirilgan holda tushuntiriladi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar Djeyms K.Van Xorn va Djon M.Vaxovich o'zlarining iqtisodiy asarlarida, moliyaviy menejment aniq bir maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan aktivlarni moliyalashtirish va boshqarish bo'yicha qilingan hatti harakatlarning majmuidan iborat deb ta'kidlaydilar va quyidagicha ta'rif beradilar: moliyaviy menejment (financial management) aniq bir maqsadlarni realizatsiyasiga yo'naltirilgan aktivlarni moliyalash-

tirish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir. Ularning fikriga ko'ra firma va kompaniyalarning maqsadlari turli xil bo'lishiga qaramay, ulardan asosiysi firma va kompaniya egalarining moliyaviy holatini maksimallashtirishdir.

Umuman olganda AQSh va G'arbiy Yevropa iqtisodchi olimlarining keltirilgan tariflariga ko'ra, moliyaviy menejment o'zining bosh maqsadi sifatida aksiya kursi, bir dona aksiyaga to'g'ri keluvchi sof foyda miqdori, dividend darajasi, hissadorlar mulki va boshqa ijobiy manfaat keltiruvchi moliyaviy natijalarni ko'paytirishni ilgari suruvchi firma va kompaniyalar moliyasini boshqarishdir.

Rus iqtisodchi olimi G.B. Polyak boshchiligidagi olimlar guruhining ta'kidlashlaricha, moliyaviy menejment tushunchasi xo'jalik mexanizmining faol tarkibiy qismi sifatida korxonalar moliyasini boshqarish mexanizmi yoki moliyaviy mexanizm tushunchalari bilan bog'liqdir. Moliyaviy menejment – korxonalarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish, aylanma mablag'larni boshqarish jarayonidir. Moliyaviy menejment korxonalarda moliyaviy resurslar va aylanma mablag'larni boshqarish jarayonida foydalaniladigan usullar, qo'llanmalar va shakllarning (forma) tizimidir.

Moliyaviy menejment tushunchasiga I.Ya.Lukasevich quyidagicha ta'rif bergan. Moliyaviy menejment – bu xo'jalik subyektining joriy va strategik maqsadlariga erishishda, ularning moliyaviy resurslari va moliyaviy faoliyatini boshqarishdir. Uning fikricha moliyaviy menejment o'zining mohiyatiga ko'ra serqirra bo'lib, u turli talqinga ega, ya'ni: 1) alohida ilmiy predmet; 2) xo'jalik obyekti moliyasini boshqarish tizimi; 3) tadbirkorlik faoliyatining bir ko'rinishi.

Bu masala bo'yicha yana bir rus iqtisodchi olimi S.V.Galitskaya quyidagicha ta'rif beradi. Moliyaviy menejmentni korxonalarni barcha turdagi vositalari (aktivlari) va ularni kelib chiqish manbalarini (passivlarni) boshqarish, deb tushunish lozim. Uning fikriga ko'ra moliyaviy menejmetning asosiy maqsadi korxona egalarining moliyaviy holatini oshirish hisoblanadi.

S.B.Pryanichnikovning bergan tarifiga ko'ra, korxonalarda moliyaviy munosabatlar va xo'jalik moliyaviy faoliyatini boshqarish bevosita moliyaviy menejmentning funksiyalari orqali amalga oshi-

riladi, shuning uchun ham moliyaviy menejmentni xo'jalik subyektining moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishni boshqarish tizimi deb tushuniladi. Olimning ta'kidlashicha, moliyaviy menejmentning asosiy maqsadi korxonaning bozor qiymatini maksimallashtirish hisoblanadi.

Yuqoridagi olimlarning bergan tariflariga yondashgan holda, bizning fikrimizcha: moliyaviy menejment – korxonalarning joriy va strategik maqsadlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish, tahlil, bashoratlash va rejalashtirish kabi funksiyalarni amalga oshirish, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish jarayonlarini boshqarishdir.

Shu narsani ham ta'kilab o'tish kerakki moliyaviy menejment fani, boshqa barcha iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda moliyaviy menejment fanini mukammal o'rganishda iqtisodiyot nazariyasi, tahlil, moliya, moliyaviy va boshqaruv hisobi, statistika, korxonalar moliyasi va shu kabi fanlar bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab qilinadi.

### 3-§. Moliyaviy menejment tizimida korxonalar moliyaviy munosabatlarining tutgan o'rni va ahamiyati

Iqtisodiy faoliyat yuritayotgan har qanday korxona xo'jalik-moliyaviy faoliyatidan qat'iy nazar bir tomonlama faoliyat yuritishi mumkin emas. Korxonalar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish va mahsulotlar sotish jarayonida, bevosita ikkinchi tomon bilan hamkorlikda iqtisodiy munosabatlarni yuritish natijasida o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi va buning natijasida korxonalarning moliyaviy faoliyati shakllanadi. Korxonalarning moliyaviy faoliyati bevosita moliyaviy munosabatlar tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi, korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatlarini yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi, ularda boshqaruvning zamonaviy tizimini yaratilishi kabi omillar korxonalar moliyaviy munosabatlar tizimi yanada takomillashi hamda ko'lami kengayishiga olib keldi. Korxonalarning moliyaviy munosabatlarini

ikki guruxga ajratish mumkin: tashqi moliyaviy munosabatlar va ichki moliyaviy munosabatlar.

Korxonalarning ta'sischilari bilan yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarini, korxona dastlabki tashkil qilinayotgan davrda ustav kapitalini shakllantirish va ularning ma'lum qismini korxonada ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga moliyalashtirishga yo'naltirish yoki taqsimlash hamda korxonaning yakuniy moliyaviy natijalariga asoslangan holda ta'sischilarning ustav kapitalidagi ulushlariga qarab yoki ular egallab turgan aksiyalarning foizlardagi ulushiga qarab dividendlarning to'lanishida yuzaga keladigan munosabatlarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Korxonalar xo'jalik faoliyatining uzluksizligini ta`minlash, ularda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish va shu kabi iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishida korxonalarda faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlar va xizmatchilar vazifalarining va ish jarayonlarining yuqori saviyada tashkil qilinganligi, ularning mexnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini yaratilishi alohida ahamiyatga ega. Korxonalar va ularning ishchi xodimlari o'rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil qilinishi yuqoridagi maqsadlarga erishishda va mexnat resurslaridan oqilona foydalanishda dolzarb hisoblanadi. Korxonalarda ishchi xodimlar o'rtasida olingan daromad yoki foydani bir qismini taqsimlash, ish haqlari va mukofot pullarni to'lash, agar ma'lum turdagi qimmatli qog'ozlarga ega bo'lsa ular bo'yicha dividendlarni to'lash, moddiy yordam ko'rsatish hamda korxona faoliyatiga moddiy va ma'naviy zarar etkazsa, ushbu zarar miqdorini qoplash, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha tegishli soliqlarni ushlab qolish va shu kabi jarayonlar natijasida moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi.

Hozirgi kunda davlat byudjet daromadlarini tarkibida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar to'laydigan soliqlar va ajratmalar salmoqli o'rinni egallaydi. Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri korxonalar faoliyatini rivojlantirish ularni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, bir so'z bilan aytganda davlatning moliyaviy siyosatini samarali yo'lga qo'yilganligi, ham iqtisodiy ham ijtimoiy

jihatdan muhim ahamiyatga ega. Korxonalarning mulkchilik shakli va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat byudjetiga to'laydigan soliqlar va majburiy to'lovlar, davlat byudjetidan korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqa maqsadlarda ajratilgan moliyaviy yordamlar, ularga turli xil soliq imtiyozlarini berish yoki korxonalarga nisbatan qonunchilikka asosan jarimalar va sanksiyalar qo'llash kabi munosabatlar jarayonida korxonalarning davlat bilan yoki byudjet va byudjetdan tashqari fondlari bilan moliyaviy munosabatlari kelib chiqadi.

Korxonalarning tijorat banklari bilan yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlari, korxonalarning barcha turdagi moliyaviy, iqtisodiy munosabatlarini amalga oshirishda markaziy bo'g'inni egallaydi desak ham bo'ladi. Korxonaning moliyaviy munosabatlari, tijorat banklardagi maxsus hisob raqamlaridagi pullarni saqlash va foydalanish tizimini yaratilishi, bankning kredit va lizing operatsiyalaridan foydalanish, ya'ni kredit bo'yicha asosiy qarz va hisoblangan foiz to'lovlarini to'lash jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar, barcha turdagi pul o'tkazmalari va valyuta oldi sotdi operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxona, firma va kompaniya rahbarlari yoki moliyaviy menejerlar o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan va barcha moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun harakat qilish bilan cheklanib qolmasdan, favqulotda va tasodifiy zararlarni qoplash tadbirlarini ko'rishi ham lozim. Bunda sug'urta munosabatlari katta ahamiyatga ega. Korxonalarning sug'urta kompaniyalari bilan moliyaviy munosabatlari molk-mulklarni, risklarning barcha turlari, ishchilarning alohida toifadagilarini, ularning ishlari va majburiyatlaridan kelib chiqqan holda va shu kabilarni sug'urtalash jarayonida yuzaga keladi.

Korxonalarning kontragenti yoki boshqa-boshqa xo'jalik subyektlari bilan yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlari, mahsulot va xizmatlar realizatsiyasi, yangi qiymatni yaratish va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar jarayonida yuzaga keladi. Korxonalarning xo'jalik faoliyatida ushbu munosabatlar asosiy o'ringa ega, chunki ushbu moliyaviy munosabatlarning asosida moddiy ishlab chiqarish yotadi, ushbu jarayon mamlakatda

yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning shakllanishi va vujudga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari korxonalarda barcha turdagi to'lovlarning ko'p qismi aynan shu bo'limga to'g'ri keladi, o'z navbatida korxonalar faoliyatining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari ko'p jihatdan ushbu moliyaviy munosabatlarini samarali tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rib o'tilgan barcha moliyaviy munosabatlar, korxonalar xo'jalik faoliyatida o'zlarining alohida muhim jihatlari va realizatsiya qilish usullariga ega. Lekin barchasi ushbu jarayonda ishtirokchi subyektlar nuqtayi nazaridan, ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, ularning moddiy asosini pul mablag'larining harakati tashkil qiladi, ulardan foydalanish jarayonida pul oqimlari shakllanadi, moliyaviy munosabatlar jarayonida korxonalarning ustav kapitali tashkil qilinadi, moliyaviy mablag'larning aylanish davri boshlanadi va yakunlanadi, korxonada turli xil maqsadli pul fondlar, jamg'armalar va barcha turdagi moliyaviy resurslar tashkil qilinadi va foydalaniladi.

Korxonalarning moliyaviy munosabatlari va moliyaviy faoliyatlari bevosita moliyaviy menejmentning funksiyalari vositasida boshqariladi, shuning uchun ham moliyaviy menejmentning zamirida, xo'jalik subyektlarning moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishni boshqarish tizimi yotadi deb tushuniladi.

## 1-§. Moliyaviy menejmentning funksiyalari

Moliyaviy menejmentning tub mohiyati uning amalga oshirayotgan funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. Umuman olganda, moliyaviy menejment amalga oshiradigan funksiyalarni quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish mumkin (1.1-rasm):

- boshqaruv subyektining funksiyalari;
- maxsus funksiyalar.

Bozor munosabatlari sharoitida mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish eng avvalo tizilmada boshqaruv rolini oshirishdan boshlanadi. Chunki, boshqaruv vositasida korxona o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal qiladi va istiqboldagi strategik maqsadlarni

amalga oshiradi. Umuman olganda, yuqoridagi funksiyalarning birinchisida har qanday boshqaruv shaklining umumiy ko'rinishi tavsiflanadi, uning tarkibiga asosan quyidagilar kiradi: tashkil etish, tahlil, rejalashtirish, rag'batlantirish (motivatsiya) va nazorat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining turlari, amalga oshiradigan xizmatlar, bajaradigan ishlarning hajmidan kelib chiqqan holda boshqaruv tizimini yaratadilar. Albatta, har qanday xo'jalik faoliyati dastlab tashkil qilinayotgan davrda undagi bo'linmalarning quyi va yuqori darajalari, xuquq va majburiyatlari, javobgarligi, amalga oshiradigan ishlar tartibi va vazifalari belgilab olinadi. Moliyaviy menejmentning funksiyasi sifatida tashkil etishning asosiy maqsadi - boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarni, shuningdek, ularning o'zaro aloqa va munosabatlarini shakllantirishdir.

Mutanosiblik, uzluksizlik, parallellik, barqarorlik, egiluvchanlik, shuningdek, bir turdagi mehnat predmetlarini bir joyda jamlash, hamda korxonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar va tashqi muhitning o'zgarishiga mos holda, ularda boshqaruvning tashkiliy tizimini ushbu o'zgarishlarga mutanosib holda o'zgartirish va takomillashtirib borish kabilar tashkil etishning asosiy shartlari bo'lib hisoblanadi.

Korxonalarda moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etilishi ko'p jihatdan tahlil ishlarini aniq va to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir, uning yordamida korxonalarning to'lov imkoniyati, likvidliligi va moliyaviy barqarorligini, barcha moliyaviy-xo'jalik jarayonlarining sodir bo'lishi va hodisalarni davriy kuzatish, umuman moliyaviy-iqtisodiy holatini baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Tahlil yordamida korxonaning barqaror rivojlanishiga to'sqinliq qilayotgan kamchiliklar aniqlanadi va ushbu kamchiliklar bartaraf etiladi, xo'jalik subyektini yanada rivojlantirish yo'llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta'minlaydigan yo'nalishga o'tkaziladi.

17
37435




***1.1-rasm. Moliyaviy menejmentning funksiyalari***

Rejalashtirish moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Rejalashtirish funksiyasi mavjud resurlar hamda ularning chegaralanganligini inobatga olgan holda korxonaning maqsadlariga erishish yo'llarini belgilashdan iborat. Ishlab chiqarishni bozordagi holatga mos kelishini o'rganish, barcha turdagiresurslar va kapitaldan samarali foydalanishni eng maqbul yo'llarini tanlash, qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb qilish yo'llarini izlab topish va shu kabilar rejalashtirish funksiyasiga misol bo'la oladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish

funksiyasining muhim jihati shundaki, bunda korxonalar xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bozordagi holatdan kelib chiqqan holda, mazkur tovar va xizmatga bo'lgan talab va taklifning qay holatda ekanligi, raqobatning darajasi vashu kabi omillarga bog'liq holda belgilanadi. Rejalashtirish bevosita tahlil bilan bog'liq bo'lib, asosan uning yakuniy natijalariga qarab aniqlanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday xo'jalik subyektlarining o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini samarali amalga oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishda ushbu korxona, firma va kompaniyalarda faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda rag'batlantirishni amalga oshirish jarayonida, korxona boshqaruv tizimining turli bo'limlarida faoliyat yuritayotgan hodimlarning korxona tomonidan belgilangan moliyaviy rejalarni, vazifalar va yukmalarni to'liq bajarganligi, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan hamda mavjud moddiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalangan holda ishlab chiqarish hajmini oshiriganliklari uchun ushbu hodimlarni rag'batlantirish va mukofotlash yoki aksincha, ushbu vazifalarni amalga oshirishda sustkashlikka yo'l qo'ygan va befarqlik bilan yondashgan xodimlarga nisbatan ma'lum bir choralar ko'rish, tizimi yaratiladi. Moliyaviy menejmentning rag'batlantirish funksiyasini to'g'ri tashkil etilishi, korxonada mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilanishiga, xodimlar malakasining oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida, bevosita korxona xo'jalik faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat funksiyasining mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: korxonada belgilangan reja ko'rsatkichlarini haqiqatda qay darajada amalga oshirilayotganligi yoki bajarilmayotgan bo'lsa bunday holatlarni o'z vaqtida aniqlash, hamda ushbu holatlarni paydo bo'lish sabablarini batafsil o'rganish va bunday kamchiliklarni bartaraf etishda tezkor choralar ko'rishdan iborat. Moliyaviy menejmentning ushbu funksiyasini amalga oshirilishi korxonalarda ichki nazoratning tashkil qilish tizimi, nazorat qilinadigan ko'rsatkichlarning ko'lamini aniqlash bilan bog'liqdir.

Moliyaviy menejmentning keyingi guruh funksiyalari uning alohida boshqaruv faoliyati xususiyatlarini tasniflaydi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat:

– aktivlarni boshqarish;
– kapitalni boshqarish;
– investitsiyalarni boshqarish;
– pul oqimlarini boshqarish;
– moliyaviy risklarni boshqarish.

**Aktivlarni boshqarish.** Korxonalar xo'jalik faoliyatining xajmi va amalga oshirilayotgan operatsiyalar ko'lamidan kelib chiqqan holda uning turli hildagi aktivlarga bo'lgan talabini aniq o'rganish, korxona aktivlaridan samarali foydalangan holda ularning tarkibini optimallashtirish va likvidliligini ta'minlash, amortizatsiya hisoblashning eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularni moliyalashtirishni optimal yo'llari va manbalarini tanlash, aktivlarni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi.

**Kapitalni boshqarish.** Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslarni optimal yo'llarini izlab topish va ulardan samarali foydalanishi talab etiladi. Korxonaning hozirgi va kelgusidagi faoliyat turlarini amalga oshirishda foydalaniladigan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, kapitalni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi. Bu asosan korxonaning kapitalga bo'lgan jami talabini o'rganish va ulardan samarali foydalanish, moliyalashtirishning eng maqbul yo'llari va manbalarini aniqlash, qayta moliyalashtirish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

**Investitsiyalarni boshqarish.** Korxonalarni moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishlari va ularni faoliyatlarini rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir. Investitsiyalarni boshqarish funksiyasi, korxonaning taktik va strategik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan investitsiya siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bunda asosan, korxonaning faoliyat turi va moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda unga ko'proq moliyaviy manfaat keltiruvchi va eng maqbulini tanlash maqsadida, investitsion loyihalarning samaradorligi va qaytimini baholash, kapital qo'yilmalar byudjetini ishlab

chiqish, qimmatli qog'ozlar portfelini tashkil qilish va boshqarish va boshqalar amalga oshiriladi.

**Pul oqimlarini boshqarish.** Korxonalarning joriy va kundalik faoliyatini amalga oshirishda pul oqimlarini boshqarish muhim rol o'ynaydi. Korxonalarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligi, likvidliligi va to'lovga qobilligi hamda boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori ekanligi ko'p jihatdan ushbu funksiyaning to'g'ri va oqilona amalga oshirilishiga bog'liqdir. Korxonalarda pul oqimlarini kirib kelishi va chiqib ketishini to'g'ri tashkil etish, ular ustidan doimiy nazoratni olib borish, vaqtincha bo'sh turgan moliyaviy mablag'lardan optimal foydalanish va shu kabilar pul oqimlarini boshqarish funksiyasini mohiyatini ifodalaydi. Moliyaviy risklarni boshqarish. Hozirgi raqobat muhiti rivojlangan bir davrda tadbirkorlik faoliyatining maqsadi kam harajat evaziga ko'proq daromad olishdan iborat. O'z navbatida har qanday xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida, tijorat faoliyatining turi va xajmidan kelib chiqqan holda ma'lum bir yo'qotishlar yoki tavakkalchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklar (tavakkalchilik) xo'jalik faoliyatini tashkil qiluvchi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy risklarni boshqarish funksiyasi yordamida, ho'jalik faoliyatida yuzaga kelgan risklarning turlarini aniqlash, ushbu risklarning xatarlililk darajalarini baholash va buning natijasida yo'qotishlar ko'lami va xajmini belgilash mumkin bo'ladi. Olingan ma'lumotlar va taxlil natijalariga asoslangan holda, risklarni boshqarishning kompleks chora-tadbirlar tizimi tuziladi: ularni diversifikatsiyalash va sug'urtalash; risklarning aloxida turlari minimallashtiriladi va profilaktik ishlar amalga oshiriladi.

Biz yuqorida moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalariga umumiy holda ta'rif berib o'tdik.

### Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.

2. Moliyaviy menejment tushunchasiga AQSh va G'arbiy Yevropa iqtisodchi olimlari bergan tariflar mohiyati nimadan iborat?

3. Moliyaviy menejment tushunchasiga MDH davlatlari olimlarining bergan tariflarining mohiyati va uni yuqoridagi guruh olimlarning qarashlari bilan farqlari nimadan iborat?

4. Moliyaviy menejment funksiyasini necha guruhga bo'lish mumkin?

5. Moliyaviy menejmentni rejalashtirish va kapitalni boshqarish funksiyasining mohiyatini tushuntirib bering.

6. Moliyaviy menejmentning qanday nazariyalarini bilasiz?

«Kapital strukturasi» nazariyasi, uning mohiyati va uni ishlab chiqqan olimlar haqida nimalarni bilasiz?

# II BOB. TURLI TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY MENEJMENT XUSUSIYATLARI

## 1-§. Korxonalarda moliyaviy menejmentning maqsad va vazifalari

Moliyaviy menejmentning maqsadi, xo'jalik subyektining maqsadlari va iqtisodiy strategiyalaridan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy menejmentning maqsadi korxonaning maqsadlari bilan to'g'ri kelishi mumkin. Korxonaning uzoq muddatga belgilangan strategik maqsadlarini amalga oshirish va ularning xo'jalik-moliyaviy faoliyatini rivojlantirish, bankrotlikni va yirik moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish, keskin raqobat muhitida bozorda o'z o'rniga va raqobatchilar orasida ma'lum ustunlikka ega bo'lish, harajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish va sotish xajmini unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni inobatga olgan holda bosqichma-bosqich oshirib borish hisobiga foydani ko'paytirish va pirovardida korxonaning ta'sischilari, manfaatdor shaxslar va mulkdorlar daromadlarini ko'paytirish, moliyaviy menejmentning asosiy maqsadlarini ifodalaydi.

Hozirgi kunda moliyaviy menejment maqsadlarining eng muhimlari qaysilar degan savolga, iqtisodchi olimlar tomonidan turli qarashlar mavjud. Ko'plab xorijiy adabiyotlarda korxonalarda moliyaviy menejmentning maqsadlarini quyidagi uch guruhga ajratiladi:

– foydani maksimallashtirish va korxona egalarining moliyaviy talablarini qondirish;

– moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;

– mahsulot va xizmatlar realizatsiyasini maksimallashtirish (ya'ni, korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xajmini oshirish).

Kompaniyalarning o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishish bo'yicha jihatdan moliyaviy menejerni boshqaruv qarorlarini to'g'ri va

aniq qabul qilishiga bog‘liqdir. Moliyaviy menejer belgilangan maqsadlarga erishishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish kerak bo‘ladi:




***2.1-rasm. Moliyaviy menejmentning kompleks vazifalari***

– operatsion faoliyat (tahlil, rejalashtirish, bashoratlash va korxonaning moliyaviy xolatini nazorat qilish);

– moliyalashtirish – jalb qilingan va o‘z mablag‘lari manbalarini boshqarish (moliyaviy qarorlar qabul qilish);

– investitsiyalar – investitsiya siyosati va aktivlarni boshqarish (investitsion qarorlar qabul qilish).

Ushbu yo'nalishlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qarorlar qabul qilishda aloxida kompleks vazifalar tizimi belgilab olinadi. Korxonalarda moliyaviy boshqaruvni tashkil etish jarayoni va uning vazifalari yoki boshqacha qilib aytganda, moliyaviy menejmentning kompleks vazifalarini, bizningcha quyidagicha tasniflash mumkin (2.1-rasm).

Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda korxonalar mulkchilik shakli va xo'jalik faoliyatining turlari hamda iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlarining uzoq muddatli strategiyalari va boshqaruv tizimini mustaqil holda belgilaydilar. Ushbu maqsadlarga erishishda korxonalar o'z oldiga aniq vazifalarni qo'yib oladi va belgilangan vazifalar ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, korxonalarda moliyaviy menejmentning maqsad va vazifalari, bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda yaxshilab va takomillashtirib borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2-§. Xo'jalik subyektlarida moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona o'zining moliyaviy siyosati va ustuvor yo'nalishlarini mustaqil belgilash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ko'lamini o'zining moddiy va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kengaytirish, pirovardida, joriy va strategik vazifalarni oqilona bajarilishi natijasida, korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini barqarorligini ta'minlashlari mumkin bo'ladi. Albatta, korxonalar moliyaviy siyosatidan hamda boshqaruv tizimining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularda moliyaviy menejmentni tashkil etish yo'nalishlari va uning tadbiq etish sohalari belgilab olinadi.

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimi bevosita moliyaviy menejerning funksiyalari va amalga oshiradigan vazifalari, bajaradigan ishlariga bog'liq holda tashkil qilinadi. Korxonalarda moliya-

viy menejmentni tashkil etish jarayoni yoki ularning moliyasini boshqarish tizimi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi yoki operatsiyalar ko'lami, mulchilik shakli va faoliyat turining xilma xilligiga bog'liq holda shunchalik murakkab tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Albatta, har bir korxonaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unda moliyaviy menejmentning o'rni, roli va tashkil qilish shartlari o'ziga mos holda farqlanadi.

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etishda xususan, moliyaviy resurslarni tashkil qilish va boshqa manbalar hisobiga moliyalashtirish shartlari, ularni taqsimlash usuli (metodi) va yo'nalishlari, asosan quyidagi jihatlarga bog'liq holda farqlanishi mumkin bo'ladi:

– xo'jalik-moliyaviy faoliyatining ko'lami yoki xajmi;
– korxonalar rivojlanish siklining bosqichlari;
– biznesni yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari va boshqalar.

Amalga oshiriladigan faoliyat ko'lamini (ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulotlar xajmi, kapital qo'yilmalar, ishchi xodimlar soni va shu kabilar) inobatgan olgan holda korxonalarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: yirik, o'rta va kichik. Korxonalarning ushbu guruxning qay biriga mansubligi hamda ularning xajmi, bevosita moliyaviy resurslarga bo'lgan extiyojining miqdori va moliyaviy faoliyat turlarining xilma-xilliga ham, moliyaviy boshqaruvning amalga oshirish tizimini tashkil qilishga, hamda uning ixtisoslashtirish darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni korxonalarning xajmiy nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ularda moliyaviy boshqaruv tizimi va funksiyalari, moliyaviy operatsiyalar turlari va ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish uchun kerakli moliyaviy resurslarning miqdori belgilanadi.

Korxonalar o'zlarining butun faoliyati davomida bir qancha taraqqiyot jarayonlari yoki rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Rivojlanishning yoki taraqqiy etishning ushbu bosqichlarini falsafiy nuqtai nazardan insonning tug'ilgandan to keksalikkacha bo'lgan davriy hayotiy bosqichlariga ham qiyoslasa bo'ladi. Korxonalar rivojlanish bosqichlarini quyidagicha atash mumkin: «tug'ilish», «ulg'ayish», «mustaqil davri», «keksayish». Korxonalarning har bir rivojlanish bosqichida ular faoliyatlarini moliyalashtirishga bo'lgan extiyoji, kapitalni jalb qilish imkoniyatlari, amalga oshirilayotgan

faoliyatlarida yoki operatsiyalarida risklarni darajalari, moliyaviy munosabatlarda ishtirokchi subyektlarning soni, investitsion faoliyatlarni amalga oshirish imkoniyatlari, byudjet va boshqa moliya muassalari oldidagi majburiyatlari, ularning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari va boshqalar turlicha bo'ladi. Korxonalarning dastlabki «tug'ilish», «ulg'ayish» bosqichlarida ularda moliyaviy resurslarga bo'lgan talab darajasi nisbatan yuqori bo'ladi. Bunday turdagi korxonalar moliyaviy mablag'larni jalb qilish borasida agressiv moliyaviy siyosatni amalga oshiradilar, olingan daromadlarni barchasini xo'jalik faoliyatini reinvestitsiyalashga yo'naltirishi yoki uning ko'p qismini qaytadan biznesga sarflashlari mumkin bo'ladi. Korxonalarning dastlabki rivojlanishi davrida bunday holatlarning kuzatilishi tabiiy hisoblanadi, chunki ular kelgusida o'zlarining moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash va to'lovga qobillik ko'rsatkichlarini oshirish, istiqboldagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun moliyaviy zamin yaratishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bunday holatlarlarni korxonalarning keyingi («mustaqil davri», «keksayish») rivojlanish davrlarida kuzatadigan bo'lsak, ularning moliyaviy resurslarga bo'lgan talab darajasi ma'lum ma'noda muvofiqlashadi, olingan daromadlar nafaqat xo'jalik faoliyatni qayta moliyalash va tartibga solishga yo'naltiriladi balki turli investitson loyihalarni amalga oshirish, faoliyat turlarini diversifikatsiyalash va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga sarflanadi hamda ushbu jarayonlarni moliyalashtirishning aksariyat qismi o'z manbalari hisobiga ta'minlanadi. Korxonalar moliyasini yanada samarali boshqarish va tashkil qilish, ularda moliyaviy menejment tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy talablaridan biri ham, korxonalarning har bir rivojlanish bosqichini asosiy jihatlari, xususiyatlarini hisobga olish va mukammal o'rganish hisoblanadi.

Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir jihat ularning tashkiliy-huquqiy shakllari hisoblanadi. Bizga ma'lumki, korxonalarning xo'jalik faoliyati yoki tadbirkorlik faoliyat ma'lum bir tashkiliy-huquqiy shaklga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Xorijiy va milliy amaliyotdagi mavjud barcha korxonalarning mulkchilik va tashkiliy shakllari hamda biznes yuritishning turli ko'rinishlari mavjud, ularda ushbu jarayonlarni amalga oshirilish

tizimi, mulkiy egalik qilish va javobgarlik darajalari hamda boshqa jihatlari farqlansada, lekin ularning barchasi quyidagilardan biriga ta'luqli bo'lishi mumkin:

– yakka, yoki shaxsiy egalik (sole proprietorship);
– sheriklik, yoki hamkorlik (partnership);
– aksiyadorlik jamiyati, yoki korporatsiya (corporation).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'zlarining moliyaviy siyosatidan kelib chiqqan holda ularning qanday tashkiliy-huquqiy shaklda faoliyat olib borishlarini belgilaydilar. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, tadbirkorlik faoliyatini yuritishning yuridik shakllari o'rtasidagi asosiy farqlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– daromadlarning taqsimlanishi;
– majburiyatlar bo'yicha javobgarlik;
– risklarning taqsimlanishi;
– tadbirkorlik faoliyati yoki xo'jalik faoliyatini nazorat qilish;
– mulkiy huquqlarni boshqa tomonga o'tkazish;
– moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari.

Shaxsiy egalik, o'z nomidan kelib chiqqan holda, bir kishining shaxsiy mulkka egaligi hisoblanadi. Bunday firma, korxonalarning aktivlari majburiyatlari va daromadlari uning egasini aktivlari, majburiyatlari va daromadlari hisoblanadi. Moliyalashtirish firma egasining o'z mablag'lari hisobiga yoki uchinchi shaxsdan olingan qarz (zaym) mablag'lari hisobigaamalga oshirilishi mumkin. Firma, korxonaning egasi barcha majburiyatlari bo'yicha shaxsan o'zi, mavjud moliyaviy va moddiy resurslari, mulklari orqali javob beradi, faoliyat natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi, ya'ni uning javobgarlik darajasi chegaralanmagan.

Hamkorlik asosida tashkiliy tuzilishga ega korxonalar shaxsiy egalik shakliga asoslangan korxonalardan, ularda mulkdorlarning ya'ni korxona egalarining son jihatdan ko'pligi bilan farqlanadi. Sherikchilikni moliyalashtirish jarayoni sheriklarning o'z mablag'lari hisobiga yoki qarz mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunga asosan, Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Jamiyat qonun hujjatlarida

belgilanmagan faoliyatning har qanday turlarini amalga oshirish bilan bog'ida huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulki bilan javobgar bo'ladi. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'liq ziyonlarni o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida to'laydilar. Aksiyalar haqining hammasini to'lamagan aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. Agar jamiyatning nochorligi (bankrotligi) jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatidagi shaxsning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, mazkur aksiyador zimmasiga jamiyatning mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida tegishli huquq nazarda tutilgan taqdirdagina, aksiyador majburiy ko'rsatma berish huquqiga ega bo'ladi. Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador jamiyatning muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida nochor (bankrot) bo'lib qolishini oldindan bilib, o'z huquqidan uning ana shunday harakatni amalga oshirishini ko'zlab foydalangan holdagina jamiyatning nochorligi (bankrotligi) aksiyadorning harakatlari tufayli vujudga keltirilgan deb hisoblanadi. Davlat va uning organlari jamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydilar, xuddi shuningdek, jamiyat ham davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari sharoitida, korxonalarda moliyaviy menejment tizimini oqilona tashkil etish va takomillashtirish, korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni inobatga olgan holda ustuvor yo'nalishlarni belgilash, istiqbolda strategik maqsadlarga og'ishmay erishish kabilar ko'p jihatdan

moliyaviy menejerning yoki korxonalar moliyaviy faoliyatini boshqarishda mas'ul hodimlarning vazifalari va majburiyatlarini aniqlab olishni ta'qozo etadi. Hozirgi kunda korxonalar faoliyatini samarali boshqarishda moliyaviy menejerlar yoki korxonalar moliya bo'linmalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri korxonalarning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni chuqur o'rganish, iqtisodiyotda ro'y berayotgan barcha o'zgarishlardan doimo xabardor bo'lish hamda korxonalar faoliyatini tashqi iqtisodiy-ijtimoiy muhitga mos holda muvofiqlashtirib borish kabilar hisoblanadi.

## Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy menejmentning asosiy maqsadlarini sanab bering.
2. Moliyaviy menejmentning kompleks vazifalar tizimiga nimalar kiradi?
3. Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy farqli jihatlari nimalarda iborat?
4. Iqtisodiy nuqtai nazardan tadbirkorlik faoliyatini yuritishning yuridik shakllari o'rtasidagi asosiy farqlarni aytib bering.
5. Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'lish kerak deb o'ylaysiz?
6. Xo'jalik subyektlarining moliyaviy mexanizmi deganda nimani tushunasiz?
7. Korxonalar rivojlanish tsiklining asosiy bosqichlarini sanab bering.
8. Biznesni yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari deganda nimani tushunasiz?
9. Moliyaviy menejment tizimida moliyaviy tashhis va nazorat funksiyalarining mohiyatini tushuntirib bering.

# III BOB. KORXONALARDA MOLIYAVIY TA'MINOT JARAYONINI BOSHQARISH

## 1-§. Moliyaviy menejmentning ta'minot tizimi va moliyaviy mexanizm

Korxonalar, firma va kompaniyalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etish va moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalarini amalga oshirishda. Mukammal ta'minot tizimining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy menejmentning ta'minot tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: tashkiliy, huquqiy, uslubiy, axboriy, texnikaviy, dasturiy, tahliliy va bashorat (prognoz).

Moliyaviy menejmentda tashkiliy ta'minot tizimi, korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini tashkil qilish, korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish hamda ushbu qarorlarning ijrosi ta'minlash bo'yicha har bir ichki xizmat bo'limlari va bo'linmalarining javobgarlik darajalarini va vakolatlarini belgilashni nazarda tutadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, moliyaviy menejment tizimi korxonalar umumiy boshqaruv tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Korxonalarni boshqarishni umumiy tamoyillarining aksariyat qismi moliyaviy menejment tizimiga to'g'ri keladi, bunda boshqaruvning quyidagi ikki muhim jihatini inobatga olish zarur: ierarxik va funktsional. Xalqaro va milliy amaliyotda ham boshqaruvning mana shu ikki turi ommalashgan.

Korxonalarda boshqaruvni ierarxik holatda tashkil qilinishi, ularda boshqaruv tizimini turli pog'onalarga ajratishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda korxona, firma va kompaniyalarda boshqaruv tizimi ikki yoki uch pog'onali bo'lib, bunda asosan birinchi pog'onada korxonalarni butun boshqaruv faoliyatining apparati, keyingi pog'onalarda esa uning alohida tarkibiy birliklarida boshqaruv tizimi tashkil qilinadi.

Korxonalarda boshqaruv tizimini funktsional holatda qurilishi, ularda boshqaruv funksiyalari va faoliyat turlari bo'yicha bo'linishiga asoslanadi. Bunda korxonaning alohida yo'nalishlari va faoliyat turlari bo'yicha mas'ul bo'lgan boshqaruv subyektlarining bajaradigan funksiyalari, huquq va majburiyatlari taqsimlanadi. Xalqaro amaliyotda korxonalar moliyaviy faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha javobgarlik markazlari tashkil qilinib, u markazlarga tayinlangan rahbarlar o'zlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda vakolatlari doirasida javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Ushbu javobgarlik markazlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Xarajatlar markazi. Bu yo'nalish bo'yicha tayinlangan mas'ul raxbar yoki menejer, korxonalar tomonidan tasdiqlangan byudjet dasturidan kelib chiqqan holda mablag'larni to'g'ri va oqilona sarflanishi bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi; bu markaz tarkibiga mahsulotni qayta ishlovchi, ishlab chiqarish va boshqa bo'linmalar kiradi.

2. Daromadlar markazi. Bunda ushbu yo'nalish yoki bo'lim bo'yicha mas'ul shaxs, korxonalarning belgilangan miqdorlarda yoki kutilayotgan xajmdagi daromadlarning shakllanishi hamda kelib tushishi bo'yicha kerakli ishlarni, masalan, mahsulotlar realizatsiyasini amalga oshiradi.

3. Foyda markazi korxonalarda rejalashtirilgan foyda miqdoriga erishishni ta'minlash bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

4. Investitsiyalar markazi. Korxonalarga ajratilgan investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va ushbu faoliyatdan ijobiy natijalarga erishish, buning hisobiga ma'lum miqdordagi foydani shakllantirish bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil qilinganligi ma'lum ma'noda ulardagi axborot (informatsion) bazasi va ularning qanday turlaridan foydalanishlariga bog'liqdir. Albatta, har qanday ho'jalik subyektlarining faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularda samarali boshqaruv tizimini tashkil qilish hamda istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarni belgilashda boshqaruv subyektlari, xususan, moliyaviy menejerning axborot ta'minot tizimi yoki zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanishning samarali tashkil qilinganligi muhim va dolzarb hisoblanadi.

Ayniqsa hozirgi kunda mamlakatimiz va jahonda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning yuqori sur'atlar bilan o'zgarayotganligi va takomillashib borayotganligini inobatgan olgan holda ushbu tizim korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatida kundalik zaruriy ehtiyojga aylanib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Moliyaviy menejmentning axborot ta'minot tizimi, tahlil uchun, rejalashtirish va korxona xo'jalik-moliyaviy faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha boshqaruv qarorlarini tayyorlash uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash va to'plash jarayonini o'z ichiga oladi.Korxonalarning xo'jalik-moliyaviy faoliyatining natijalari bilan qiziquvchilar va ulardan foydalanuvchilarning toifasi turlicha bo'ladi, chunki buni o'ziga yarasha ko'plab sabablarini sanab o'tish mumkin; masalan, investitsiyalarni kiritish maqsadida investorlar, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni doimiy to'lanishini o'rganish maqsadida davlat va uning vakolatli organlari, oladigan foydasining xajmini aniqlash uchun aksiyadorlar va ta'sischilar, korxonalar majburiyatlari bo'yicha o'z mablag'larining yetarliligini o'rganish maqsadida turli moliyaviy muassasalar va boshqalar.

Umuman olganda, korxonalarning moliyaviy ma'lumotlaridan foydalanuvchilarni ikki guruhga ajratish mumkin:

– tashqi foydalanuvchilar: kreditorlar, investorlar, soliq organlari, auditorlik tashkilotlari va b.

– ichki foydalanuvchilar: boshqaruv kengashi a'zolari, boshqaruvning barcha toifasidagi menejerlar, korxona egalari va b.

Moliyaviy menejmentda axborot ko'rsatkichlari tizimining shakllanishi har bir korxonalarning tarmoq xususiyatlari, tashkiliy-huquqiy shakllari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi, xo'jalik faoliyatining diversifikatsiyalashuv darajasi va boshqa shartlariga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda moliyaviy menejment axborot bazasining ko'rsatkichlar tizimi alohida guruhlar bo'yicha turkumlanadi (3.1-rasm):

1. Davlatning makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Har bir korxona o'zining istiqboldagi strategik maqsadlarini belgilash va ularni amalga oshirish, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish hamda korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda kelgusida erishiladigan moliyaviy natijalarni bashorat qilishda,

bevosita tashqi iqtisodiy-ijtimoiy muhitdagi holat va ko'rsatkichlar asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– davlat byudjetining daromadlari;
– davlat byudjetining xarajatlari;
– byudjet taqchilligi;
– aholi daromadlarining xajmi;
– banklardagi aholi omonatlari;
– inflyatsiya darajasi;
– Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi.

2. Tarmoqlarning rivojlanishi ko'rsatkichlari. Bu guruhdagi axboriy ko'rsatkichlar tizimidan korxonalarda operativ-moliyaviy faoliyat turlari bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalaniladi. Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy menejerlarning, korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatlarini oqilona boshqarishning muhim omillaridan biri, ushbu tarmoqda faoliyat yuritayotgan raqobatchi korxonalar va kontragentlarining moliyaviy ahvolini keng o'rganish va ularni tahlil qilish hisoblanadi. Moliyaviy menejer tomonidan bu guruhdagi ko'rsatkichlarni o'rganish uchun ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan yoki chop etilgan hisobot, reyting ma'lumotlar, axborot xizmatlari bozorida taklif qilingan pullik biznes-ma'lumotnomalar manba bo'ladi.

3. Moliya bozorining konyunkturasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar. Bu guruhdagi axborot ko'rsatkichlar tizimi korxonalarning uzoq muddatli moliyaviy investitsiya portfelini tuzish, qisqa muddatli kapital qo'yilmalarni amalga oshirish kabi masalalarga doir boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.




*4.1-rasm. Korxonalar axborot bazasini tashkil qiluvchi ko'rsatkichlar*

Bu guruhga quyidagi ko‘rsatkichlar kiradi:

– tijorat banklar tomonidan taklif qilinayotgan kreditlarning o‘rtacha foiz stavkalari;

– tijorat banklar tomonidan taklif qilinayotgan depozitlarining o‘rtacha foiz stavkalari;

– har bir valyuta turi bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan rasmiy valyuta kursi;

– tijorat banklari tomonidan valyuta oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish uchun belgilagan valyuta kursi;

– sug‘urta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan sug‘urta turlari, sug‘urtalash jarayoni va ularni amalga oshirish shartlari;

– fond birjasida alohida turdagi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tuzilgan shartnomalar hajmi va naxlarning darajasi va b.

Bu turdagi ayrim ko‘rsatkichlar moliyaviy menejerning kundalik ehtiyojlaridan biri sanaladi, ushbu axborotlarning manbai sifatida internetdagi maxsus saytlar, kunlik valyuta va fond birjalarida amalga oshirilgan operatsiyalarning natijalari haqida e’lon qilinadigan yangiliklar va boshqalar hisoblanadi.

4. Korxonalarning moliyaviy va boshqaruv hisobi ko‘rsatkichlari. Bu guruhdagi ko‘rsatkichlar tizimi moliyaviy menejmentning axborot asosini tashkil qiladi. Korxonalar xo‘jalik-moliyaviy faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish, hamda tahlil, bashorat (prognoz) va rejalashtirish ishlarini amalga oshirish, bevosita ushbu tizimning ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Bundan tashqari, korxonalarning joriy xo‘jalik-moliyaviy faoliyatni nazorat qilish, moliyaviy imkoniyatlari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash, moliyaviy strategiyalari va siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning amalga oshiradigan aniq funksiyalari va vazifalarini belgilaydi.

## 2-§.Korxonalarda moliyaviy mexanizm va uning asosiy xususiyatlari

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etishda, moliyaviy mexanizm tushunchasi uning moliyaviy menejment tizimidagi o‘rni va ahamiyati, moliyaviy menejmentning mexanizmi, ularning o‘zaro o‘xshashlik tomonlari, hamda bularni moliyaviy

menejerning faoliyatida tutgan o'rniga alohida e'tibor berish lozim. Chunki, bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda korxonalar moliyasini boshqarish, moliyaviy mexanizm yordamida amalga oshiriladi.

Moliyaviy mexanizm – bu moliyaviy munosabatlarni tashkil qilish, moliyaviy resurslarni shakllanishi va foydalanish usullarining yig'indisi bo'lib, jamiyat tomonidan, jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish uchun, qulay shart-sharoit yaratib berish maqsadida foydalaniladi. Moliyaviy mexanizm ham moliya tizimining tuzilishi singari quyidagi ikkita yirik sohaga bo'linadi:

– xo'jalik subyektlarining moliya mexanizmi;

– davlat moliyasining mexanizmi.

Korxonalar moliyaviy mexanizmi – bu moliyaviy resurslardan foydalanish usullari hamda korxonalar moliyasini tashkil qilish shakllari hisoblanadi. Korxona, firma, kompaniyalarda moliyaviy resurslardan foydalanish jarayoniga to'xtaladigan bo'lsak, bunda moliyaviy menejer tomonidan ushbu jarayon, turli moliyaviy usullarni, vositalarni, tamoyillarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy metodlar – bu moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish shakli, uning xo'jalik va ishlab chiqarish jarayoni bilan o'zaro bog'liqligidir. Korxonalarda u yoki bu moliyaviy vositalarni qo'llanilishi yordamida xo'jalik jarayonidagi yuz berayotgan moliyaviy munosabatlarga, moliyaviy resurslarning harakatini boshqarish va moliyaviy ko'rsatkichlarning tahliliy natijalaridan kelib chiqqan holda ulardan foydalanishni samaradorligini baholashga ta'sir ko'rsatish mumkin. Korxonalar moliyasini boshqarishda foydalaniladigan metodlarga quyidagilar kiradi: moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy tahlil, moliyaviy nazorat, investitsiyalash, sug'urtalash, kredit operatsiyalari, narxlarni shakllantirish, soliqlar, hisob-kitoblar tizimi, rag'batlantirish va boshqalar.

Moliyaviy menejmentda moliyaviy vosita deganda, korxonaning har qanday turdagi shartnomalari tushuniladi, qaysiki buning natijasida bir vaqtning o'zida, biron bir korxonada moliyaviy aktivlarning ko'payishi va boshqa korxonada esa moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelishi tushuniladi. Boshqacha aytganda, qarzdorlik bo'yicha guvohlik beruvchi, sotuvchi sotish jarayonida o'zini moliyalashtirishni ta'minlovchi har qanday hujjatdir.

Faqat o‘z mablag‘laridan foydalanuvchi korxona o‘z mablag‘larining) rentabelligini, ularning iqtisodiy samaradorligining 2/3 qismga cheklab qo‘yadi, ya’ni

O‘MR=2/3IR

Bunda O‘MR- o‘z mablag‘larining rentabelligi; IR- iqtisodiy rentabellik

Kredit yoki qarz mablag‘laridan foydalanuvchi korxona o‘z va qarz mablag‘larining nisbati hamda foiz stavkasining darajasiga bog‘liq ravishda o‘z mablag‘larining rentabelligini yo oshiradi yoki kamaytiradi. Bunday sharoitda moliyaviy vosita samarasi vujudga keladi ya’ni

O‘MR = 2/3 IR+MVS.

Bunda MRS- moliyaviy vosita samarasi:

– Moliyaviy vosita samarasi odatda iqtisodiy rentabellik bilan qarzga olingan mablag‘lar «bahosi» (foizning o‘rtacha stavkasi) o‘rtasidagi farq natijasida vujudga keladi.

– Foizning o‘rtacha stavkasini hisoblash uchun quyidagi tenglamadan foydalanish mumkin.

FO‘S = (XMX: QMUS) x 100.

– FO‘S – foizning o‘rtacha stavkasi;

– HMX – Haqiqatdagi moliyaviy xarajatlar (foiz xarajatlari);

– QMUS – qarz mablag‘larining umumiy summasi;

Richag samarasining tarkibiy qismlarini birlashtiramiz va natijada MRS hosil bo‘ladi;

– MRS= 2/3(IR-FS)*QM/O‘M

– Masalan, agar korxonada IR 18%ga, FS 16%ga qarz mablag‘lari 750000 ni, o‘z mablag‘lari 250000 ni tashkil etsa, moliyaviy vosita samarasi;

– MRS= 2/3(18%-16%)750000/250000= 4%

Korinib turibdiki, rivojlangan bozor mexanizmida qarz mablag‘laridan foydalanish yuqori samaraga olib keladi

Moliyaviy vositalar yordamida moliya bozoridagi har qanday operatsiyalar amalga oshiriladi. Korxonalar faoliyatida ularni qo‘llamasdan qo‘shimcha moliyaviy resurslar yoki kapital jalb qilish, moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish, kontragentlar yoki boshqa xo‘jalik subyektlari bilan o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin emas. Moliyaviy vositalar birlamchi va ikkilamchi

turlarga bo'linadi. Birlamchi moliyaviy vositalarga quyidagilar kiradi: joriy operatsiyalar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar, kreditlar, aksiya, obligatsiyalar, va veksellar. Ikkilamchi moliyaviy vositalarga esa: moliyaviy optsionlar, fyucherslar, forvard shartnomlari, foizli va valyutaviy svoplar kiradi. Har qanday jamiyatda korxonalar xo'jalik faoliyatini oqilona tartibga solish va ular faoliyatini samarali yuritish qonuniy va huquqiy me'yorlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bizga ma'lumki, korxonalar moliyaviy faoliyatini yuritish, ya'ni boshqacha aytganda xo'jalik subyektlarining tashkil qilinishidan ularning butun faoliyat davrlarini qamrab oluvchi jarayon bosqichi, davlat tomonidan belgilangan aniq bir chora tadbirlar, dasturlar, qonunlar, yo'riqnomalar va shu kabilar orqali tashkil qilinadi va tartibga solinadi.

**Muzokara va muhokama uchun savollar**

1. Moliyaviy menejmentning tashkiliy ta'minot tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Moliyaviy menejmentning dasturi va axboriy ta'minot tizimining ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
3. Xorijiy davlatlar kompaniyalarida boshqaruv markazlarini tashkil etishning nechta asosiy yo'nalishlari mavjud?
4. Kompaniyalarda foyda va investitsiyalar markazining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
5. Korxonalar moliyaviy mexanizmi deganda nimani tushunasiz?
6. Korxonalar moliyasini boshqarishda moliyaviy usulning o'rni nimadan iborat
7. Korxonalarning moliyaviy faoliyatdan keladigan pul mablag'lari oqimiga nimalar kiradi?

# IV BOB. KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH

## 1-§. Moliyaviy rejalashtirishning iqtisodiy mohiyati va nazariy jihatlari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash korxona, firma va kompaniyalarning xo'jalik-moliyaviy boshqaruv tizimiga yangicha yondoshishni ta'qozo etadi. Korxonalarning iqtisodiy mustaqil va moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishlari, ularda boshqaruvni to'g'ri tashkil qilish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni oqilona yo'lga qo'yish, fan va texnika yangiliklaridan, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, moliyaviy boshqaruv va moliyaviy rejalashtirishni to'g'ri tashkil etilish kabi bir qator omillarga bog'liq. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish; qo'shma korxonalar tuzish, korxonalarni ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, kichik hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bog'liqdir. Har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalarda dastlab ish faoliyatini tashkil etish, kelgusida ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatishni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikka erishishda biznes rejaning o'ni muhim ahamiyat kasb etadi.

Rejalashtirish tushunchasini xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishning obyektiv zarurligi va imkoniyatini anglatuvchi «rejalilik» orqali aniqlash mumkin. Haqiqatdan ham rejalashtirish amaliyotda rejalilikni amalga oshirishni, ya'ni balanslilik (muvozanat) va proporsionallilikka (mutanosiblikka) erishish bo'yicha ongli faoliyatni bildiradi. Shu ma'noda, balanslilikni (muvozanatni) va prorporsionallilikni ta'minlashga qaratilgan faoliyatga moliyaviy rejalashtirish deyiladi.

Bunda balanslilik davlatning ixtiyorida bo'lgan moliyaviy resurslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyorida (qo'lida)

olgan daromadlar o‘rtasidagi optimal nisbatni bildiradi. Proportsionallik esa korxonalar, xo‘jalik tarmoqlari, mintaqalar va davlat subyektlari bo‘yicha daromadlarning soliq to‘languncha va soliq to‘langandan keyingi miqdorlari o‘rtasidagi oqilona nisbatdan iborat. Ana shu nisbatni ko‘paytirish yoki kamaytirish orqali davlat ularning rivojlanishini rag‘batlantirish yoki cheklab qo‘yishi mumkin.

R.Breyli va S.Mayersning fikricha moliyaviy rejalashtirish jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:[1]

- investitsion imkoniyatlarning tahlili va korporatsiya ixtiyoridagi mablag‘lardan moliyalashtirish imkoniyatlarining tahlili;
- qabul qilinayotgan qarorlarning oqibatlarini bashoratlash yoki oldindan ko‘ra olish;
- bir nechta variantlardan eng oqilona qabul qilingan qarorlarning rejaga kiritilishini asoslay olish;
- rejada belgilangan ko‘rsatkichlar bilan korporatsiyalar tomonidan erishilgan natijalarning nisbatini baholash.

Umumiy va oddiy ko‘rinishda, moliyaviy rejalashtirish deyilganda moliyaviy rejalarni tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, xuddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o‘zaro bog‘lash tizimi sifatida qarash kerak. Amaliyotda tez-tez foydalaniladigan rejalashtirish ma’lumotlarini, masalan, korxona faoliyatining shakliy modelini ishlab chiqish va shu asosda moliyaviy ko‘rsatkichlarning rejali tizimini aniqlashni, moliyaviy rejalashtirishning ishchi chizmasi sifatida qarash mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki,moliyaviy rejalashtirish jarayonida u yoki bu subyekt faoliyat ko‘rsatishi moliyaviy ta’minlanishining hayotiyligini oshiruvchi noshakliy omillar inobatga olinishi kerak.

Moliyaviy rejalashtirish tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish; jalb qilingan mablag‘lar va vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirish menejmenti va b.

---

[1] Бочаров В., Леонтьев В. Корпоративные финансы. – СПБ.: Питер, 2004. – 592 с.

Quyidagilar moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatlarni kerakli bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- pul mablag'laridan iqtisod qilib, tejab-tergab foydalanish hisobidan korxonaning foydasini oshirish bo'yicha ichki rezervlarni qidirib topish;
- kapitalni samarali joylashtirish yo'llarini aniqlash, undan oqilona va samarali foydalanishni baholash;
- kontragentlar bilan optimal moliyaviy munosabatlar o'rnatish;
- korxonaning moliyaviy ahvoli, to'lovga qobilligi va kreditga layoqatliligi ustidan nazorat o'rnatish.

Bozor munosabatlariga o'tilganiga qadar moliyaviy rejalashtirishning mazmuni korxonalarda sof operativ vazifalarni – markazlashtirilgan iqtisodiyot amal qilganligi uchun yetarli darajada formal bo'lgan korxonalarning besh yillik moliyaviy rejalaridagi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, istiqbolga mo'ljallangan rejalarning loyihasini baholash, korxonaning yillik moliyaviy rejalarini tuzish kabilarni hal etishga qaratilgan edi. Bunday amaliyotning hukm surganligi korxona moliyaviy xizmatlarining obro'yiga obro' qo'shmas, chunki ularga hech narsa bog'liq emas edi. Bozor iqtisodiyotida moliyaviy xizmatlarning roli tubdan o'zgaradi. Ular korxona rivojlanishini faol va ta'sirchan boshqaradi va birvaqtning o'zida, shu rivojlanishning yo'nalishi va sifatini nazorat qiladi. Hozirgi sharoitdagi moliyaviy rejalashtirish barcha zaruriy harakatlarni oldindan ko'ra bilishgina emas. Bu tegishli ishlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday kutilmagan holatlarni ko'ra olish qobiliyati hamdir.

Albatta, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatidagi barcha risklarga barham beraolmaydi. Lekin u ana shu risklarni samarali oldindan ko'ra bilish yordamida boshqarish imkoniyatiga ega. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining quyidagi asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini tadqiq etish;

- operativ rejalarning o‘zgarishi asosida moliyaviy hisobotlarning bashorat variantlarini ishlab chiqish;

- o‘z reja topshiriqlarining bajarilishini ta’minlash uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarga bo‘lgan amaldagi ehtiyojlarini aniqlash;

- moliyalashtirish manbalari (shu jumladan, o‘z va tashqi manbalarning) va ularning tarkibiy tuzilishini bashoratlash;

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarish tizimini yaratish va uning ushlab turishi (qo‘llab-quvvatlash);

- shakllantirilgan rejalarni operativ o‘zgartirish tartibini ishlab chiqish.

Moliyaviy rejalashtirishni quyidagi ikki asosiy turga bo‘lish mumkin:

– strategik moliyaviy rejalashtirish o‘z ifodasini strategik moliyaviy rejalarda topadiki, u tashqi va ichki muhitda o‘zgarayotgan xo‘jalik yuritish subyekti moliyaviy taraqqiyotining ko‘p variantli bashoratidan iboratdir;

– strategik moliyaviy reja, hech bo‘lmaganda, quyidagi savollarga aniq javob bermog‘i lozim: xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun talab qilinadigan kapitalning miqdori qanday, u qaysi manbalar hisobidan va qanday muddatlarda jalb qilinadi bu kapitaldan qanday foydalaniladig‘ o‘z kuchiga ishongan holda xo‘jalik yurituvchi subyekt rivojlanishi mumkin. Agar mumkin bo‘lmasa, moliyaviy resurslarni jalb qilishning manbalari qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt pul mablag‘lari tushumi, ishlab chiqarishning rentabelligi va investitsiyalar daromadliligining qanday darajalariga chiqishi mumkin va qanday muddatlarda?

O‘z navbatida, joriy moliyaviy rejalashtirishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

– ishlab chiqarish, investitsion, marketing, ilmiy-loyihaviy va qidiruv faoliyatlarini hamda sotsial loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning hajmi va ularning manbalarini aniqlash;

– mahsulotni (ishni, xizmatni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish tannarxini rejalashtirish;

– pul oqimlarini rejalashtirish;

– butun xo‘jalik yurituvchi subyekt doirasida foydani rejalashtirish (bashoratlash);

– investitsiyalarning daromadliligini rejalashtirish.

– Ma’lum bir muddatni qamrab olishiga qarab, moliyaviy rejalar quyida ikki guruhga bo‘linishi mumkin:

Uzoq va qisqa muddatli moliyaviy rejalar bir-birlaridan nafaqat o‘zining qamrab olish ko‘lami bo‘yicha, balki rejalashtirish maqsadlariga ko‘ra ham farqlanadi. Agar uzoq muddatli moliyaviy rejalarning (rejalashtirishning) bosh maqsadi moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan firma kengayishining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan sur’atlarini aniqlash bo‘lsa, qisqa muddatli moliyaviy rejalarning (rejalashtirishning) bosh maqsadi firmaning doimiy to‘lovga qobilligini ta’minlashdan iboratdir.

Alohida olingan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy rejasi unga tegishli bo‘lgan biznes-rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda marketing, operativ faoliyat, mulkka egalik huquqi va korxona faoliyat ko‘rsatishining boshqa yo‘nalishlari qiymat ko‘rsatkichlarida ifodalanadi. Moliyaviy reja korxona butun faoliyatini moliyaviy jihatdan ta’minlash vositasi sifatida maydonga chiqadi va bir vaqtning o‘zida, shu faoliyatning moliyaviy natijalarini xarakterlaydi. Biznes-rejaning tarkibida moliyaviy reja quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqiladi:

- bozorlarni va ko‘zda tutilayotgan sotuvlar hajmini o‘zlashtirishning loyihaviy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;

- tannarxning turli ko‘rinishlarini (to‘liq, ishlab chiqarish, to‘g‘ri va b.) hisob-kitob qilish. Bu yerda marketing tadqiqotlari, reklama, bozorlarni o‘zlashtirish xarajatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi;

- pul mablag‘larining yillik oqimini loyihalashtirish va moliyaviy natijalarni aniqlash. Bu tushumlarning kelib tushishi, debitorlik va kreditorlik qarzlarining o‘zgarishi, soliq to‘lovlarini optimallashtirish va boshqalar bo‘yicha dinamikalarning bashorat qilinishini taqoza etadi. Shu yerning o‘zida foydaga oid hisob-kitoblar korxonaning istiqboldagi salohiyati bilan, shuningdek biznes-rejaning boshqa bo‘limlarida aniqlanadigan cheklanmalar bilan muvofiqlashtirilishi kerak;

- zaruriy investitsiyalarning hajmi, ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha moliyaviy resurslarning hajmi, ularning samaradorligi va foydaga ta'sirini aniqlash va boshqalar.

Umuman olganda, moliyaviy rejalarning ko'rsatkichlari davlatning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun boshlang'ich material hisoblanadi, istiqboldagi (istiqbol uchun) rejalashtirishning informatsion asosi bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy rejalar tizimi moliyaviy resurslar manbalarining (jismoniy va yuridik shaxslar daromadlari) tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarning obyektiv ravishda o'zaro bog'liqligi va uzoq muddatli tendentsiyalarini, shuningdek, kelajakda bu tendentsiyalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashga imkon beradi.

Moliyaviy rejalashtirishni moliyaviy bashoratlashsiz tasavvur etib bo'lmaydi. U yoki bu davr mobaynida davlatning mumkin bo'lgan moliyaviy ahvolini oldindan ko'ra bilish va moliyaviy rejalarning ko'rsatkichlarini asoslashga moliyaviy bashoratlash deyiladi. Nazariya va amaliyotda moliyaviy bashoratlash ikkiga ajratiladi:

- o'rta muddatli (5-10-yillik);
- uzoq muddatli (10-yildan ortiq).

Moliyaviy bashoratlash moliyaviy rejalarni tuzish bosqichidan oldin sodir bo'ladi. Unda jamiyatning ma'lum bir davrdagi taraqqiyotiga bag'ishlangan moliyaviy siyosatning konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Moliyaviy bashoratlashning bosh maqsadi bashoratlanayotgan davrda haqiqatda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning real hajmi, ularni shakllantirish manbalari va ulardan foydalanishni aniqlashdan iborat. Moliyaviy bashoratlar moliya tizimi organlariga moliya tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning, moliyaviy siyosatni amalga oshirish shakllari va metodlarining turli-tuman variantlarini belgilashga imkon beradi. Shu ma'noda, moliyaviy bashoratlar moliyaviy siyosatni ishlab chiqishning zaruriy va bir vaqtning o'zida muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Ular yordamida moliya tizimning barcha subyektlari oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechishning turli variantlari ishlab chiqiladi. Demak, korxonalarda istiqbolli moliyaviy rejalashtirish jarayonlarini ishlab chiqishda bashoratlash

tizimiga, xoh makroiqtisodiy xoh mikroiqtisodiy nuqtai nazardan alohida e'tibor qaratish lozim.

## 2-§. Moliyaviy rejalashtirishning uslubiy asoslari va tamoyillari

Korxonalarda korporativ moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishda asosiy e'tiborli jihatlardan biri, uning uslubiy asoslari va tamoyillarini to'g'ri o'rganish hisoblanadi. Ishimizning ushbu paragrafi doirasida moliyaviy rejalashtirishning asosiy xususiyatlarini tadqiq etamiz.

Iqtisodchi olimlar F.Li Cheng va D.I. Finnertilarning fikricha, korporativ moliyaviy rejalashtirish dividend, moliya va investitsiya siyosatini tahlil qilish, pirovard natijalarini bashorat qilish, ularni korporatsiyalar iqtisodiy muhitiga ta'siri oqibatlari va loyihalarni tanlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonlari tushuniladi[2].

Rus iqtisodchi olimi I.Y.Lukasevichning fikricha korporativ moliyaviy rejalashtirish jarayoni quyidagi mexanizm orqali amalga oshiriladi (4.1-rasm).

Rejalashtirish metodlari, bu – iqtisodiyotni boshqarishning turli bo'g'inlarida, jumladan, korxonalarni boshqarishda rejalarni ishlab chiqish usullari majmuasidir. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'z faoliyatini rejalashtirishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Biroq bu rejalashtirishning tekshirib ko'rilgan va foydali usullaridan voz kechishni anglatmaydi. Bugungi sharoitda ham korxonalar faoliyatini rejalashtirish texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar, progressiv norma va normativlar, iqtisodiy tahlil, muqobil variantlarni tanlashga asoslanadi.

Yuqorida rasmdan ko'rinib turibdiki, moliyaviy rejalashtirish usullari xilma-xil bo'lib, quyida biz ularning ayrimlariga to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

---

[2]Бочаров В., Леонтьев В. Корпоративные финансы. – СПБ.: Питер, 2004. – 592 с.




*4.1-rasm. Korporatsiyalarda moliyaviy rejalashtirish jarayoni*

Rejalashtirishning eng ko'p tarqalgan usullari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtsiodiy tahlil, balansli hisob-kitoblar va pul oqimlari usuli, normativ, ko'p variantlilik, iqtisodiy matematik modellashtirish usuli va boshqalar (4.2-rasm).




***4.2-rasm. Moliyaviy rejalashtirishda foydalaniladigan metodlar (usullar)***

Hozirgi paytda balans usulining ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu usulning mohiyati, o'zaro aloqada bo'lgan ko'rsatkichlarni solishtirish bilan ifodalanadi. Balans usuli asosida korxonaning

ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish quvvatiga bo'lgan talablari va ularning manbalari aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda moddiy balans, ishlab chiqarish quvvatlari balansi, ishchi kuchi balansi, ish vaqti balansi, qiymat balansini ajratib ko'rsatish mumkin. Balanslar, qoidaga ko'ra, ehtiyojlar va ularga mos keluvchi resurslarning mavjudligi yoki manbalarini o'z ichiga oluvchi, o'zaro moslashuvchi jadval shaklida tuziladi.

Balans usuli normativ usuli bilan birgalikda qo'llanadi. Normativ usulida resurslarni sarflashning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori va eng quyi chegaralari aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etishda norma va normativ kabi tushunchalardan foydalaniladi.

Norma (me'yor) bu – belgilangan sifatdagi mahsulot birligi (ish, xizmat) tayyorlash uchun sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan foydalanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal yoki minimal chegarasidir. Agar resurslardan foydalanish normalarini kamaytirish mahsulot sifatining pasayishiga yoki belgilangan standartlar talablarining buzilishiga olib keladigan bo'lsa, u holda bu normalarni kamaytirish mumkin emas.

Normativ bu – nisbiy kattalik bo'lib, asosan foizlar yoki koeffisiyentlar yordamida aks ettiriladi. U mehnat vositalari va predmetlaridan foydalanish darajasini, ularning har bir maydon birligi, og'irlik birligi, hajm birligiga sarflanishini tavsiflab beradi. Masalan, asosiy fondlarning birlik qiymatiga mahsulot ishlab chiqarish (fond qaytimi), sutning moylilik, vinoning spirtlilik darajasi (foizlarda), avtomashinaning bosib o'tgan yo'li, avtomobil shinasining ekspluatatsiyasi va hokazo. Norma va normativlar progressiv tavsifga ega bo'lishi, ya'ni ularni ishlab chiqishda zamonaviy fan, texnika va texnologiya rivojlanishining darajasi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hamda ilg'or korxonalarning tajribalarini hisobga olish zarur. Shuningdek, ular doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi, eskirgan norma va normativlar yangi, xo'jalik hayoti va davr talablariga javob beruvchi norma va normativlar bilan almashtirilishi lozim.

Norma va normativlar quyidagi guruhlar asosida ishlab chiqiladi:

- tirik mehnat xarajati normalari (mahsulot birligiga sarflanuvchi ish vaqti normasi, vaqt birligida ishlab chiqarish normasi, xizmat ko'rsatish normasi, miqdor normativi);
- moddiy xarajat normalari (xom-ashyo, material, yoqilg'i, energiya, butlovchi qismlar);
- ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish normativlari (ishlab chiqarish jarayonning davomiyligi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish zahiralari va h.);
- mehnat vositalaridan foydalanish normalari (mashinalar, asbob-uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar);
- korxona, sex, asbob-uskunalarning loyiha quvvatiga chiqish vaqti normalari.

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirish juda murakkab va ko'p mehnat talab jarayon bo'lib, korxona faoliyatining resurslar xarajatini normalashtirishdan to mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishgacha barcha ko'rsatkichlarini inobatga oladi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va ratsional boshqarish tizimi hamda maksimal ravishda qulay sharoitlarni yaratmoqda. Bunday sharoitlarda rejalashtirish bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qilishi lozim. Korxona faoliyatini umuman emas, balki har bir muayyan holdagi vazifalarni hal qilishga yo'naltirgan holda rejalashtirish zarur. Buning uchun rejalashtirishning ilmiylik, komplekslilik, uzluksizlik, optimallik, moslashuvchanlik kabi tamoyillariga tayanish zarur.

Korxona, ayniqsa, agar u yirik bo'lsa, asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi sexlardan iborat bo'lib,ularning har biri faqat o'ziga xos bo'lgan vazifani bajaradi va shunga mos holda faoliyatni rejalashtirish va tartibga solishning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda etakchi bo'g'inni ajratib ko'rsatish rejalashtirishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bunda korxonaning asosiy ishlab chiqarish vazifalari bajarilishini ta'minlovchi bo'linmasini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Masalan, bunday bo'g'in sifatida mashinasozlik zavodida

yig‘uv sexi, to‘qimachilik kombinatida yigiruv va to‘quv sexlari, qandolatchilik fabrikasida tayyor masulot sexini ko‘rsatish mumkin.

Yetakchi bo‘g‘inni ajratib ko‘rsatish korxonaning barcha bo‘linmalarini birgalikda rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Chunki busiz rejalashtirish bir tomonlama bo‘lib qolishi hamda ishlab chiqarishni tashkil etishda «tor joylar» va disproporsiya vujudga kelishi mumkin. Shu sababli korxona faoliyatining iqtisodiy-ishlab chiqarish rejasi ko‘rsatkichlari va bo‘limlarining o‘zaro aloqada bo‘lishini hamda kompleks rejalashtirishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ham rejalashtirishning balans usuli katta ahamiyatga ega.

Rejalashtirishning yana bir muhim tamoyili ilmiylik bo‘lib, u avvalo tayyorlanayotgan rejalar va ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlariga, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti talablari, raqobatchilik va bozor talablarini hisobga olishga asoslanadi. Rejalashtirishning ilmiyligi, jonli mehnat va mahsulotga aylangan mehnat xarajatlarining eng kam miqdorida iloji boricha yuqori natijalarga erishishga, shuningdek, korxona xodimlari manfaatdorligini oshirishga ko‘maklashadi. Komplekslilik tamoyili ishlab chiqarishni, birinchidan, zamon va makonda, ikkinchidan, ishlab chiqarishni boshqarishning gorizontal va vertikalida, uchinchidan, ishlab chiqarishning resurs asoslarini ta’minlashda, to‘rtinchidan, ishlab chiqarishdagi «tor joylarni» hisobga olish va ularni yo‘qotish chora-tadbirlarida, beshinchidan, xodimlarning o‘z mehnatlari natijasidan moddiy va ma’naviy qoniqishida, oltinchidan, korxonaning mo‘ljallanayotgan daromad yoki foyda olishini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Proporsionallik nafaqat ishlab chiqarishni rejalashtirishda, balki ishlab chiqarishni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur proporsiyalarga amal qilish ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining sexlar va ish joylari bo‘yicha hamda ishlab chiqarish bosqichlarida to‘g‘ri taqsimlanishiga va ulardan to‘g‘ri foydalanishga ko‘maklashadi. Proporsiyalarga amal qilmaslik esa, aksincha, ishlab chiqarishning ba’zi uchastkalarda kuchayib, boshqalarida pasayishiga, ya’ni disproporsiyalarning vujudga kelishiga hamda korxonalarning nomaqbul tarzda faoliyat yuritishiga sabab

o'ladi. Zaruriy proporsionallikni ta'minlashda ishlab chiqarishni tashkil etishni texnik-iqtisodiy normalashtirish katta rol o'ynaydi.

Rejalashtirishning uzluksizligi ishlab chiqarishni va umuman, korxona faoliyatini tashkil etishning muhim tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil amalda joriy rejalarning istiqboldagi rejalar bilan, istiqboldagi rejalarning esa bashoratlar bilan bog'liq bo'lishida o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirish qisqa muddatli tavsifga ega bo'lgan indikativ reja tabiatiga mos kelmovchi, yanvardan martgacha yoki martdan dekabrgacha, ya'ni «...dan» «...gacha» tamoyili asosida amalga oshirilmasligi lozim. Rejalashtirishning «...dan» «...gacha» tamoyilini inkor qilganda biz avvalo vaqt bo'yicha rejalashtirish uzilishining oldini olishni ko'zda tutamiz. Masalan, o'sha indikativ reja o'z davomiga ega bo'lishi, ya'ni korxona o'z faolitini yanvar-mart oylariga rejalashtirganda keyingi davrlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vazifalarni ham, albatta, bozor kon'yunkturasi, iste'molchilar manfaati va ishlab chiqarish holatlarining o'zgarishini ko'zda tutishi lozim. Bu vazifa asosan-yil davomida amalga oshiriluvchi rejalarni aniqlashtirish va muayyanlashtirish yo'li bilan bajariladi.

Optimallik ham rejalashtirish tamoyillari qatoriga kiradi. Rejalar barcha ishlab chiqarish resurslaridan chiqitlar va yo'ldosh mahsulotlardan keng foydalanishni inobatga olgan holda iloji boricha unumli foydalanishni ta`minlashi hamda yuqori natijalarga erishish uchun eng samarali yo'llarni tanlashi kerak.

Rejalashtirishning optimalligiga iqtisodiy-matematik usullar va elektron hisoblash mashinalarini qo'llash, rejalarning bir nechta variantlarini ishlab chiqish yordamida erishiladi. Ko'p variantlilik eng tejamli reja varianti yoki korxona faoliyati dasturini tanlashga imkon yaratadi.

Moslashuvchanlik rejalashtirishning bozor sharoitlaridagi muhim tamoyili hisoblanadi. U ishlab chiqarish rejalariga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, iste'molchilar va xaridorlar talablarini hisobga olish, ishlab chiqarishning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pasayishi va inqirozlarning oldini olishga yordam beradi. «Korxonalar to'g'risida»gi qonun ishlab chiqarishni rejalashtirishda ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratadi.

Biroq hech qanday tamoyil, jumladan, yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar ham, o'zidan o'zi, ya'ni shu tamoyillar uchungina kerak emas. Agar amaliyotda qo'llanmasa bu tamoyillar faqat qog'ozda qolib ketishi yoki oddiy chaqiriq bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli korxona rahbarining rejalashtirish jarayonini, aniqrog'i, rejaning bajarilishi hamda rejalashtirishning belgilangan va boshqa tamoyillari qanday aks ettirilganligini nazorat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat kerakli natijalarga erishish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan disproporsiyalarni aniqlash va ularning oldini olish, shuningdek, zahiralarni aniqlash va ulardan foydalanish yo'llarini belgilashga imkon berdi. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning istalgan turi korxona faoliyatining biron-bir jihatini aks ettiruvchi, umumiy va xususiy, sifat va miqdor ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Bulardan tashqari ayrim iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy rejalashtirishning quyidagi asosiy tamoyillarini ham keltirib o'tadi.

– rejalashtirish (boshqarish)ning umumiy tizimga integratsiyalashuvi tamoyili va korxona rivojlanishining missiya va umumiy strategiyaga bo'ysunishi;

– muddatlarning o'zaro moliyaviy nisbatdagi munosabati tamoyili – moliyaviy mablag'larning qabul qilinish va foydalanilish belgilangan muddatlarda sodir bo'lishi kerak, ya'ni uzoq muddatlarda o'zini qoplaydigan kapital qo'yilmalarni uzoq muddatli qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish;

– to'lovga layoqatlilik tamoyili – pul mablag'larining rejalashtirilishi yilning istalgan vaqtida korxonaning to'lovga layoqatliligini ta'minlashi kerak. Ushbu holatda korxona, qisqa muddatli majburiyatlarni so'ndirishni ta'minlash uchun, yetarlicha likvidli asosiy vositalarga ega bo'lishi;

– kapital qo'yilmalarning rentabellik tamoyili – kapital qo'yilma uchun mavjud moliyalashtirish usullari (moliyaviy lizing, bank investitsion krediti, loyihaviy moliyalashtirish va boshqa usullar) dan arzonroq usulni tanlash;

– risklarning balanslashganligi tamoyili – uzoq muddatli alohida riskli investitsiyalarni o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;

– bozor talabi (ehtiyoji)ni hisobga olish tamoyili – korxona uchun bozor kon'yukturasini, uning hajmi va undagi raqobatchilar faoliyatini hisobga olish;

– haddan tashqari rentabellik tamoyili – minimal risklarda maksimal sermahsullik (foydalilik) ni ta'minlaydigan mablag'larni moliyalashtirish yo'nalishini tanlash.

Umumiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar korxonada ishlab chiqarish rivojlanishining yo'nalishi va darajasini aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi, mehnat, tannarx va jamg'armalar bo'yicha ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Xususiy ko'rsatkichlar umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosini tashkil qiluvchi alohida unsurlarni, masalan, material, yoqilg'i, energiya va shu kabilarning mahsulot tannarxidagi salmog'ini tavsiflaydi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar darajasiga ta'sir o'tkazuvchi alohida omillarni ham tavsiflab beradi. Masalan, yordam ko'rsatuvchi ishchilar salmog'ining mehnat, ishlab chiqarishi darajasiga ta'siri; asbob-uskunalarni ish bilan ta'minlash koeffisiyentining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va korxona ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'siri; xom-ashyo va materiallardan foydalanish koeffisiyentining mahsulot tannarxi pasayishiga ta'siri va h.

Umumlashtiruvchi hamda xususiy ko'rsatkichlar ikkita kategoriyaga - mutloq (absolyut) va sifat (nisbiy) kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

Miqdor ko'rsatkichlari korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatini hajm o'lchamida izohlaydi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, ishlayotgan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi, mashina va asbob-uskunalar parki, ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan materiallar miqdori, sex hamda ish joylari soni va hokazolarni kiritish mumkin.

Sifat ko'rsatkichlari korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidagi o'zgarishlarni nisbiy kattaliklar: mehnat mahsuldorligining o'sishi, mahsulot tannarxining bazis davrga (yoki reja hisobotiga) nisbatan foizlarda kamayishi, mahsulotning to'liq tannarxiga nisbatan

foizlarda daromad hajmi, korxona rentabellik darajasining o'sishi va shu kabilar yordamida tavsifladi.

Sifat ko'rsatkichlari aksari hollarda pul qiymatida ifodalanishi sababli, korxonalarning xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish amaliyotida asosiy va aylanma fondlar, asbob-uskunalar, sarflanayotgan yoqilg'i, energiya va boshqa materiallar kabi qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxona faoliyatida qo'llaniluvchi turli xildagi vositalarni statistika va dinamikada taqqoslash imkonini beradi. Bundan tashqari, soliqlar va turli xil to'lovlar hamda korxona daromadi foizlardan tashqari pul ko'rinishida ham o'lchanadi. Korxona faoliyatini rejalashtirish korxona va uning bo'linmalari faoliyatini tahlil qilishdan boshlanishini aytib o'tish muhim. Mazkur tahlil davomida rejaning sifat, miqdor va qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha bajarilishiga baho beriladi hamda talofat va yo'qotishlar aniqlanib, korxona faoliyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Aynan shu chora-tadbirlar va yangi maqsadlardan kelib chiqqan holda joriy rejalashtirish amalga oshiriladi hamda yangi reja davriga korxona faoliyati rejalari ishlab chiqiladi.

## 3-§. Korxonalarda korporativ baholash amaliyoti va axboriy nazorat tizimlarini joriy etish

Korxona moliyaviy menejerlari korporativ moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish jarayonida korporativ baholash usullaridan foydalanish va uni tahlil qilishi lozim bo'ladi. Korporativ baholash deyilganda korxonalarning mavjud moliyaviy resusrlarining foydalilik darajalarini baholash asosida kelajakdagi qiymatini aniqlash tushuniladi.

Korxonalarda korporativ moliyaviy rejalashtirish jarayonini tashkil etishning muhim jihatlaridan biri korporativ baholash hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda korporativ baholashning quyidagi ikki xil modelidan foydalaniladi:

1. CAPM (Capital Asset Pricing Model) – kapital aktivlarning qiymatini baholash modeli.

2. WACC (Weighted Avarage Cost of Capital) – kapitalning o'rtacha tortilgan qiymatini baholash modeli

CAPM modeli kapital aktivlarni baholash modelidir. Buning ma'nosi shuki, korxona yoki korporatsiya kelajakda qanday daromadga erishishi prognoz qilinib, uning aktivlari qaralayotgan holda baholanadi va quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$RR(CAPM) = R_f + (R_m - R_f) \times \beta$$

Bunda: β – korporatsiyaning risk indeksi;
$R_f$ – risksiz qaytim;
$R_m$ – bozor risk premiumi;

WACC modeli kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati modelidir. U quyidagi tenglama orqali topiladi.

$$RR(WACC) = \frac{D}{D+E} \times C_D \times (1-T) + \frac{E}{D+E} \times C_E$$

Bunda: D – qarz mablag'lari ulushi;
E – o'z mablag'lari ulushi;
$C_e$ – o'z mablag'lari narxi;
$C_d$ – qarz mablag'lari narxi;
T – korporatsiya soliq stavkasi.

Korporativ baholashning asosiy vazifalaridan biri, bu – mavjud moliyaviy risklilik darajasida xususiy kapital rentabellik darajasini maksimallashtirish hisoblanadi hamda vazifa bir qancha metodlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu metodlarni biri moliyaviy leverij hisoblanadi. Moliyaviy leverij xususiy kapital rentabelligi koeffisiyenti o'zgarishiga ta'sir qiluvchi korxona qarz manbalaridan foydalanishni korsatadi va u moliyaviy leverij effekti ko'rsatkichi bilan tavsiflanadi:

MFE = (1-fS)*(AYaRK- KF)*QK/XK

Bu yerda: fS –foyda solig'i
AYRK – aktivning yalpi rentabellik koeffisiyenti;
KF – kredit foizlari;
QK – qarz kapitali;
XK – xususiy kapital.

Masalan: kompaniya aksiyadorlari yiliga 5% miqdorida daromad kutishadi (va kompaniya shu yo'l bilan 60% kapitalni shakllantirmoqchi); kompaniya obligatsiyasini sotib oluvchilar 3%

miqdorida *belgilangan* daromadni kutishadi. Korxonalarga foyda (daromad) solig'i joriy-yil uchun 35%. Kompaniyaning o'rtacha tortilgan kapital bahosi(qiymati)ni hisoblang.

$$WACC = r_{debt}(1 - T)\frac{D}{V} + r_{equity}\frac{E}{V}$$

Tenglamaga asoslangan holda quyidagi natijani olishimiz mumkin:

WACC=0.03(1-0.35)*(0.4/1.00)+0.05*(0.6/1.00)=0.0378 yoki 3.78%

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, korporativ moliyaviy rejalashtirishni samarali tashkil etishda dividend siyosati va uni ishlab chiqish mexanizmi muhim sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda quyida ushbu yo'nalishning ayrim jihatlariga to'htalamiz. Hozirgi kunda dividendlarni reinvestitsiya qilish rejasi ko'p korxonalar tomonidan aksiyador taklif etilmoqda. Bu reja, aksiyadorlar o'zlarining dividendini avtomatik ravishda reinvestitsiya qilishlari mumkinligini nazarda tutadi. Ushbu rejalarning qatnashchilari korxonalarda har xildir, chunki aksiyadorlar olgan dividendlarini o'z xohishlariga binoan pulda olishlari yoki ularni reinvestitsiya qilishlari mumkun. Dividend siyosatining faktorlari. Dividend to'lash siyosatiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- imtiyozli aksiyalar bilan bog'liq cheklovlar. Korxona imtiyozli aksiyalar bilan hisob-kitob qilmagunga qadar oddiy aksiyalar dividendini to'lab bermaydi.

- kapitalning erroziya qoidasi. Dividendlarning umumiy summasi, balansda ko'rsatilgan taqsimlanmagan foydaning summasidan oshib ketmasligi lozim.

- naqd pullarning mavjudligi. Pulli dividendlar naqd pulda to'lanishi mumkin. Bu esa bankda hisob raqamda turgan pullar yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin va dividend to'lashni cheklashi mumkin. Ammo, foydalanilmagan zayom potensiali ushbu kamchilikni qoplab ketadi.

- noto'g'ri jamg'arilgan daromad uchun jarima solig'i. Boy fuqaro jamg'argan daromadidan soliq to'lamaslik uchun korporatsiyalardan foydalanishlari mumkin. Shunga ko'ra ko'p mamlakatlar, masalan, AQShda noto'g'ri jamg'arilgan daromadga qarshi qonunlar mavjud. Agar, soliq xizmati aksionerlarni ortiqcha

soliq yukidan ozod qilish uchun korxona divedendni atayin pasaytirib yozilganini asoslab bera olsa, korxonaga juda katta miqdorda jarima solinadi.

Aksiyalarni qayta sotib olish. Korxona aksiyadorlardan aksiyalarini dividend to'lamasdan ularni qisman sotib olishi mumkin, bu aksiyalar portfeli deyiladi. Aksiyalarni sotib olish jarayonida ularning muomaladagi hajmi kamayadi. Agar, bunday harakat korxonaning daromadiga zarar yetkazmasa, u holda bir dona aksiyadan qoladigan foyda ham oshadi, bu esa aksiyani bozor narxini ko'tarilishiga olib keladi. Ushbu holatda dividend kapitalning osishi bilan almashayotganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan: Korxona 44 mln. so'm daromad olish niyatida, summani 50%i(22 mln. so'm) oddiy aksiya egalari oldida taqsimlanishi mo'ljallangan. Muomalada 1 100 000 dona aksiya mavjud. Korxona 22 mln. so'mni 100 000 dona aksiyasini xarid qilishga ishlatishi mumkin, ularga 1 dona aksiya uchun 220 so'm taklif qilishi, yoki 20 so'mdan har bir aksiyaga dividend to'lashi mumkin. Aksiyani joriy bahosi 200 so'm. EPS (bitta aksiyaning qiymati)ni aksiyalarni qayta sotib olishga ta'sirini quyidagicha aniqlaymiz:

*EPC ningjoriyqiymati = Umumiy daromad / Aksiyalar soniga = = 44 mln. so'm / 1.1 mln. = 40 so'm.*

*P/Ening joriy qiymati = 200 so'm / 40 so'm = 5 (o'zgarmay qoladi).*

*EPC100 000 dona aksiya sotib olingandan keyin = 44 mln. so'm / 1 mln = 44so'm.*

*100 000 dona aksiyani sotib olgandan keying kutilayotgan aksiyalarning narxi = EPC * (P/E) = 44 * 5 = 220 so'm.*

Shunday qilib investorlar aksiyalaridan 20 so'm daromadni dividend ko'rinishida yoki aksiyalarni narxini oshishidan olishadi.

Amaliyotda har xil nazariyalarni ishlatish dividend siyosatini 3 xil asosiy ko'rinishda shakllanishiga sabab bo'ldi:

– Konservativ;

– Kompromiss;

– Agressiv.

Iqtisodiy kategoriya sifatida dividend moddiy ishlab chiqarish sohasida korxonalar faoliyati jarayonida yaratilgan daromadni aks ettiradi. Agar korxona ustavida tasdiqlangan bo'lsa, foydaning bir qismi korxona xodimlari o'rtasida pul mukofoti yoki aksiyalar ko'rinishida rag'batlantirish uchun taqsimlanishi mumkin.

Korporativ moliviy rejalashtirishni tashkil etishda axborot kontrolling tizimini tashkil etish va rivojlantirish muhim sanaladi. Ishimizning keyingi qismida axborot kontrolling tizimini joriy etishning amaliy jihatlari xususida to'htalib o'tamiz. Samarali boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'ladigan qayta ishlanuvchi axborotning miqdori beqiyosdir. Yirik masshtabdagi korporatsiyalarni boshqarishdagi muammolar elektron hisoblash texnikasidan keng miqyosda foydalanishni va boshqaruvning axborot tizimlarini ishlab chiqishni taqozo etadi va bu vazifalar natijasida yangi matematik apparat va iqtisodiy-matematik usullar yaratish vazifasini qo'yadi.

Korporatsiya axborot ta'minotini tahlil qilishni tashkillashtirishga bir qator talablar qo'yiladi. Bular axborotning analitikligi, axborotni keng qamrovda ekanligi, uning birligi, tezkorligi, samaradorligi va h. Axborotning analitikligi shundan iboratki, axborot manbalarining qandayligi va ularning qaerdan olinishidan qat'iy nazar iqtisodiy axborot tizimi korporatsiya rahbarining talablariga mos kelishi zarur, ya'ni bu tizim iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama o'rganish uchun asosiy omillar ta'sirini aniqlash uchun va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda ichki manbalarni aniqlash maqsadida korxona rahbariga zaruriy vosita bo'lishi lozim. Shuning uchun axborot ta'minotining barcha usullari doimiy rivojlanib borishi zarur.

Ushbu tizimlar korporatsiyalarda hisobga olish, rejalashtirish va statistika amallarini bajarishda hozirgi kunda amaliyotda keng qo'llanib kelinmoqda. Korporatsiyalarda boshqaruvchi xodimlar doimiy ravishda hujjatlar shaklini, ularning tarkibini va aylanishini tashkil qilishni o'rganib chiqadilar hamda ma'lumotlarni to'plash va saqlashning yangi shakllarini tashkillashtiradilar. Ushbu barcha o'zgarishlarni hisobga olish va rejalashtirish amallari talablariga emas, balki boshqa holatlar bo'yicha ham amalga oshiriladi. Bu o'zgarishlar boshqaruv yechimlarini topish uchun axborot ta'minoti

zaruriyatini ifodalaydi. Iqtisodiy axborot tadqiq qilinayotgan jarayonlarni to'liq va haqqoniy tarzda aks ettirishi lozim. Aks holda tahlil natijalari amaldagi vazifalar natijalariga mos kelmaydi va korporatsiya analitiklari tomonidan taklif etilgan yechimlar korporatsiyaga zarar keltirishi mumkin.

Axborot oqimini tashkil qilish bo'yicha keyingi talab turli manbalardan keluvchi axborotlar birligiga qo'yiladi. Ushbu tamoyildan axborotning turli manbalarini taqqoslash va ularni ikkilantirishni yo'qotish zaruriyati kelib chiqadi. Bu shuni ifodalaydiki, unda har bir iqtisodiy ko'rsatkich faqatgina bir marta rasmiylashtirilishi zarur, olingan natijalardan esa, hisobga olish, rejalashtirish, nazorat qilish va tahlilda foydalaniladi. Tahlilning samaradorligidan natijalar bo'yicha ishlab chiqarish jarayoniga tezkor ta'sir etish imkoniyati mavjudligi namoyon bo'ladi. Bunda axborot analitik xodimga zudlik bilan yetkazilishi zarur. Ushbu o'rinda axborotga bo'lgan keyingi talab, ya'ni tezkorlik talabi paydo bo'ladi. Axborot tezkorligini oshirish ularni qayta ishlash, aloqa va h.k.larning yangi vositasini tatbiq qilish orqali amalga oshiriladi.

Axborot sifatiga bo'lgan talablar jism va tadqiqot sohasiga, vaqt bo'lagiga, ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyatiga va bir qator boshqa turdagi ko'rsatkichlar bo'yicha belgilanadi. Axborot tizimi samarador bo'lishi va ma'lumotlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanishda minimal xarajatlar talab qilishi zarur. Istalgan iqtisodiy jarayonni kompleks tarzda tahlil qilish uchun keng qamrovli axborot talab etiladi. Axborot mavjud emasligida o'tkazilgan tahlil to'liq hisoblanmaydi. Axborotni keragidan ko'pligi esa, uni qidirish, to'plash va yechim qabul qilish jarayonini uzaytiradi. Ushbu talabdan axborotning foydali xususiyatlarini o'rganish zaruriyati paydo bo'ladi va ushbu asosda zarur bo'lmagan ma'lumotlarni yo'qotish va zarur ma'lumotlarni kiritish orqali axborot oqimlarini takomillashtirish amalga oshiriladi.

Axborot tizimi yuqorida ko'rsatilgan talablar asosida shakllanishi va takomillashib borishi zarur hamda korporatsiyalar boshqaruvining amaliyoti va samaradorligini oshirishda zaruriy shart bo'lib hisoblanadi. Korxonaning samarador rivojlanishi uchun menejmentning barcha jabhalarini birlashtiruvchi boshqaruvning kompleks tizimini yaratish zarur. Bunda, birinchidan doimiy menej-

mentni olib borish muammolari muhim bo'lsa, ikkinchidan axborot tizimini tanlash va tatbiq qilish muammolari dolzarb hisoblanadi. Hozirgi paytda menejerlar faoliyatida yangi axborot texnologiyalari tushunchasini ifodalovchi ko'plab vositalarni ko'rishimiz mumkin. Axborot texnologiyalari deganda, tashkiliy boshqaruv tizimiga tatbiq qilinuvchi ma'lumotlarni qayta ishlashning yangi vosita va usullari to'plami tushuniladi. Bu texnologiyalar texnologik tizimlar bo'lib, axborot mahsulotini maqsadga muvofiq yaratish, uzatish, saqlash va aks ettirishda ifodalanadi. Yangi axborot texnologiyalariga o'tish sifat, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish jarayonlari tezligi ko'rsatkichlariga nisbatan korporatsiyalar faoliyatini zudlik bilan takomillashtirishda o'zining yangi tatbig'ini topmoqda.

*Kompleks axborot tizimini shakllantirish.*

Korporatsiyalar rivojlanish jarayonida quyidagi muammolarga duch keladi:

1) boshqaruvning eski usullarida ko'plab xatolar mavjud bo'ladi;

2) korporatsiya boshqaruvini nazorat qilish uni murakkablashtiradi, ko'plab xodimlarni jalb etadi va qo'shimcha xarajatlarga olib keladi;

3) yechimlarni kelishishga ko'p vaqt talab etiladi. Yechim qabul qilish uchun ma'lumotlar esa mavjud bo'lmaydi;

4) moliyaviy amallar va qabul qilingan yechimlar miqdori u yoki bu natijalarga olib keluvchi sabablarga nisbatan ortiq bo'ladi.

Tizimni tanlash va tatbiq qilishda texnik, ma'muriy va tashkiliy masalalarni yechish zarur. Korporatsiya faoliyatida axborot tizimini yaratish korxona xodimlari va axborot texnologiyalarini taqdim etuvchi muaassasalarning hamkorlikdagi amallari hisoblanadi. Bunday vazifani bajarish uchun quyidagi amallarni amalga oshirish zarur:

1) Yaratilayotgan tizimni tadqiq qilish va loyihalashtirish, ya'ni amaldagi holatni va bajarayotgan xizmatga tatbig'ini aniq belgilash;

2) axborot tizimini ishlab chiquvchi muassasa ushbu tizimni sozlashni ham amalga oshiradi. Bu o'rinda axborot tizimining xatolarni aniqlash maqsadida testdan o'tkazish zarur;

3) axborot tizimlarini tatbiq etish ikki qismga ajraladi: korporatsiya xodimlari tarkibidan administratorlarni tayyorlash va korxona bo'linmalarida axborot tizimlari qismlarini ishga tushirish.

Dasturiy-apparat vositalarini va alohida biznes qo'shimchalarini tanlashda qarama-qarshi bo'lmagan va o'zaro kelishgan texnologiyalarni tatbiq qilish lozim. Shu bilan birga axborot tizimlarini ishlatish va ularga xizmat ko'rsatishning yagona texnologiyasiga rioya qilish lozim. Yuqoridagi talablar bilan birga axborot tizimi uchun quyidagi umumiy texnik talablar ham mavjud:

1) tezkor faoliyat ko'rsatish, ya'ni axborotni qayta ishlashda, qidirishda va kiritishda tizimning aks ta'siri vaqtining juda qisqaligi;

2) ma'lumotlarga ruxsatsiz murojaat etishning himoyasi ishonchliligi va korporatsiya xodimlarining amallarini hisobga olish;

3) ishchi o'rinlarining qulay foydalanuvchi interfeysi;

4) tizimni masshtablash va rivojlanish imkoniyatlari;

5) ma'lumotlarni uzatish tizimida foydalaniluvchi modullarni birlashtirish;

6) avvalgi vaqt mobaynida foydalanilgan ma'lumotlarni yangi tizimga yuborish imkoniyati;

7) tizim faoliyatining yuqori ishonchliligi.

Korporatsiyalar uchun korporativ axborot tizimlarini yaratish uslubi quyidagi umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi:

1) amaldagi algoritmlarni dasturlashsiz berilgan holatlar modellari bo'yicha tizimni yaratish texnologiyasi. Bunday holatda tizimni yaratish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, buning natijasida biznes jarayonlari bo'yicha reinjenering amallarini o'tkazmasdan avtomatlashtirish va amaldagi boshqaruv tizimini takomillashtirish kutilgan natijalarni bermaydi va samarasiz hisoblanadi. Korporatsiya faoliyatida dasturiy qo'shimchalardan foydalanish hujjatlar aylanishining yangi shaklini tashkil etilishiga, hujjatlarni hisobga olishga va hisobotlar yozishga o'tishning samarali omili hisoblanadi;

2) tizimni «yuqoridan pastga» yo'nalish asosida qurish. Agarda korporatsiya holatini avtomatlashtirish haqidagi qaror korporatsiyaning yuqori rahbariyati tomonidan qabul qilingan va ma'qullangan bo'lsa, dasturiy modullarni tatbiq qilish esa bosh korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda korporativ tizimlarni yaratish

jarayoni tizimni quyi bo‘laklarda birlamchi tarzda tatbiq qilishga nisbatan ancha tez amalga oshiriladi. Ushbu usul va rahbariyatning faol yordami asosida axborot tizimlarini tatbiq qilish bo‘yicha barcha vazifalar kompleksini to‘g‘ri baholash va rejalashtirilmagan xarajatlarsiz amalga oshirish mumkin;

3) tizimni bosqichlar bo‘yicha tatbiq qilish texnologiyasi. Kompleks avtomatlashtirish o‘z tarkibiga korporatsiyaning barcha bo‘limlarini olganini hisobga olsak, unda bosqichlar bo‘yicha tatbiq qilish texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirishning birlamchi sohalari bo‘lib, yuqori organlar va qo‘shma bo‘linmalar uchun hisobot hujjatlarini hisobga olish va shakllantirish jarayonini tartibga solish hisoblanadi;

4) kelajakdagi foydalanuvchilarni axborot tizimlarini ishlab chiqishga jalb etish. Birlashtiruvchi korxonada kompleks avtomatlashtirish bo‘yicha vazifalar bajarilganda korxona buyurtmachi bo‘linmalarining axborot texnologiyalari bo‘yicha amallari o‘zgaradi va bu bo‘limlarning korporatsiyaning yangi samarador boshqaruv usullariga o‘tish jarayonidagi salohiyatlari ortadi.

Bunday tizim modullar va avtomatlashtirilgan ish joylari o‘rtasida shunday hamkorlikni o‘rnatishlari zarurki, natijada bu hamkorlik foydalanuvchining talablari va texnik imkoniyatlariga javob bersin. Axborot tizimining muhim parametrlari bo‘lib, ishonchlilik, masshtablilik va xavfsizlik hisoblanadi, shuning uchun bunday tizimlar yaratilishi jarayonida mijoz-server arxitekturasidan foydalaniladi. Bu arxitektura vazifalarni tizimning mijoz va server qismlar o‘rtasidagi taqsimlash imkonini beradi va tizimni hal qilinayotgan masalalar xususiyatlarga mos ravishda rivojlanishi va takomillashishini ko‘zda tutadi.

Korporatsiyalar ishlab chiqarishini takomillashtirish yangi texnikalarni va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq qilishga bog‘liq bo‘lib, hozirgi paytda asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblangan biznesni boshqarishda birlashgan axborot tizimlari asosida yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish hisoblanadi. Kichik biznes uchun axborot tizimlarini tatbiq qilish murakkabligi korxonalarning turlichaligi, ishlab chiqarishning turli shaklda amalga oshirilishi va ishlab chiqarilgan mahsulotning ko‘p turdaligi hisoblanadi. Kichik biznes sohasida amal qiluvchi korxonalarning hajmlari va amaliy

imkoniyatlari asosida ularning xususiyatlarini inobatga olgan holda axborot tizimlarini loyihalashtirish mumkin. Biroq har bir korxona uchun alohida axborot tizimini yaratish yetarli samara bermaydi.

Axborot texnologiyalarini tatbiq qilish bo'yicha zudlik bilan qaror qabul qilish kerakligini ko'plab muassasalarning rahbarlari hozirgi paytda his etmoqdalar. Axborot tizimlarini tatbiq qilish muassasalarga qimmatga tushishi mumkin, lekin amaldagi tartibni saqlab qolish esa undan ham qimmatroq bo'lishi mumkin. Axborot tizimlarini va ularni tatbiq qilish uchun qo'llaniladigan texnik vositalarni korporatsiya faoliyatida tatbiq etish raqobatdosh sharoitda ustunlikka erishish uchun yetarli shart emas. Bunday tizimlarning samaradorligi menejmentni takomillashtirishda va biznesning tashkiliy tamoyilida yuqori samara berishi mumkin.

Demak, korporatsiya boshqaruvida tizimli yondashuv asosida axborot texnologiyalari va tizimlarini tatbiq etish boshqaruv sifatini samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va tizimlari ko'p qirralidir va u aniq sharoitlarda paydo bo'ladi. Korxonalar kompyuter axborot tizimlarini tatbiq qilinishi asosida samaradorligi jihatidan ham farqlanadilar. Ba'zi hollarda axborot tizimlarini malakali tarzda tatbiq etish raqobatdosh ustunlikni berishi mumkin. Masalan, uzoqlashtirilgan korxona bo'linmalari faoliyatida hamkorlikni takomillashtirish yoki buyurtmalarni bajarish tezligini oshirish hisobiga axborot tizimlari samaradorligi ortadi. Boshqa hollarda kompyuter texnikasi murakkab vazifalarni bajarishni yengillashtiradi va axborotlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

*Axborotlarni to'plash va taqdim etish.*

Hech qanday korxona doimiy ravishda tashqi muhit va ishchi sohalaridan doimiy olib turiluvchi va cheklanmagan axborotlarni samarali tarzda qayta ishlash salohiyatiga ega emas. Qabul qilinayotgan axborot boshqa yechimlarni qabul qilish uchun yaroqli bo'lishi uchun u kerakli tarzda tanlanishi, qayta ishlanilishi va qayta shakllanishi zarur. Korporatsiya rahbarlari tomonidan qabul qilinuvchi yechimlarning sifati va ulardan kelib chiquvchi hosilalar ko'p hollarda ular tomonidan qabul qilinayotgan xabarlarning ishonchliligi va ularning qayta ishlash usullariga bog'liqdir.

Korporatsiyalarning hajmi geografik jihatdan katta bo'lishi natijasida yuqorida ko'rsatilgan amallarning bajarilishi murakkablashadi, shu bilan birga bunday masalalarni hal etilishiga milliy va madaniy xususiyatlar hamda korporatsiya menejmentining e'tiborini talab qiluvchi moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Korporatsiyaning bosh boshqarmasining asosiy maqsadi turlicha bozorlar to'g'risida yuqori sifatli axborotni yig'ish, to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishdan iborat bo'lib, buning natijasida butun korporatsiya miqyosida menejmentga keng imkoniyatlar yaratiladi.

Korporatsiya bosh boshqarmasi tomonidan axborotlarni to'plash ikki yo'nalishda olib boriladi:

1) Mijozlar va bozor bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lgan korporatsiya bo'linmalari tomonidan yig'ilgan marketing axborotini qayta ishlash.

2) Bozorlar haqida korporatsiya mutaxassislari tomonidan axborotlarni mustaqil ravishda yig'ish.

Ushbu olingan ma'lumotlar asosida korporatsiya o'z ish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yangi rejalar ishlab chiqadi va ularni amalga oshiradi. Menejerlar axborot texnologiyalari va tizimlariga korporatsiya uchun muhim vosita sifatida qarashlari zarur. Menejerlar o'z faoliyatlari davomida quyidagi vazifalarni uzluksiz ravishda yechimlarini izlashlari darkor:

1. Axborot va bilimlarning qanday manbalari korporatsiya uchun doimiy raqobatdoshlik ustunligini ta'minlaydi.

2. Qanday tashkiliy tamoyillar va boshqaruv amaliyoti korporatsiyaning axborot madaniyati va holatiga ta'sir etadi.

3. Korporatsiyalarda hozirgi kunda va kelajakdagi o'zgarishlarni samarali boshqarish uchun mavjud bo'lgan axborot madaniyati va holatlarining to'plamlari qanday samara beradi.

4. Axborot madaniyati va holati hamda o'zgarishlar strategiyasi o'rtasida tafovutni o'rnatish uchun nimalarni o'zlashtirish lozim.

Menejerlar zimmasiga korporatsiyalarda raqobatdoshlikni saqlash uchun mavjud bo'lgan muammolarni yechishda to'liq javobgarlik vazifasi qo'yilgan. Ular ichida eng muhimlari bo'lib,

axborot madaniyati va holati hamda o'zgarishlar strategiyasi o'rtasidagi moslikni o'rnatish masalasi hisoblanadi.

3.1. Korxonalarda moliyaviy strategiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi.

Moliyaviy strategiya korxonaning muhim funksional strategiyalaridan biri bo'lib, tashqi vositalar o'zgaruvchanligi sharoitida uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni shakllantirish, ular muvaffaqiyatini ta'minlashning eng samarali yo'llarini tanlash, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish yo'nalishlarini korrektirovka qilish yo'lida moliyaviy faoliyat va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning barcha asosiy yo'nalishlarini ta'minlashni o'zida aks ettiradi.

Korxonaning samarali rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy strategiya ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1. Ishlab chiqilgan moliyaviy strategiya yaxlit korxona va uning alohida tarkibiy bo'linmalari oldiga qo'yilgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning uzoq muddatli va umumiy va moliyaviy maqsadlarni amalga oshirish mexanizmini ta'minlaydi.

2. Moliyaviy strategiya korxonaning real moliyaviy imkoniyatlarini baholash, ichki moliyaviy imkoniyatlardan maksimal foydalanishni va moliyaviy resurslar tezkor aylanuvchanligini ta'minlash imkonini beradi.

3. Moliyaviy strategiya tashqi omillarning tezkorlik bilan o'zgarishi jarayonida paydo bo'ladigan yangi istiqbolli investitsion imkoniyatlarni tezkor amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

4. Moliyaviy strategiya ishlab chiqish nazorat qilinmagan korxonalar rivojlanishining mumkin bo'lgan variantlarida ta'sir qiluvchi tashqi omillarni hisobga oladi va korxona faoliyati uchun salbiy oqibatlarni minimum darajaga pasaytirish imkonini beradi.

5. Korxonaning moliyaviy faoliyatini uning raqobatchilari bilan solishtirish orqali afzallik jihatlarini taqqoslash imkoniyatini beradi.

6. Aniq moliyaviy strategiya korxona moliyaviy faoliyatini strategik, joriy va operativ boshqarishdagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi.

7. Korxonada eng muhim strategik moliyaviy qarorlar ijrosini moliyaviy mentalitetga muvofiqlikda amalga oshirishni ta'minlaydi.

8. Moliyaviy strategiya tizimida muhim moliyaviy boshqaruv qarorlarini aniq mezonlar asosida baholash imkoniyati shakllanadi.

**Muzokara va muhokama uchun savollar**

1. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy strategiya.
2. Korxonalar faoliyatida moliyaviy rejalashtirishning mazmun-mohiyati.
3. Moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish metodlari.
4. Moliyaviy rejalashtirish tamoyillari.
5. Moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish bosqichlari.
6. Operativ moliyaviy rejalashtirish. Joriy moliyaviy rejalashtirish. Strategik (istiqbolli) moliyaviy rejalashtirish.
7. Moliyaviy prognozlashtirish va moliyaviy rejalashtirish.
8. Biznes rejaning korxona faoliyatidagi ahamiyati.
9. Korxonalarda biznes rejani amalga oshirish bosqichlari.

# V BOB. KORXONA AKTIVLARINING TARKIBI VA ULARNI BOSHQARISH

## 1-§. Korxona aktivlarining mohiyati va ularni boshqarish tamoyillari

Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda har qanday mulkchilik shaklidagi firma va kompaniyalar o'zlarining xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatlarini, ma'lum bir turdagi yoki miqdordagi aktivlarga ega bo'lmasdan turib amalga oshirishlari mumkin emas. Kompaniyalarning aktivlari ular balansining aktiv qismida aks ettiriladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan aktivlar – bu xo'jalik subyekti tomonidan nazorat qilinuvchi, avvalgi davrlarda qandaydir hodisa yoki jarayon natijasida paydo bo'lgan va bulardan kelajakda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan iqtisodiy manfaat olishni ko'zlaydigan resurslar tushuniladi. Keltirilgan tarifdan kelib chiqqan holda kompaniyalarning aktivlari deyilganda, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini uzluksizligini ta'minlash, ularning bozor qiymatini oshirish va egalarining talablarini qondirish maqsadida xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan korxona aktivlari ikki qismdan iborat bo'lib, ular: uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar. «Uzoq muddatli aktivlar» bo'limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summalari oshkor qilinishi kerak. «Joriy aktivlar» bo'limida tovar-moddiy zahiralar, kelgusi davrlar xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar summalari oshkor qilinishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona, firma va kompaniyalar aktivlarini ma'lum bir xususiyatlari bo'yicha tasniflash yoki tarkibiy joylashtirib chiqish mumkin bo'ladi. Korxona aktivlarini quyidagi xususiyatlari bo'yicha tasniflashimiz mumkin:

I. Bajaradigan vazifalari va shakliga ko'ra:

1. *Moddiy*, ya'ni moddiy xususiyatga ega bo'lgan aktivlar:

asosiy vositalar;

– tugallanmagan ishlab chiqarish;

– xomashyo, material va boshqa ishlab chiqarish zahiralari;

– tayyor mahsulot va tovarlar;

– boshqa moddiy aktivlar.

2. *Nomoddiy*, ya'ni nomoddiy xususiyatga ega bo'lmagan aktivlar:

– yerosti va tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi;

– sanoat nusxalari va modellaridan foydalanish huquqi;

– «nou-xau», patentlar, mahsulot belgilari va markalari;

– «gudvil» va korxonaning boshqa mulkiy huquqlari va qiymatliklari.

3. *Moliyaviy aktivlar*, barcha moliyaviy dastaklarni (instrument)larni xarakterlovchi aktivlar:

– milliy va xorijiy valyutadagi pul aktivlari;

– debitorlik qarzlari;

– qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

II. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish xarakteriga ko'ra:

1. *Uzoq muddatli aktivlar*, ya'ni ko'p marotaba xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan va o'zining qiymatini mahsulot tannarxiga o'tkazib boradigan aktivlar.

2. *Joriy aktivlar*, bir ishlab chiqarish yoki tijorat sikli jarayonida to'liq ishlatiladigan aktivlar.

III. Korxona faoliyatining turiga xizmat ko'rsatish bo'yicha:

1. *Operatsion aktivlar*, foydani shakllantirish maqsadida joriy faoliyatni amalga oshirishda ishlatiladigan aktivlar.

2. *Investitsion aktivlar*, korxonaning investitsion faoliyatini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan aktivlar.

IV. Aktivlarning likvidlik darajalariga qarab:

*1. Absolyut likvid aktivlar;*

*2. Yuqori likvidli aktivlar;*

*3. Past likvidli aktivlar;*

*4. Nolikvid aktivlar.*

V. Mulkiy egaligini xarakterlovchi aktivlar:

1. *Ijaraga olingan aktivlar*;

2. *O'ziga tegishli* (xususiy) *aktivlar*

VI. Aktivlar vujudga kelishining moliyaviy manbaiga ko'ra:

1. *Yalpi aktivlar*, ya'ni o'z va jalb qilingan (qarz) mablag'lar hisobiga hosil bo'lgan aktivlar;

2. *Sof aktivlar,* faqat o'z mablag'lari hisobiga shakllangan aktivlar.

Korxonalarda aktivlarni tashkil qilishdan asosiy maqsad, joriy faoliyatni uzluksizligini ta'minlashda ularga bo'lgan talabni qondirish, hamda korxonalar xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida ularning tarkibini optimallashtirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda, korxonalarda aktivlarni tashkil qilish va ularni boshqarishda quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olish lozim:

1) joriy faoliyatni rivojlantirish istiqbollari va uni diversifikatsiya qilishning yo'nalishlari; bunda korxonalar joriy faoliyatini rivojlantirish istiqbollarini belgilash, joriy faoliyatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda strategiyasini ham ishlab chiqish, amaliyotga joriy qilish hamda istiqbolda korxonaning xo'jalik faoliyat turini diversifikatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari inobatga olinishi nazarda tutiladi. Ayniqsa ushbu tamoyilni oqilona qo'llanilishi korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruvni tashkil qilish jarayonida dolzarb hisoblanadi.

2) korxonalarda aktivlarni tashkil qilishda ularning hajmi va tuzilishi bilan, mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hajmi va tuzilishini o'zaro mosligiga amal qilish; ushbu tamoyilda korxonalarda ishlab chiqariladigan birlik mahsulot uchun kerakli xomashyo, materiallar va boshqa turdagi aktivlarni o'zaro mutanosibligini ta'minlash hamda ishlab chiqariladigan mahsulot turiga undagi mavjud aktivlarning tuzilishining mosligi ham inobatga olinadi.

3) korxona xo'jalik-moliyaviy faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida aktivlar tarkibini optimallashtirish;

4) aktivlardan foydalanish jarayonida ularni aylanuvchanligini oshirish uchun zaruriy sharoitlar yaratish;

5) korxonalarning kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida aktivlarni yuqori texnolologik turlarini tashkil qilish; bunda, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan asosiy vositalarning zamonaviy, tejamkor va yuqori rentabellikka ega bo'lgan turlaridan keng foydalanish, buning hisobiga mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tan narxini optimallashtirish, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish kabi ijobiy natijalarga erishish pirovardida esa korxonada qo'shimcha moliyaviy resurslar darajasini oshishiga olib keladi.

## 2-§. Korxonalarda byudjetni shakllantirish va moliyaviy aktivlarni boshqarish mexanizmini rivojlashtirish istiqbollari

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu byudjetni shakllantirish va rejalashtirish hisoblanadi. Korxonalarda byudjetni shakllantirish – bu asosiy operatsion va byudjet hujjatlari sifatida rasmiylashtirilgan, korxona faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlarini shakllantirish jarayonidir.

Shakllantirish jarayoni shartli ravishda 2 tarkibiy qismga ajratiladi:

- operatsion byudjetni tayyorlash;
- asosiy byudjet hujjatlarini tayyorlash.

Xorijiy amaliyotda yirik korxonalarning tajribasiga ko'ra, 11 ketma-ketlikdagi qadamdan iborat bo'lgan byudjetni shakllantirish sxemasi maqsadga muvofiqdir:

1. Savdo byudjetini tuzish – dastlabki va eng mas'uliyatli qadamdir, chunki savdo hajmi bahosi barcha keyingi byudjetlarga ta'sir etadi.

2. Tijorat harajatlari hisob-kitobi savdo hajmi bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak.

3. Ishlab chiqarish byujeti – natural ko'rsatkichlardagi mahsulot ishlab chiqarish rejasini o'zida aks ettiradi hamda savdo byudjetidan kelib chiqqan holda tuziladi.

4. Ishlab chiqarish zaxiralari byudjeti – asosiy byudjetning ikki xulosaviy moliyaviy hujjatlarini tayyorlash uchun zarur axborotlarni

o‘zida mujassamlashtiradi: daromadlar va xarajatlar to‘g‘risidagi prognoz; balans hisoboti prognozi.

5. Materiallarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar byudjeti.

6. Mehnat haqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar byudjeti – mahsulot turi, tayyorlash qiyinchiligi va bir soat ish uchun mehnat haqiga bog‘liq.

7. Umumishlab chiqarish xarajatlari byudjeti – materiallar xarajatlari va ish haqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlardan tashqari, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarni qamrab oladi.

8. Boshqaruv xarajatlari – bu korxonaning ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan barcha xarajatlardir.

9. Daromadlar va xarajatlar to‘g‘risidagi hisobot (yoki prognoz) – korxona qanday daromad ko‘rishi va qancha miqdorda xarajat qilishi kerakligini ko‘rsatuvchi, asosiy byudjetning birinchi yakuniy hujjatidir.

10. Balans hisoboti (yoki prognoz balansi) korxona qanday moliyalashtirish vositalariga egaligini, ular qanday foydalanilmoqda va aniq bir sanaga korxona moliyaviy holatini qanday ifodalanishini ko‘rsatadi.

11. Pul mablag‘lari oqimi byudjetini tuzish – byudjetlashtirishning muhim va qiyin bo‘lgan qadamlaridan biridir. Uni tuzishda, tuzilgan byudjetlar (yuqorida aytib o‘tilganlar) va eng avvalo, savdo hajmi byudjeti asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rejalashtirish korxonani boshqarish jarayoni sifatida o‘z texnologiyasiga ega bo‘lib, bu texnologiya korxonaning rejalashtirilayotgan davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifalarni belgilash, vazifalarni turi, kattaligi va muddatiga ko‘ra, aniqlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi – daromad yoki foyda olishni o‘z ichiga oladi. Kichik korxonalarda bu vazifalarni bajarish katta korxonalarga nisbatan yengilroq bo‘lsada, barcha hollarda quyidagi omillarni hisobga olish talab qilinadi:

- ishlab chiqarish quvvatining mavjudligi va tuzilmasi;
- xodimlar soni, ixtisos tarkibi va malakasi;
- moliyaviy resurslar;

- aylanma mablag'lar mavjudligi va unga bo'lgan ehtiyojlar, jumladan, moddiy-tovar boyliklari zaxiralari;
- ilmiy-texnik tadqiqotlar tuzilmasi va tayyorlik darajasi;
- mahsulotni sotish kanallari.

Rejalashtirish, reja loyihasini uning mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasi, moddiy-texnika ta'minoti rejasi, kadrlar va oylik maosh bo'yicha reja, yangi texnika va kapital qo'yilmalar rejasi, moliyaviy reja kabi asosiy qismlari doirasida tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan rejadan avvalgi davrni o'z ichiga oladi. Ularning moddiy va moliyaviy resurslar hamda bajarish muddati bo'yicha to'liq o'zaro bog'liqligi va balanslashganligi rejalashtirish jarayoni va korxona rejasining ishonchliligini ta'minlovchi muhim jihatdir. O'z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish ishchi kuchining mavjudligi, shartnomalar bo'yicha mahsulot yetkazish rejalari va ishlab chiqarish quvvatlari bilan, tannarx rejalari esa ishlab chiqarish dasturlari va moliyaviy reja bilan bog'liq bo'ladi.

Rejalarni ishlab chiqishda korxonaning barcha sexlari va funksional bo'linmalari, jumladan, moliya va reja bo'limi, mehnat va ish haqi bo'limi, marketing xizmati, buxgalteriya, texnik bo'lim, sex rahbarlari ishtirok etishlari zarur. Korxona rejasi va uning bo'limlari qanchalik sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, uni bajarish shunchalik yengillashadi, resurslar kamroq talab qilinadi hamda ish sifati yuqori darajada bo'ladi. Afsuski, rejaning balanslashtirilmaganligi, unda xatolar mavjudligi, shuningdek, rejani bajaruvchilarning intizomsizligi (amalga oshirishni sust nazorat qilish natijasida) tufayli ko'p vaqt hamda mablag'lar isrof qilinmoqda. Shu sababli mahsulot sifati pasayib, daromad olish o'rniga xarajatlar yuzaga kelmoqda. Bundan kelib chiqqan holda, rejalashtirishni korxona jamoasining funksiyasi, deb atashimiz mumkin.

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni samarali tashkil etishda moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil etish hamda ularni optimal boshqarishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Korxonalarning xo'jalik

faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab, korxonalarning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari – foyda va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko'rsatkichlariga aylanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri – bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarning xo'jalik faoliyati va moliyaviy holatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish birinchi navbatda, moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirishda asosiy manba yoki muhim dastak bo'lib xizmat qilsa, keyingi navbatda boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni samarali tashkil etilishi, ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish bilan birga moliyaviy holatini ham mustahkamlab boradi. Korxonalarning moliyaviy holati bu:

– komples ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari mavjudligi, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;

– korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorlik natijasidir;

– korxonalarning mo'tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;

– korxonalarning boshqa xo'jalik subyektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Korxonalarning ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu

korxona bilan aloqada bo‘lgan boshqa korxona va tashkilotlarning moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Umuman korxonalarning ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatini, jumladan, ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqalar tashkil etadi. Demak, moliyaviy menejer, moliyaviy boshqaruvchilar yoki boshqa mutaxassislar korxonalar istiqbolini belgilashda xususan moliyaviy rejasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilishda chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

Xorijiy davlat amaliyotida korporativ moliyaviy rejalashtirishning bosh maqsadi ularning missiyalaridan kelib chiqqan holda amalda belgilanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday tadbirkorlik faoliyatining bosh maqsadi samarali (foydali) harakat qilish hisoblanadi. Shuning uchun ham, tadbirkor asosiy e’tiborini birinchi navbatda, yuqori daromad va uning yuksalishiga qaratmog‘i lozim. Shu maqsadda: zararsizlik tahlil etiladi. Tahlilda quyidagi tushunchalarga alohida ahamiyat beriladi:

– zararsizlik tahlili usuli;
– doimiy, o‘zgaruvchan va aralash xarajatlar;
– zararsizlikning tahlili grafik usuli;
– zararsizlilik nuqtasi va uni mohiyati;
– yalpi foyda;
– boshqaruv usuli;
– zararsizlik zonasi.

Har qanday kompaniya maksimal foyda olishi uchun muvaffaqiyatli ishlashi zarur. Albatta shu asnoda foydani oshirish uchun sotish hajmini ham ko‘paytirish zarur. Zamonaviy iqtisodiyotda firmalar har doim barqaror o‘sish va foydaning doimiyligini ta’minlashga harakat qilishadi. Barqaror foydani ta’minlash uchun dividend, kapitalni investitsiya qilish, yangi investorlarni jalb qilish yoki o‘zining xususiy kapitalidan oqilona foydalanishga to‘g‘ri keladi. Firma menejerlari doim mahsulot sotib olish narxi, tayyor bo‘lgan mahsulotni sotish narxi, doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni optimallashtirish, yoki zaxiralarni realizatsiya qilish kabi

murakkab qarorlarni qabul qiladi, ya'ni menejerlar korxona qancha xarajat qiladi va qancha daromad oladi kabi savollarga javob berish uchun ular oldida murakkab vaziyatlar tug'iladi. Hozirgi sharoitda beznesni boshqaruvchilar, moliyaviy menejerlar, tadbirkorlar zararsizlikni tahlil etish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Bularga:

a) biznes rejalashtirish;

b) maqsadli foyda tahlili;

v) ishlab chiqarishda optimal texnologiyani tanlash va hokazo.

Zararsizlikni tahlil etish orqali har bir moliyaviy menejer (boshqaruvchi) biznesda ishbilarmonlik sohasidagi o'zgarishlarni baholay olish imkoniga ega bo'ladi. Zararsizlikni tahlili – korxona mahsulot bahosi, ishlab chiqarish hajmi mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajat, doimiy xarajat va foydaliligini o'rganuvchi usuldir. Zararsizlik tahlilining eng asosiy tomoni, bu xarajatlarni ikki guruhga bo'lib o'rganishdir:

1. Doimiy xarajatlar;
2. O'zgaruvchan xarajatlar.

**Xorijiy kompaniyalarning missiyasi va ularning qisqacha mazmuni**

*5.1-jadval*

| Kompaniya | Qabul qilgan missiyasi |
|---|---|
| Coca-Cola | Bizning bosh missiyamiz vaqt bilan mos ravishda kompaniyaning bozor qiymatini oshirishdir. |
| Walt Disney | Strategik va moliya sohasidagi jahonda eng yirik kompaniyalarning yetakchilaridan biri bo'lish bilan birga aksionerlar uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'lar yaratish. |
| Lenenergo | Kompaniya faoliyati davomida davlat va jamiyatning talablarini e'tiborga olgan holda, barqaror ravishda rivojlanib borish, moliyaviy ko'rsatkichlarni oshirish, texnik moddiy bazani modernizatsiyalash va kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirish hisoblanadi. |
| «Gazprom» OAJ | «Gazprom» OAJ strategik maqsadi jahondagi yetakchi energetik kompaniyani tashkil qilish – hamkorlarga tabiiy gaz yetkazib berishni kafolatlash hamda ichki va tashqi bozorni boshqa turdagi yoqilg'i turlari va xomashyo |

| | |
|---|---|
| | mahsulotlari bilan ta'minlash, kompaniyaning uzoq muddatli bozor qiymatini oshirish hisobalanadi. Kompaniyaning strategiyasi quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi:<br>asosiy faoliyatni samaradorligini oshirish;<br>faoliyatni kengaytirish va diversifikatsiyalash;<br>«Gazprom» OAJ barcha aksionerlarini huquqlarini himoya qilish va talablarini e'tiborga olish;<br>korporativ boshqaruvni takomillashtirish, xo'jalik-moliyaviy faoliyatini jozibadorligini oshirish. |

Bu xarajatlarga ijara to'lovi, doimiy maoshlar, yillik reklama xarajatlari, kommunal xizmat to'lovlari, sug'urta summasi va boshqalar kiritiladi. Yuqoridagi xarajatlarni o'zgarishi korxona (firma)ning moliyaviy holatini o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham ushbu masala har bir boshqaruvchi yoki moliyaviy menejerning diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Demak, korxona menejerlari moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning bosqichlarida zararsizlik nuqtalarini to'g'ri aniqlashlari va mushohada qilishlari muhim hisoblanadi.

## Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Korxona aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish siyosatini tushuntirib bering.
2. Korxona aktivlaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari kimlardan iborat?
3. Korxona aktivlaridan samarali foydalanishning moliyaviy barqarorlikka qanday ta'siri mavjud?
4. Marketing siyosatining nechog'lik samarali tashkil etilganligi korxona narx siyosatida ahamiyat kasb etadimi?

# VI BOB. AYLANMA MABLAG'LARNI MOLIYALASHTIRISH JARAYONINI BOSHQARISH

## 1-§. Aylanma aktivlarni boshqarish siyosati va uni ishlab chiqish mexanizmi

Joriy aktivlarini boshqarishni korxonaning aylanma mablag'larini boshqarish deyish ham mumkin. Aylanma mablag'larni (aktivlarni) boshqarish. Korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga, uning mulkchilik shakli, xo'jalik-moliyaviy faoliyatining turiva boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qancha unsurlar kiritiladi. Korxona aylanma aktivlar xususiyatlariga ko'ra tasniflashtiriladi.

1. Aylanma mablag'larning turlarga ajratilishiga ko'ra:
- xomashyo, material va yarim tayyor mahsulot zahiralari;
- tayyor mahsulot;
- debitorlik qarzlari;
- pul mablag'lari;
- boshqa turdagi aylanma mablag'lar

2. Joriy faoliyatda yoki ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga ko'ra:
- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot zahiralari va boshqalar);
- korxonalarning moliyaviy siklida qatnashuvchi aylanma aktivlar (debitorlik qarzlari, pul mablag'lari va boshqalar).

3. Aylanma mablag'larning tarkibida ishtirok etish muddatiga ko'ra:
- aylanma aktivlarning o'zgaruvchan tarkibi, ya'ni buning tarkibiga mavsumiy xarakterga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi aktivlar tushuniladi, ushbu turdagi aylanma aktivlar mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga mos ravishda o'zgarib boradi;

• aylanma aktivlarning doimiy tarkibi, ya'ni ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarga bog'liq bo'lmagan, aktivlarning bir qismi.

4. Aylanma aktivlarning shakllanish manbalariga ko'ra:

• yalpi aylanma aktivlar;

• sof aylanma aktivlar;

• o'z aylanma aktivlari.

Aylanma aktivlarni boshqarishning e'tiborli jihati shundaki, ushbu jarayonda moliyaviy menejer kompaniyalarning ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion sikl xususiyatlari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni to'g'ri va mukammal mushohada qilishidadir. Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, firma va kompaniyalarning aylanma aktivlarning doiraviy aylanishi yoki yuqoridagi turli bosqich tsikllari, kompaniyalarning dastlabki xomashyo mahsulotini sotib olgan davrdan to tayyor mahsulotning realizatsiyasidan pul mablag'larini kelib tushishigacha bo'lgan barcha oraliq davriy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kompaniyalar aylanma aktivlarini doiraviy aylanishini quyidagicha ifodalash mumkin (6.1-rasm).




***6.1-rasm. Kompaniyalar aylanma mablag'larining doiraviy aylanishi.***

Kompaniyalarda aylanma aktivlarni boshqarish deyilganda, aylanma aktivlarni doiraviy aylanishining barcha bosqichlari yoki sikllaridagi jarayonlarni boshqarishni tushunish mumkin. Aylanma aktivlarni boshqarish nuqtai nazaridan ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion tsikllarning mohiyati, ularning aylanma aktivlarni doiraviy aylanish jarayonida aynan qaysi bosqichida ishtirok etishi,

...larning o'zaro bog'liqliklari kabi savollarga oydinlik kiritib olish lozim.

Korxonalarning ishlab chiqarish sikli, mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yoki bevosita ushbu jarayonda foydalaniladigan aylanma aktivlarning to'liq aylanishini, xomashyo, material va yarim tayyor mahsulotlarni korxonaga kelib tushgan davrdan boshlab, ularni tayyor mahsulot holatiga keltirishgacha bo'lgan davrni ifodalaydi. Korxonada ishlab chiqarish siklining davomiyligi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi.

$$ITS = AD\ (xz) + AD\ (tich) + AD\ (tm)$$

Bu yerda:

ITS – korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi (prodoljitelnost), kun hisobida;

AD (xz) – xomashyo va material zahiralarining aylanish davri, kun hisobida;

AD (tich) – tugallanmagan ishlab chiqarishning aylanish davri, kun hisobida;

AD (tm) – tayyor mahsulotlarning aylanish davri, kun hisobida.

Moliyaviy sikl – bunda mahsulot yetkazib beruvchilarga olingan xomashyo, materiallar va boshqa turdagi aktivlar uchun to'lovlar amalga oshirilgan davrdan boshlab, realizatsiya qilingan yoki yuklab jo'natilgan tovar, mahsulotlar uchun pul mablag'larini kelib tushishgacha bo'lgan davr tushuniladi. Boshqacha aytganda moliyaviy sikl, korxonalarning pul mablag'larini to'liq aylanish davrini xarakterlaydi, bu jarayon korxonalar tomonidan kreditorlik qarzlarni to'lash davridan boshlab debitorlik qarzlarini undirib olingan davrni o'z ichiga oladi hamda quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi:

$$MTS = ITS + AD\ (dq) - AD\ (kq)$$

Bunda:

MTS – korxonalarda moliyaviy siklning (pulni aylanish tsikli) davomiyligi, kun hisobida

ITS – korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi, kun hisobida;

AD (dq) – debitorlik qarzlarini o'rtacha aylanish davri, kun hisobida;

AD (kq) – kreditorlik qarzlarini o‘rtacha aylanish davri, kun hisobida.

Operatsion sikl – korxonalarda aylanma aktivlarning umumiy summasini to‘liq aylanish davrini xarakterlaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$OTS = ITS + AD\ (dq)$$

Bunda:

OTS – korxonalarda operatsion siklning davomiyligi, kun hisobida;

AD (dq) – debitorlik qarzlarini aylanish davomiyligi, kun hisobida.

Korxonalarda operatsion sikl bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun unga zaruriy xomashyo, material va boshqa turdagi foydalaniladigan aktivlarni sotib olingan kundan boshlab uni realizatsiyasidan pul mablag‘larni real kelib tushish oralig‘idagi davrni va jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi keltirilgan formulalardan shu narsani aytish mumkinki, korxonalarda moliyaviy va operatsion tsikllarning qisqartirilishi, moliyaviy resurslarni boshqarishning ijobiy tendentsiyalar bilan rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sanaladi hamda ushbu natijalarga erishishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish, (bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirish);

2. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni omborlarda uzoq saqlanib qolishini oldini olish, marketing siyosatini to‘g‘ri tashkil qilgan holda mahsulotlarni iste’molchilarga sifatli va o‘z vaqtida etib borishini ta’minlash;

3. Debitorlik qarzlarini aylanish davrini tezlashtirish, ya’ni realizatsiya qilingan mahsulot va xizmatlar uchun pul mablag‘larini o‘z vaqtida va to‘liq kelib tushishini ta’minlash va buning hisobiga ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirish;

4. Kreditorlik qarzlarini aylanishini sekinlashtirish, moliyaviy menejer tomonidan bu turdagi ishlarni amalga oshirishda yanada ko‘proq mas’uliyat bilan harakat qilishni talab qiladi, chunki kreditorlik qarzlari ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lib ketishi korxonaning

moliyaviy natijalariga va barqarorlik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## 2-§. Tovar moddiy zahiralarni boshqarish

Aylanma aktivlarni boshqarish siyosati korxonalar moliyaviy strategiyasining muhim qismi sanalib, bu siyosatning asosiy maqsadi korxonalarda yetarli miqdorda aylanma aktivlarni hajmi va tarkibini shakllantirish, hamda ularni moliyalashtirish manbalari tizimini optimallashtirishdan iborat.

Korxonalarda aylanma aktivlarni boshqarish siyosati quyidagi tartibda (ketma-ketlikda) amalga oshiriladi.

1. Korxona aylanma aktivlarining tahlili. Bu jarayonda aylanma aktivlarning barcha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning avvalgi-yillarga nisbatan o'sish darajalari, tarkibiy o'zgarishlari, rentabellik ko'rsatkichlari va shu kabi taxliliy ishlar amalga oshiriladi.

2. Aylanma aktivlarni tashkil qilish yoki shakllantirishni eng maqbul turini tanlash. Korxonalarda aylanma aktivlarni tashkil qilishni uch xil yondashuvi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- konservativ yondashuv. Korxonalarda aylanma aktivlarni tashkil qilishda bu turdagi yondashuvda, korxonalar joriy faoliyatini qoniqarli amalga oshirilishini ta'minlovchi aylanma aktivlarning miqdori belgilanadi va ko'zda tutilmagan holatlar uchun ko'p miqdorda zahiralar tashkil qilinadi;
- o'rtamiyona yondashuv. Korxonalarning joriy faoliyatida aylanma aktivlarga bo'lgan talabi ta'minlanadi va ko'zda tutilmagan holatlar uchun muayyan miqdorda zahiralar tashkil qilinadi.
- agressiv yondashuv. Korxonalarning joriy faoliyatni to'xtovsiz amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirib borish uchun, aylanma aktivlarning etarli miqdori belgilanadi va ko'zda tutilmagan holatlar uchun minimal darajada zahira tashkil qilinadi.

3. Aylanma aktivlarning miqdorini optimallashtirish.

4. Korxonalar moliyaviy barqarorligini takomillashtirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash maqsadida, aylanma aktivlarning likvidlik darajalarini shunga mos holda oshirib borishni ta'minlash.

5. Korxonalarda belgilangan rivojlantirish dasturlarining ijrosini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan miqdorda, aktivlardan foydalanishning rentabellik darajasini ta'minlash.

6. Aylanma aktivlardan foydalanish jarayonida ularning yo'qotilishi yoki shikast etishi kabi holatlar yuz berishini minimallashtirish va oldini olish uchun sharoitlar yaratish.

7. Aylanma aktivlarni moliyalashtirish manbalarini optimal tizimini shakllantirish.

Kompaniyalarda ayrim turdagi aylanma aktivlardan foydalanish, ma'lum bir xususiyatlarga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda kompaniyalar ushbu turdagi asosiy aylanma aktivlardan foydalanishda aniq bir chora tadbirlar dasturi yoki tegishli tarzda aylanma aktivlardan foydalanish siyosatini ishlab chiqadilar, ushbu turdagi aylanma aktivlarga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin: a) tovar moddiy zahiralari; b) debitorlik qarzlari; v) pul mablag'lari.

Tovar moddiy zahiralarni boshqarish. Tovar moddiy zahiralarni boshqarish siyosati, kompaniyalarda aylanma aktivlarni boshqarish siyosatining muhim qismi sanaladi. Tovar moddiy zahiralarni boshqarish deyilganda korxonalarda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida zaruriy zahiralar bilan ta'minlash tushuniladi. Korxonalarda tovar moddiy zahiralarining tarkibi va nomenklaturasi ularni xo'jalik faoliyatining turlari, yo'nalishi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi. Savdo va vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarda zahiralar asosan, savdo tarmoqlarida realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ko'rinishida bo'lsa, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda esa zahiralar quyidagicha bo'ladi: a) xomashyo va materiallar (tovar moddiy zahiralari); b) tugallanmagan ishlab chiqarish; v) ombordagi tayyor mahsulotlar.

Tovar moddiy zahiralarni boshqarishdan maqsad - kerakli miqdorda va belgilangan muddatda mahsulotlar ishlab chiqarish, ushbu jarayonni uzluksizligini ta'minlash va buning asosida zahiralarni saqlash bo'yicha qilinadigan xarajatlarni minimallashtirish va mahsulotlarni to'liq realizatsiya qilishga erishish.

Tovar moddiy zahiralarni samarali boshqarish bevosita korxonalarda ushbu turdagi aylanma aktivlarni boshqarish siyosati to'g'ri va oqilona ishlab chiqilganligiga bog'liqdir. Korxonalarda tovar moddiy zahiralarini boshqarish siyosatini ishlab chiqish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O'tgan davr mobaynida shakllangan tovar moddiy zahiralarning tahlili. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, korxonaning ishlab chiqarish yoki tadbirkorlik faoliyatini kerakli zahiralar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash va ulardan foydalanish samaradorligini baholashdir. Tahlil jarayonida tovar moddiy zahiralarning umumiy summasi, uning o'zgarish dinamikasi, tovar moddiy zahiralarning aylanma aktivlarning xajmidagi ulushi ko'rib chiqiladi. Keyingi bosqichda esa, zahiralarning tarkibi va tuzilishi, mavsumiy tebranishlar va aylanma aktivlarning miqdori, hamda ulardan foydalanish samaradorligi va alohida turdagi zahiralarni saqlash bo'yicha qilingan xarajatlarning miqdori o'rganiladi.

2. Korxonalarda zahiralarni aniq maqsadga ko'ra shakllantirish. Bunda korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning turlari va yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda zahiralarni shakllantirish inobatga olinadi, ya'ni korxona ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradigan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan zahiralar tashkil qilinadi, yoki korxona mahsulotlar realizatsiya qilish yoki sotish faoliyati bilan shug'ullanadigan bo'lsa, zahiralar ushbu faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq holda shakllantiriladi.

3. Korxonalarda asosiy turdagi zahiralarning xajmi yoki miqdorini optimallashtirish, ya'ni korxonalarda ishlab chiqarish zahiralari va tayyor mahsulot zahiralarining kerakli miqdorda mavjudligini ta'minlash. Korxonalarda tovar moddiy zahiralarni boshqarish siyosatining keyingi bosqichida korxona moliyaviy rahbarlari va moliyaviy menejerlari birgalikda, xo'jalik faoliyatini normal yo'lga qo'yish uchun talab qilinadigan darajada zahiralar miqdorini aniqlashlari, hamda quyidagi savollarga yechim topishliklari lozim bo'ladi: a) ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun minimal darajadagi zahiralar xajmi qancha bo'lishi kerak; b) kelgusida zahiralarga buyurtmani qachon berish kerak bo'ladi; v) buyurtma qilinayotgan zahiralarning optimal xajmi qancha

bo‘lishi kerak; g) zahiralarni olib kelish, ularni joylashtirish va saqlash bo‘yicha qilinadigan xarajatlar summasi qanchani tashkil qiladi. Xalqaro amaliyotda moliyaviy menejerlar tomonidan bu turdagi savollarga javob topishda va tovar moddiy zahiralarni samarali boshqarishda turli modellardan foydalaniladi.

4. Korxonalarda tovar moddiy zahiralar harakatini nazorat qilishning samarali tizimini yaratish. Bunda asosiy vazifa korxonalar tomonidan zahiralarni to‘ldirish maqsadida buyurtmalarni o‘z vaqtida olib kelish va joylashtirish bo‘yicha, amalga oshiriladigan barcha vazifalarni to‘g‘ri tashkil qilish hisoblanadi.

## 3-§. Korxonalarda aylanma mablag‘larni boshqarish damoliyaviy strategiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi

Moliyaviy strategiya korxonaning muhim funktsional strategiyalaridan biri bo‘lib, tashqi vositalar o‘zgaruvchanligi sharoitida uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni shakllantirish, ular muvaffaqiyatini ta’minlashning eng samarali yo‘llarini tanlash, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini takomillashtirish yo‘lida moliyaviy faoliyat va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning barcha asosiy yo‘nalishlarini ta’minlashni o‘zida aks ettiradi.

Korxonaning samarali rivojlanishini ta’minlashda moliyaviy strategiya ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

1. Ishlab chiqilgan moliyaviy strategiya yaxlit korxona va uning alohida tarkibiy bo‘linmalari oldiga qo‘yilgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning uzoq muddatli umumiy va moliyaviy maqsadlarni amalga oshirish mexanizmini ta’minlaydi.

2. Moliyaviy strategiya korxonaning real moliyaviy imkoniyatlarini baholash, ichki moliyaviy imkoniyatlardan maksimal foydalanishni va moliyaviy resurslar tezkor aylanuvchanligini ta’minlash imkonini beradi.

3. Moliyaviy strategiya tashqi omillarning tezkorlik bilan o‘zgarishi jarayonida paydo bo‘ladigan yangi istiqbolli investitsion imkoniyatlarni tezkor amalga oshirishni ta’minlaydi.

4. Moliyaviy strategiya ishlab chiqish nazorat qilinmagan korxonalar rivojlanishining mumkin bo'lgan variantlarida ta'sir qiluvchi tashqi omillarni hisobga oladi va korxona faoliyati uchun salbiy oqibatlarni minimum darajaga pasaytirish imkonini beradi.

5. Korxonaning moliyaviy faoliyatini uning raqobatchilari bilan solishtirish orqali afzallik jihatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

6. Aniq moliyaviy strategiya korxona moliyaviy faoliyatini strategik, joriy va operativ boshqarishdagi o'zaro bog'liqlikni ta`minlaydi.

7. Korxonada eng muhim strategik moliyaviy qarorlar ijrosini moliyaviy mentalitetga muvofiqlikda amalga oshirishni ta'minlaydi.

8. Moliyaviy strategiya tizimida muhim moliyaviy boshqaruv qarorlarini aniq mezonlar asosida baholash imkoniyati shakllanadi.

Korxonada o'z-o'zini tashkil etishga qodir ochiq tizim sifatida qarash tamoyili strategik boshqaruv jarayonida korxona moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha tashqi omillar bilan o'zaro bog'liq ochiq va aniq tizimni o'zida aks ettiradi. Korxonaning bunday o'zaro bog'liqlik jarayoni bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos makonni, vaqtni hamda funktsional tarkibni talab qiladi. Korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ochiqligi va o'z-o'zini tashkil etishga qobiliyatli ekanligi moliyaviy strategiyaning sifatli tashkil etilishini ta`minlash imkonini beradi.

Korxona operatsion faoliyati bazaviy strategiyalarni hisobga olish tamoyili korxona iqtisodiy rivojlanish umumiy strategiyasining tarkibiy qismi sifatida birinchi navbatda operatsion faoliyatni rivojlantirishni ta'minlash va moliyaviy strategiyaning unga bo'ysunuvchan xarakterda bo'lishini ifodalaydi. Shuning uchun moliyaviy strategiya strategik maqsadlar va operatsion faoliyat yo'nalishlariga muvofiqlashtirilishi kerak. Umuman, moliyaviy strategiyaga tanlangan korporativ strategiya bilan muvofiqlikda korxona samarali rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Shu bilan birgalikda moliyaviy strategiya korxona operatsion faoliyatini strategik risojlantirishni tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu operatsion strategiyaning asosiy maqsadlari hisoblangan yuqori darajada mahsulot realizatsiyasini, operatsion foyda va

korxonaning raqobatdagi pozitsiyasini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq. Agar korxona o'z moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotgan tovar va moliya bozorlarining rivojlanish tendentsiyalari paydo bo'ladigan holatlarga mos tushmasa, bu korxona operatsion faoliyat rivojlanishining strategik maqsadlari moliyaviy cheklashlar bilan bog'lanmaganligini ko'rsatadi. Bunday holatda korxona operatsion faoliyat strategiyasini mos ravishda muvofiqlashga to'g'ri keladi. Moliyaviy faoliyatni strategik boshqarishni tadbirkorlikka maqsadli yo'naltirish tamoyili korxonalarda moliyaviy boshqaruv o'sishini yoki tadbirkorlikka mos strategik maqsadlarni tavsiflaydi. Strategik moliyaviy boshqaruvning o'sish usuli korxona moliyaviy faoliyatining rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan holatda qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar muqobil variantlarini minimallashtirishni va rivojlanish darajasini saqlab qolishni o'zida aks ettiradi.

Strategik moliyaviy boshqaruvning tadbirkorlik usuli asosini moliyaviy faoliyatning barcha yo'nalishlari va shakllari bo'yicha samarali boshqaruv qarorlari ustida faol ishlash tashkil etadi. Moliyaviy boshqaruvning bu stili tashqi omillar o'zgarishini hisobga olgan holda qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish uchun barcha yo'llarda moliyaviy faoliyatlarni amalga oshirishning yo'nalishlari, shakllari va metodlari doimiy transformatsiyasi bilan bog'liq.

Iqtisodiy adabiyotlarda strategik moliyaviy boshqaruvning o'sish usuli konservativ (an'anaviy) usul sifatida, shu bilan bir vaqtda tadbirkorlik usuli – agressiv, jadallik bilan rivojlanishga yo'naltirilgan usul sifatida qaraladi. Bu bo'yicha ko'pchilik iqtisodchilar xulosasiga ko'ra strategik moliyaviy boshqaruvning tadbirkorlik usulli yangi boshqaruv paradigmasi – strategik boshqaruv bilan bog'lanadi.

Strategik moliyaviy rivojlanishning yetakchi sohalarini belgilash tamoyili korxona moliyaviy faoliyatining eng muhim yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning bosh maqsadi uzoq muddatli istiqbolga korxonaning bozor qiymati doimiy o'sib borishini ta'minlash hisoblanadi.

Moliyaviy resurslarini taqsimlash strategiyasi esa bir tomondan alohida funksional strategiyalarni amalga oshirishni moliyaviy

ta'minlashga qaratilsa, boshqa tomondan strategik maqsadlarda korxona investitsion faoliyatini shakllantirishga yo'naltiriladi. Korxona moliyaviy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi uning strategik rivojlanish jarayonida moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirishga va qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. O'z navbatida korxona moliyaviy faoliyati boshqaruvining sifatni oshirish strategiyasi korxonalarda moliyaviy xizmatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy strategiyaning moslashuvchanligini ta'minlash tamoyili korxona moliyaviy faoliyatining kelgusidagi rivojlanishi har doim ham noaniqlik kasb etishi bilan izohlanadi. Shuning uchun korxonaning ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyasini amalga oshirishning barcha bosqichlarida uni o'zgarishsiz ko'rinishda saqlash mumkin imkoni yo'q. Bunday sharoitda moliyaviy menejerlarning muqobil strategik xatti-harakatlari asosida ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyaning yuqori darajadagi moslanuvchanligi yuzaga chiqadi.

Strategik moslashuvchanlik moliyaviy faoliyatni amalga oshirishning ichki yoki tashqi shart-sharoitlari o'zgarishi natijasida yangi strategik moliyaviy qarorlarni ishlab chiqish yoki tezkor o'zgartirishlarni amalga oshirish bo'yicha korxonaning mavjud imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. U moliyaviy faoliyatni ichki tashkiliy muvofiqlashtirish orqali moliyaviy resurslarni bir strategik xo'jalik yuritish zonasidan boshqasiga osonlik bilan o'tkazish imkoniyatini beradi.

Strategik moliyaviy tanlovlarning muqobilini tanlash tamoyili strategik moliyaviy qarorlar asosida moliyaviy faoliyatni amalga oshirish yo'nalishlari, shakllari va metodlarining muqobil variantlarini qidirish, umumiy moliyaviy strategiyani shu asosda qurish uchun eng yaxshisini tanlash va uni samarali amalga oshirishni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Muqobillik butun korxona strategik boshqaruv tizimida muhim farq qiluvchi xususiyatlar inobatga olingan bo'ladi va strategik moliyaviy to'plamning barcha elementlari – moliyaviy maqsadlar, moliyaviy faoliyatning alohida ko'rinishlari, moliyaviy resurslar shakllanish manbalari, moliyaviy boshqaruv usuli va mentalitetlari bilan bog'langan.

Moliyaviy faoliyatda texnologik rivojlanish natijalaridan doimiy foydalanishni ta'minlash tamoyili moliyaviy strategiyani shakllantirishda korxonaning bozordagi raqobat pozitsiyasi o'sishini ta'minlovchi texnologik yangiliklarni joriy etish orqali moliyaviy faoliyatning bosh mexanizmlarini ishlab chiqishni anglatadi. Shuning uchun korxonaning umumiy strategik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish texnologik rivojlanish natijalaridan tezlik bilan foydalanishga sezilarli darajada bog'liq bo'lib, texnologik rivojlanish natijalari jarayonni engillashtiradi.

Strategik moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida moliyaviy risklar darajasini hisobga olish prinsipi moliyaviy strategiyani shakllantirish jarayonida qabul qilinadigan barcha asosiy moliyaviy qarorlar amaliy jihatdan turli darajada moliyaviy risklar bilan bog'langanligini hisobga olishni o'zida aks ettiradi. Bu bog'liqlikni birinchi navbatda moliyaviy faoliyat yo'nalishlari va shakllarini tanlash, moliyaviy resurslarni shakllantirish, moliyaviy faoliyatni boshqarishning yangi tashkiliy tuzilmalarini joriy etishda ko'rishimiz mumkin. Xususan, moliyaviy risklarning yuqori darajasi foiz stavkalari tebranish davri va inflyatsiyaning o'sish davrlarida ko'tariladi. Moliyaviy menejerlarning turli xil mentalitetlari bilan bog'liq ravishda har bir korxonada moliyaviy strategiyani ishlab chiqish jarayonida moliyaviy risklarga yo'l qo'yish darajasiga nisbatan aniq differensial (tabaqalashgan) parametrlar o'rnatilishi lozim. Bunda belgilanadigan parametrlar yo'l qo'yilayotgan risklarning yuzaga chiqishi natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirish maqsadida chora-tadbirlarni o'zida mujassam etadi.

Moliyaviy strategiyani amalga oshirish jarayonini moliyaviy menejerlarga yo'naltirish tamoyili korxona moliyaviy strategiyasi alohida parametrlarini ishlab chiqishga, uni amalga oshirishga maxsus tayyorlangan mutaxassislar – moliyaviy menejerlar jalb qilinishi lozimligini anglatadi. Bunday menejerlar strategik boshqaruvning asosiy tamoyillari, moliyaviy faoliyatning alohida jihatlarini boshqarish mexanizmlari bilan tanish bo'lishlari, moliyaviy nazoratning metodlarini egallagan bo'lishlari lozim.

Ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyaning tashkiliy tuzilma va tashkiliy madaniyatga muvofiqligini ta'minlash tamoyili moliyaviy

strategiyani samarali amalga oshirishning muhim sharti sifatida boshqaruvning tashkiliy tuzilmalaridagi o'zgarishlar va tashkiliiy madaniyatni o'zaro muvofiqlashtirishda namoyon bo'ladi. Bu sohada ko'zda tutilgan strategik o'zgarishlar moliyaviy strategiya parametrlari va uni amalga oshirishni ta'minlashning tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

Korxona moliyaviy faoliyat sohasida strategik to'plamning asosiy unsurlarini izlab tonish strategik moliyaviy tahlil natijalariga asoslanadi. Strategik moliyaviy tahlil istiqboldagi davrda korxonani rivojlantirishning aniq xususiyatlari va mumkin bo'lgan yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda korxona moliyaviy faoliyatini amalga oshirishning samaradorligiga ichki va tashqi omillar ta'sirini o'rganish jarayonini o'zida aks ettiradi.

Strategik moliyaviy tahlilning yakuniy natijasi moliyaviy faoliyatning har bir strategik yetakchi sohalari doirasida moliyaviy rivojlanishning asoslarini va imkoniyatlarini ko'p tomonlama va kompleks tavsiflaydigan korxona strategik moliyaviy pozitsiyasi modeli hisoblanadi. Strategik moliyaviy tahlilni amalga oshirishning muhim asoslaridan biri uning asosiy obyektlarini aniqlash hisoblanadi. Strategik moliyaviy tahlilning asosiy yaxlit obyektlari yakuniy natijasi sifatida tuzilishini hisobga olgan holda korxona strategik moliyaviy rivojlantirishning dominant sohalari (yo'nalishlari) ko'zga tashlanadi. Bunday yetakchi sohalardan har biri ko'rib chiqilayotgan yo'nalish bo'yicha korxona moliyaviy faoliyati xususiyatlari va natijalarini turli tomonlardan tavsiflaydigan alohida segmentlarga bo'lingan bo'lishi lozim.

Strategik tahlil o'tkazish asoslari korxona xo'jalik faoliyatiga alohida omillarning ta'siri va ularning ishlab turgan muhiti sharoitini o'rganishdan tarkib topgan. Strategik moliyaviy tahlil yo'nalishlari va obyektlari tarkibini hisobga olgan holda uning o'rganish predmeti bo'lib korxonaning ishlab turgan moliyaviy muhiti hisoblanadi. Korxonaning ishlab turgan moliyaviy muhiti deganda tashkilotga, uning moliyaviy faoliyati shakllari va natijalariga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar tizimi tushuniladi.

## Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Aylanma aktivlarni boshqarishning bugungi kundagi ahamiyati.
2. Aylanma aktivlarni boshqarishning asosiy maqsadi.
3. Aylanma aktivlarni boshqarishda amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalar.
4. Korxona aylanma aktivlarining me'yor darajasi va uni ta'minlash yo'llari.
5. Aylanma aktivlar strukturasini optimallashtirish.
6. Aylanma aktivlar zaruriy likvidligini ta'minlash.
7. Aylanma aktivlar samaradorlikdarajasini tahlil qilish.
8. Aylanma aktivlar aylanuvchanligi darajasi va uni oshirish yo'llari.
9. Aylanma aktivlarni moliyalashtirish manbalari.

# VII BOB. XO'JALIK SUBYEKTLARIDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH

## 1-§. Korxonalarda pul mablag'lari oqimining mohiyati va ularni baholash usullari

Korxonalarda pul oqimini boshqarish moliyaviy menejmentning muhim funksiyalaridan biri sanaladi. Biz ushbu bobda korxonalarda pul mablag'lari oqimini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish masalalarining amaliy va nazariy jihatlarini o'rganib chiqamiz.

Pul oqimi tushunchasi korxona tijorat faoliyatining sof foyda natijasi sifatida ifodalanadi. Korxonaning pul oqimi:

– ular harakatlanishining yo'nalishi bo'yicha;

– tushumlarning tavsiflari bo'yicha guruhlarga ajratish mumkin.

Pul oqimi o'z harakatining yo'nalishi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

– pul mablag'lari kirimi (ijobiy pul mablag'lari oqimi), ya'ni korxona tomonidan olingan mablag'lar;

– pul mablag'lari chiqimi (salbiy pul oqimi), ya'ni korxona tomonidan sarflangan mablag'lar.

Tushumlar tavsifi bo'yicha pul oqimi quyidagilarga ajratiladi:

– bir xil va doimiy ravishda bo'lmagan tushumli pul oqimi;

– bir xil bo'lgan, lekin doimiy ravishda bo'lmagan (bir xil muddatda bo'lmagan) tushumi pul oqimi;

– bir xil (teng) miqdordagi va doimiy bir muddatda tushuvchi pul oqimi.

Har qanday moliyaviy bitimdan maqsad ikki yo'nalishdagi pul oqimi harakati to'g'risida boradi, ya'ni:

– hozirdan kelgusiga tomon;

– kelgusidan hozirga (joriy vaqtga) tomon.

Pul oqimining hozirdan kelgusiga tomon harakatlanishi o'sib boruvchi jarayon (yoki *kompaunding*) deb nomlanadi. O'sib borish jarayonining iqtisodiy mohiyati investorning operatsiya yakuni

bo‘yicha olishni nazarda tutilgan miqdorni aniqlashga asoslanadi. Bu miqdor *pul oqimining kelgusi qiymati* deb nomlanadi va FV bilan belgilanadi.

Pul oqimining kelgusidan hozirga tomon harakatlanishi *diskontlashtirish* jarayoni deb nomlanadi. Diskontlashtirish jarayonining iqtisodiy mohiyati turli xil davrdagi pul oqimining «hozirgi (joriy)» nuqtai nazar bilan vaqtdagi aniqlanishi, ya’ni joriy vaqtga keltirilishi bilan ifodalaniladi. Investorning investitsiyalash davri boshidagi nazarda tutadigan summasi pul oqimining *hozirgi* (keltirilgan, joriy) *qiymati* deb ataladi va PV bilan belgilanadi.

Korxona moliyasini boshqarish uchun pul oqimini baholash o‘ta muhim sanaladi.

Investor oldida doimo investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida n davr mobaynida hosil bo‘luvchi $CF_1$, $CF_2$, $CF_3$, ... $CF_n$ pul oqimini baholash vazifasi turadi.

Pul oqimini baholash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

– o‘sib borish sxemasi va pul oqimining kelgusi qiymatini yalpi baholashni aniqlashdan foydalanish asosidagi to‘g‘ri usul bilan;

– diskontlash sxemasi va pul oqimining hozirgi qiymatini yalpi baholashni aniqlashdan foydalanish asosidagi teskari usul bilan.

Pul oqimlarining turiga qarab hisoblash usullari turlicha bo‘lishi mumkin. Korxona pul mablag‘larining harakati haqida bevosita yoki bilvosita metodlar yordamida hisoblarini yuritishi mumkin. Hisoblarni bevosita metod yo‘li bilan amalga oshirish berilgan davr mobaynida hisob raqamlar bo‘yicha pul mablag‘lari harakatining natijalarini aks ettirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda operatsiyalar faoliyat turi bo‘yicha uch guruhga ajratiladi. Hisobotni to‘ldirish uchun kerakli ma’lumotlarni bevosita bugalteriya hisobi hujjatlaridan olish mumkin.

Pul oqimini bevosita yo‘l bilan hisoblanishi korxona to‘lovga qobilligini baholash va pul mablag‘lari kelib tushishi va sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatish imkoniyatini ta’minlaydi. Pul oqimlari hisobining bilvosita usuli sof foyda ko‘rsatkichining pul mablag‘lari harakati natijasida qanday o‘zgarganligini buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, balansga ilovalar va Bosh

kitob ma'lumotlarini maxsus o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan aniqlashga asoslangan.

Bilvosita usul bilan tuzilgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga tuzilgan bugalteriya balanslari o'rtasida bog'lochi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi, chunki pul mablag'lari hisob raqamlaridagi o'zgarishlarning balans boshqa moddalari o'zgarishlari bilan bog'liqligini aks ettiradi. Foyda ko'rsatkichiga o'zgartirishlar kiritish uchun «pul ko'rinishiga ega bo'lmagan omillar» deb nomlanuvchi va xo'jalik operatsiyalarining amalga oshirilishi vaqti bilan pul mablag'lari harakatini amalga oshirilish vaqti o'rtasidagi farq ta'sirini bartaraf qiluvchi bir qancha usullardan foydalaniladi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek bugalteriya hisobida aks ettiriluvchi va foyda miqdorini hisoblashda hisobga olinuvchi barcha xo'jalik operatsiyalari ham pul mablag'lari harakati bilan bog'liq bo'lmaydi.

Pul ko'rinishiga ega bo'lmagan investitsion va moliyaviy operatsiyalarga misol sifatida aksiyalarni yoki obligatsiyalarni moddiy yoki nomoddiy aylanishdan tashqaridagi aktivlarga almashtirish yo'li bilan chiqarishni yoki korxonaga tegishli bo'lgan aylanishdan tashqaridagi aktivlarni boshqa aylanishdan tashqari aktivlarga almashtirishni keltirishimiz mumkin.

Bunday bitimlarni amalga oshirilganligini pul oqimlari bilvosita metod bilan hisoblanishi jarayonida ba'zi bir tuzatishlarni kiritish yo'li bilan aniqlash mumkin. Tuzatishlar sof foyda ko'rsatkichini ko'paytirishi ham kamaytirishi ham mumkin. Ba'zi bir muhim tuzatishlar quyida keltiriladi.

Sof foyda miqdorini ko'paytiruvchi:

– davr mobaynida asosiy fondlarga va nomoddiy aktivlarga hisoblangan amortizatsiya;

– debitorlik qarzining kamayishi;

– tovar moddiy boyliklar qoldiqlarining kamayishi;

– kelgusi davr harajatlarining kamayishi;

– kreditorlik qarzining ko'payishi;

– boshqa hisoblangan majburiyatlarning ko'payishi;

– budjet va budjetdan tashqari fondlar bo'yicha qarzdorlikning ko'payishi;

– kirim qilingan moddiy boyliklar bo‘yicha QQS ning kamayishi;

Sof foyda miqdorini kamaytiruvchi:

– asosiy vositalarning qayta baholanishi;

– debitorlik qarzining ko‘payishi;

– tovar moddiy boyliklar qoldiqlarining ko‘payishi;

– kelgusi davr harajatlarining ko‘payishi;

– kreditorlik qarzining kamayishi;

– boshqa hisoblangan majburiyatlarning kamayishi;

– budjet va budjetdan fondlar bo‘yicha qarzdorlikning kamayishi;

– o‘tgan-yillar taqsimlanmagan foydaning ishlatilishi;

– zahiralarning ishlatilishi;

– sof foyda hisobidan tashkil qilingan jamg‘armalar mablag‘-larining ishlatilishi;

– kirim qilingan moddiy boyliklar bo‘yicha QQS ning ko‘pa-yishi;

Hisobot davri natijasi sof zarar bilan chiqqan bo‘lsa, bilvosita usul sof zararga asoslanadi. Bevosita usulda hisoblab ko‘rilganda sof zarar chiqqanligiga qaramay, bilvosita usulda hisoblab ko‘ril-ganda tuzatishlar zarar miqdorini qoplashi va asosy faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakatining sof natijasi musbat chiqishi mumkin.`

Pul oqimlari hisobi natijasida olingan ma’lumotlar katta tahliliy qiymatga egadir. Pul mablag‘lari holati to‘g‘risidagi hisobot-larni tahlil qilish korxona moliyaviy operatsiyalari mazmunini tushunish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi,chunki bunda o‘tib ketgan davr natijalarini baholash mumkin bo‘ladi.Tahlil natijasida pul mablag‘larining maqsadga muvofiq bo‘lmagan holda foydalanig holatlarini aniqlash va kelgusidagi faoliyat uchun tegishli xulosalar qilish mumkin.

Korxona faoliyati uzluksizligini ta’minlash, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va pul mablag‘lari oqimini boshqarishni takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo‘ladi:

- tushumlar va to‘lovlarni vaqt va makon bo‘yicha mutano-sibligini ta’minlash;

- hisob-kitoblardagi mablag‘lar miqdorini optimallashtirish;
- o‘tuvchi pul mablag‘lari qoldig‘i miqdorini optimallashtirish;
- korxonaning o‘z-o‘zini moliyalash darajasini optimallashtirish.

Pul mablag‘larining ishlatilishi va ularning kelib chiqish haqidagi hisobotlar tahlili o‘rta va uzoq muddatli moliyalashtirishni loyihalashtirishda juda ham foydalidir, chunki u pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoj miqdori va bu ehtiyojning hosil bo‘lish muddatlari haqidagi xulosa qilish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, korxona pul mablag‘lari holatining istiqbollarini belgilash pul byudjeti (pul mablag‘lari budjeti) yordamida pul mablag‘larining kelgusidagi oqimiga baho berish imkoni paydo bo‘ladi.

Tahlilda birinchi o‘rinda pul oqimlarining vaqt bo‘yicha taqsimlanishi darajasi va an’analariga baho beriladi. Umumiy an’ana korxona rivojlanishining bosqichini va yo‘nalishini - o‘sish kamayish yoki turg‘unlash, aniqlashga yordam beradi. Korxona o‘rtacha-yillik pul oqimini tarmoq bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslab ko‘rish zarur, bunda korxonaning tarmoq bo‘yicha mavqei aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkichning tarmoq bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan qanchalik chetga chiqishi korxona faoliyati barqarorligini ham xarakterlaydi va ishbilarmonlik tavakalchiligini baholashda ham qo‘llanilishi mumkin. Farq qanchalik katta bo‘lsa, tavakkalchilik darajasi ham shuncha katta bo‘ladi.

Tahlilning keyingi bosqichida pul mablag‘lari harakati natijalarini manfiy qiymatlarining kelib chiqish sabablari aniqlanishi zarur. Davr mobaynidagi pul oqimining manfiy qiymatining asosiy ichki sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– aylanma kapitalga bo‘lgan normal ehtiyojni qondiradigan darajada sotishning yetarli darajada rentabelli emasligi;

– yirik iste’molchilarni yo‘qotish natijasida sotish hajmining kamayishi;

– ishlab chiqarishning kengaytirilishi;

– aylanma mablag‘lar aylanishining sekinlashishi.

Hisoblash usullari pul oqimining turlaridan kelib chiqib turlicha bo‘lishi mumkin.

Pul oqimi harakati asosida foizlarni hisoblashning turlicha sxemalaridan foydalanish yotadi.

*1. Oddiy foiz sxemasi.*

Oddiy foizlar sharoitida investitsiyalar o'tgan davrlarga hisoblab chiqilgan foizlarni hisobga olmagan holda faqat investitsiyalangan kapitalning kelib chiquvchi miqdoriga navbatdagi foiz daromadini hisoblashni nazarda tutadi. Amaliyotda oddiy foizlar sxemasi banklarning hisob-kitoblarida qaytarilish muddati bir-yil va undan kam bo'lgan qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizlarni hisoblashda qo'llaniladi.

*2. Murakkab foiz sxemasi.*

Agar navbatdagi foizli daromad investitsiyalangan kapital va hisoblangan foizlar miqdoridan kelib chiquvchi umumiy summadan hisoblansagina, investitsiyalash murakkab foizlar sharoitida amalga oshiriladi. Investitsiya loyihalari pul oqimini baholashda, odatda, murakkab foiz sxemesidan foydalaniladi.

Foizlarga foizning hisoblanishi *kompaunding* deb ataladi. Hisoblash ishlarida murakkab foizlardan foydalanish mantiqan to'g'ridir, chunki bunday holatda daromadlar keltiruvchi kapital doimo o'sib boradi. Odatda, ratsionallik talabi ostida har qanday pul tushumlarini olish boshlanishi bilan mazkur qiymat ushbu investitsiya loyihasi amalga olishni yoki boshqa investitsiya loyihalari jarayonida albatta o'sishi lozim deb hisoblanadi.

Oddiy foiz tamoyilini qo'llash joriy iste'mol, joriy xo'jalik faoliyati yoki boshqa investitsion jarayon foydasiga hisoblanadigan foizlarni kamaytirish rag'batlantiradi.

Murakkab foiz sharoitidagi investitsiyalar nominal daromadlilikning (yillik hisoblanishidagi) tengligi sharoitida oddiy foiz sharoitidagi investitsiyalarga nisbatan ko'proq foydali hisoblanadi.

«Moliyaviy menejment: nazariya va amaliyot» kitobida asosli ta'kidlanganidek, «...agar past murakkab foiz stavkasi va ancha yuqori oddiy foiz stavkasidan birini tanlash imkoniyati paydo bo'lsa, albatta, birinchi variantni tanlash lozim bo'ladi. Tabiiyki, agar bizning ixtiyorimizda ko'p yoki birmuncha miqdordagi yetarli davr mavjud bo'lsa, murakkab foiz stavkasi bo'yicha o'sib boruvchi summa bir necha marta foiz hisoblash davridan keyinoq (foiz

stavkalari miqdoridagi farqqa bog'liq holda) oddiy foiz stavkasi bo'yicha o'sib boruvchi summadan oshib ketadi».

Har qanday investor o'z pulini, mablag'ini o'stirish, ma'lum ustama olish umidida, safarbar etadi. Bu o'sishni formula orqali ifodalasak – har yilgi foiz stavkasi bo'lsin. U holda bir investitsion o'sishdan so'ng kelgusi qiymat quyidagiga teng bo'ladi:

$$FV_1 = PV + PV \times r(1)$$

$$FV_1 = PV ( 1 + r )(2)$$

bu yerda, $FV_1$ – birinchi investitsion davr so'ngidagi kelgusi qiymat;

RV – birinchi investitsion davr boshidagi joriy qiymat;

r – kapitalni investitsiyalash oqibatida investor kapitalining o'sishiga olib keluvchi daromadlilik me'yori.

r – daromadlilik me'yorini tushuntirish uchun adabiyotlarda quyidagicha tushunchalar qo'llaniladi:

– daromadlilik stavkasi;

– o'sish stavkasi;

– talab etilgan daromadlilik me'yori;

– ko'zda tutilgan daromadlilik me'yori;

– maqbul daromad me'yori.

r – miqdori o'z ichiga uch turdagi (mukofot) to'lovni qamrab olgan bo'lishi lozim:

– vaqt uchun (mukofot) to'lovni (yo'qotilgan vaqt tufayli ko'rilishi mumkin zarar yoki olina olmagan daromad);

– risk uchun (mukofot) to'lovni (tahlika oqibatida bo'lgan ko'tarish mumkin bo'lgan zarur);

– alternatish (muqobil) qo'yilmalarning daromadlilik me'yorini (boshqa soha yoki turdagi faoliyatga mablag' qo'yilmagani uchun foydadan kechish).

Amaliyotda daromadlilik me'yori kapital investitsiya qilingan biznesning ushbu turi bilan bog'liq risk darajasi va investitsiyalash davrining davomiyligi bilan bog'liq doimiy bo'lmagan miqdor hisoblanadi. Bu yerda to'g'ri proportsional bog'liklik kuzatiladi: investitsiyalash davri qanchalik davomli va mazkur biznes qanchalik riskli bo'lsa, daromadlilik me'yori shunchalik yuqori bo'ladi. Birmuncha past riskka ega bo'lgan qo'yilmalar qatoriga davlat qimmatli qog'ozlari yoki davlat bankiga qo'yilgan mablag'lar kiradi, biroq bunda daromadlilik me'yori unchalik yuqori emas.

Investorlarning bir-biridan farqlanishiga qarab daromadlilik me'yori sezilarli tarzda farqlanishi mumkin, biroq har doim ham sezilarli omil sifatida muqobil qo'yilmalarning daromadliligi yuzaga chiqadi. Xususiy (o'z) daromadliligi me'yorini aniqlashda investor birinchi navbatda quyidagilarni hisobga oladi:

– bank depoziti bo'yicha foiz stavkasini;

– davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foiz stavkasini.

Quyida ikkinchi yoki n-chi davr oxiridagi kelgusi qiymatni ko'rib chiqamiz. Agar pul mablag'lari ikki yoki undan ortiq davrga investitsiyalangan bo'lgan holda foizlar yuqorida tilga olingan ikki sxema bo'yicha hisoblanishi mumkin.

1. Oddiy foiz sxemasi:

$$FV_2 = PV + PVxr + PV \times r,$$

$$FV_2 = PV ( 1 + 2 x r )$$

bunda, $FV_2$ – ikkinchi investitsion davr oxiridagi kelgusi qiymat.

n-chi davr so'nggida oddiy foizlar sharoitida kelgusi qiymat quyidagi tenglama bo'yicha hisoblanishi mumkin:

$$FV_n = PV ( 1 + n x r ) \quad (3)$$

2. Murakkab foiz sxemasi:

$$FV_2 = PV + PV x r + PV x r x r,$$

$$FV_2 = PV ( 1 + 2 r + r x r ),$$

$$FV_2 = PV ( 1 + r )^2, \quad (4)$$

bunda, $FV_2$-ikkinchi investitsion davr so'nggidagi kelgusi qiymat.

n-chi davr oxirida murakkab foiz ostida kelgusi qiymatni quyidagi tenglama bo'yicha aniqlash mumkin:

$$FV_n = PV ( 1 + r )^n, \quad (5)$$

Agar n=0 bo'lsa, u holda (5) tenglamadan kelib chiqib quyidagi hosil bo'ladi:

$$FV = PV ( 1 + r )^0,$$

$$FV = PV$$

(5) tenglama *moliya menejmentining bazaviy formulasi* hisoblanadi va *murakkab foiz (kompaunding)ning standart formulasi* deb ataladi.

(5) - bazaviy tenglamadagi $(1 + r)^n$ kelgusi qiymat o'sishining koeffisiyenti yoki *komnaund-omil* deb ataladi. Kelgusi qiymat o'si-

ni koeffitsiyentining iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, u berilgan r foiz stavkasi ostida bir pul birligi n davrdan so‘ng nimaga teng bo‘lishini ko‘rsatadi iborat.

Pul oqimining kelgusi qiymati o‘sishi koeffisiyentini hisoblash uchun uchta asosiy usulni qo‘llash mumkin.

1. Jadval yordamida hisoblash.

Turli xil *n* davrlar va *r* foiz stavkalari uchun kelgusi qaymat koeffisiyentini diskontlashtirish va o‘sib borish jadvallaridan topish mumkin.

2. Kalkulyator yoki moliyaviy kalkulator yordamida hisoblash.

Kalkulyator $u^x$ funksiyasi orqali kelgusi qiymatni hisoblab topishga yordam beradi. $u^x$ funksiyasida: u = 1 + r, x = n deb olinadi.

3. Kompyuter dasturlaridan foydalanish yo‘li bilan hisoblash.

Agar kelgusidagi o‘sish yagona vaqt davriga nisbatan sodir bo‘ladigan bo‘lsa, bir qancha pul oqimlarining kelgusi qiymati jamlanishi mumkin.

Hozirgi (keltirilgan, joriy) qiymat, bu – kelgusi pul oqimining bugungi qiymati va u PVni anglatadi. Pul oqimining hozirgi qiymati shunday kapital miqdorini ifodalaydiki, u-yillik foiz stavkasi bilan investitsiya qilinadigan va pul oqimining kelgusi qiymatiga teng o‘sishni ta’minlovchi qiymatdir. Ta’minlovchi qiymatdir. Pul oqimining hozirgi, bugungi qiymati o‘zini investorning kelgusi pul oqimini olish uchun hozirda to‘lashga, sarflashga rozi bo‘lgan maksimal bahosi sifatida namoyon bo‘ladi. Kelgusi qiymatdan hozirgi qiymatga tomon harakatlanish jarayoni *diskontlashtirish jarayoni* deb ataladi.

G.Birman va S.Shmidtning «Investitsion loyihalarning iqtisodiy tahlili» kitobida ta’kidlanganidek, hozirda yirik firmalarning 90%idan ortig‘i investitsiyalash to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilishda pul oqimlarini diskontlashtirish usullaridan foydalanishmoqda.

Hozirgi qiymatni hisoblab topish uchun moliyaviy menejmentning (5) bazaviy tenglamasini eslaymiz. Bu tenglamadan kelib chiqadiki:

$$PV = FV^{\frac{1}{(1+r)^n}} \qquad (6)$$

Hozirgi qiymatni, qo'pincha, kelgusi pul oqimining diskontlashtirilgan qiymati deb ham atashadi. (6) tenglamadagi r foiz stavkasi diskontlash stavkasi sifatida ma'lum. Hozirgi qiymatni topish uchun kelgusi qiymatni diskontlash zarur.

(6) tenglamadagi $\frac{1}{(1+r)^n}$ nisbatni

*hozirgi qiymatning diskontlash koeffisiyenti* yoki *disktontlash omili* deb atashadi. Hozirgi qiymatning disktontlash koeffisiyenti va kelgusi qiymatning o'sib borish koeffisiyenti o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Hozirgi qiymatning diskontlash koeffisiyentini hisoblashning uchta asosiy usulini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Jadvallar yordamida hisoblash.

Turli xil *n* davrlar va *r* foiz stavkalari uchun hozirgi qiymat koeffisiyentlarini pul oqimlarini diskontlash va o'sib borish jadvallaridan topish mumkin.

2. Kalkulyator yoki moliyaviy kalkulyator yordamida hisoblash.

Kalkulyator $u^x$ funksiyasi orqali hozirgi qiymatni hisoblashga yordam beradi. $u^x$ funksiyasida: y=1+r, x=-n deb olinadi.

3. Kompyuterda elektron jadvallar yordamida hisoblash.

Agar pul oqimlari bir yoki umumiy vaqt oralig'ida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, u holda bir qancha pul oqimlarining hozirgi qiymatlari jamlanishi mumkin.

Har bir davrda *n* bir xil doimiy pul oqimlaridan birining ketma-ketligi *annuitet* deb ataladi. Bunday holatda annuitetning pul tushumlarini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$SF_1=CF_2=\ldots=CF_n=CF$

Tushumlarning kelib tushish vaqti bo'yicha annuitet ikki turga ajratiladi:

1. Oddiy (postnumerando) annuitet – to'lovlar har bir davr oxirida yuz bersa.

2. Avansli (preumerando) annuitet -- to'lov (tushum)lar har bir davr boshida sodir bo'lsa.

Annuitet, shuningdek pul oqimining davomiyligi bo'yicha ham farqlanadi:

1. Muddatli annuitet - chegaralangan vaqt oralig'i davomidagi teng miqdordagi tushumli pul oqimi;

2. Muddatsiz annuitet – pul tushumlari ancha uzoq vaqt sodir bo'lsa.

Oddiy annuitetning kelgusi qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$FV=CF(\frac{(1+r)^n-1}{r}) \quad (7)$$

bunda, CF – n davrdagi annuitetning pul tushumlari.

$\frac{(1+r)^n-1}{r}$ (7) tenglamadagi koeffisiyent *annuitet kelgusi qiymatining o'sib borish koeffisiyenti* deb ataladi.

Annuitet kelgusi qiymatining o'sib borish koeffisiyentini hisoblashning uchta asosiy usuli mavjud:

1. Jadval yordamida hisoblash.

N vaqtning turli xil davrlari va *r* foiz stavkalari uchun annuitetning kelgusi qiymati koeffisiyentini diskontlash va o'sib borish jadvallaridan topish mumkin.

2. Kalkulyator yoki moliyaviy kalkulyator yordamida hisoblash.

3. Kompyuterda elektron jadvallar yordamida hisoblash.

Avansli annuitetning oddiy annuitetdan farqi shundaki, avansli annuitetda pul to'lovi har bir davr boshida kelib tushadi. Masalan, har bir oy boshida ijara to'lovlar to'lanadigan kvartira ijarasi.

(7) tenglamani hisobga olgan holda *n* vaqtning davrlari pul oqimi uchun avansli annuitetning kelgusi qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$$FV=CF(\frac{(1+r)^n-1}{r})(1+r) \quad (8)$$

Odatda, ko'pgina amaliy masalalarda annuitetning hozirgi (joriy, haqiqiy) qiymatini bilish talab etiladi. n vaqt davrlari pul oqimi uchun oddiy (odatdagi) annuitetning hozirgi qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$PV=CF(\frac{1}{(1+r)}+\frac{1}{(1+r)^2}+...+\frac{1}{(1+r)^n})=CF\sum_{i=1}^{n}(\frac{1}{1+r})^n \quad (9)$$

So'nggi tenglikni quyidagicha shaklan o'zgartirish mumkin:

$$PV=CF(\frac{1-\frac{1}{(1+r)^n}}{r}) \quad (10)$$

(10) tenglama *oddiy (odatdagi) annuitetning joriy qiymatini hisoblash formulasi* deb ataladi.

$\frac{1-\frac{1}{(1+r)n}}{r}$ (10) tenglamadagi ( ) koeffisiyent *annuitet joriy qiymatini disktontlash koeffisiyenti* deb ataladi. Annuitetning hozirgi qiymatini diskontlash koeffisiyentini hisoblashning uchta asosiy usuli mavjud.

1. Jadval yordamida hisoblash.

*n* vaqtning turli davrlari va *r* foiz stavkasi uchun annuitetning hozirgi qiymati koeffisiyentini diskontlash va o'sib borish jadvallaridan topish mumkin.

2. Kalkulyator yordamida hisoblash.

3. Kompyuterda elektron jadvallar yordamida hisoblash.

Amaliyotda pul tushumlar davr boshida kelib tushuvchi pul oqimlari uchun hozirgi qiymatni hisoblash to'g'risidagi savol yetarlicha tez-tez kun tartibiga qo'yilmoqda. (10) tenglamani hisobga olgan holda *n* vaqt davrlari pul oqimi uchun avansli annuitetning joriy qiymatini quyidagi ko'rinishda hisoblab topish mumkin:

$$PV=CF(\frac{1-\frac{1}{(1+r)n}}{r})\quad(1+r) \qquad (11)$$

Annuitetning ko'rinishlaridan yana biri *muddatsiz annuitet* hisoblanadi. Pul tushumlari yetarlicha uzoq vaqt davom etgandagi annuitet *muddatsiz annuitet* yoki *perpetuitet* deb ataladi.

Muddatsiz annuitetni baholashning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. (9) tenglamada agar *n* vaqt cheksiz yoki chegaralanmagan bo'lsa, u holda muddatsiz annuitet koeffisiyenti quyidagicha bo'ladi:

$$\sum_{i=1}^{n}(\frac{1}{1+r})^n \to \frac{1}{r}$$

U holda:

$$PV=CF(\frac{1}{r}) \qquad (12)$$

(12) tenglama *muddatsiz annuitetning joriy qiymatini hisoblash tenglamasi* deb ataladi. Bunday holatda muddatsiz annuitetning joriy qiymati investorning muddatsiz pul tushumlari uchun to'lashga rozi bo'lgan maksimal bahosini ko'rsatadi. Buning uchun tenglamaning suratida-yillik tushumlar hajmi qo'llaniladi,mahrajda esa diskontlash koeffisiyenti sifatida, odatda, kafolatlangan foiz stavkasi qo'llaniladi (masalan, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foiz).

Amaliyotda pulning ma'lum vaqtdagi qiymati bilan bog'liq bo'lgan va ilgari ko'rib chiqilmagan holatlar uchrab turadi. Ko'pchilik bunday holatlar uchun yangi tenglamalar kiritish lozim emas, balki asosiy tenglamalarni moslab olish mumkin. Korxonalarning moliyaviy faoliyatida foizlarni hisoblash yarim-yilda, kvartal, oy, xafta va kunda bir marta amalga oshiriladi. Foizlar qanchalik ko'p va tez-tez hisoblansa, jami jamg'arilgan summa shunchalik ko'p bo'ladi. Yil ichidagi foizlarni hisoblashda (5) bazaviy tenglamadan foydalana olish uchun. Quyidagilarni aniqlash zarur:

– davriy foiz stavkasini;

– *n* vaqtda amalga oshirilgan pul to'lovlari davrlari sonini. *r* davriy foiz stavkasini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$r = \frac{APR}{m}, \qquad (13)$$

bunda, APR – nominal-yillik foiz stavkasi;

*m* – bir yilda foiz hisoblashlar soni.

Pul to'lovlarining davrlari soni (*n*) quyidagicha hisoblanadi:

$$n = kxm, \qquad (14)$$

bunda, k –yillar soni.

U holda, (5) tenglamadan kelib chiqib:

$$FV = PV\left(1 + \frac{APR}{m}\right)^{kxm} \qquad (15)$$

Foizlar qanchalik ko'p marotaba, tez-tez hisoblansa, yakuniy jamg'ariladigan summa shunchalik ko'p bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korxonalarda pul oqimlarining tarkibini o'rganish ularni kelgusidagi xajmi va miqdorini aniqlash korxona moliyaviy menejerlaridan ko'plab nazariy va amaliy ko'nikmalarni talab qiladi. Korxonalarda istiqboldagi pul oqimlarini to'g'ri aniqlash va hisoblash korxonaning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib sanaladi.

## 2-§. Korxonalarda pul mablag‘lari oqimini bashoratlash va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Korxonalarda pul oqimlarini bashorat qilishning yana bir muhim jihatlaridan biri korxonada pul mablag‘lari byudjetini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘lib hisoblanadi. Korxonalar faoliyatini bir me’yorda tashkil etish va boshqarish uchun ma’lum mablag‘lar manbalarini shakllantirish hamda ularni korxonaning Nizom faoliyatidagi vazifalarni bajarish maqsadida tegishli xarajatlar bo‘yicha yo‘naltirish zarur bo‘ladi. Shu ma’noda korxona kundalik faoliyati va ehtiyojlarini moliyaviy ta’minlash uchun uning pul mablag‘lari budjetini tuzish zaruriyati tug‘iladi. Pul mablag‘lari budjetini tashkil etish korxonada pul mablag‘larini tashkil etish manbalarini, pul mablag‘larini investitsiyalash yo‘nalishlarini hamda pul mablag‘larini ko‘paytirish va foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, korxona moliyaviy xizmati oldidagi muhim masala hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotda, ayniqsa, ingliz tilidagi adabiyotlarda «reja» va «budjet» tushunchalari o‘rtasidagi farq aniq izohlanmoqda. Mazkur tushunchalarning talqin etilishi ayniqsa, Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya davlatlari kompaniyalari byudjetini tayyorlash jarayonidagi xususiyatlar sharhida yorqin ifodalangan. G’arb davlatlari mutaxassislarining ishlaridagi ushbu tushunchalar izohlanishini tarjima qilingan iqtisodiy adabiyotlarda ham uchratish mumkin. Jumladan, B.Kolassning fikricha, rejalashtirishning uch turi farqlanadi: a) strategik; b) o‘rta muddatli yoki operativ; v) qisqa muddatli yoki budjet orqali rejalashtirish.

«Reja» tushunchasi birmuncha keng ma’noda tushuniladi va tegishli maqsadlarga erishishga qaratilgan harakatlar va tadbirlarning keng ko‘lamini ifodalaydi. «Budjet» - birmuncha «tor» ma’nodagi tushuncha bo‘lib, harakatlar va tadbirlar rejasining miqdoriy, qiymatdagi ifodasi hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bizning sharoitda hanuzgacha «budjet» tushunchasini maxsus tarzda ma’lum subyekt daromadlari va xarajatlarini tegishli muddatdagi smetasi sifatida tushunish ustunlik qilib kelmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxona moliyaviy muvaffaqiyatining muhim garovi sifatida pul oqimlarini boshqarish-

ning ilmiy asoslangan usullaridan samarali foydalanish maydonga chiqadi. Mazkur muammoni chuqurroq yoritish quyidagi masalalarni ko'rib chiqishni talab etadi:

- korxona pul mablag'lari aylanishining tarkibi va qonuniyatlarini o'rganish;

- korxonaning pul mablag'lari aylanishini boshqarish tizimini o'rganish;

- pul oqimlari mohiyati, turlari va baholash usullarini o'rganish;

- korxona pul oqimlarini hisoblashning bevosita va bilvosita usullarini yoritish va h.

Ushbu masalalarni yanada aniq tarzda ko'rib chiqamiz.

Korxona pul mablag'lari aylanishining tarkibi.

Korxona kapitalining individual doiraviy aylanishi jarayonidagi pul massasining real harakati uning pul oqimini tashkil qiladi. Pul-tovar munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish moddiy omillarining individual doiraviy aylanishi korxona omboriga moddiy qiymatliklarni kirim qilinishidan boshlanadi va tayyor mahsulotni sotilishi bilan yakunlanadi. Ushbu jarayonda pul mablag'lari harakati ham bevosita ishtirok etadi. Kapitalning doiraviy aylanishi ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun pul mablag'larini to'lanishidan boshlanadi. Mehnat haqi to'lash uchun pul mablag'larining jalb qilinishi ishlab chiqarishning bosh omili sifatida uning har qanday ijtimoiy shaklida alohida o'rin egallaydi. Pul mablag'lari doiraviy aylanishining birinchi bosqichida sarflanmaydi, balki faqat avanslanadi va keyinchalik mahsulot sotishdan tushgan tushum hisobidan qoplanadi. Qiymatning shakl o'zgarishi yuz beradi - qiymatning bir qismi pul shaklidan tovar shakliga aylanadi. Pul mablag'larining yana bir qismi xodimlar mehnat haqini to'lash uchun avanslanadi va xodimlar ixtiyoriga o'tgandan so'ng iste'mol vositalarini (hayotiy zarur vositalar jamg'armasini) hosil qiladi.

Doiraviy aylanishning ikkinchi bosqichida ya'ni ishlab chiqarish jarayonida moddiy boyliklarni yaratish uchunishlab chiqarish kuchlari tomonidan ishlab chiqarish vositalarining unumli iste'moli amalga oshiriladi. Bu bosqichda qiymat shakllarining o'zgartirilishi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun pul

mablag'larini tugallanmagan ishlab chiqarishga jalb qilinishi bilan boradi.

Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulot tarkibida jalb qilingan qiymat (buyumlashgan mehnat) va yangi yaratilgan qiymat - qo'shimcha mahsulot bo'ladi. Mablag'lar doiraviy aylanishining uchinchi bosqichida qiymatning tovar shakli pul shakliga aylanadi va mahsulot sotishdan tushgan tushum shakllantiriladi. Doiraviy aylanishning bu bosqichida korxonalar bilan sotilgan mahsulotlar yuzasidan pul munosabatlari, shuningdek, foydaning ishlatilishi va uning soliqqa tortilishi yuzasidan pul munosabatlari kelib chiqadi.

Korxonaning barqaror faoliyat ko'rsatishi va aylanma mablag'lar harakati uzluksizligining ta'minlanishi uchun kapital doimo ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida birdaniga band bo'lishi va doimo qiymatning yuqorida aytib o'tilgan uch shaklida (pul, ishlab chiqarishva tovar) ham mavjud bo'lishi shart. chunki bularning istalgan biri bo'lmagan holda kapitalning individual doiraviy aylanishi to'xtab qoladi.

Mablag'larning individual doiraviy aylanishi jarayonida korxona pul mablag'lari kategoriyasiga xos bo'lgan barcha funksiyalarni (qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov visitasi, jamg'arish) ham bajaradi.

Korxonaning mablag'lari aylanishi turli xo'jalik operatsiyalari natijasida pul to'lovlari amalga oshirilganligi sababli amalga oshiriladi. Bu xo'jalik operatsiyalarining ularning iqtisodiy mazmuniga qarab uch asosiy kategoriyaga: joriy; investitsion va moliyaviy faoliyat kategoriyalariga guruhlanishi mumkin. Bunday guruhlash har bir faoliyat turi bo'yicha alohida moliyaviy natijalarni hisoblab chiqarish imkonini beradi.

Xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlariga o'tilayotgan sharoitda pul mablag'lari resurslar ichida miqdor jihatdan eng chegaralangan resurslardan biri bo'lib, korxonalar muvaffaqiyati ushbu resurslardan qanday darajada unumli foydalanilayotganligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham pul mablag'lari oqimi (harakati)ni rejalashtirish va nazorat qilish korxonalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

«Pul oqimi» - inglizcha «Cash Flow» (naqd pul oqimi) – ko‘rsatkichiga mos keluvchi ko‘rsatkich bo‘lib, vaqtning u yoki bu davri mobaynida korxonadagi pul mablag‘lari harakatlarining natijalarini aks ettiradi. Pul harakatlari to‘g‘risidagi birinchi hisobotlar moliyaviy tahlilchilar tomonidan qimmatbaho qog‘ozlar bozorida foydalanish uchun foydalanilgan. Bu hisobotlar korxonalar aksiyalarini baholash va istiqbolli moliyaviy qo‘yilmalarni belgilash uchun juda qulay bo‘lgan, chunki pul mablag‘lari harakati natijalari foyda va ko‘rsatkichidan ko‘ra ahamiyatliroq bo‘lgan. Ko‘pchilik hollarda korxonadi pul mablag‘larining bor yoki yo‘qligi uning foyda bilan ishlayotganligi yoki yo‘qligi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi, lekin bu bog‘liqlik doimo aniq ko‘rinib turmaydi. Foyda ko‘rinishdagi moliyaviy natija shunday buxgalteriya hisobi tamoyiliga ko‘ra aniqlanadiki, unga ko‘ra pul mablag‘larining harakati amalda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligidan qat’iy nazar harajatlar va daromadlar qaysi davrda amalga oshirilgan bo‘lsa, aynan o‘sha davrdagi hisobot davri hisobiga yoziladi. Ba’zi bir harajatlarning va zahiralarning hisoblanishi (masalan amortizatsion ajratmalar, kelgusi davr to‘lovlari uchun zahiralar) mahsulot tannarxini orttirgan holda amalda pul mablag‘larining to‘lanishini taqozo etmaydi.

Korxonaning investitsion operatsiyalari foyda miqdorini aniqlashda faqatgina asosiy vositalarni sotishdan ko‘rilgan moliyaviy natija sifatida qisman hisobga olinadi, xolos. Moliyaviy operatsiyalar (masalan: kreditlar va qarzlarning olinishi va qoplanishi, maqsadli moliyalashtirish) ham foyda miqdorini aniqlashda hisobga olinmaydi.

Ma’lumotlarning tashqi iste’molchisi ushbu kamchiliklardan holi bo‘lgan moliyaviy natija ko‘rsatkichiga ega bo‘lishi uchun foyda ko‘rsatgichga hisoblangan amortizatsiya miqdorini ham qo‘shib ko‘rib chiqishlari mumkin.

*Pul oqimlari=sof foyda + amortizatsiya.*

Pul oqimining shunday tushunilishi korxona faoliyatining asosiy moliyaviy maqsadlariga mos keladi:

– likvidlikni ta’minlash;

– foyda olinishiga erishish;

– o‘z kapitali miqdorining yetarlicha bo‘lishini ta’minlashga erishish.

Korxona pul mablag‘larini boshqarishning eng birinchi vazifasi korxonaning likvidligini ta’minlashdir. Likvidlikni ta’minlab turish naqadar jiddiy ahamiyatga ega ekanligini bankrot deb e’lon qilish va faoliyatini to‘xtatish havfiga olib borishi mumkin bo‘lgan to‘lovlarni o‘z vaqtida bajarmaslik kabi xatarlar mavjudligi nuqtayi nazaridan namoyon bo‘ladi. Barcha strategik va operativ qarorlarni ushbu mutanosiblikni ta’minlab turishga mos keladimi yoki yo‘qmi degan nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish, so‘ngra yakuniy qarorlar qabul qilish zarur.

Shu bilan birga moliyaviy resurslarni pul mablag‘lari ko‘rinishida band qilib qo‘yish ma’lum bir yo‘qotishlarni ham keltirib chiqaradi. Shartli ravishda qandaydir qatnashish mumkin bo‘lgan, lekin qatnashilmagan investitsion loyihadan olinishi mumkin bo‘lgan foyda bilan baholash mumkin. Shuning uchun korxona mablag‘larini taqsimlayotganda bir-birini istisno qiluvchi quyidagi ikki holatni hisobga olishimiz zarur: korxonaning likvidliligi; faoliyat rentabilligi.

Moliyaviy menejer pul mablag‘lari oqimini shunday boshqarishi lozimki, bunda korxona rentabilligi maksimal darajada bo‘lishi ta’minlanishi lozim. Shuningdek, korxona likvidliligini ta’minlash ham u qadar qimmatga tushmasligi zarur. Moliyaviy menejer rentabillik va likvidlilik ko‘rsatkichlarining maqbul balansini topishi va ta’minlashi zarur.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, korxonaning pul oqimlari uch faoliyat turi bo‘yicha guruhlanadi: joriy, investitsion va moliyaviy. Pul oqimlari joriy faoliyatining ustuvor yo‘nalish ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz zarur. Yildan-yilga joriy faoliyat bo‘yicha ortib boruvchi pul oqimi korxona faoliyati muvaffaqqiyatining eng birinchi sharti va uning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi bosh omildir. U joriy faoliyatdan olingan tushumlar nafaqat oddiy balki kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni ham tashkil etish uchun yetarli ekanligini bildiradi.

Mol-mulklar sotib olinishi, qarzlarning qaytarilishi va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarning to‘lanishi asosan joriy faoliyat

hisobiga moliyalashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu an'anani ta'minlay olgan korxona reytingi doimo yuqori bo'ladi.

Korxonada pul mablag'lari oqimini byudjetlashtirish – bu korxona pul mablag'lari doiraviy aylanish jarayonini operativ boshqarish yoki muntazam tartibga solish va tahminlashtirishning tadbirlari hamda vositalari yig'indisidir. Mazkur holatda tor ma'nodagi, ya'ni umumiy pul mablag'lari oqimining tarkibiy qismi sifatidagi tushuncha haqidagi fikr yuritilishi, yoki moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga mos pul mablag'lari oqimi to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan keng ma'nodagi pul mablag'lari oqimi haqida fikr yuritilishi mumkin. Pul mablag'lari oqimi tor ma'noda korxona bog'langan joriy aktivlariga xizmat ko'rsatishni xususiyatlovchi jami pul mablag'lari oqimining tarkibiy qismini aks ettiradi. Bu xususiyat mazkur masalani ko'pchilik mualliflar tomonidan korxona aylanma kapitalini boshqarish muammosi sifatida o'rganilishiga asos bo'ldi.

Xalqaro moliyaviy amaliyotda bog'langan resurslarni ikki mezon asosida ko'rib chiqish lozimligi ta'kidlanadi:

– korxona quvvati bilan bog'liqlik;

– davriylik (vaqt oralig'i) bilan bog'liqlik.

Birinchi mezonning tasnifi yuqorida ta'kidlanganidek, ishlab chiqarish quvvatlarining (takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining) uzluksiz ish faoliyatini ta'minlapsh uchun qanday resurslar zarurligini aniqlash imkonini bersa, ikkinchi ko'rsatkich bog'langan resurslarning qanchalik eng kichik miqdori ushbu faoliyatni ta'minlash uchun etarli bo'lishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Korxonaning moliyaviy oqimlarini joriy boshg'arish uning joriy pul oqimlarini boshqarish demakdir.

Korxona oldida har kuni quyidagi savollar turadi:

– bugungi kechiktirib bo'lmas harajatlarni nima hisobidan va qanday yo'l bilan to'lash kerak;

– bugun hosil bo'lgan bo'sh pul mablag'larini qachon, qayerga va qanday shartlar bilan yo'naltirish kerak.

Amaliyotda har qanday korxona faoliyatida ham moliyani boshqarishni alohida bir faoliyat turi – joriy, investitsion, moliyaviy

faoliyat turlari bo‘yicha pul oqimlarini boshqarish bilan bir xil bo‘ladi deb ayta olmaymiz. Birinchi qarashda alohida bir faoliyat turi bo‘yicha moliyaviy oqimlarni boshqarish korxonaning moliyaviy menejmenti vazifalarini ancha soddalashtirganga o‘xshab ko‘rinadi. Alohida bir faoliyat sohasining daromadlilik darajasi haqida etarlicha aniq tushunchaga ega bo‘lsak-da, bu ko‘rsatkichga jiddiy ta’sir o‘tkazuvchi qator omillar mavjudki, ularni hisobga olmasdan chiqarilgan har qanday hisob-kitoblar noto‘g‘ri bo‘ladi. Pul mablag‘lari oqimining joriy boshqarishda qarorlar qabul qilinishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

– korxonada qaysidir faoliyat turini ustivor deb belgilanganligi: joriy faoliyat hamisha ustuvor deb belgilanadi, investitsion va moliyaviy faoliyat esa, faqatgina joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun yetarli darajadagina amalga oshiriladi. Shuning uchun ham - «asosiy faoliyat», ya’ni korxonaning sotuv bozoridagi o‘rnini va raqobatchilar orasidagi mavqeini belgilab beruvchi faoliyat termini qo‘llaniladi.

– korxonada alohida moliyalashtirish tartibini talab qiluvchi strategik maqsadlar ta’minlanganligi: a) oldindan aniq bo‘lmagan vaqt momentida (masalan korxonaning doimiy talablariga ustuvor yo‘nalishi asosiy faoliyatni moliyalashtirish bo‘lganligiga qaramay korxonani qiziqtirgan mahsulot uchun texnik hujjatlar sotib olish uchun bugungi davrda pul ajratilishi zarur); b) oldindan aniq bo‘lgan vaqt davomida;

– mol yetkazib beruvchilar va haridorlar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlardagi kutilmagan o‘zgarishlar; masalan, doimiy hamkorning bankrotlikka uchrashi kabi;

– pul oqimi barqaror emasligi farqi.

Ko‘pdan-ko‘p qarama-qarshi omillar ta’siriga uchrab turuvchi pul mablag‘lari oqimini samarali budjetlashtirish faqatgina ushbu omillar ta’sir kuchini to‘g‘ri baholagan holda maqbul qaror qabul qilingandagina mumkin bo‘ladi. Shuning uchun budjetlashtirish uslubiyotiga asos qilib, xo‘jalik faoliyatini turlarga ajratmagan holda, uning uzviy va uzluksizli tamoyili asos qilib olingan. Moliyaviy mablag‘larning doiraviy aylanishida ba’zi pul

mablag'lari hosil bo'lsa va ulardan foydalanishning samarali yo'llarini qidirib topish zaruriyati vujudga kelganda yoki zudlik bilan qoplanishi zarur bo'lgan to'lovlar zarurati kelib chiqqandagina faoliyatni turlarga bo'lish mumkin bo'ladi.

Pul mablag'larini boshqarishning asosiy tushunchalaridan biri pul oqimi sikli tushunchasidir. Pul oqimi tsikli bu – vaqtning shunday bir qismiki, uning davomida pul mablag'larini aylanma mablag'larga jalb qilinishi, ushbu aktivlarni ishlatilishi natijasi sotilishi va sotishdan olingan tushumning kelib tushishi amalga oshiriladi. Siklning yuqorida ko'rsatilgan ketma-ketligi, ularning har biri uchun sarflanuvchi vaqt intervali ham siklning klassik tizimini bildiradi.

Lekin amaliyotda ushbu siklni tashkil qiluvchilarning ketma-ketligi ham, ularning har biriga sarflanuvchi rejalashtirilgan vaqt intervali ham buzlishi yoki boshqacha qilib aytganda rejadan chetga chiqishi mumkin. Buning natijasida pul oqimini qo'shimcha kapitalni jalb etish hisobiga to'ldirish zaruriyati yoki hosil bo'lgan pul oqimini ortgan qismini boshqa yo'nalishlarda ishlatish zaruriyati yuzaga keladi.

Pul oqimi harajatlarining real hayotdagi qarama-qarshi natijalarining uchrab turish imkoniyati mavjudligining o'zi korxona moliyachilarini pul oqimi tsiklini ongli boshqarishga majbur etadi.

Pul oqimi birinchi tsikli sxemasi klassik tsiklning mazmunini ifodalaydi va uning ko'rsatkichlari aylanma aktivlar alohida qismlarini mukammallashtirish (me'yorlashtirish) jarayonida hisoblangan:

– ishlab chiqarish zahiralari me'yori - 30 kun;

– tayyor mahsulotning ombordagi me'yori – 30 kun;

– muddati o'tmagan debitorlik qarzi me'yori – 90 kun;

– pul mablag'lari qoldig'i me'yori 10 kunlik tushum miqdorida;

– qisqa muddatli kreditorlik qarzining o'rtacha davomiyligi - 90 kun.

Tsiklning har qaysi tarkibiy qismlari bir kunlik tushum ko'lamida hisoblangan. Bu narsa shu bilan izohlanadiki, siklning

barcha tarkibiy qismlari korxonaning bog‘langan aktivlari kabi tushum hisobiga qayta shakllantiriladi.

Shunday qilib, pul oqimini boshqarish pul oqimi tsiklini minimallashtirishga va mos ravishda aylanma mablag‘larga jalb qilingan kapital miqdorini minimallashtirishga yo‘naltirilgan.

Ushbu boshqarishning algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Tashkil topgan pul oqimi tsikli sxemasini qurish.
2. Pul oqimi tsiklining har bir tashkil etuvchilarini tahlil etish.
3. Siklining har bir tashkil etuvchilarini optimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.
4. Pul oqimlari siklini qayta tashkil etish.
5. Pul oqimlari tsiklining har bir tashkil etuvchilarini va umuman siklning o‘zini optimal ko‘rsatkichlarini ta’minlash va ushbu darajada ushlab turilishini nazorat qilib borish.

Ushbu algoritmni amalga oshirilishini ta’minlash ko‘plab sohadagi korxona mutaxassislarini jalb qilish zaruratini keltirib chiqaradi, lekin bunda asosiy o‘rinni moliyachilar egallaydilar. Hozirgi sharoitda ushbu algoritmdan foydalanishga ko‘r-ko‘rona yondoshuv pul oqimlari siklini ongli boshqaruvdagi malakava mahoratning etishmasligidan ham xavfliroq bo‘lishi mumkin.

Korxona pul mablag‘lari oqimini tartibga solishning bosh vazifasi – korxona ixtiyorida uning likvidliligini ushlab turish uchun zarur bo‘lgan mavjud pul mablag‘lari miqdori va ortiqcha pul mablag‘larini ularning foydaliligini ushlab turish maqsadida maqbullashtirishni ta’minlashdan iborat. Bunday maqbullash-tirishning ahamiyati biznes - siklning pasayishi davrlarida, ya’ni korxona ishchan faolligi kamayishi holatlarida yanada ortadi.

**Muzokara va muhokama uchun savollar**

1. Pul mablag‘lari oqimi deganda nimani tushunasiz?
2. Korxonada pul mablag‘lari oqimini qanday baholash usullari mavjud?
3. Pul mablag‘larini bashoratlash deganda nimani tushunasiz?
4. Korxona moliyaviy menejerining pul mablag‘lari oqimini boshqarishdagi asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

5. Moliyaviy faoliyatdaт keladigan pul mablag'lariga nimalar kiradi?

6. Investitsion faoliyatdan keladigan pul oqimlariga nimalar kiradi?

7. Pul oqimi harakati asosida foizlarni hisoblashning qanday usullari mavjud?

8. Pul oqimining kelgusi qiymati qanday hisoblanadi?

9. Pul oqimining hozirgi qiymati qanday hisoblanadi?

10. Moliyaviy bashoratlashning asosiy metodlarini sanab bering.

# VIII BOB. XARAJATLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA DAROMADLARNI MAKSIMALLASHTIRISH MASALALARI

## 1-§. Korxona daromad va xarajatlarining iqtisodiy mohiyati va shakllanish manbalari

Korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlari deyilganda, korxonaning daromad, xarajat, foyda va shu kabi ko'rsatkichlari tushuniladi. Bevosita ushbu ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy holati va barqarorligini ifodalovchi asosiy manbalar bo'lib hisoblanadi.

Daromad ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Daromad iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o'zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida ko'tariladi. Daromadni barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonunini va xo'jalik yuritish usuli sifatida xo'jalik hisobining obyektiv talabidir. Daromad iqtisodiy harakatning zaruriy sharti, maqsadi sifatida qaraladi. Jahon amaliyotida daromad deyilganda ko'pincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Daromad bu foyda va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o'zgaruvchanlikdir. Ular orasidagi quyi o'zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi daromadni o'lchashga daxldor bo'lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlarni, ya'ni daromadni aniqlash va o'lchash - korxona o'z moliyaviyhisobotini tayyorlashda daromadlaniladigan kapital konseptsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog'liq bo'ladi.

Daromadlar va xarajatalar elementlari quyidagicha aniqlanadi. Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foyda aktivlarning oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarning qatnashchilar kapitaldagi omonatlaridan farq etuvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishidir. Bugungi kunda bozor munosabatlari sharoitida

korxonalarning moliyaviy rejalashtirish ko‘rsatkichlarini tahlil etishda korxonalar moliyasining eng asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– korxonaning daromadlilik darajasiga baho berish;

– korxonaning moliyaviy natijalari tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishlariga baho berish;

– biznes rejada belgilangan daromadlilik darajasiga erishilganligi va unga ta’sir etgan omillarni o‘rganish hamda baho berish;

– daromadning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish;

– daromadning ko‘paygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan va boshqa faoliyatlardan erishilgan natijaning ta’sir etishini aniqlash;

– korxonaning yalpi foydasi va unga ta’sir etuvchi omillarga baho berish;

– soliqqa tortilgunga qadar bo‘lgan daromadning shakllanishiga va unga ta’sir etuvchi omillarga baho berish;

– korxonaning sof foydasi va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish, hamda baho berish;

– sof foydani ko‘paytirish yo‘nalishlarini belgilab berish;

– korxonaning rentabellik ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ularga ta’sir etuvchi omillarga baho berish;

– korxonaning umumiy rentabellik darajasini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va hakozolar.

«A» korxonasining 2008–2011-yillardagi yalpi foyda xajmi o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lgan. 2008-yilda korxonaning yalpi foyda xajmi1 374 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bunda asosiy faoliyatdan sof tushum 3595 mln.so‘mni va sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi 2222 mln.so‘mni tashkil etgan. 2009-yilda ham korxonaning yalpi foyda ko‘rsatkichi o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lgani holda 1 177 mln.so‘mni tashkil etgan.

**«A» korxonaning asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlarining tahlili**

*8.1-jadval*

| Ko‘rsatkichlar | 2008 y. (mln. so‘m) | | 2009 y. (mln. so‘m) | | 2010 y. (mln. so‘m) | | 2011 y. (mln. so‘m) | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlar | | | | | | | | |
| Asosiy faoliyatdan sof tushum | 3 595 | 100% | 4 287 | 100% | 5 240 | 100% | 5 768 | 100% |
| Sotilgan mahsulot (tovar va xizmat)lar-ning tannarxi | 2 222 | 62% | 3 110 | 73% | 4 063 | 78% | 4 229 | 73% |
| Yalpi foyda | 1 374 | 38% | 1 177 | 27% | 1 178 | 22% | 1 539 | 27% |

Asosiy faoliyatdan sof tushum 4287 mln.so‘m va sotilgan mahsulotlarning tannarxi 3110 mln.so‘mni tashkil etgan. Korxonada 2010-yilga kelib yalpi foyda ko‘rsatkichi o‘tgan yilgiga nisbatan deyarli o‘zgarmagan holda 1178 mln.so‘mdan iborat bo‘lgan. Asosiy faoliyatdan sof tushum 5240 mln.so‘mni va sotilgan mahsulotlarning tannarxi 4063 mln.so‘mni tashkil etgan. 2011-yilga korxonaning mahsulot tannarxi xom ashyo mahsulotlari narxining oshishi va korxonada asosiy faoliyatdan tushumning o‘sishi hisobiga korxonaning yalpi foydasi kamayish tendentsiyasiga ega bo‘lgani holda 1539 mln.so‘mni, asosiy faoliyatdan sof tushum 5768 mln.so‘mni va sotilgan mahsulotlarning tannarxi 4229 mln.so‘mni tashkil etgan.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda asosiy axborot manbasi sifatida 2-shakl – «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»dan foydalaniladi. «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot» (2-shakl) mahsulot ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) jarayonining yakuniy mahsuli bo‘lib, u ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, korxona daromadlarining bir qancha turi bo'lib, ulardan yana biri operatsion faoliyatdan olingan daromadlar yoki qilingan xarajatlar hisoblanadi. Biz quyidagi 8.2-jadval orqali «A» korxonasining ushbu ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqamiz.

«A» korxonasida asosiy faoliyatdan olgan foydasi tahlil-yillari davomida o'sish va kamayish tendentsiyasi kuzatilgan. 2008-yilda korxonaning asosiy faoliyatdan olgan foydasining xajmi 571 mln.so'mni tashkil etgan bo'lib, bunda sotish xarajatlari 490 mln.so'm, ma'muriy xarajatlar 314 mln.so'm, boshqa operatsion daromadlar 17 mln.so'm va boshqa operatsion xarajatlar 14 mln.so'mdan iborat bo'lgan. 2009-yilda korxonaning boshqa operatsion xarajatlarining oshib ketishligi hisobiga, uning asosiy faoliyatdan olgan foydasi taxlil-yillaridagi eng kam ko'rsatkich 86 mln.so'mni tashkil etgan. Sotish xarajatlari 2008-yilga nisbatan 219 punktga oshish hisobiga 709 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, ma'muriy xarajatlar 46 mln.so'mni va boshqa operatsion daromadlar 25 mln.so'mdan iborat bo'lgan.

**«A» korxonasining operatsion faoliyati daromad va xarajatlarining tahlili**

**8.2-jadval**

| Ko'rsatkichlar | 2008 y. | | 2009 y. | | 2010 y. | | 2011 y. | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | (mln. so'm) | | (mln. so'm) | | (mln. so'm) | | (mln. so'm) | |
| Asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlar | | | | | | | | |
| Sotish xarajatlari | 490 | 14% | 709 | 17% | 609 | 12% | 495 | 9% |
| Ma'muriy xarajatlar | 314 | 9% | 46 | 1% | 60 | 1% | 93 | 2% |
| Boshqa operatsion daromadlar | 17 | 0% | 25 | 1% | 32 | 1% | 114 | 2% |
| Boshqa operatsion xarajatlar | 14 | 0% | 360 | 8% | 318 | 6% | 404 | 7% |
| Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) | 571 | 16% | 86 | 2% | 222 | 4% | 661 | 11% |

Keyingi-yillarda ham korxonaning asosiy faoliyatdan olgan foydasi o‘sib borish tendentsiyasiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2010-yilda 222 mln.so‘mni va 2011-yilda 661 mln.so‘mni tashkil etgan.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va davr xarajatlari ro‘yxati:

- xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshliligini aniqlash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish davomida xo‘jalik yurituvchi subyektda paydo bo‘ladigan barcha xarajatlar to‘g‘risida bugalteriya hisobi schyotlarida to‘liq va aniq axborot shakllantirilishi;

- soliq solinadigan bazani to‘g‘ri aniqlash maqsadida belgilanadi.

Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagilarga guruhlanadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatlariga ega bo‘lgan ustama xarajatlar;

- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

a) sotish xarajatlari;

b) boshqarish xarajatlari (ma’muriy sarf-xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

- xo‘jalik yurituvchi subyektning umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlari:

a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari;

v) qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar;

Favquloddagi zararlar. U foydadan olinadigan soliq to‘langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

## 2-§. Korxonalarda foydaning turlari

Xo'jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini belgilovchi mezon sof foydadir. Sof foyda miqdorini aniqlash uchun «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi, mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan va moliyaviy natijalarni tarkib topishi haqidagi» Nizomga asosan oraliq foyda ko'rsatkichlarini aniqlash kerak bo'ladi. Tahlil qilish avvalambor, korxona yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan boshlanadi. Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija foyda yoki zarar quyidagi bog'lanishlar asosida aniqlanadi. Ya'ni, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o'rinni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan shakllanganligi sababli tahlildaasosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omilli ta'siriga qaratiladi.

Tahlilda sotishning uchta qatori xarakterlanadi:

1. Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan moliyaviy natija.

2. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotishdan moliyaviy natija.

3. Boshqa aktivlarni sotishdan olingan natija.

Ularni bugalteriya hisobida alohida hisob obyekti yoki daromadlarning yuzaga chiqish shakli yoki o'rni sifatida tarkiblanishi belgilangan. Bunda asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi va sotilishi, boshqa aktivlarni sotishdan olingan natijalar asosiy ishlab chiqarishning boshqa jarayonlari sifatida qaraladi. Ularni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda operatsion daromadlar va xarajatlar qatori ko'rsatilishi tarkiblangan.

Endi, mahsulotlar sotishdan olingan foyda (zarar) hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni ishimizning keyingi obyekti

sifatida tanlab olingan «B» korxona misolida tahlil qilish uchun8.3-jadvalni keltiramiz.

8.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «B» korxonada yalpi foyda hajmi 2012-yili oxiri-yil boshiga nisbatan 16,41 (100-83,59) % ga kamaygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmini 246484 ming so'mga oshishi natijasidayalpi foyda miqdori65,41 % ga (246484x100: 376839) oshdi. 2.Sotilgan mahsulot tannarxni308334 ming so'mga ortishi evaziga yalpi foyda miqdori 81.82% ga (308334 x100: 376839) kamaygan.

Shunday qilib yuqorida hisoblangan 2 ta omiining ta'siri (+65,41+(-81,82) = - 16,41 %.Bu foiz esa yalpi foyda hajmida bo'lgan umumiy farqga teng (+16,41%) teng.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda qatoriga korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tashqari faoliyatidan olinadigan foydasi kiritiladi. Ularbo'yicha xarajatlar va daromadlar qatori alohida tarkiblangan holda umumiy summada moliyaviy natijalar to'g'risi-dagi hisobotga tushiriladi. Operatsion daromadlar va xarajatlar o'zining sof qiymati bo'yicha ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushirilishi belgilanadi. Bunda operatsion jarayonlardan olingan daromadlar ular bo'yicha xarajatlar qiymatiga farqlangan holda hisobotga foyda yoki zarar qatoriga tushiriladi.

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani aniqlash uchun mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foydadan davr xarajatlari va asosiy faoliyatdan olingan boshqa xarajatlar chegirilishi, asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo'shilishi tavsiya etilgan. Korxonada asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) va uni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarga baho berishda davr xarajatlari, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hamdaxarajatlarni ham tahlil qilish kerak.

**«B» korxonada mahsulotlar sotishdan kelgan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili (ming so'm hisobida)**

*8. 3-jadval*

| № | Ko'rsatkichlar | 2012-yil boshi | 2012-yil oxiri | O'zgarishi (+,-) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Mahsulot sotishdan olingan sof tushum | 1394779 | 1641263 | +246484 | 117,67 |
| 2. | Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi | 1017940 | 1326274 | +308334 | 130,29 |
| 3. | Mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda( 1q – 2q ) | 376839 | 314989 | -61850 | 83,59 |

Korxonaning asosiy faoliyatdan boshqa xarajatlariga quyidagilar kiradi:

– kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari;

– loyiha va qurilish-montaj ishlarida chalalikni bartaraf etish xarajatlari;

– maslahat va axborot tizimlariga haq to'lash;

– auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar;

– salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarni ishlabchiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari xarajatlari;

– kompensatsiya va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar;

– ish haqini hisoblashda e'tiborga olinmaydigan xarajatlar, ya'ni moddiy yordam;

– vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari;

– sog'lomlashtirish, xalq ta'limi, ijtimoiy ta'minot va shu kabi tashkilotlarga badallar va b.

Endi «B» korxona amaliyotiga oid ma'lumotlaridan foydalangan holda operatsion foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi

omillarni aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (8.4 - jadval).

8.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «B» korxonada asosiy faoliyatdan tushgan foyda hajmi 2012-yil oxiri yil boshiga nisbatan 15796 ming so'mga oshgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1.Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda hajmining 61850 ming so'mga kamayishi natijasida asosiy faoliyatdan tushgan foyda miqdori shu summaga kamaydi.(-)

2. Davr xarajatlari hajmining 45064 ming so'mga ortishi evaziga asosiy faoliyatdan tushgan foyda miqdori shu miqdorda kamaygan.(-)

3.Boshqa operatsion daromadlar miqdori 122710 ming so'mga oshgan. Bu esa, o'z navbatida, asosiy faoliyatdan tushgan foyda hajmini shu summaga oshirgan.(+)

Shunday qilib, yuqorida hisoblangan 3 ta omilning ta'siri: (-61850)+(-45064)+(+122710)= +15796 ming so'm. Bu esa asosiy faoliyatdan tushgan foyda hajmiga bo'lgan umumiy farqga (+15796) teng.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, korxonada asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) va uni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarga baho berishda davr xarajatlari, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hamda xarajatlarni ham tahlil qilish kerak. Davr xarajatlari deyilganda - bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi. Davr xarajatlari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xo'jalik sarflari kiritiladi. Ularni yuzaga chiqish shakli va o'rniga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

– sotish xarajatlari;
– ma'muriy xarajatlar;
– boshqa operatsion xarajatlar.

Sotish xarajatlari – mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq yagona tartiblash va to'g'ridan-to'g'ri korxona faoliyati natijaviyligi bog'lanish tartiblangan. Sotish xara-

jatlari mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga ortib jo'natish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi.Sotish xarajatlarini ish haqi xarajatlari, ish haqidan ajratmalar, material xarajatlari, asosiy vositalar va nomaterial aktivlar amortizatsiyasi, reklama xarajatlari, ish va xizmatlar, boshqa xarajat moddalari bo'yicha tarkiblash va tahlil etish mumkin. Ma'muriy xarajatlar qatoriga korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiritiladi va ularning korxona sarflari tarkibidagi salmog'i sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatining xizmati xarajatlaridir.

**«B» korxonaning asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda (operatsion foyda) hajmining tahlili (ming so'm hisobida)**

*8.4-jadval*

| № | Ko'rsatkichlar | 2012 yil boshi | 2012 yil oxiri | Mutlaq farq, (+,-) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda | 376839 | 314989 | -61850 | 83,59 |
| 2 | Davr xarajatlari | 391704 | 436768 | +45064 | 111,50 |
| 3 | Asosiy faoliyatning boshqa operatsion daromadlari | 15912 | 138622 | +122710 | 8,7 marta |
| 4 | Asosiy faoliyatning boshqa operatsion xarajatlari | - | - | - | - |
| 5 | Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan tushgan foyda (1q-2q+3q-4q) | 1047 | 16843 | +15796 | 16 marta |

Endi, asosiy faoliyatdan kelgan foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (8.5-jadval).

Odatda, operatsion daromadlarni asosiy qismi xo'jalik shartnomasiga muvofiq mol etkazib berish bo'yicha shartnomalarni

bajarmaganligi uchun to‘lanadigan jarima, penya (o‘sim) hamda yuzaga kelgan zararlarni qoplashdan tushgan daromadlar; hisobot-yili aniqlangan o‘tgan yildagi foyda miqdori; renta daromadi; asosiy fondlar va boshqa moddiy boyliklarni sotishdan keladigan daromadlar; to‘lash muddati o‘tib ketgan kreditorlik va deponentlik qarzlari; korxonaning oshxonasi, yordamchi xo‘jaliklardan olinadigan daromadlardan iborat bo‘ladi.

**Asosiy faoliyatdan kelgan foydaning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi (ming so‘m hisobida)**

*8.5-jadval*

| Hisobning tartib soni | Almashtirishning tartib soni | Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar | | | Natijaviy ko‘rsatkich -operatsion foyda [1u-2u+3u] | Oldingi hisobga nisbatan farq, (+,-) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | yalpi foyda | davr xara-jatlari | asosiy faoliyatdan kelgan boshqa operatsion daromadlar | | |
| A | B | 1 | 2 | 3 | 6 | 7 |
| 1 | - | 376839 | 391704 | 15912 | 1047 | - |
| 2 | 1 | 314989 | 391704 | 15912 | 60803 | +59756 |
| 3 | 2 | 314989 | 436768 | 15912 | 105867 | +45064 |
| 4 | 3 | 314989 | 436768 | 138622 | 16843 | -89024 |
| Omillar balansi:+15796 | | | | | | |

Korxonaning soliq to‘langunga qadar foydasi asosiy ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan olinadigan natija, favqulodda faoliyatdan yoki holatlardan natijasi jamlangan holda joriy davr bo‘yicha aniqlanadi. Soliq to‘langunga qadar foyda davlatning va axborotdan foydalanuvchilarning e’tibor shartidagi asosiy qator hisob-lanadi. Daromad va xarajatlar ularning yuzaga chiqish vaqti va o‘rni bo‘yicha yuritilgan holda yakuniy natija ushbu qoida asosida tuziladi.

Soliq to‘langunga qadar foyda umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan foydani qo‘shish yoki zarar bo‘lsa ayirish yo‘li bilan aniqlanadi. Favqulodda

foyda (zarar) bu - olinishi kutilmagan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidan tashqaridagi holatlar oqibatida olingan (ko'rilgan) g'ayrioddiy xususiyatga ega foyda (zarar)dir. Bunga asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar (xarajatlar) kirmaydi.

Tasodifiy foyda 3 ta mezon talabiga javob berishi kerak:

1. Bir qancha yillar davomida qaytarilmasligi.

2. Korxonaning boshqaruv holatlari yoki mulkdorlarning qabul qilgan boshqaruv qarorlariga bog'liq emasligi.

3. Korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatidan tashqari holatlar oqibatida yuzaga kelishi.

Korxonalarni odatiy xo'jalik faoliyatida shunday moddalar yuzaga kelishi mumkinki, ular faqat g'ayrioddiy yoki kutilmagan holatlar bo'lishi mumkin. Masalan, chet el valyutasi bo'yicha operatsiyalaridan ko'rilgan zarar kutilmagan zarar, lekin tasodifiy emas, zero valyuta kursining beqarorligi natijasida sodir bo'lgan zararlar oddiy zararlar qatoriga kiradi.

Shunday moddalar ham borki, ularni favqulodda zararlar tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik masalasi tashqi muhitga (ob – havo, jo'g'rofik joylashish) bog'liq. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt sovuq bo'ladigan mintaqada joylashgan bo'lsa, u holda yerning qattiq sovuq bo'lishi natijasida hosilning nobud bo'lishi favqulodda hodisa emas.

Biz quyidagi jadvalja «A» korhonada soliq to'langunga qadar foyda tahlilini keltiramiz (2.6-jadval).

**«A» korhonada soliq to'langunga qadar foyda hajmining o'sish sur'ati (ming so'm)**

*8.6-jadval*

| № | Ko'rsatkichlar | 2012 yil boshi | 2012 yil oxiri | Mutlaq farq, (+, -) | O'sish surati, (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foyda (zarar) | 12405 | 14111 | +1706 | 113,75 |
| 2. | Favqulodda foyda (zarar) | - | - | - | - |
| 3. | Soliq to'langunga qadar foyda(zarar) (1q. +,-2q.) | 12405 | 14111 | +1706 | 113,75 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «A»korhonada soliq to'langunga qadar foyda hajmi 2012-yil oxiri yil boshiga nisbatan 1706 ming so'mga oshgan yoki uning o'sish sur'ati 113,75 %ni tashkil etdi. Jamiyatda hisobot yili davomida favqulodda foyda va zarar ko'rilmagan. Tahlil qilinayotgan «A» korhonning sof foyda hajmini oshirish uchun katta imkoniyat bo'lgan. Hisoblangan 7 ta omildan 5 tasining ta'siri salbiy bo'lgan. Agar ushbu omillar 2012-yil boshidagidarajada saqlanib qolinganida edi, sof foyda summasi 369634 ming so'mga oshgan bo'lar edi (308334+45064 +11574+2516+2146). U holda, sof foydaning umumiy hajmi hisobot yili 374111(369634+4477) ming so'mni tashkil qilgan bo'lar edi. Demak, sof foyda hajmini oshirish bo'yicha imkoniyatlar mikdori 369634 ming so'mga teng ekan.

Binobarin, «A» korhonaning boshqaruv ma'muriyati kelajakda oqilona tahlil natijasida aniqlangan ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, ularni amaliyotga qo'llash yo'llarini ishlab chiqishi lozim. Soliq to'languncha qadar foydani taqsimlash deganda foydani davlat budjeti daromadlarini tashkil etishiga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki pul mablag'lari fondlarini barpo etishga va ularning boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirish tushuniladi.

Foydani taqsimlash, avvalo, uning umumiy miqdorini alohida tartibda davlat budjetiga foydadan soliq hamda boshqa soliq va ajratmalar ajratishni nazarda tutadi. Soliqlar to'langandan so'ng korxonalar tasarrufida qoladigan sof foyda dividendlar to'lashga va zahira sarmoyani to'ldirishga yo'naltiriladi. Taqsimlanmagan qismi bugalteriya balansi passivining 2-bo'limi «O'z mablag'lari manbalari» 450-satri «Taqsimlanmagan foyda» da ko'rsatiladi. Agar korxona zarar ko'rgan bo'lsa, shu satrda zararning hali qoplanmagan qismi ko'rsatilib, o'z mablag'lari summasining yakuni xuddi shu miqdorga kamaytiriladi (480-satr).

Foydani taqsimlash zamirida butun jamiyat manfaatlarini mehnat jamoalari va har bir xodimning manfaatlari bilan uyg'unlashtirish, ularda o'z faoliyatlarini takomillashtirishdan, foydani ortishi va undan ishlab chiqarishni kengaytirish, ijtimoiy rivojlanish, xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun foydalanishdan manfaatdorlikni vujudga keltirish yotadi. «A» korhonada 2012-yil oxiri

bo‘yicha o‘rtacha hisobda foydaning 68,27%i davlat budjetiga tushgan, 31,73%i esa tashkilotlar ixtiyorida qolgan. Foyda ko‘rsatkichlarini oqilona tahlil usuli amaliyotga joriy qilinsa, korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlash, bankrotlik holatini oldini olish, moliyaviy va iqtisodiy salohiyatni oshirish, hamda ularning xo‘jalik faoliyatiga iqtisodiy baho berish imkoni bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

– mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YAF=SST-IT,$$

bunda,

YAF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

– asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF=YAF-DX+BD-BZ,$$

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar;

– xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF=AFF+MD-MX,$$

bunda,

UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

– soliq to‘langungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF=UF+FP-FZ,$$

bunda,

STF – soliq to‘langungacha olingan foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

– yilning sof foydasi, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o‘zida foydadan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF=STF-DS-BS,$$

## Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Korxona xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
2. Korxona xarajatlarini optimallashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Korxona mahsulot tannarxig aqanday xarajatlar kiradi?
4. Daromadning mohiyatini va uning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
5. Korxonada qanday daromad turlari mavjud?
6. Korxonaning doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlariga nimalar kiradi?
7. Korxonada daromadni maksimallashtirish yo‘nalishlarini sanab bering.
8. Moliyaviy menejerning daromad va xarajatlarni boshqarishdagi asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

# IX BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI BOSHQARISH

## 1-§. Debitorlik qarzlarining iqtisodiy mohiyati va ularning kelib chiqish sabablari

Korxonalar o'rtasida bo'ladigan, shuningdek, kredit tashkilotlar va nazorat tashkilotlar o'rtasidagi, korxonalarning davlat tashkilotlari (organlari) bilan hisob-kitob to'lovlarida kechiktirilgan vaqt bo'yicha farqlanishlar kelib chiqadi. Bunda korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin to'lov muddatining oshib ketishi korxonalar moliyaviy ahvoliga katta ta'sir o'tkazadi. Shu maqsadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri va samarali boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi. Bir vaqtning o'zida to'lash muddati o'tgan qarzlar muammosi yoki noto'lovlar muammosining mavjud ekanligi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Iqtisodiy nashrlarda bu masalaga bag'ishlangan risolalar va alohida maqolalar birin-ketin e'lon qilinayotgan bo'lishiga qaramasdan ularning asosiy sabablari to'g'risidagi masala hamon munozarali ahvolda qolmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday vaziyatning (holatning) mavjud ekanligi mazkur muammoni hal qilish yo'lidagi katta to'g'onoqdir. Bir vaqtning o'zida, ayrim hollarda ba'zi mualliflar tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlariga tegishli bo'lgan jarayonlar turli shakl va mazmunda nomlanayotganligini ham e'tiborli masala sifatida qabul qilmoq lozim.

Jahon miqyosidagi iqtisodiy inqiroz sharoitida debitorlik – kreditorlik qarzlarini tartibga solish va samarali boshqarish masalalariga bag'ishlangan bo'lganligi uchun, bizning fikrimizcha, eng avvalo, biz debitorlik va kreditorlik qarzlarining iqtisodiy

mohiyati va ularning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida aniq tasavvur va tushunchaga ega bo‘lishimiz kerak.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari o‘zlarining amal qilish muddatlari uzunligi bo‘yicha ham bir-biriga hamma vaqt ham mos kelavermaydi. Amaliyotda mol yetkazib beruvchi mahsulotni sotib oluvchiga yetkazib berish uchun transport tashkilotiga berar ekan tezda to‘lovning barcha summasini debitorlik qarzlari hisobiga o‘tkazadi. Sotib oluvchi esa mahsulotlarni yoki pul hisob-kitob hujjatlarini olganidan so‘ng yetkazib berilishi lozim bo‘lgan yoki etkazilgan tovarlar qiymatini kreditorlik qarzlari sifatida qabul qiladi.

Mahsulot qiymatini to‘lab sotib oluvchi o‘zining kreditorlik qarzini uzsa-da, debitorlik qarzi esa mol yetkazib beruvchining bankdagi hisob varag‘iga pul mablag‘larining borib tushguniga qadar uzilmagan holda qolaveradi. Bundan qarzdorlikning har ikki ko‘rinishi o‘rtasidagi vaqtga bog‘liq bo‘lgan farqlar kelib chiqadi.

Debitorlik – kreditorlik qarzlarida qarama-qarshilik, ma’lum ma’noda, ikkiga bo‘lingandek tuyuladi. Bir tomondan, mol yetkazib beruvchi korxonalar bilan sotib oluvchi korxonalar o‘rtasida to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi xususida muntazam ravishda qarama-qarshiliklar keskinlashib turadi. Ikkinchi tomondan esa, sotib oluvchi korxonalar o‘zlarining aylanmalariga (oborotlariga) kreditorlik mablag‘larini jalb eta borib kerakli mol yetkazib beruvchi korxonalar bilan munosabatlarni yomonlashtirmaslikka harakat qiladilar. Xuddi shuning uchun ham debitorlar va kreditorlar doimiy ravishda bir-birlariga nisbatan uzoqlashtiruvchi va tortuvchi kuchlarning mavjud ekanligini his etadilar.

Yuqorida keltirilgan ikki masaladan birinchisini tahlil qilishda har bir holatga, alohida-alohida yondoshmoq maqsadga muvofiqdir.

Debitorlik qarzlarining iqtisodiy mohiyati to‘g‘risida fikr bildirishdan oldin, iqtisodiy munosabatlarda yoki iqtisodiy jarayonlarda foydalanilib kelinayotgan «debitor» atamasi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tmoq lozim. Shuning uchun ta’kidlash joizki, debitor deyilganda, odatda, korxona, tashkilot va muassasalarga, umuman olganda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga pul yoki mulk yuzasidan qarzdor bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nazarda

tutiladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, debitorlik qarzlari ko‘pgina hollarda xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli bo‘lgan aylanma mablag‘larning ishlab chiqarish sohasidan (jarayonidan) muomala jarayoniga (sohasiga) o‘tib ketishi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham tahlil ishlarini amalga oshirish jarayonida debitorlik qarzlari yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi bilan taqqoslanadi. Debitorlik qarzlari nisbatan mustaqil bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Amaliyotda bu qarzlarni undirish talablari faktoring operatsiyalari vositasida uchinchi shaxs ixtiyoriga o‘tkazilishi mumkin. Ma’lum bir me’zonlarni hisobga olgan holda debitorlik qarzlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, to‘lov muddatiga muvofiq debitorlik qarzlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. To‘lov muddati o‘tmagan debitorlik qarzlari;
2. To‘lov muddati o‘tgan debitorlik qarzlari.

Mamlakatimizdagi vaziyatga nazar tashlar ekanmiz, ko‘pgina holatlarda muddati o‘tgan debitorlik qarzlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga qobiliyatsiz mijozlarga (iste’molchilarga) mahsulotni (ishni, xizmatni) berib yuborishi (o‘ziga xos tarzda «sotishi») natijasida yuzaga kelishi mumkinligini aniqlashimiz mumkin. Bu sabab asosiy sabab sanalib, o‘z navbatida, yana bir necha boshqa sabablarni ham keltirib chiqaradiki, ularning ko‘pchiligi mol etkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmatlarni ko‘rsatuvchi) korxonalarning xaridor korxonalarga (iste’molchilarga) bevosita bog‘liqligi bilan belgilanadi. Bunga misol tariqasida neft qazib oluvchi korxonalarining neftni qayta ishlovchi korxonalarga bog‘liqligini ko‘rsatish mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bu shakldagi qarama-qarshilikni hal etishning amaliyotda bir necha variantlari ham mavjuddir. Jumladan, yuqoridagi qarama-qarshilikni rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasiga tayangan holda sindikat kelishuvlari, moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish va marketingni rivojlantirish orqali hal etish mumkin. Buni avval ta’kidlaganimizdek, bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Demak, yuqorida keltirilgan va qayd etilgan holatlardan ko‘rinib turibdiki, debitorlik qarzlarining vujudga kelishining

haqiqiy sabablari to‘g‘risida fikr bildirilayotgan paytda iqtisodchi olimlarimiz ham yoki amaliyotchi mutaxassislarimiz ham juda ehtiyotkorlik bilan yondoshmoqlari lozim. Aks holda bu noto‘g‘ri yoki yetarli darajada asoslanmagan xulosalarning chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha muddati o‘tgan debitorlik qarzlari va muomaladagi naqd pul massasining hajmi o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu bog‘liqlik muddati o‘tgan debitorlik qarzlarining paydo bo‘lish riski oshib borishi bilan umumiy pul massasida va shunga mos ravishda hisob-kitoblar sohasida naqd pullar salmog‘ining ortib borishi bilan xarakterlanadi. Debitorlik qarzlaridagi qarama-qarshiliklar ulgurji aylanmadagi naqd pulli hisob-kitoblar, barter va o‘zaro talablarni hisobga olish yo‘llari bilan birgalikda naqd pulsiz hisob-kitoblarning tezlashuvi, ya’ni bir xil summadagi pullar yordamida katta summadagi to‘lovlarga xizmat qilish uchun sharoitni yaratish orqali ham hal qilina borildi. O‘z navbatida, naqd pulsiz hisob-kitoblarning tezlashuvi mamlakatimiz banklarini xalqaro telekommunikatsion tizimlarga qo‘shilishi yirik kliring markazlarini yaratish, banklararo korrespondentlik munosabatlarini rivojlantirish, «Bank-mijoz» avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, bank plastik kartochkalarining qo‘llanilish doirasini kengaytirish orqali sodir etildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning debitorlik va kreditorlik qarzlariga baho berishda ularni balans holatiga keltirib o‘rganish ham mumkin bo‘ladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansi ular orasidagi o‘zaro tenglik nisbatini tavsiflaydi. Bunda debitorlik majburiyatlarining kreditorlik majburiyatlaridan ortib ketishi yoki aksincha holatlarni ifodalaydi.

Debitorlik majburiyatlari qatoriga 2002-yil 27-dekabrda tasdiqlangan bugalteriya balansiga ko‘ra quyidagi qatorlar kiritiladi:

– xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi;
– ajratilgan bo‘linmalarning qarzi;
– sho‘’ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi;
– xodimlarga berilgan bo‘laklar;
– mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar;
– budjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari;

– maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari;

– ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulushlar bo‘yicha qarzi;

– xodimlarning boshqa operatsiyalari bo‘yicha qarzi;

– boshqa debitorlik qarzlari.

Muddati o‘tkazib yuborilgan majburiyatlarning yuzaga chiqish sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

– korxonada moliyaviy holatning nosog‘lom ekanligi;

– korxonaning to‘lov layoqatiga ega emasligi;

– likvid mablag‘lari aylanuvchanligining uzoqligi;

– shartnoma maburiyatlariga va to‘lov shartlariga amal etmaslik;

– xo‘jalik shartnomalari buzilishidan ko‘riladigan zararlarning to‘g‘ri qoplanmasligi (shartnomalar buzilishida qo‘llaniladigan choralarga amal etmasligi);

– zamonaviy hisob-kitob shakllariga yo‘l berilmaganligi va hokazolar.

Debitorlik majburiyatlari yoki qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida e’tibor beriladi. Negaki, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxona moliyaviy ahvoliga baho berishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi deganda qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffisiyenti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini tavsiflaydi. Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olintan tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo‘lish asosida aniqlanadi. Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko‘paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo‘lish asosida debitorlik qarzlarining aylanishlar kuni aniqlanadi. Demak, korxonalar debitorlik qarzlarini boshqarishda korxonaning ikkinchi tomon bilan yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan avval uning moliyaviy holatini keng o‘rganish va tahlil qilish hamda debitorlik qarzlarini aylanish davrini imkon qadar kamaytirish, korxonaning

debitorlik qarzlarini kamaytirishda hamda istiqbolda moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sanaladi.

## 2-§. Kreditorlik qarzlarining iqtisodiy mohiyati va ularni kamaytirish yo'llari

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqa xo'jalik subyektlari va moliyaviy muassalar bilan moliyaviy iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida debitorlik va kreditorlik qarzlari vujudga kelishi tabiiy holat hisoblanadi. Korxona majburiyatlarining asosiy tarkibiy moddalaridan biri bu korxonalarning kreditorlik qarzlari hisoblanadi. Korxonalar kreditorlik majburiyatlari qatoriga 2002-yil 27-dekabrda tasdiqlangan bugalteriya balansiga ko'ra quyidagi qatorlar kiritiladi:

- mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz;
- ajratilgan bo'linmalarga qarz;
- sho''ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qarz;
- soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar;
- olingan bo'naklar;
- budjetga to'lovlar bo'yicha qarz;
- sug'urtalar bo'yicha qarz;
- maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz;
- ta'sischilarga bo'lgan qarzlar;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz;
- boshqa kreditorlik qarzlari.

Kreditorlik majburiyatlari qarshi tomonga korxonaning to'laydigan majburiyatlarini xarakterlaydi. Biz yuqorida uning tarkibiga nimalar kirishini aytib o'tdik. Kreditorlik majburiyatlari yuzaga chiqishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaqtida kelib tushmasligini ta'kidlash ham mumkin. Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi taxlilida qarzdor bo'lgan tomonlar bo'yicha majburiyatlarning qatorlanishi, ularni to'lash muddatlari bo'yicha tarkiblanishiga baho beriladi. Shuningdek, debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffisiyenti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarini

aylanish koeffitsiyenti va davri aniqlanadi. Lekin, bunda qatnashuvchi ko‘rsatkichlar farqlanadi. Kreditorlik majburiyatlarining aylanishini o‘rganishda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli to‘lanmagan mollar ashyolar, ish va hizmatlar summasiga hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy ko‘rsatkichlariga murojat qilinadi. Korxonalarda kreditorlik majburiyatlarini taxlil etishda ularning yuzaga kelish o‘rni, muddati va tarkibiga alohida ahamiyat qaratilmog‘i lozim. Muddati o‘tgan kreditorlik qarzlariga yo‘l qo‘yilishi korxonaga nisbatan turli iqtisodiy ogohlantirishlarning qo‘llanilishiga, iqtisodiy jarimalarga hamda korxonaga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib keladi.

Korxonaning kreditorlik majburiyatlarini to‘lash muddatlari bo‘yicha quyidagi tarkibni berib o‘tish mumkin:

– to‘lash muddati kelgan majburiyatlar;

– to‘lash muddati o‘tib ketgan majburiyatlar.

Umuman olganda, korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish, ularning aylanish davrini qisqartirish ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonini uzluksizligini ta’minlash barobarida korxonalar moliyaviy barqarorligin ta`minlovchi asosiy omillardan biri hamdir.

Kreditorlik qarzlarining mohiyatini to‘g‘ri idrok etmoq uchun uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bizning nazarimizda, kreditorlik qarzlari bir necha xususiyatga ega bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Kreditorlik qarzlari turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z aylanma mablag‘larini o‘zaro aralashtirib yuborish xususiyatiga ega.

2. Kreditorlik qarzlarining xo‘jalik oborotidan, ma’lum darajada, bank kreditini surib chiqish imkoniyatining bor ekanligi ularning navbatdagi xususiyatidir. Chunki kreditorlik qarzlari, ma’lum ma’noda, bank kreditlariga nisbatan arzonroq bo‘lgan kredit resursi sifatida qaralishi mumkin. Biroq shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, kreditorlik qarzlari muddatli qarzlardan so‘ng muddati o‘tgan qarzlarga aylanishi bilan ular korxonani kritik holatdan chiqarish uchun bank kreditini jalb qilishga undovchi va uning uchun haq to‘lashni taqozo etuvchi omilga aylanadi.

3. Kreditorlik qarzlari o‘zaro hisob-kitoblarni keltirib chiqaruvchi va xo‘jalik yurituvchi subyektdan xo‘jalik yurituvchi subyektga o‘zaro to‘lovlar zanjiri orqali tez tarqaluvchanlik xususiyatiga ega.

4. Kreditorlik qarzlari naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllarini, ma’lum ma’noda, transformatsiya qilishi va to‘lov turlarini o‘zgartirishi mumkin.

5. Kreditorlik qarzlarining to‘lov muddati o‘tgan qismi ma’lum bosqichlarda kredit tizimini zaiflashtirishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, to‘lov oborotida muddatli va muddati o‘tgan kreditorlik qarzlari doimo birgalikda amal qiladi. Ularning muddatli qismi kredit munosabatlari uchun ijobiy xarakterga ega bo‘lsa, kreditorlik qarzlarining muddati o‘tgan qismi esa salbiy xarakterga egadir. Iqtisodiy munosabatlarda kreditorlik qarzlarining egallagan o‘rni unga baho berishning mezonlarini atroflicha ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan bu erda rasmiy mezon sifatida amaliyotda kreditorlik qarzining yalpi ichki mahsulotga (YIM) nisbati qabul qilinganligini qayd etib o‘tishimiz lozim. Amalga oshirilgan tahlil natijalarining ko‘rsatishicha ishlab chiqarishning qisqarishiga ta’sir ko‘rsatishdan oldin kreditorlik qarzlari, dastlab, moddiy aylanma mablag‘lar va ularning zahiralari hajmiga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham, bizning fikrimizcha, muddati o‘tgan kreditorlik qarzlarining moddiy aylanma mablag‘lar va ularning zahiralariga nisbati uning ishlab chiqarishni qisqartirishdagi rolini to‘liq o‘zida namoyon etadi. Amaliyotdagi vaziyatni tahlil qilar ekanmiz, debitorlik va kreditorlik qarzlari vujudga kelishining bir necha sabablari mavjud ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ularning eng asosiylaridan biri sifatida, dastlab, xaridorlar va buyurtmachilarning mas’uliyatsizligini ko‘rsatishimiz mumkin. Haqiqatdan ham bizning amaliyotimizda o‘zaro munosabatlarda bo‘layotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro debitorlik va kreditorlik qarzlarining paydo bo‘lish sababi ularning o‘zaro mas’uliyatsizligi bilan belgilanayapti. Bu narsa, o‘z navbatida, surunkali ravishda to‘lovlarni amalga oshirmaslik tizimini kelib chiqishiga va uning keng quloch otishiga olib kelmoqda.

Bu tizimning bir tomonini moliyaviy jihatdan zaif bo'lgan korxonalar tashkil etayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy jihatdan baquvvat va raqobatbardosh korxonalar ham tushib qolmoqda.

Da'vo ishlarining xo'jalik sudlarida ko'rib chiqilishi ham debitorlik qarzlari ko'payishining oldini olishga yetarli darajada imkon bermayapti. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini paydo bo'lish sabablarining navbatdagisi, bizning fikrimizcha, mamlakatimizda moliya bozorining yuqori darajada rivojlanmaganligi bilan belgilanadi. Garchi moliya bozorining rivojlanishi xususida mamlakatimizda keyingi yillarda sezilarli qadamlar tashlangan bo'lishiga qaramasdan ularni yetarli deb aytish qiyin. Bunda biz ishonchli va to'lovga qobiliyatli xo'jalik yurituvchi subyekt nomini olgan uchinchi bir subyektning tegishli majburiyatlarni rasmiylashtirishi bilan bir qatorda majburiyatlarning obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari, aksiyalar va boshqa shu kabi qimmatbaho qog'ozlar bilan real ta'minlanishini nazarda tutayapmiz. Bir vaqtning o'zida yuqoridagi ishni amalga oshirish, bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektlar jamoasining ma'lum tajribalarga ega bo'lishini, ularning ma'lum iqtisodiy bilimlar bilan qurollanish darajasining yuqori bo'lishini, amaliyotda mavjud bo'lgan garov majburiyatlarini rasmiylashtirish va ularni amalga oshirish texnologiyasini, ma'lum darajada, o'zgartirishni taqazo etadi. Shu o'rinda keyingi yillarda mamlakatimizda yuqorida ta'kidlangan faoliyatlarni rivojlantirish borasida talaygina ishlar qilingan, jumladan, muayyan me'yoriy zamin yaratilgan bo'lsa-da, bizning nazarimizda, ularni yetarli darajada deb bo'lmaydi. Bizning bu fikrimiz, eng avvalo, tijorat operatsiyalarini sug'urtalash, jumladan, kelajakda baholarning salbiy tomonga o'zgarishidan sug'urtalash masalalariga ham tegishlidir.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bevosita korxona bilan qarshi tomon o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblardan kelib chiqadigan majburiyatlardir. Bu majburiyatlar korxona bilan mol yetkazib beruvchilar yoki xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda, korxona bilan bank tashkilotlar o'rtasida, korxona bilan soliq organlari o'rtasidagi, korxona bilan ijtimoiy ta'minot bo'limlari va turli jamoat tash-

kilotlari, shuningdek, xodimlar, mulk egalari, aksionerlar va investorlar bilan bo'ladigan munosabatlarda yuzaga keladi. Ularni yuzaga kelishining asosiy sababi, hisob-kitoblarda vaqtning o'zgaruvchanligidir. Ya'ni bugun ortilgan mahsulot ham puli to'langunga qadar, debitorlik va kreditorlik majburiyatlar qatoriga kiritiladi. Bunda daromad va xarajatlarning yuzaga chiqishi bilan ular bo'yicha hisob-kitoblarning amalga oshishi orasida farqlanish kelib chiqadi.

Yuqoridagi umumiy sabablardan tashqari amaliyotda, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi bo'yicha quyidagi sabablarni ham keltirish mumkin:

– o'zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi;

– tovarlarni ortib jo'iatish va sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;

– mulk va unga egalik qilishda ma'sullik hissining yo'qligi;

– o'zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

– daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmoq xususiyatidankelib chiqilmaganligi;

– xarajatlar tarkibiga kiruvchi ish va xizmatlarni hisobga olishda qat'iy xujjatlashtirish mezonlarining yo'qligi;

– xodimlar va kapital egalari bilan korxona o'rtasidagi munosabatlarda qat'iy shartlarning yo'qligi;

– kredit tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy asoslarida kamchiliklar mavjudligi;

– sug'urta tashkilotlari bilan korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda qat'iy davlat qonunchilik mexanizmining mavjud emasligi va b.

Biz yuqorida belgilagan edikki, korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlari yuzaga kelishining asosiy sababi hisob-kitoblarda to'lovlar muddatini yoki sanasini turli hisobot davriga tushib qolishidir. Bunda debitorlik kreditorlik majburiyatlarini yuzaga chiqishiga har qanday holda ham yo'l qo'yiladi. Agarda mahsulotlar ortib jo'natish orqali sotiladigan bo'lsa, bunda to'lovlar amalga oshish sanasiga qadar agarda tovarlar pulini oldindan to'lash

asosida sotiladigan bo‘lsa, bunda ham tovarlarni jo‘natish sanasiga qadar majburiyat, qarz sifatida hisobda aks ettiriladi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar bo‘yicha hisobot, ma’lumotnoma har oyning birinchi sanasiga tuziladi va tegishli tashkilotlarga topshiriladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari korxona balansi, ya’ni har chorakda tuziladigan korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlari holati to‘g‘risidagi hisobotda ham aks ettiriladi.

### 3-§. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tartibga solishning huquqiy asoslari

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq iqtisodiyotda debitorlik va kreditorlik qarzlarini huquqiy asoslarini takomillashtirish va tartibga solish borasida samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Albatta, bunday iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida mamlakat miqyosida debitorlik va kreditorlik qarzlari darajasini ma’lum darajada kamaytirishga, iqtisodiy vaziyatni yumshatishga va to‘lov intizomini ancha mustahkamlanishiga erishildi. Biroq, shunday bo‘lishiga qaramasdan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro debitorlik va kreditorlik qarzlarining hozirgi darajasini va ayniqsa, ularning to‘lov muddati o‘tgan qismlarining mavjud ekanligini inobatga olgan holda to‘lov intizomining hozirgi ahvolini qoniqarli deyishga etarli asoslar mavjud emasdir.

Mamlakatimizda debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirishda asosiy qonuniy hujjatlardan biri Ozbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2004-yil 14-apreldagi 182-qaroriga ilova «Muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va budjetga to‘lovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha respublika komissiyasi to‘g‘risida»gi nizom hisoblanadi. Bunda asosan quyidagi masalalarga e’tibor qaratilgan. Ushbu nizomga ko‘ra, muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va budjetga to‘lovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda komissiya deb ataladi) Vazirlar mahkamasining 2004-yil 9-fevraldagi 61-qaroriga muvofiq tashkil etilgan va o‘z faoliyati

to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasiga hisob beradi. Komissiya o‘z faoliyatini to‘lovlar intizomini mustahkamlash, muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi to‘lovlar va hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, budjetga hamda davlat maqsadli fondlariga soliqlar va majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida tushishini ta’minlash, budjetga hamda davlat maqsadli fondlariga qarzlarni qisqartirish va ular vujudga kelishining oldini olish, keyinchalik ushbu chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish maqsadida amalga oshiradi.

Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, mazkur nizomga amal qiladi. Komissiyaning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlarining vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, banklar, mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ularning birlashmalari, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari boshchilik qiladigan muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va budjetga to‘lovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha mintaqaviy komissiyalar tashkil etiladi. Mintaqaviy komissiyalar tarkiblari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan kelishgan holda Komissiya tomonidan tasdiqlanadi.

Quyidagilar komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish hamda barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda bank va moliya muassasalari tomonidan to‘lov

intizomi va hisob-kitoblarning o‘z vaqtida o‘tkazilishi, soliqlar va majburiy to‘lovlarning to‘liq to‘lanishi masalalari bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlari normalariga qat’iy rioya etilishi ustidan ta’sirchan nazoratni ta’minlash;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini tahlil qilish, korxonalar va tashkilotlarning muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlari taqqoslanishini muntazam ravishda tashkil etish hamda ularni qisqartirish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ko‘rish;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanish, ularning saqlanishini va o‘z vaqtida to‘ldirilishini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Hukumat qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq byudjetga va davlat maqsadli fondlariga soliqlar va majburiy to‘lovlarning to‘liq undirilishini ta’minlash;

– ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjetdan va davlat maqsadli fondlaridan qarzlarini qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va chora-tadbirlar ko‘rish.

Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

1. Vazirliklar, idoralar, banklar, soliq va moliya organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, korxonalar, mahalliy davlat boshqaruv organlari rahbarlarining debitorlik va kreditorlik qarzlarning holati, soliq va to‘lov intizomi masalalari bo‘yicha hisobotlarini eshitish hamda tegishli idoralarga hisob-kitoblarni yuritishning belgilangan tartibini, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan masalalarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida takliflar kiritish;

2. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro pullik majburiyatlari bo‘yicha qarzlarini to‘lash muddatini istisno hollarda kechiktirish va ularni bo‘lib-bo‘lib to‘lash masalasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tegishli komplekslari rahbarlari bilan kelishgan holda ko‘rib chiqish;

3. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qarzlarni (asosiy summani, penyalarni, jarima sanktsiyalarini) to‘lash bo‘yicha muddatni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berish, penya hisoblashni to‘xtatib turish va to‘xtatish, penyalarni hisobdan chiqarish hamda byudjetga va davlat maqsadli fondlariga hamda vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari fondlariga soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha jarima belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi taqdimiga ko‘ra, moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda o‘z ustav sarmoyalarini shakllantirmagan tugatilayotgan korxonalarning budjet va davlat maqsadli fondlaridan qarzlarini hisobdan chiqarish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

5. To‘lovga qodir bo‘lmagan iste`molchilarga va buyurtmachilarga mahsulotlar sotishning, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishning, korxonalar va tashkilotlarning aylanma mablag‘larining, shu jumladan, tayyor mahsulotlar zahiralariga va tugallanmagan qurilishga jalb etilishi sabablarini va yo‘nalishlarini o‘rganish, ularning oldini olish va qisqartirish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqish va ko‘rish;

6. Korxonalar, tashkilotlar, vazirliklar va idoralardagi debitorlik va kreditorlik qarzlarning holatini taqqoslashni tashkil etish, taqqoslashlar asosida mazkur qarzlarni qisqartirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish;

7. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlarini, shu jumladan byudjetdan va davlat maqsadli fondlaridan qarzlarini eng ko‘p miqdorda qisqartirish uchun banklar kreditlari va boshqa manbalar hisobiga o‘zaro hisob-kitoblarning maqsadli sxemalarini amalga oshirish masalalarini ko‘rib chiqish;

8. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini, korxonalar va tashkilotlarning budjetga va davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarini to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar harakati tartibi va yo‘nalishini tasdiqlash;

9. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan komissiyaga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur axborotlarni olish;

10. Moliya, soliq va bojxona organlari, tijorat banklari, vazirliklar va idoralarning faoliyatini komissiya vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishni tashkil etish;

11. O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga iqtisodiy nochor korxonalarni sanatsiya qilish yoki ularga nisbatan bankrotlik tartibotini boshlash to'g'risida qarorlar qabul qilish yuzasidan takliflar kiritish;

12. Respublika qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha soliq solish va hisob-kitoblar tizimini yaxshilashga yo'naltirilgan takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

13. Mintaqaviy komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Komissiyaning to'lov intizomini hamda o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning budjet va davlat maqsadli fondlari bilan hisob-kitob qilish yuzasidan javobgarligini oshirish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etishi shart.

Komissiya kotiblari o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun vazirliklar, idoralar, yuridik shaxslar birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, banklar, korxonalar va Komissiya a'zolaridan Komissiya faoliyatiga tegishli masalalarga oid axborotlarni so'rash va olish huquqiga ega.

Komissiyaning ko'rib chiqishi uchun mo'ljallangan xatlar, iltimosnomalar, takliflar, ma'lumotnomalar va boshqa xat-xabarlarda «Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va budjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha respublika komissiyasi» deb ko'rsatilishi shart.

Komissiyada ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan xat-xabarlar:

– muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish masalalari bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga;

– soliqlar va budjetga majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida tushishi va soliqlar hamda budjetga va davlat maqsadli fondlariga qarzlarni to‘lash muddatini kechiktirish va (yoki) ularni bo‘lib-bo‘lib to‘lash masalalari bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga yuboriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish va samarali boshqarish bo‘yicha yetarli qonunchilik bazasi shakllangan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu qonuniy hujjatlar mamlakatimizda to‘lov intizomini musatahkamlashga debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirishga xizmat qilib kelmoqda.

## Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Korxonalarda debitorlik va kreditorlki qarzlarini kamaytirishda faktoring operatsiyalaridan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirib bering.
2. Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirishda xosilaviy qimmatli qog‘ozlardan foydalanishning iqtisodiy samarasini tushuntirib bering.
3. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida mavjud debitorlik va kreditorlik qarzlarini nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari qaysi tarmoqqa to‘g‘ri kelmoqda va buning sababaliri nimalarda deb o‘ylaysiz?
4. Davlat tomonidan korxonalarning o‘zaro qarzdorliklarini kamaytirishda qanday vositalardan foydalanish mumkin?

# X BOB. KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISH

## 1-§. Korxona investitsion faoliyatining iqtisodiy mazmuni va amalga oshirish tamoyillari

O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalari va yo‘nalishlarida iqtisodiy erkinlikni ta’minlashni talab etadi. Bu esa investitsion faoliyat rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi, uni tashkil etuvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatlari moddiy bazasining rivojlanishiga bog‘liq, chunki moddiy resurslardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiy o‘sishning sharti va bosh omili hisoblanadi.

Respublikamizda mikrodarajadagi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va mavjud resurslardan samarali foydalanish, investitsion faoliyatni amalga oshirish birlamchi ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi. Korxona investitsion faoliyatning eng muhim elementi «investitsiya» ning mohiyati va mazmunini aniqlashdir. «Investitsiya» so‘z ingliz tilidan (invetstments) olingan bo‘lib, «kapital qo‘yilma» degan ma’noni bildiradi. Hozirgi kunda investitsiya mohiyati haqida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar uning mohiyatini turlicha ifodalaydi. Investitsiya mohiyati qandaydir samara yoki daromad olish uchun turli shakllarda kapital qo‘yish jarayonini ifodalaydi. Bunday tushuncha bir muncha umumiy xarakterga ega. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, investitsiyalarning mohiyati iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlarni ifodalaydi.

G.S.Vechkanov, G.R.Vechkanovalar ta’kidlaydiki, investitsiya – bu foyda olish maqsadi bilan mamlakatda yoki xorijda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga davlat yoki xususiy kapitalning uzoq muddatli qo‘yilmalaridir. V.V.Bocharov hisoblaydiki, investitsiya tadbirkorlik va boshqa ko‘rinishdagi faoliyat obyektlariga qo‘yilgan

barcha turdagi mulkiy va intellektual qimmatliklar bo‘lib, natijada foyda (daromad) yuzaga keladi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar investitsiyani ma’lum bir obyektga qo‘yilgan qimmatlik yoki resurs sifatida qarab chiqilgan. F.S.Tumusov investitsiyaning mohiyatini yoritishda quyidagicha ta’rif bergan: «investitsiya pul mablag‘lari sarfi, daromad qismi sifatida, joriy iste’molda emas, balki takror ishlab chiqarishdagi barcha ijtimoiy va individual kapitaldan foydalanishni va natijada pirovard maqsad bo‘lib yangi, bir muncha yuqori daromad olish yoki kelajakda ijtimoiy samaraga erishishni ifodalaydi».

Ushbu ta’rifda muallif faqat resurs, balki sarflar yondashuvida birga qo‘shishga harakat qilib, investitsiyani bir tomonda ishlab chiqarish faoliyatining natijasi, ikkinchi tomondan, ma’lum vaqtga iste’molda foydalanilmaydigan daromad qismi sifatida tushuntiradi.

S.S.Borgayakovning fikricha, investitsiyalar maqsadga muvofiq ikki jihati qarab chiqiladi: zahira kategoriyasi sifatida va oqim kategoriyasi sifatida. Investitsiyaning mohiyati bo‘yicha turlicha yondashuvlardan farqli ravishda ko‘rsatkichlarni o‘lchashning davriy jihati bosh mezon deb hisoblanadi. Agar investitsion ko‘rsatkichlarni vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘lchash mumkin bo‘lsa (jamg‘arma hajmi, kapital mulk miqdori, mahsulot miqdori va hakozo), unda bu kategoriya zahira, aks holda, mazkur ko‘rsatkich qandaydir dinamik kategoriya sifatida vaqtga bog‘liq ravishda o‘lchansa, unda bu oqim kategoriyaga tegishlidir. Bunday yondashuv, «kapital qo‘yilmalar» va «investitsiya» mohiyatining bog‘liqligini ifoda etadi.

Yaqin davrgacha mamlakatimizda investitsiyani «kapital qo‘yilma» mohiyati bilan aynan bir xil tushuncha deb qarab kelindi. Umumqabul qilingan investitsiya (kapital qo‘yilma) tushunchasi quyidagilar bo‘yicha ifodalanadi: «kapital ko‘yilma» (yoki kapital sarfi) yangi qurilishga va rekonstruktsiyaga sarflanadigan moliyaviy mablag‘; harakatdagi korxonalarni texnik qayta qurollantirish va kengaytirish (ishlab chiqarishga kapital qo‘yish), uy joyga, kommunal va madaniy-maishiy qurilishlar (noishlab chiqarishga kapital qo‘yish).

Bunda investitsiya tushunchasining mohiyatini aniqlashda bozor va rejali iqtisodiyotidagi farqlari ifodalanadi. Kapital

qo‘yilmaning yuqorida keltirilgan izohi sarf-xarajatlar tavsifini aniq ifodalaydi va investitsiyalash sohasini faqat qo‘yilmagacha qisqartiradi, ya’ni asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, ularning yuksalishi va takomillashtirilishini nazarda tutadi.

Ma’muriy boshqaruv tizimi sharoitida resurslar taqsimlanishi, mulk shaklining bir xilligi va qimmatli qog‘ozlar bozorining to‘liq amal qilmasligi (davlat obligatsiya zayomlaridan tashqari) bo‘lishi mumkin emas edi. Shunday ekan xo‘jalik yuritishning rejali tizimi sharoitida investitsiya sarflar ko‘rinishida chiqib, faqat bir vaqtning o‘zida faqat joriy sarflarga farq qiladi. Sarflarning natijaviylik darajasini aniqlash to‘lig‘icha e’tiborga olinmagan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq asosiy kapitalga investitsiya (asosiy vositalarga), shuningdek faoliyat yuritayotgan korxonani texnik qayta qurollantirish va rekonstruktsiyalash, kengaytirish, yangi qurilishga xarajatlar, mashina jihozlarni sotib olish, inventar, loyiha-tadqiqot ishlari va boshqa sarflar kapital qo‘yilmalar deyilgan, bu esa ularning muayyan qo‘rinishini ifodalaydi va mohiyati bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya sinonimini bildiradi.

Investitsiya va investitsiyalash muammolari J.Keyns, P.Masse, K.Makkonel, S.Bryu, E.Dolan va boshqa olimlar ilmiy ishlarida keng miqyosda yoritib berilgan. Fransuz olimi P.Masse va ingliz olimi Dj.Keynsning investitsiya mohiyatini aniqlashdagi mavjud tafovutlarda umumiy metodologik yondashuv ifodalangan. Shunday ekan, P.Masse yozadi: «investitsiyalash bugungi kundagi ehtiyojning qondirilishini manfaat yordami bilan uning kelajakda kutilayotganini almashuv aktini o‘zida ifodalaydi».

Ushbu ta’rifda investitsiyaning ikki tomonlama mohiyati - resurslarga sarflar va bu sarflarning natijalari yoritib berilgan. J.Keyns fikricha, investitsiya ushbu davrga daromadlar, ya’ni ehtiyoj uchun foydalanilmaydigan qismini o‘zida ifodalaydi. Bu «alohida shaxs yoki korporatsiyaning qandaydir eski yoki yangi mol-mulk xaridini, qaysiki yangi investitsiyalar daromad hisobiga turli ko‘rinishdagi kapital mol-mulk xaridini» ifodalaydi[3].

---

3 Аликулов И.С., Сатторов Д.С. Инвестициянинг мазмун-моҳияти ва тавсифланиши// «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 5, июль, 2012-йил

J.Keyns nazariyasida investitsiya va jamg'arish o'rtasidagi aloqadorlik bitta hodisaning ikki tomoni sifatida aniq ko'rsatib berilgan. Keyns nazariyasi bo'yicha investitsiyalash mazmuni bo'yicha shunday xulosa chiqarish mumkinki, rivojlangan iqtisodiy tizimda investitsiyalash va jamg'arish kategoriyalari alohida funksiyalari bilan ajralib turadi. Jamg'armaning muayyan qismini bevosita investitsiyalash mumkin, bu asosiy jamg'arma kichik va xususiy korxonalar, fermer xo'jaliklari mablag'larining qolgan qismi kelajakdagi sarflar (iste'mol va investitsion) uchun iqtisodiy munosabat subyektlarida saqlanadi.

Keyns odamlarning jamg'arishga bo'lgan moyilligining ortib borishini ularning iste'molga bo'lgan moyilligining kamayishida deb biladi. Unumli iste'mol mollariga bo'lgan talabning pastligiga sabab esa investitsiyalarni rag'batlantirishning yetarli emasligida deb biladi. Uning talqinidagi samarali talab hajmining yetarli emasligi muqarrar ravishda investitsiya jarayonining sustligi bilan izohlanadi, bunga sabab tadqiqotlarning kapital qo'yilmalarga kamroq qiziqishidir.

K.Makkonel va S.Bryu investitsiyaning mohiyatini keynschilar modelining idrokida deb biladilar, shuning uchun investitsiyani mikroiqtisodiy nuqtayinazardan qarab chiqadilar[4]. Mualliflar o'zlarining qarashlarida «yalpi xususiy ichki investitsiyalar» tushunchasini «amerikalik ishbilarmon firmalarning investitsion sarflari» deb aytadilar hamda ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: mashinalarga barcha oxirgi xaridlar, barcha qurilishlar, iste'mol qilinmagan mahsulotlar.

E.D.Dolan va D.S.Lindseylar investitsiya mohiyatini mikroiqtisodiy nuqtai nazardan talqin qilib, ular investitsiyaning mazmunini «shakllanayotgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining o'sishi, odamlar amal qiladigan ishlab chiqarish resurslari taklifini yuksalishida» deb biladilar[5].

D.Tojiboevaning fikricha, investitsiya deganda kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qayta ta'mirlash, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali muta-

[4]Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х т.: Пер. С англ. 11-го изд. Т.1.- М.: Республика, 1992. –399 с.

[5]ДоланЭ.Дж., Линдсей Д.Е. Микроэкономика. –Спб.,1994.-448 с.

xassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi[6]. Uning fikricha, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar yetakchi rol o'ynaydi, sababi investitsiya orqali korxonalar kapital jamg'arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishga erishiladi.

B.A.Abdukarimov, A.N.Jabriev, M.K.Pardaevlarning fikricha, «investitsiya – bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag' qo'yish. U pul mablag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklida olib boriladi va ko'chma, ko'chma bo'lmagan mol-mulkka, intelektual mulkka, ne'matlarga bo'lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo'yiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi[7]».

Nazariy tadqiqotlar va tahlil natijalaridan umumiy xulosa chiqargan holda xorij va vatanimiz olimlarining uslubiy yondashuvlariga asoslangan holda investitsiya mohiyatini yoritib berish bo'yicha quyidagi xulosaga keldik: investitsiya mohiyatining ilmiy sharhi quyidagilarni ifodalashi zarur: resursli va xarajatli yondashuvlar ularning dastlabki tashkil etilishi mablag'lardan foydalanishni talab etadi; qo'yilmalar daromadliligi – asosiy tartibga soluvchi sifatida resurslar va qo'yilmalar, ularning hajmi va dinamikasiga muvofiqligi; xavf-xatar elementlarining ishtirok etishi va natijalar bashoratining noaniqligi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda investitsiyaning mohiyatiga quyidagicha ta'rif beramiz: investitsiya – bu uzoq muddatli va kapital qo'yilmalarni xavf-xatarga qo'yib (tavakkal qilib), tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga takror ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida va buning natijasida foyda olish yoki resurslar potentsialining cheklangan sharoitida kelajakda boshqa foydali samaraga erishish maqsadidagi iqtisodiy kategoriyadir.

Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish – korxonani rivojlantirishning umumiy vazifalarida belgilangan investitsion faoliyatning uzoq muddatli maqsadlari va investitsion yondashuvlar

---

[6]Тожибоев Д. Иқтисодий назария (иккинчи китоб). – Т.: Шарқ, 2003-79 б.

[7]Абдукаримов Б.А. ва бошқалар. Корхона иқтисодиёти (дарслик).-Т.: Фан, 2005. 241 б.

tizimi, shuningdek, qo'yilgan maqsadlarga erishishning yuqori darajada samarali yo'llarini tanlash va amalga oshirishdir.

Moliyaviy investitsiyalar – bu, davlat yoki korporatsiyalar chiqargan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga, shuningdek, bank depozitlariga kapital qo'yishdir. Ularning tarkibida portfel invetitsiyalarni farqlash mumkin. Portfel investitsiyalar – mulkdan daromad olishda huquq beruvchi qimmatli qog'ozlarga kapital qo'yishdir. Moliyaviy aktivlarga investitsiyalar quyidagi shakllardagi qo'yilmalarni o'z ichiga oladi: asosiy iqtisodiy agentlar faoliyati jarayonida yaratilgan barcha ko'rinishdagi to'lov va moliyaviy majburiyatlar; naqd pullar; joriy hisobdagi mablag'lar; banklarga qo'yilgan muddatli omonatlar; turli xil qisqa muddatli qarz majburiyatlari; obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar.

Portfel investitsiyalar turli loyihalar guruhlariga kapital qo'yishni ifodalaydi. Masalan, korxona qimmatli qog'ozlarini qo'lga kiritish. Bunda investorning bosh vazifasi portfel investitsiyalarni shakllantirish va maqbul boshqarish hisoblanadi. Portfel investitsiyalar qatorida pul-kredit operatsiyalari keng tarqalgan bo'lib, investorning kapitali kredit sifatida bu omonatlardan keyinchalik foydalanish bilan depozit omonatlar ko'rinishida bankka joylashtirish tushuniladi.

Moliyaviy investitsiyalar, ularning keltiradigan daromadi bo'yicha baholanadi. Qimmatli qog'ozlar kursining harakati korxonaning moliyaviy holati va butun iqtisodiyotning yaqin kelajakda istiqbollari va holatini aks ettiradi. Takror ishlab chiqarish jarayonida real aktivlar harakati kapital bozori va investitsion tovarlar bozorida o'zaro aloqadorlikda realizatsiya qilinadi. Shuning uchun bitta korxona doirasida moliyaviy investitsiyalarning yopiq doiraviy aylanishi mumkin emas. Bozor iqtisodiyotida aynan moliyaviy qo'yilmalar muhim ahamiyatga ega. Bu shu bilan bog'liqki, moliyaviy kapital, avvalo, harakatchanligi bo'yicha ishlab chiqarishdan farqli ravishda doim ham harakatchan emas.

Bu shu bilan bog'liqki, agar investorlar aktiv vositalarga mablag' qo'ysalar asosan likvid bo'ladi. Aynan shuning uchun aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi moliyaviy investitsiyalar iqtisodiy tizimda tarkibiy o'zgarishlarga

ko‘maklashuvchi, bir iqtisodiyot sohasidan boshqasiga kapital ko‘chishini taminlaydi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar – moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli mablag‘lar qo‘yishdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishga davlat yoki xususiy firmalarning kapital boshqalar) tashkil etilishini ifodalaydi. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar guruhiga quyidagi investitsiya turlarini kiritish mumkin: ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishda, rekonstruksiyalashda va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yo‘naltirilganlik hamda eskirgan bino, inshoot va jihozlarning o‘rnini to‘ldirish.

Korxonalarda investitsion faoliyatni amalga oshirishning bosh rejasi sifatida quyidagilarni belgilab beradi (10.1-rasm).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar tovar moddiy boyliklar zahirasi o‘zgarishida muhim rol o‘ynaydi. Bir tomondan ahamiyatli investitsiyalar bu yo‘nalishda korxona faoliyatini no-to‘g‘ri rejalashtirish ahamiyatli mablag‘lar susayishini yuzaga keltirilishi mumkin, qaysiki korxona faoliyati natijalarida va uning moliyaviy holatida aks ettiradi. Boshqa tomondan, zahiralar jamg‘armasi chuqur inflyatsiya sharoitida investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

Intellektual investitsiyalar bo‘lib, ilmiy ishlar, tajribalar natijasi, litsenziyalar «nou-xau», mutahassislar tayyorlash va kadrlarni qayta tayyorlash, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini joriy etish kabilar hisoblanadi.

E.S.Babaev harakat yo‘nalishlari bo‘yicha investitsiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

– boshlang‘ich, ya’ni dastlabki investitsiyalar – firmani sotib olish yoki tashkil etishda amal qiladi;

– innovatsion investitsiyalar – texnologik va tashkiliy innovatsiyalar, ishlab chiqarish jihozlarini modernizatsiyalash va rekonstruktsiyalash, yangi mahsulotlar innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etiladi.

– ekstensiv investitsiyalar – ishlab chiqarish imkoniyatlatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar;




***10.1-rasm. Korxona investitsion faoliyati bosh rejasining belgilanishi***

- reinvestitsion, ya'ni bo'sh investitsion resurslardan yana yangi ishlab chiqarish jihozlarini sotib olish yoki o'rnatishda foydalaniladi. Bu turdagi investitsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: texnika-texnologiyalar, jihozlarni almashtirishga investitsiyalar; modernizatsiyalash va konstruksiyalashga investitsiyalar (obyektlar, jihozlar, uskunalarni); ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga investitsiyalar (faoliyat turlari, xizmatlar, tovarlar assortimentini kengaytirish); firmalar yashashini ta'minlashga va bozorda o'z mavqeiga ega bo'lishga investitsiyalar (ilmiy-tadqiqot jihozlariga va tajriba-konstruktorlik ishlari, mahsulotni yangilash, reklama, dizayn, xodimlarni qayta tayyorlash, sanoat josusligi, tijorat sirini saqlash).

Investitsiyalar hajm o'lchovi nuqtai nazaridan yirik va kichik investitsiya turlariga bo'linadi. Kichik investitsiyalar, odatda korxonalar yillik tushum hajmiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatmaydi hamda qo'shimcha samaralar olishda unchalik ahamiyatga ega

emas. Yirik investitsiyalarda korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasi hajmi investitsiya miqdoriga (kiritilgan investitsiya hajmiga) bog'liq bo'ladi. Korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida kiritilayotgan barcha investitsiyalar investitsiya subyekti nuqtai nazaridan davlat va xususiy investitsiyalarga bo'linadi. Ular yo'nalishi, maqsadi, moliyalash manbalari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Davlat investitsiyalari asosan mudofaa, sog'liqni saqlash, madaniyat, nazariy ilmiy loyihalar maqsadida hamda iqtisodiyotni tizimli tartibga solish uchun u yoki bu tarmoq va ishlab chiqarishning eng muhim sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi zarur. Davlat investitsiyalari davlat va mahalliy budjetlarning jamg'arma fondlari turli darajadagi davlat korxonalari foydasi yoki ichki va tashki davlat zayomlari, obligatsiyalar chiqarish hisobiga moliyalashtiriladi.

Xususiy investitsiyalar ko'proq foyda olish imkoniyati yuqori bo'lgan tarmoqlarga yo'naltiriladi. Ularni moliyalashtirish manbai bo'lib, korxona va tashkilotlarning taqsimlanmagan foydasi, amortizatsiya jamg'armasi hamda korxonalarni o'z mol-mulkini garovga qo'yib emissiya qilgan mablag'lari shaklidagi korxonalarning o'z mablag'lari hisoblanadi.

Investitsiyalar kiritilish bo'yicha uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarga bo'linadi. Kiritilgan mablag'larni joriy etish vaqti va natijalardan foydalanish nuqtai nazaridan investitsiyalar quyidagi turlariga farqlanadi:

1. Bir martalik investitsiyalar – bir martalik mahsulotni chiqarishga yo'naltiriladi. Bunday guruh investitsiyalarga – investitsiyalash jarayonidan muayyan bir vaqtda sarflangan va shunga muvofiq holda bir martalik mahsulot ishlab chiqarish aktiga to'g'ri keladigan investitsiyalash jarayonini ifodalaydi.

2. Takroriy investitsiyalar – bu jarayonda ham bir martalik mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Bu holatda kapital mablag' sarflari hamda mahsulot ishlab chiqarish bir paytda amalga oshiriladi.

3. Bir martalik investitsiyalar – bu jarayonda korxonalar mahsulot ishlab chiqarishni bir necha marta takroran hosil qiladi. Bu holda investitsiya mablag'lari sarfi bir vaqtli (muayyan davrda)

xarakterga ega, ammo mahsulot ishlab chiqarish uzoq muddatda amalga oshiriladi.

Investitsiyalar moliyalashtirish manbalari bo'yicha o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larga bo'linadi. Investitsiyaning o'z mablag'lari manbalariga korxona jamg'armalari, ya'ni foyda, amortizatsiya ajratmalari, ishchi-xodimlar mablag'lari (ulushlari, aksiyalari va h.) kiradi. Jalb qilingan mablag'lar manbaiga: davlat va mahalliy budjet mablag'lari, tijorat mablag'lari, kompaniyalar investitsion fondlar resurslari, moliya-kredit tashkilotlari resurslari, obligatsiyalar, xorijiy investorlarning to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalari kiradi.

Investitsiyalar majburiy joriy qilinish darajasi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

– majburiy investitsiyalar – umumdavlat manfaatlariga muvofiq keladigan investitsiyalardir. Bunday investitsiyalar asosan o'rab turgan muhitni saqlash, tabiatni muhofoza qilish, obyektlarni qurish, jamoat maskanlarini bunyod etish va boshqalarni moliyalashtirishga sarflanadi.

– xavf-xatardan himoyalanishga sarflanadigan investitsiyalar – komplekt mahsulot va xomashyolarni sotib olish bo'yicha xavf-xatarni kamaytirishga yoki korxonalarga bozordagi baholar darajasini yetarli darajada ushlab turishga ko'maklashish, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarni monopol raqobatdan himoyalashga yo'naltiriladi;

– tezkor investitsiyalar («nou-xou», ilmiy yangiliklar uchun) – yangi texnik va texnologik imkoniyatlarni izlashga, texnik taraqqiy etishga yo'naltiriladi;

– ijtimoiy investitsiyalar – korxona jamoasi mehnat sharoitlarini yaxshilashga yo'naltiriladi;

– hukumat investitsiyalari – korxonalar mavqeini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Korxona va tashkilotlarda asosiy fondlarni yaratish va takror ishlab chiqarishga investitsiyalash kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladi. Investitsion faoliyatni amalga oshirishda mahalliy, chet el yuridik va jismoniy shaxslari hamda davlat va xalqaro tashkilotlar qatnashishlari mumkin. Investitsiyalash jarayonlarining subyektlari investorlar hisoblanadi va ular quyidagilar: buyurt-

machilar, ish bajaruvchilar, etkazib beruvchilar (ta'minotchilar) kiradi. Shuningdek, investorlar sifatida banklar, sug'urta kompaniyalari, vositachi tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Investitsion faoliyat subyektlari ikki yoki undan ortiq qatnashchilar funksiyalari birga olib borishlari mumkin. Investorlar – bu investitsion faoliyat subyektlari bo'lib, xususiy qo'yilmalar, zayomlar va jalb qilingan mablag'larni investitsiyalar shaklida va ulardan maqsadli foydalanishni ta'minlashni amalga oshiradilar. Investorlar sifatida: organlar, davlat va munitsipial mulk boshliqlari; fuqarolar, korxonalar va boshqa yuridik shaxslar; chet el jismoniy va yuridik shaxslar; davlat va xalqaro tashkilotlar kiradi.

## 2-§. Korxona investitsion strategiyasining mohiyati va uni amalga oshirish bosqichlari

Korxonaning investitsion strategiyasini ishlab chiqishning zarurligi tashqi va ichki muhit shart-sharoitlari o'zgarishlari bilan belgilanadi. Investitsiyalarni samarali boshqarish faqatgina tashqi investitsion muhitdagina mumkin bo'lgan o'zgarishlarga moslashgan aniq investitsion strategiya asosida tashkil etilishi mumkin, boshqacha aytganda korxonaning alohida bo'linmalari investitsion qarorlarining bir-biriga zid kelishi mumkinligi investitsion faoliyat samaradorligini pasaytiradi. Korxona tashqi moliyaviy muhiti omillarining o'zgarishi operatsion faoliyat maqsadlarining muhim o'zgarishlari bilan yoki hayotiy sikl bosqichlaridagi oldinda turgan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yangi tijorat imkoniyatlari ochilishi korxona operatsion faoliyati maqsadlari o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday holatda ishlab chiqilgan investitsion strategiya korxona investitsion aktivligini o'stirish prognozini va investitsion faoliyatni diversifikatsiyalashni ta'minlaydi.

*Investitsion strategiya* – korxona investitsion faoliyatini istiqbolli boshqarishning samarali instrumenti sifatida ko'zga tashlanadi hamda korxonani rivojlantirishning konseptsiyasini o'zida aks ettiradi. Korxona investitsion strategiyasini ishlab chiqish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Korxona hayotiy siklining har bir bosqichi uchun o'ziga xos investitsion aktivlik darajasini, investitsion faoliyat yo'nalishlari va

shakllarini, investitsion resurslarning shakllanish xususiyatlarini tavsiflaydigan investitsion strategiya korxona investitsion faoliyatini uning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'zgarishlarga moslashtirish imkonini beradi.

Investitsion strategiyani ishlab chiqish jarayoni korxonaning strategik boshqaruv obyektlarini belgilashni talab etadi. Investitsion faoliyatning bunday obyektlariga quyidagilar kiradi:

- yagona korxona;
- xo'jalik yuritishning strategik zonalari;
- strategik markazlar.

Xo'jalik yuritishning strategik zonasi korxona doirasidagi umumiy talab yoki xomashyo, texnologiyalardan foydalanish umumiyligi asosida birlashgan o'zaro yaqin tarmoqlar qatorida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi mustaqil xo'jalik segmentini o'zida aks ettiradi.

Strategik investitsion markaz – xo'jalik yuritishning alohida strategik zonasida alohida funksiyalarni bajarishga ixtisoslashgan yoki samarali xo'jalik faoliyatini ta'minlovchi korxonaning mustaqil tarkibiy birligidir. Hozirgi zamonaviy sharoitda investitsion strategiyani yuritish korxonaning muvaffaqiyatli va samarali rivojlanishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqilgan investitsion strategiya:

– korxonaning oldindagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining uzoq muddatli umumiy va investitsion maqsadlarini amalga oshirish mexanizmini ta'minlaydi;

– korxonaning investitsion imkoniyatlarini aniq baholash imkonini beradi;

– investitsion imkoniyatlardan maksimal foydalanish va investitsion resurslar faol aylanuvchanligi imkonini beradi;

– tashqi bozor investitsion muhitlari omillarining o'zgarishlari jarayonida paydo bo'ladigan va chetlab bo'lmaydigan yangi istiqbolli investitsion imkoniyatlardan tezkorlik bilan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi;

– tashqi investitsion muhitlar rivojlanishining mumkin bo'lgan variantlarini prognozlash va korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sirini kamaytirish imkonini beradi;

– korxona investitsion faoliyatini strategik, taktik (joriy) va operativ boshqarish o'rtasidagi aniq o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi;

– korxonaning raqobat muhitidagi ustunligini aks ettiradi;

– eng muhim strategik investitsion qarorlarni amalga oshirish doirasida investitsion faoliyatning mos siyosati belgilanadi.




***10.2-rasm. Korxona investitsion strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari***

Investitsion strategiyani shakllantirish davri quyidagilarga bog'liq:

– korxona rivojlanishining umumiy strategiyasini shakllantirish uchun qabul qilingan davr davomiyligi – investitsion strategiya davri mazkur chegaradan chiqmasligi lozim;

– iqtisodiyot va investitsion bozor holatini prognozlash imkoniyatlari – rivojlangan mamlakatlardagi yirik korxonalar investitsion strategiyasi 10–15 yilga ishlab chiqiladi; iqtisodiy beqarorlik sharoitida esa o'rtacha 3–5 yildan oshmasligi lozim;

– korxonaning tarmoqqa doir xususiyatlari – chakana savdo, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sohalarida investitsion strategiyani shakllantirish davri qisqaroq (rivojlangan mamlakatlarda 3–5

yil); ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish sohasida, qazilma boyliklar sohasida uzoqroq (5–10 yil); eng uzoq davr institutsional investorlar uchun belgilanadi (10 yildan yuqori);

– korxonaning ko'lami. Yirik korxonalarda investitsion strategiyalar nisbatan uzoqroq muddatga ishlab chiqiladi.

Strategik maqsadlarni shakllantirish strategik imkoniyatlar tahlili, investitsion faoliyatning strategik yo'nalishlari va shakllarini tanlash, shuningdek investitsion resurslar shakllanishining strategik yo'nalishlarini aniqlash korxona investitsion strategiyasini ishlab chiqishda muhim bosqichlar hisoblanadi. Investitsion siyosat investitsion faoliyatning eng muhim yo'nalishlarida uni amalga oshirishning alohida bosqichlarida korxona investitsion strategiyasini amalga oshirish shaklini o'zida aks ettiradi. Investitsion siyosatning investitsion strategiyadan farqi – bosh strategik maqsadlarga erishish uchun samarali boshqaruvni ta'minlashni talab qiluvchi aniq faoliyat yo'nalishlari bo'yicha shakllanishida.

Korxonalar investitsion strategiyasi doirasidagi moliyaviy siyosat quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqiladi:

– real investitsiyalarni boshqarish;
– moliyaviy investitsiyalarni boshqarish;
– investitsion resurslarni shakllantirish;
– investitsion risklarni boshqarish.

Bunday moliyaviy siyosatlarning har biri korxonalarning investitsion faoliyat samaradorligini oshirishda ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Investitsion strategiyani ishlab chiqish jarayoni korxona moliyaviy strategiyasi tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– investitsion strategiya maqsadlarining qo'yilishi;

– shakllangan investitsion resurslar tarkibini va ular oqilona taqsimlanishini optimallashtirish;

– investitsion faoliyat eng muhim jihatlari bo'yicha investitsiya siyosatni ishlab chiqish;

– tashqi investitsiya muhiti bilan o'zaro munosabatlarni saqlash.

Korxona investitsion strategiyasini ishlab chiqish jarayonida strategik investitsion qarorlar tayyorlash va qabul qilish quyidagi asosiy tamoyillar asosida ta'minlanadi (10.3-rasm).




***10.3-rasm. Investitsion strategiyalarni ishlab chiqish tamoyillari***

*Invayronmentalizm tamoyili.* Konstitutsionalizm (tashkilotning tashqi muhit bilan investitsion munosabatlarga kirishish faoliyatining yopiqligi)ga qarama-qarshi ravishda invayronmentalizm korxonaga ijtimoiy-iqtisodiy tizimda tashqi investitsion muhit bilan faol o'zaro munosabatga kirishuvchi, o'z-o'zini tashkil etishga qodir, ya'ni o'ziga xos makon, zamon va funktsional tuzilmalarga ega ochiq tizim sifatida qaraydi. Bu korxona investitsiya strategiyasini shakllantirish darajasining ba'zi sifatlarini ta'minlaydi.

*Muvofiqlik tamoyili.* Korxona iqtisodiy rivojlanishining umumiy qismida birinchi navbatda operatsion faoliyat rivojlanishini ta'minlovchi investitsion strategiya umumiy strategiyaga nisbatan bo'ysunchan xarakterga ega va shuning uchun strategik maqsadlar va operatsion faoliyat yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Investitsion strategiyaga bunday holatda korxona operatsion faoliyati strategik rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi korxona samarali rivojlanishini ta'minlashning asosiy omillaridan

biri sifatida qaraladi. Investitsion strategiyani amalga oshirishni ta'minlovchi operatsion faoliyat bazaviy strategiyalari quyidagilardir:

– cheklangan o'sish strategiyasi;
– jadallashgan o'sish strategiyasi;
– qisqartirish (siqish) strategiyasi;
– birlashtirish (kombinatsiyalash) strategiyasi.

Cheklangan o'sish strategiyasida mahsulotlar assortimenti barqarorligi va ishlab chiqarish texnologiyalariga ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari kuchsiz ta'siri ostida foydalaniladi. Odatda bu strategiya bozor konyukturasining nisbatan kuchsiz tebranishi va raqobat pozitsiyasining barqarorligi sharoitida tanlanib, investitsion strategiya birinchi navbatda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining cheklangan o'sishini ta'minlovchi takror ishlab chiqarish jarayoni va aktivlar o'sishini samarali ta'minlashga yo'naltirilgan. Investitsion faoliyat strategik o'zgarishlari mazkur bazaviy strategiya bo'yicha minimal darajada aks etadi.

Jadallashgan o'sish strategiyasi korxona tomonidan o'z hayotiy sikli dastlabki bosqichlarida yuqori sur'atlarda taraqqiy etayotgan sohalarda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarining yuqori darajada qo'llanilishini ko'rsatib beradi. Bunday bazaviy strategiya asosidagi investitsion strategiya investitsion faoliyatni rivojlantirishning yuqori sur'atlarini ta'minlashning zarurligini hisobga olgan holda shuningdek investitsion faoliyatni turli shakllari, yo'nalishlari, hududlar va tarmoqlar (sohalar) bo'yicha diversifikatsiyalash birmuncha murakkablik kasb etadi.

Qisqartirish (siqish) strategiyasiga korxonaning hayotiy sikli so'nggi bosqichlarida, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy inqiroz fazasida e'tibor ko'proq qaratiladi. O'z mohiyati bo'yicha bu strategiya ortiqcha faoliyatlardan voz kechishni anglatadi. U chiqarilayotgan mahsulot hajmi va assortimentini qisqartish, bozorning alohida segmentidan chiqish va boshqalarni nazarda tutadi. Bunday sharoitda investitsion strategiya bo'shayotgan kapital uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi investitsiyalash obyektlarida foydalanish asosida yuqori aylanuvchanlikni ta'minlashi lozim.

Birlashtirish (kombinatsiyalash) strategiyasidan yirik korxonalarning investitsion faoliyatni tarmoq va hududlar bo'yicha keng diversifikatsiyalashida foydalaniladi. U turli tipdagi xo'jalik yuritishning strategik zonalari yoki strategik xo'jalik markazlari alohida strategiyalarini o'zida birlashtiradi. Korxona investitsion strategiyasi strategik boshqaruvning alohida obyektlari bo'yicha ularni rivojlantirishning strategik maqsadlari bilan bog'liqlikda tabaqalashtiriladi.

*Kombinatsiyalash tamoyili.* Bu tamoyil investitsion faoliyatni istiqbolli (strategik), joriy va operativ boshqarishning o'zaro birlashishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan korxona investitsion strategiyasida investitsion faoliyatni strategik boshqarish jarayoniga muhimligi bo'yicha faqat birinchi bosqichda ko'rib chiqiladi. Bunday strategiya korxona investitsion portfelini shakllantirish yo'lida investitsion faoliyatni taktik (joriy) boshqarish asosida yotadi. O'z navbatida taktik boshqaruv alohida real investitsion loyihalarni amalga oshirish va moliyaviy instrumentlar portfelini qayta tarkiblash yo'lida investitsion faoliyatni operativ boshqarishning bazasi hisoblanadi. Investitsion portfelni shakllantirish o'rta muddatli boshqaruv jarayoni bo'lib, strategik qarorlar va korxonaning joriy investitsion imkoniyatlari doirasida amalga oshiriladi. Real investitsion loyihalarni amalga oshirish va moliyaviy instrumentlar portfelini qayta tarkiblashni operativ boshqarish qisqa muddatli boshqaruv jarayoni hisoblanadi va alohida investitsion loyihalar va moliyaviy instrumentlar bo'yicha operativ qarorlar ishlab chiqish va qabul qilishni, zarur hollarda investitsion portfelni qayta ko'rib chiqish haqida qarorlar tayyorlash nazarda tutadi.

*Strategik boshqaruvni asosan tadbirkorlik stiliga yo'naltirish prinsipi.* Korxonaning istiqbolga yo'naltirilgan investitsion xatti-harakatlari ikkita usul bo'yicha o'zaro farqlanadi: konservativ usul va tadbirkorlik (agressiv) usuli. Konservativ usul asosini qabul qilinadigan strategik investitsion qarorlarning mumkin bo'lgan variantlarini minimallashtirish bilan investitsion faoliyat yetarli darajasida strategik maqsadlar qo'yilishini aks ettiradi. Investitsion faoliyat yo'nalishlari va shakllarining muhim o'zgarishlari faqatgina operatsion faoliyatni o'zgartirish jarayonida amalga oshiriladi.

Konservativ o'sish usuli hayotiy siklning yetarli darajasi nazarda tutilishi bilan izohlanadi. Investitsion xatti-harakatlarning tadbirkorlik usuli asosini investitsion faoliyat barcha yo'nalishlari va shakllari bo'yicha samarali investitsion yechimlarni doimiy izlash tashkil etadi. Mazkur usul qo'llanilganda investitsion faoliyatni amalga oshirishning yo'nalishlari, shakllari va metodlari tashqi investitsion muhit omillarining o'zgarishini inobatga olgan holda doimiy almashtirib boriladi. *Investitsion moslashuvchanlik va muqobillik tamoyili.* Investitsion strategiya tashqi investitsion muhit omillarining o'zgarishiga moslashuvchanlikni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari strategik investitsion qarorlar asosida investitsion faoliyatni amalga oshirishning yo'nalishlari, shakllari va metodlarining mumkin bo'lgan (muqobil) variantlarini doimiy qidirish, ulardan eng yaxshisini tanlash va shu asosda umumiy investitsion strategiyani qurish hamda uni samarali amalga oshirish mexanizmini shakllantirish yotishi kerak. *Innovatsion faoliyat.* Investitsion strategiyani shakllantirishda investitsion faoliyat korxonaning bozordagi raqobat pozitsiyasini oshirishni ta'minlovchi texnologik yangiliklarni joriy etish bosh mexanizm sifatida qaraladi. Nafaqat investitsion strategiyani, shu bilan birga korxonaning strategik rivojlanish umumiy maqsadlarini amalga oshirish ilmiy-texnik taraqqiyotning so'nggi natijalaridan va ularni zudlik bilan foydalanishga moslashtirishga yuqori darajada bog'liqlik kasb etadi. Mazkur tamoyil aynan yuqoridagilar bilan izohlanadi.

*Investitsion risklarni minimallashtirish tamoyili.* Amaliy jihatdan korxonada investitsion strategiyani shakllantirish jarayonida qabul qilingan barcha investitsion qarorlar investitsion risklarga duch keladi. Har bir korxonada investitsion straegiyani ishlab chiqish jarayonida riskka munosabat bo'yicha turli investitsion xatti-harakatlar bilan bog'liqlikda ularga yo'l qo'yishning mumkin bo'lgan darajasi tabaqalashtirilgan holda o'rnatilishi lozim.

## 3-§. Korxonalar investitsion loyihalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari va uning tahlili

Korxonalar moliyaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri investitsiya siyosati hisoblanadi. Korxonalarning investitsiya siyosati deyilganda korxonaga jalb qilinadigan investitsiyalar manbalarini optimallashtirish, korxona tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar xajmini oshirish, investitsion portfelni boshqarish, investitsiya loyihalarni samaradorligini aniqlash kabilar tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish, qo‘llab – quvvatlash, markazlashmagan investitsiyalash jarayonidan markazlashgan investitsiya jarayoniga o‘tish, ustivor investitsion loyihalarni qo‘llab quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig‘indisi hisoblanadi.

Investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlari deb quyidagilar hisoblanadi:

– investitsiyalar, ular harakatlanishi, investitsiya faoliyati ishtirokchilari munosabatlari, ularni tartibga solib turish bo‘yicha qulay huquqiy bazani yaratish, amaldagi qonunchilik – huquqiy bazasini takomillashtirish;

– iqtisodiy tub islohatlarni amalga oshirish, maqsadli investitsion siyosatni yurgizish;

– investitsion jarayonni yaxshilash va barcha investitsion jarayon ishtirokchilarining faolligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish;

– davlat boshqaruv organlari, hukumat tashkilotlarining nazorat etish funksiyalarini yanada takomillashtirish.

Jahon amaliyotida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashning bir qancha usullari ishlab chiqilgan, quyida shulardan ba’zilarini tahlil qilamiz.

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan qoplash muddati va rentabellik darajasi usullari ham avvaldan ma’lum bo‘lib, ular milliy va chet el amaliyotida to pul tushumlarining diskontlanishiga asoslangan usullarning keng qo‘llanilishiga qadar asosiy ko‘rsatkichlar sifatida amal qilib kelgan. Ushbu usullarning soddaligi va tushunarliligi va maxsus iqtisodiy

bilimga, ko'nikmaga, malakaga, tayyorgarlikka va tajribaga ega bo'lmagan xodimlar o'rtasida ham qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari salohiyatli qarz oluvchilarga investitsion resurslarni taqsimlash shartlarini ma'lum qilishda, odatda, ushbu ikkita usuldan, ya'ni qoplash muddati va rentabellik darajasi ko'rsatkichlaridan foydalanmoqdalar.

Investitsiyalarning qoplash muddatini hisoblash usuli pul oqimlarini diskontlashga asoslangan usullardan farqli ravishda investitsiyalarning nominal miqdorda qaytarilishi mumkin bo'lgan davrni aniqlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, bu usul investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar hisobiga qilingan investitsiya sarflarini qoplash davrini aniqlashga asoslangan. Qoplash muddatini aniqroq tushunadigan bo'lsak, bu loyihani yakunlash davridagi yoki undan olingan daromad investitsiyalar summasiga teng bo'lgandagi davrga tengdir.

Uni hisoblash tenglamasi quyidagichadir:

$$PP = \frac{I_0}{CF_t^{(\Sigma)}}, \qquad (2.1)$$

bunda, $I_0$ – boshlang'ich investitsiyalar; $CF_t^{\Sigma}$ – investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olingan-yillik pul tushumi summasi. U sof foydani yoki yillik daromad (D) va harajat (X) o'rtasidagi (amortizatsiyasiz A) farqni ifodalaydi.

Investitsiyalarning buxgalteriya rentabellik darajasi (ARR) yoki foydaning oddiy me'yori (ROI) bugalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslangan holda aniqlanadigan o'rtacha daromadni investitsiyalarning o'rtacha yillik hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi. Bunda hisob-kitob ishlari foizlarni va soliqlarni to'lamasdan avvalgi foyda miqdoriga asoslanib amalga oshirilishi mumkin yoki u soliqlarni to'lagandan keyingi, lekin foiz to'lovlarigacha bo'lgan daromadga asoslanadi. Eng yaxshisi soliq to'langandan keyingi sof foyda miqdori tanlab olinganligi afzalroqdir. Chunki u korxona ta'sischilari va investorlar oladigan haqiqiy foydani ifodalaydi. U quyidagi tenglama asosida hisoblanadi:

$$ARR = \frac{D(1 - C_e)}{(C_a^b - C_a^0)/2} \qquad (2.2)$$

bunda, $D$ – foiz va soliq to'lovlarigacha yoki soliq to'lanib, foizlar to'langungacha bo'lgan daromad; $S_s$ – soliq to'lash stavkasi; $S_a^b$, $S_a^0$ – aktivlarning ko'rib chiqilayotgan davriga bo'lgan boshlang'ich va oxirgi summasi, qiymati.

Bundan tashqari, investitsiyalarning buxgalteriya rentabellik darajasini (ARR) quyidagi tenglama orqali ham aniqlash mumkin:

$$ARR = \frac{\sum_{t=1}^{n} P_t^N}{n} : \frac{I_0 + (I_0 - \sum_{t=1}^{n} \cdot A_t)}{2}; \quad (2.3)$$

bunda,

$R_t^N$ – t – davrdagi soliq to'langandan keyingi sof foyda miqdori;

$A_t$ – t – davrdagi asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi summasi arzon va tez eskiruvchi buyumlar summasi.

Har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholanishi pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib investitsiya loyihasining samaradorligini baholash mumkin emas. Investitsiya loyihasini baholash loyihani amalga oshirishdan oldin bajarilishi sababli, pul oqimlari haqidagi ma'lumotlar ham oldindan rejalashtiriladi. Loyiha samaradorligini baholashda pul oqimlarini rejalashtirish va ularni hisobga olish jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. Chunki jarayon investitsiya loyihalarining haqiqiy samaradorligini aniqlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pul tushumlari va chiqimlarini tahlil etish investitsiya loyihalarini baholashda juda muhim sanaladi. Investorlarni boylikni o'stiruvchi tushumning qanchaligi, pul mablag'lari kirimi va chiqimigina qiziqtirmasdan, balki korxonaning budjet oldidagi majburiyatlardan holi bo'lgandagi, ya'ni soliqlarni to'lagandan keyingi qoladigan natija (foyda) qiziqtiradi.

Buni quyidagi ko'rinishdagi tenglama orqali aniqlash mumkin:

$$P_T = S_T - (X - A) - N_\phi - N_c \quad (2.4)$$

bunda, $P_t$ – pul tushumlari; $S_t$ – sotishdan olingan tushum;

X – harajatlar yig'indisi (joriy harajatlar); A – amortizatsiya ajratmasi;

$N_f$,$N_c$ – to'langan foizlar va soliqlar.

Diskontlash usuli (noan'anaviy usul) pul mablag'larining qiymati muayyan vaqtda bir xil emasligi, ya'ni bugungi bir so'm

bir-yildan keyingi bir so‘mga teng emasligi bois paydo bo‘ldi (iste’mol qiymati bo‘yicha).

Ko‘p hollarda, investitsiya loyihalarini baholashda ikkita guruhga umumlashtiruvchi ikki usuldan tez-tez foydalanadi.

Birinchi guruh – bu diskontlash koptseptsiyasini qo‘llashga asoslangan usullar:

– sof joriy qiymatni aniqlash usuli;

– foydaning ichki me’yorini hisoblash usuli;

– investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli;

– diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli.

Ikkinchi guruh – bu diskontlash kontseptsiyasini qo‘llashni nazarda tutmaydigan baholash usullari:

– qoplash muddatini hisoblash usuli;

– investitsiyalarning bugalteriya rentabelligini aniqlash usuli.

Loyihaning jalb etuvchanligini baholash usullari uning barcha xususiyatlarini ochib bera olmasa ham, loyihaning haqiqiy samaradorligini aniqlashda asosiy xizmat vazifasini o‘taydi.

Sof joriy qiymat (NPV) – investitsiyalash obyektidan foydalanish davrida oldindan qat’iy belgilangan va o‘zgarmas foiz stavkasida olinadigan daromadlar va qilinadigan harajatlarning alohida muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarning diskotlashtirilishi yo‘li bilan olingan va ular o‘rtasidagi farqni ifodalovchi qiymat. Uning mohiyati shundaki, yillik sof pul oqimi miqdori har bir davr uchun loyihani amalga oshirishning boshlang‘ich yiliga keltiriladi va u oqibatda o‘zini pul miqdorida sof joriy qiymat yoki sof diskontlashtirilgan daromad sifatida namoyon etadi.

Uni hisoblash tenglamasi quyidagicha:

$$NPV = \frac{CF_1}{(1+d)^1} + \frac{CF_2}{(1+d)^2} + \ldots + \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0$$

$$yoki \quad PV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0 \qquad (2.5)$$

bunda, NPV – sof joriy qiymat; $d$ – diskontlash stavkasi; $I_0$ – boshlang‘ich investitsiya; $SG'_t$ – $t$ davr oxirida kelib tushgan pul oqimi.

Misol. 5.3. Biron – bir investitsiya loyihasi uchun 140 million so‘m investitsiya qilish talab etiladi va undan kutiladigan natija-yillar bo‘yicha 18, 40, 75 va 80 mln. so‘mni tashkil etdi.

Agar investitsiya loyihasi yillar davomida moliyaviy resurslarning ketma-ket investitsiyalanishi talab etsa, u holda *NPV* ni hisoblash quyidagicha bo'ladi:

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+d)^t} - \sum_{t=1}^{n} \frac{I_t}{(1+d)^t}, \tag{2.6}$$

Bunda, $I_t$ – $t$ davridagi investitsiyalar sarfi. *NPV* ni hisoblashda, odatda, doimiy stavka ($d$) qo'llaniladi. Ammo ba'zi bir vaziyatlarda, masalan, hisob (foiz) stavkasining o'zgarishi kutilayotgan paytda-yillar bo'yicha individual diskontlash stavkasidan foydalanish mumkin. Bu esa o'z navbatida hisob-kitob ishlarini murakablashtiradi.

Agar d – miqdori doimiy bo'lmasa, ya'ni davrdan davrga o'zgarib tursa, u holda sof joriy qiymatni (NPV) aniqlash bo'yicha quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{\prod_{t=1}^{t}(1+d_t)} - I_0, \tag{2.7}$$

Bunda, $\prod_{t=1}^{t}(1+d_t) = (1+d_1)\cdot(1+d_2)\cdot\ldots\cdot(1+d_t)$. Soliq olish darajasi, inflyatsiya va tannarx tarkibida amortizatsiya ajratmalari ulushi sezilarli bo'lganda sof joriy qiymatni (NPV) quyidagicha hisoblash ma'qul bo'ladi:

$$NPV' = \sum_{t=1}^{n} \frac{(P_t + D_t)(1-tax)\cdot(1+i)^t + D_t \cdot tax}{[(1+d)(1+i)]^t} - I_0. \tag{2.8}$$

Bunda,

$P_t$ – $t$ – davridagi sof foyda;

$D_t$ – $t$ – davridagi amortizatsiya ajratmasi;

tax -korxona foydasiga soliq stavkasi;

$i$ – kutilayotgan inflyatsiya darajasi;

$d$ – diskontlash stavkasi;

$I_0$ – boshlang'ich investitsiya.

Diskont stavkasi me'yori kapital bozoridagi uzoq muddatli sudalar bo'yicha foiz stavkasiga yoki suda oluvchi tomonidan to'lanadigan foiz stavkasiga, haqiqatda, teng bo'lishi kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda, diskont me'yori investorning o'zi uchun undan pasti samarasiz deb hisoblangan minimal foyda me'yori bo'lishi kerak.

Foydaning ichki me'yori usuli (IRR – internal rate of return) – bu pul tushumlarining diskont qiymati pul chiqimlarining diskon-tetavkasiga teng bo'lgandagi daromadlilik darajasi yoki bo'lmasa loyihadan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymati investitsiyalarniig diskontlangan qiymatiga, sof joriy qiymat esa nolga teng bo'lgandagi diskont me'yoridir.

Foydaning ichki me'yorini aniqlash vazifasi birmuncha qiyin bo'lib, investitsiyalarning bir yoki undan ko'p marta amalga oshirilishiga, loyihadan olingan pul tushumlarining, hech bo'lmasa, bir marta yoki boshida salbiy bo'lishligiga va ushbu pul tushumlarining miqdoran bir xil bo'lmasligiga asoslanadi.

Uni hisoblash tenglamasini quyidagi tenglamada ifodalash mumkin:

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0 = 0 \quad , \tag{2.9}$$

Agar investitsiya loyihasi bir necha yillar davomida moliyaviy resurslarning ketma-ket moliyalanishini talab etsa, unda (IRR)ni quyidagi tenglamada ifodalash mumkin:

$$\sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+d)^t} = \sum_{t=1}^{n} \frac{I_t}{(1+d)^t} \quad , \tag{2.10}$$

Bunda $d$ miqdorini topish lozim bo'ladi. Topilgan miqdor foydaning ichki me'yori deb nomlanadi. Bu meyor sof joriy qiymat nolga teng bo'lib, investitsiya loyihasi firmaning boyligi o'sishini ta'minlamasligini va uning kamayishiga ham yo'l qo'ymasligini ko'rsatadi:

$$y = f(d) = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} \tag{2.11}$$

bunda $IRR$ o'rniga $d$ miqdorni olsa ham bo'ladi.

2.2 - tenglamada funksiya bir necha xususiyatga egaligi ko'rinib turibdi va u pul oqimiga bog'liq emas. Sababi, birinchidan, tenglikdan shu narsa ko'rinadiki, $u=f(d)$ funksiya to'g'ri chiziqli emas. Ikkinchidan, $d=0$ da yuqoridagi formuladagi dastlabki pul oqimlari elementlarining summasi hosil bo'ladi, ya'ni NPV chizmasi ordinata o'qining shunday nuqtasini kesib o'tadiki, bunda hamma pul oqimlarining diskontlashmagan elementlari yig'indisi hamda dastlabki investitsiya miqdori ko'rsatiladi. Uchinchidan,

yuqoridagi formuladan investitsiyalar sarfi daromadlar tushumi bilan almashadi. Investitsiyalarning joriy qiymati bo'yicha to'liq qoplanish darajasini foydaning ichki me'yori usuli orqali aniqlash (2.1 - tenglama):




*1-chizma. Sof joriy qiymat va foydaning ichki me'yori bog'liqligi*

Agar kelayotgan tushum ushbu harajatlardan ko'p bo'lsa, u holda *d* ning o'sishi bilan funksiya chizmasi abtsissa o'qiga intiladi va ma'lum bir nuqtada u bilan kesishadi, ushbu nuqta IRR dir. IRR loyihadan kutilayotgan daromadlilikni ko'rsatadi va qilinishi mumkin bo'lgan maksimal harajatlar chegarasini belgilab beradi, ya'ni IRR olinayotgan kredit bo'yicha bank foiz stavkasini yuqori chegarasini ko'rsatadi, ayni shu foiz chegarasidan yuqori miqdorga ega bo'linganda loyiha daromad keltiradi.

Foydaning ichki me'yorini boshqacha ko'rinishda, ya'ni interpolyatsiya usuli orqlai ham ifodalash mumkin:

$$IRR = d_1 + \frac{NPV_1}{(NPV_1 - NPV_2)} \cdot (d_2 - d_1), \qquad (2.12)$$

bunda, $NPV_1$ – $d_1$ diskont me'yori stavkasidagi sof joriy qiymatning ijobiy miqdori; $NPV_2$ – $d_2$diskont me'yori stavkasidagi sof joriy qiymatning salbiy miqdori.

Foydaning ichki me'yorini aniqlashda $d_1$ va $d_2$ ko'rsatkichlar miqdori asosiy o'rinni egallaydi. Ularning ta'siri natijasida sof joriy

qiymatning o'zgarishini va buning oqibatida esa foydaning ichki me'yori ham o'zgarishini kuzatish mumkin. Shunga ko'ra:

$d_1$ – buNPVning ijobiy qiymatinini minimalushtiruvchi foiz stavkasi;

$d_2$ – buNPVning salbiy qiymatini maksimallashtiruvchi foiz stavkasi hisoblanadi.

Ko'p hollarda $d_1$ va $d_2$ bir yoki ikki punktdan (foizdan) ortig'igafarq qilishi mumkin emas.

Ushbu tenglamani quyidagi jadval orqali tahlil qilib chiqamiz (10.1-jadval)

**IRR (Foydani ichki me'yori)ni hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar**

*10.1-jadval*

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | | NPV |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1-yil | 2-yil | 3-yil | 4-yil | 5-yil | |
| Diskont me'yori – 21,9% | | | | | | | |
| Sof pul oqimi | 0 | 814,80 | -1679,60 | -680,90 | 331,50 | 1861,29 | |
| Diskont ko'paytiruvchi | 0 | 0,8203 | 0,6730 | 0,5521 | 0,4529 | 0,3715 | |
| Diskont pul oqimi | 0 | 668,42 | -1130,31 | -375,90 | 150,13 | 691,541 | 3,84 |
| Diskont me'yori – 22% | | | | | | | |
| Sof pul oqimi | 0 | 800,80 | -1693,60 | -688,88 | 326,18 | 1858,63 | |
| Diskont ko'paytiruvchi | 0 | 0,8197 | 0,6719 | 0,5507 | 0,4514 | 0,3700 | |
| Diskont pul oqimi | 0 | 656,39 | -1137,87 | -379,37 | 147,24 | 687,69 | -25,92 |

Bunda, diskont stavkasi $d_1$=21,9%va $d_2$=22%ni bo'lgani holda, $NPV_1$=3,84 ming.so'm va $NPV_2$=-25,92 ming so'mni tashkil etdi.

Bu holda IRR quyidagicha hisoblanadi:

$$IRR = 21{,}9\% + \frac{3{,}84}{3{,}84 - (-25{,}92)} \cdot (22\% - 21{,}9\%) = 21{,}9129\%.$$

Demak, investitsiya loyihasini baholashning keyingi usuli bo'lgan IRR foydaning ichki me'yorini ikkita formula yordamida hisoblash mumkin ekan. Bu ko'rsatkich investitsiya loyihalari ichidan pul qiymati barcha kelgusi davrlarda bir bo'lgan sharoitda eng afzalini tanlash uchun xizmat ko'rsatadi

Investitsiyalarniig rentabelligi usuli (RI) – diskontlashtirilgan daromadlarning diskontlashtirilgan investitsiya harajatlariga nisbatini hisoblab topishga asoslangan. Bu qanday holatda investor boyligi o'sishi mumkinligini ko'rsatib beradi va quyidagicha aniqlanadi:

$$PI = \left[\sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+d)^t}\right] / I_0 \qquad (2.13)$$

bunda $I_0$ – boshlang'ich investitsiyalar, $SG'$ – $t$ davrda olingan pul tushumlari.

Investitsiya rentabelligi ko'rsatkichi firma (yoki investor) mablag'lari 1 so'm hisobida qanday hollarda o'sishini aniqlash imkonini beradi.

Agar investitsiya sarflari turli davrlarda (uzoq amalga oshirilsa, (RI)ni aniqlash tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$PI = \left[\sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+d)^t}\right] / \left[\sum_{t=1}^{n} \frac{I_t}{(1+d)^t}\right], \qquad (2.14)$$

bunda, $I_t$ – yildagi investitsiyalar.

Misol. Faraz qilaylik, investitsiya loyihasi uchun 140 mln.so'm harajat qilingan. Investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida birinchi yil 37750 ming so'm, ikkinchi yil 45390 ming so'm, uchinchi yil 47430 ming so'm, to'rtinchi yil 51140 ming so'm va beshinchi yil 60030 ming so'm pul tushumlari olinishiko'zda tutilmoqda. Bu holda investitsiya loyihasining diskontlashgan investitsiya rentabelligiqanday hisoblanadig'

Investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlashning qoplash muddati usulini (an'anaviy baholash usulini) yuqorida ham ko'rib o'tgan edik. Lekin mazkur usulning kelgusi davrlardagi pul tushumlarining qiymatini hisobga olmasligi uni diskontlashtirilgan usullar yordamida ham hisoblash zarurligini taqozo qiladi (10.2-jadval).

**Rentabellik indeksi hisob-kitobi**

*10.2-jadval*

| t/r | Ko'rsatkichlar | Summa, ming so'm | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1-yil | 2-yil | 3-yil | 4-yil | 5-yil |
| 1 | Pul tushumlari (oqimi) | 37750 | 45390 | 47430 | 51140 | 60030 |
| 2 | Diskont ko'paytiruvchi (d=7%) yoki diskontlash koeffisiyenti | 0,9346 | 0,8734 | 0,8163 | 0,7629 | 0,7130 |
| 3 | Sof diskontli tushum (oqim) yoki joriy qiymatga keltirilgan pul oqimi. | 35281,1 | 39643,6 | 38717,1 | 39014,7 | 42801,4 |

Buning uchun diskontlashtirishni hisobga olgan holda investitsiyalarni qoplash muddatini (DPP) hisoblash ishi diskontlashgan-yillik pul tushumlarini diskontlashgan investitsiyalarga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Mazkur usulning tushunarli bo'lishi uchun quyidagi misolni keltiramiz.

Misol. Faraz qilaylik, korxona mehmonxona qurilishi uchun 300 mln. so'm investitsiya qildi (mablag' sarfladi). Mehmonxonani foydalanishdan keladigan yillik pul tushumlari 85, 100, 120 va 160 mln. so'mni tashkil etadi. Buning uchun, eng avvalo, RR – investitsiyalarni qoplash muddati quyidagi tenglik bajarilishi sharti asosida hisoblanadi:

$$\sum_{t=1}^{n} ACI(t) = I_0, \tag{2.15}$$

bunda, $I_0$ – boshlang'ich investitsiyalar; ACI(t) – t davrdagi pul tushumlari.

Endi investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddatini (DPP) hisoblaymiz. U quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$DPP = \frac{I_0}{DCF^{(\Sigma)}}, \tag{2.16}$$

bunda, $I_0$ – boshlang'ich investitsiyalar; $DCF^{(\Sigma)}$ – diskontlashtirilgan yillik pul tushumlari.

Mazkur ko'rsatkichni hisoblashda yuqorida berilgan misolga asoslanib tuzilgan quyidagi 10.3-jadvalga murojaat qilamiz.

**Diskontlashtirilgan qoplash muddatini hisoblash**

*10.3-jadval*

| t/r | Ko'rsatkichlar | 0 | 1-yil | 2-yil | 3-yil | 4-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tushumlar, mln so'mda. | - | 85 | 100 | 120 | 160 |
| 2 | Diskontlashtirilgan tushumlar, mln. so'mda. (d=16%) | - | 73 | 74 | 77 | 89 |
| 3 | To'lovlar (boshlang'ich investitsiyalar) | 300 | - | - | - | - |
| 4 | Qoplash muddati (RR) | - | - | - | 2,96 y | - |
| 5 | Diskontlashtirilgan qoplash muddati (DPP) | - | - | - | - | 3,85 y |

Ushbu jadvalda investitsiyalarning qoplash muddati bilan birga diskontlashtirilgan qoplash muddati ko'rsatkichining hisoblanishi keltirilgan. Ularning bir-biridan farq qilishining o'ziga xos jihatlari ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ko'rib o'tgan yuqoridagi misolga, asosan, shunday xulosa qilish mumkinki, investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddati ularning diskontlashtirilmagan qoplash muddatiga qaraganda biroz uzoq vaqtni, ya'ni 3 yilu 10 oy 10 kunni tashkil etdi. Bu esa investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddatining kelgusi pul tushumlari va investitsiyalarning joriy qiymatini hisobga olishi bilan izohlanadi. Demak, investitsiyalarning qoplash muddati bo'yicha hisoblash usuli qilingan investitsiyalarning joriy (real) qiymati bo'yicha to'liq qoplanish muddatini tavsiflab beradi va shu jihatdan u investitsiyalarning qoplash muddati usulidan farqli ravishda afzalroq hisoblanadi.

Barchaga ma'lum bo'lgan «Vaqt, bu pul» degan ibora pulning nominal bahosidan farqli real bahosini (qiymatini va harid imko-

niyatini) vaqt o'tishi bilan uzluksiz o'zgarishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, joriy kundagi bir pul birligining real bahosi o'sha pul birligining har qanday o'tgan vaqt davrlaridagi real bahosidan farq qiladi va uning (o'sha pul birligining) kelajakdagi (bir oy, yil va h.k. vaqt muddatlaridagi) real bahosiga teng bo'lmaydi.

Faraz qilaylik, biz bugungi kunda 1000 so'mga egamiz va bu pul summasini bugunoq sarflashimiz yoki kelajakda iste'mol uchun saqlab qo'yishimiz mumkin. Ikkinchi yo'l bo'yicha ish tutilsa, bu pul summasini o'zimizda harakatsiz saqlab qoldirishimiz yoki bankdagi depozit hisob raqamimizga daromad olish maqsadida investitsiya sifatida qo'yishimiz mumkin. Masalan, bank depoziti bo'yicha 20 foiz miqdorida yillik daromad to'lanadi deylik. Unda depozitga qo'yilgan pul summasidan 200 so'mlik (1000 so'mning 20 foizi miqdorida) daromad olishimiz mumkin va bizning umumiy pulimiz 1200 so'mni tashkil etadi. Natijada, bizning hozirgi 1000 so'm pulimizning bir yildan keyinggi ekvivalenti 1200 so'm bo'ladi.

Foiz stavkasi pul kapitalining bahosi sifatida ikki tarkibdan iborat:

– pulning inflyatsiya darajasidan kelib chiqadigan qadrsizlanishini kompensatsiyalovchi inflyatsion kutish (tahlil va prognoz asosida);

– to'lanadigan real foiz stavka yoki qo'shimcha rag'bat.

Bular, birinchidan, investor o'z pullarini investitsiya qilishi uchun minimal baho (narh) sifatida, ikkinchidan, investitsiyani turli risklarga yuz tutgani uchun rag'bat sifatida vujudga keladi.

Foizning suzuvchan stavkasida natija boshqacha bo'lishi mumkin. Masalan, yillik 50 foiz daromad keltiruvchi loyihaga investitsiya qilishimiz mumkin. Ammo birinchi yil uchun daromadlar 200 so'm miqdorida, ikkinchi yil uchun esa 400 so'm to'lanadi. Bu holda kelajakdagi daromadlarning joriy bahosini (qiymatini) topish lozim. Buning uchun ham 2-tenglamani qo'llash mumkin, lekin bu baho erkin daromadlar miqdoriga bog'liq holda differentsiatsiyalangan (maydalangan) bo'lishi zarurligini hisobga olish kerak, ya'ni:

$$PV=S1/(1+r)^1+ S2/(1+r)^2 + \ldots + Sn/(1+r)^n$$

$$PV=(200/(1+0,5))+(400/(1+0,5)^2)=311 \text{ so'm.}$$

Faraz qilaylik, ushbu loyihaga muqobil bo'lgan loyiha bo'yicha ham investitsiyadan yillik 50 foiz daromad belgilanagan bo'lib, lekin undan (aavlgisidan) farqli quyidagicha daromad to'lash tartibi o'rnatilgan: birinchi yil uchun – 100 so'm, ikkinchi yilda – 500 so'm to'lanadi. 2-tenglamani qo'lab, PV=239 so'm ekanligini topamiz. Shunday qilib ko'rinib turibdiki, investitsiyaning birinchi varianti bo'yicha daromadlarning joriy bahosi ikkinchisinikidan yuqori, demak pul mablag'larini birinchisiga investitsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Faraz qilaylik, 10000 so'mni har yili 4 yil davomida yillik 12 foiz daromad keltiruvchi bank depozitiga kiritib boramiz. Agar-yillik qo'yilma summasini A deb belgilasak, unda 4 yildan keyinggi jamg'arilgan pul summasi quyidagi tenglama yordamida hisob-lanadi:

$$C_n = A\frac{(1+r)^n - 1}{r}$$

Ya'ni $C_n$=47793 so'm 28 tiyin.

Ushbu tenglamadan kelib chiqib, unga teskari bo'lgan quyidagi formulani olish mumkin.

$$A = Cn\left(\frac{r}{(1+r)^n - 1}\right)$$

Ushbu tenglama yordamida aniq (n) yildan keyin zarur bo'lgan ($C_n$) summani olish uchun yillik qo'yilmalarning (A) kerakli summasini hisoblab topish mumkin. Masalan, bankdagi muddatli depozitlar bo'yicha 15 foizli daromad darajasidan kelib chiqib, 5 yil davomida 80000 so'mni jamlashimiz lozim. Depozitga har yili qo'yiladigan qanday pul summasi bizga zarur bo'lgan summani jamg'arish imkonini beradigan 1-tenglama yordamida yillik qo'yilmalarning zarur summasini topamiz:

$$\frac{0{,}15}{(1+0{,}15)^5 - 1} =$$

A = 8000011865 so'm 24 tiyin.

Kelajakdagi jamg'armalarning joriy bahosini yillik teng qo'yil-malarda topish uchun 2-tenglamadagi S parametrni 4-tenglama orqali ifodalash lozim. Shu yo'l bilan quyidagi tenglamaga kelamiz.

$$\left(\frac{(1+r)^n-1}{(1+r)^n}\right)$$

$$RV = A$$

Bu tenglama yillik qo'yilmalar (A) summasidan kelib chiqib, kelajakdagi jamg'armalarning joriy bahosini (R) hisoblash imkonini beradi. Agar yillik 12 foiz stavkada daromad keltiruvchi jamg'arma hisob raqamiga 4 yil davomida har yili 10000 so'mdan pul kiritib borsak, unda kelajakda 4 yildan keyin 47793 so'm 28 tiyin olamiz (bu natija 4-tenglama yordamida hisoblab topilgan). Shuni qayd etish joizki, investitsiyalarni diskontlashtirilgan qoplash muddati ko'rsatkichi, ularning sof joriy qiymatda to'liq qoplanishining aniq davrini tavsiflab beradi. Kamchiligi esa, qilingan investitsiya qoplangandan so'ng uning samaradorligini ko'rsatib bera olmaydi va uni loyihaning foydaliligini aniqlashda qo'llab bo'lmaydi. Amaliyotda investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun, asosan, TEO – INVEST *informatsion texnologiyalari* dasturlaridan foydalanmoqda. TEO – INVEST, – loyihalarni moliyalashtirish va investitsion loyihalarni samaradorligini tahlil qilish uchun kompleks dasturiy ta'minot bo'lib hisoblanadi.

## Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Korxonalar investitsion faoliyati mazmun mohiyati va uning korxona taraqqiyotidagi ahamiyati.
2. Korxonalarda investitsiya faoliyatini yuritishning sabablari.
3. Korxona investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
4. Korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari.
5. Investitsiya siyosati va uni amalga oshirish bosqichlari.
6. Korxona investitsiya faoliyatini amalga oshirish bosqichlari.
7. Koxona investitsiya faoliyatini baholovchi moliyaviy ko'rsatkichlar.
8. Korxona investitsion faoliyatini amalga oshirish tamoyillari.

Korxona investitsion strategiyasi mazmun mohiyati va uni amalga oshirish bosqichlari.

# XI BOB. KORXONALARDA SOLIQ MENEJMENTINI TASHKIL ETISH

## 1-§. Soliq menejmentining mohiyati, tamoyillari va asosiy yo'nalishlari

Davlat tomonidan korxonalar faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar xatti-harakatlarida tegishli o'zgarishlar kiritishi tabiiydir. Soliqlar majburiy to'lovlar sifatida ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar uchun manfaat to'sig'iga aylanib, korzonal butun faoliyatini boshqaruvchi omil bo'lib qolmasligi kerak. Amalda esa, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning kuchli vositasi sifatida korxonalarning strategik qarorlarini sezilarli o'zgartirishga majbur etadi. Rivojlangan korxonalar amaliyotidan bilamizki, uzoq muddatga mo'ljallangan korxonalar hech qachon soliqlar tasirini hisobga olmasdan qabul qilinmaydi. Bugungi kunda soliq qonunchiligida soliqlarni tartibga soluvchi omil sifatida alohida e'tibor berilmoqda. Huquqiy asoslar yaratilganiga qaramasdan, korxonalar faoliyatida soliq imtiyozlariga ega bo'lish, pasaytiruvchi stavkalarda soliqda tortiluvchi faoliyat bilan shug'ullanishga o'tish va umuman soliqlarni rejalashtirish holatlari kam uchramoqda. Buning asosiy sababi O'zbekiston soliqqa tortish amaliyotida soliq menejmenti, soliqlarni rejalashtirish tadbirlari joriy etilmaganligidadir. Jahon amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayonlar korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatida katta ahamiyat kasb etib, ularni o'tkazishdan korxonagina emas, balki davlat ham manfaatdor bo'ladi. Ushbu tayanch so'zlarga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, Soliq menejmenti – soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini qonun doirasida qisqartirishga qaratilgan xatti-harakatlari yig'indisidir. Bu jarayonda soliqlarni qonunchilikka xilof bo'lmagan tarzda chetlab o'tish, shuningdek, soliq qonunchiligida belgilangan imtiyozlarni qo'lga kiritish, yoki soliq majburiyatlarini kamaytirishga qaratilgan maxsus

usullar qo'llaniladi. Bunday holatlarda bu usullar qonuniy hisoblanib, soliq to'lovchilarga jarima solishga sabab bo'la olmaydi.

Soliq menejmenti soliq to'lovlarini optimallashtirish bilan bog'liq faoliyat sifatida, ularni samarali boshqarishdir va u har qanday korxona menejmentining ajralmas qismi hisoblanadi.

Soliq menejmentini tashkil etishning afzalligi shundaki, soliq majburiyatlarining qisqartirilishiga qonunlarni buzmagan holda erishiladi. Soliq menejmenti korxonalar muvaffaqiyatini ta'minlash uchun tayanch vazifani o'taydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq menejmenti faqatgina mikrodarajadagi xatti-harakatlarni ifodalab, korxonalar tomonidan davlatning iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish siyosatiga nisbatan javobdir.

Soliq menejmenti masalasining o'rganilishida soliq menejmenti samaradorligiga tasir qiluvchi omillar xususiyatini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, soliq menejmenti samaradorligini quyidagi omillar asosida baholash maqsadga muvofiqdir:

- qonun doirasidan chiqmaslik;
- yuqori darajadagi soliqli manfaat;
- kam sarf-xarajat;
- nisbatan qisqa vaqt;
- ijtimoiy mas'uliyat.

Korxonalarda biznesning taqdiri, uning saqlanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan soliq yoki to'lovlarning qanday va qancha miqdorda to'lanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Respublikamizdagi soliq va boshqa soliqqa tortish tizimiga ta'sir etuvchi omillar, qonunchilikka tinimsiz o'zgartirishlarning kiritilishi va soliq yukining yuqoriligi sharoitida korxonalarda soliq menejmentini tashkil etish nihoyatda muhim va shu bilan bir paytda juda murakkabdir. Chunki soliq qonunchiligining o'zgarishi rejalashtirilgan biznes rejaning buzilishiga olib keladi. Soliq menejmenti korxonada moliyaviy resurslar va moliyaviy oqimlarni boshqarishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar soliq menejmentini rivojlantirish davr talabidir. Shu tufayli korxonada soliq munosabatlarini boshqarish faqat soliq to'lovchilarninggina emas, balki auditorlik va konsalting firmalari faoliyatining asosiy ish obyektiga

aylanib bormoqda, chunki soliq menejmentiga tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Bizning fikrimizcha O'zbekiston soliq tizimida soliq menejmenti, soliqlarni rejalashtirishni o'tkazishni tashkillashtirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirib, korxona faoliyatini rag'batlantirish mumkin. Zero, jahon soliqqa tortish amaliyotida qo'llanib yuqori natijalarga erishilgan tajribadan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korxonada soliqlarni optimallashtirishda soliq menejmenti quyidagilarni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi:

– soliqlarni rejalashtirish;

– korxonada ichki soliq nazoratini amalga oshirish.

Korxonalarda soliq menejmenti soliq to'lovlarini optimallashtirish bilan bog'liq faoliyat sifatida ularni samarali boshqarishdir va u moliyaviy menejmentning ajralmas qismi hisoblanadi.

Respublikamizda korxonalar soliq menejmenti hali yaxshi rivoj topmagan. Ammo, bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish soliqlar vositasida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatishning muhim yo'nalishi sifatida shakllanmoqda. 2004-yili Soliq maslahatchilari palatasining tuzilishi va 2006-yili «Soliq maslahati to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi xo'jalik subyektlarida soliq to'lovlarini optimallashtirishga bo'lgan talab, ya'ni korxonalarda soliq menejmentini rivojlantirish zaruratidan kelib chiqdi.

Korxonada soliq menejmentini tashkil etishdan maqsad, soliq to'lovlarini qonun doirasida kamaytirishga, maksimal foyda ko'rishga qaratilgan.

Soliq menejmentini rivojlantirishda korxonalar faoliyatini bevosita o'rganib, tadqiqot ishida quyidagi uchta korxona faoliyatini soliqlar ta'sirida o'rganib chiqishni maqsad qilib quyildi (korxonalar nomi o'zgartirilgan):

1) «A» korxonaning yillik ishchilar soni 138 nafarni tashkil qilib, sanoat tarmog'iga qarashli asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'illanadi. Korxonada umumbelgilangan soliqlar hamda budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlar to'lanadi.

2) «B» korxonaning yillik ishchilar soni 116 nafarni tashkil qilib, qurilish tarmog'iga qarashli asosiy qurilish faoliyati bilan shug'illanadi. Korxonada umumbelgilangan soliqlar hamda budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlar to'lanadi.

3) «S» korxonaning yillik ishchilar soni 60 nafarni tashkil qilib, xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'illanadi. Korxonada budjetga yagona soliq to'lovi hamda budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni to'laydi.

Biz ma'lumotlardan foydalanib korxonalarning yillik soliqlari va budjetga majburiy tulovlarining holatini tahlil qilib chiqamiz (11.1-jadval).

**Korxonalarning yillik soliqlari va budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarining holatini baholash** (ming so'mda)
**(2012-yil ma'lumoti)**

*11.1-jadval*

| Korxona nomi | Umumbelgilangan soliqlar | | Budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlar | | Yagona soliq to'lovi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | haqiqatda hisoblangani | haqiqatda to'langani | haqiqatda hisoblangani | haqiqatda to'langani | haqiqatda hisoblangani | haqiqatda to'langani |
| «A» | 1221708 | 1153499 | 150449 | 128378 | - | - |
| «B» | 422585 | 243375 | 198387 | 169968 | - | - |
| «S» | | | 3710 | 3278 | 7326 | 6409 |

Ma'lumotlar korxonalar hisobotlaridan olingan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «A» korxonasining budjetga to'lanmalari 1221708 ming so'mni tashkil etib, shundan 1153499 ming so'mi haqiqatda to'langan, bu 94,4%ni tashkil qiladi. Budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlar 150449 ming so'm, haqiqatda 128378 ming so'm to'langan bo'lib, bu 85,3%ni tashkil

etadi. «Binokor» ochiq aksianerlik jamiyati korxonasining budjetga to'lanmalari 422585 ming so'mni tashkil etib, shundan 243375 ming so'mi haqiqatda to'langan, bu 57,6%ni tashkil etadi. Budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlari 198387 ming so'mni, haqiqatda 169968 ming so'm to'langan bo'lib, bu 85,6%ni tashkil etdi. «Ozod trans» sho'ba korxonasida esa yagona soliq to'lovi 7326 ming so'mni tashkil etib, shundan haqiqatda to'langani 6409 ming so'mdan iborat, bu 87,5%ni tashkil etgan bo'lib, budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlari 3710 ming so'mni, haqiqatda 3278 ming so'm to'langan bo'lib, bu 88,4%ni tashkil etadi.

Umuman olganda budjet nuqtai nazaridan qaraganda «A» va «B» korxonalar budjet oldidagi majburiyatini a'lo darajada bajarib, budjetning fiskallik funksiyasini bajarib kelmoqda. Bu esa korxonalar uchun asosiy foydaning bir qismini budjetga to'lashiga to'g'ri keladi. «Ozod trans» korxonasida esa bu ko'rsatkich ancha past (7326 ming so'm). Bunday holatda korxona ortiqcha jamg'argan pul mablag'larini o'zining ichki moddiy-texnika bazasini kengaytirib ishchilar sonini oshirishga, ishlab chiqarishning yangi usullarini, minitexnologiyalarni jalb qilishga ishlatishi mumkin.

Bugungi kunda korxonalarning soliqli va soliqsiz tushimlarini tahlil qilish bilan birga ularning ichki va tashqi qarzdoroligini tahlil qilish ham maqsadga muvofiq bular edi. 2012-yilda korxonalarning debitor, kreditor qarzdorliklarining holatini ko'rib chiqamiz (11.2-jadval).

**Korxonalarda debitor va kreditor qarzlarning yillik holati**
(ming so'mda)

*11.2-jadval*

| Korxonalar nomi | Debitor qarzdorlik | Shu jumladan | | Kreditor qarzdorlik | Shu jumladan | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | muddati o'tgani | Budjetga soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlari | | muddati o't-gani | budjetga to'-lovlari bo'yicha qarz |
| «A» | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 78120 | - | 5097 | 348676 | - | 73423 |
| «B» | 58214 | - | 4584 | 296236 | - | 64547 |
| «S» | - | - | - | 4200 | - | 1890 |
| Jami | 136334 | - | 9681 | 649112 | - | 139860 |

Ma'lumotlar korxonalar hisobotidan olingan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, jami debitor qarzdorlik 136334 ming so'mni tashkil etib, muddati o'tgan debitor qarzdorlik mavjud emas. Budjetga soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlar 9681 ming so'mni tashkil etib, jamiga nisbatan 7,1%ni tashkil qilgan. Debitor, qarzdorlik «A» korxonasining xissasiga, 78120 ming so'm to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 57,3%ni tashkil etadi. Qolgan qismi 58214 ming so'm «B» korxona xissasiga to'g'ri kelib, 42,7%ni tashkil etadi. Jami kreditorlik qarz esa 649112 ming so'mni tashkil etib, muddati o'tgan qarzdorlik mavjud emas. Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik 139860 ming so'm bo'lib, jamiga nisbatan 21,5%ni tashkil etadi. Kreditor qarzdorlik «A» korxonaning ulushi 348676 ming so'm bo'lib, jamiga nisbatan 53,7%ni, budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik 73423 ming so'mni tashkil qiladi. «B» bo'yicha korxonada esa 296236 ming so'mni, jamiga nisbatan 45,6%ni, budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik 64547 ming so'mni tashkil qiladi. «S» korxonada esa 4200 ming so'mni, jamiga nisbatan 0,7%ni, budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik 1890 ming so'mni tashkil etadi.

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, umumbelgilangan soliqni to'lovchi korxonalarning («A», «B») budjet oldidagi qarzdorligi 99,3%ni (137970 ming so'mni) tashkil qilgan. Bunga sabab soliq turlarining ko'pligi hamda hisob-kitob ishlari qiyinligidan dalolat beradi. Yagona soliq to'lovchi korxonalarning budjet oldidagi to'lanmalari bir muncha pastligi ko'zatildi. Bizga ma'lumki, korxonalarning budjet oldidagi majburiyati yuqori bo'lsa, soliqdan bosh tortish, soliq huquqbuzarliklari, soliq xatoliklari kelib chiqadi.

Shunday ekan korxonalarning erkin faoliyat yuritishida, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda korxonalarni yagona

ixchamlashtirilgan soliq tizimiga o'tkazish va shu orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mumkin.

Korxonada ichki soliq nazoratini o'rnatish va yuritish soliq to'lovlarini optimallashtirishning bir yo'nalishi hisoblanadi.

Korxonada soliq *nazorati*, bu – korxona soliq menejerining (yoki korxona raxbari, bugalterlarining) ishonchli bugalteriya, shu jumladan, soliq hisobini yuritish, to'g'riligi ustidan nazorat qilish, shuningdek, soliq xatolarining soliq organlari nazorati oldidan soliqlar hisoblanishini aniqlash va yo'qotish choralariga qaratilgan faoliyatdir.

Korxonada ichki soliq nazorati, bu – korxona bugalteriya va moliyaviy xizmat ko'rsatish xodimlari ustidan birlamchi tekshiruvdir. Bunday tekshiruv orqali soliqqa tortiladigan obe'ktlar hisobini yuritish jarayoni to'g'ri tashkil etilganligi, soliq hisob-kitoblari va *hisobotlari mukammal tuzilganligi* va soliq va to'lovlar bo'yicha budjet bilan o'zaro hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilayotgan haqidagi ma'lumotlar to'g'riligi tekshiriladi.

Ichki nazoratni yuritish asosida, avvalo, korxona manfaatlariga rioya qilish kerak. Shuningdek, nazorat natijalaridan korxona mansabdor shaxslari va soliq organlari, bojxona organlari, monopoliyaga qarshi kurashish tashkilotlari tahliliy faoliyati uchun foydalana olishlari kerak.

Korxonada soliq to'lovlarni boshqarish yuzasidan ichki nazoratni yuritish bo'yicha mukammal tizimni ishga tushirish uchun korxonada quyidagi sharti sharoitlar yaratilgan bo'lishi:

– rivojlanish strategiya belgilangan bo'lishi;

– strategik va taktik rejalar asosida soliqlar ichki nazoratini amalga oshirishga boshqaruvchilarning tayyorligi hamda boshqarishning aniq tamoyillarining ishlab chiqilganligi;

– ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tizimning mavjud bo'lishi, soliqlarni ichki nazoratin amalga oshirish bo'yicha javobgar bo'limning yoki shaxsning mavjudligi;

– soliqlarni rejalashtirish bo'yicha kelishuv hududi, soliqlarni hisoblashning ichki nazorat tartibi o'rnatilishi;

– soliqlarni rejalashtirish va soliq hududini realizatsiya qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar monitoringini yo'lga qo'yish.

Tayinli bo'lmagan soliq tizimi sharoitida soliq hisobini yuritish va ichki soliq nazoratini yuritish juda murakkab, shu bilan bir paytda korxona manfaati uchun juda muhimdir. Bunday sharoitda soliq tizimiga kiritilayotgan o'zgarishlarni va ulardan korxona faoliyatida keladigan moliyaviy natijalarni kuzatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, soliqqa oid xatolarining yuzaga kelishi ko'p hollarda kadrlarning noto'g'ri faoliyati bilan bog'liq. Ko'pgina davlatlarda bu ko'rsatkich yuqori foizni tashkil etadi. Masalan, Rossiyada 75%, respublikamizda esa bu ko'rsatkich pastroq, buning sababi soliq xatoliklarining yuz berishi korxonalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan obyektiv va subyektiv sabablar bilan izohlanadi.

Bu holatlar har bir korxonada ichki soliq nazorati tizimi o'rnatilishini taqozo qiladi. Bu tizimning vazifasi soliq majburiyatlarining bajarilishida soliq xatolarining yuzaga kelishining iloji boricha oldini olishga harakat qiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun korxonalarda soliq menejeri lavozimini tashkil qilish lozim.

Shunday qilib korxonada to'g'ri tashkil etilgan ichki soliq nazorati soliq xatolarini salmoqli darajada kamaytiradi va bu bilan soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshirishlari paytida qo'yiladigan moliyaviy jarimalar sonini kamaytiradi. Bunda moddiy manfaatdorlikdan tashqari ichki soliq nazorati korxona tadbirkorlik faoliyati uchun barqaror asos, yaxshi muhit yaratadi, soliqqa tortish sohasidagi qarorlarni qabul qilinishiga ishonch va qat'iyat beradi, undan tashqari soliq tekshiruvlaridan keladigan soliq muammolaridan xalos qiladi. Hozirgi o'zgaruvchan bozor sharotida ishonchli va dolzarb axborotlarga ega bo'lgan va o'z tadbirkorlik faoliyatini o'zgaruvchan soliq qonunchiligi bilan moslashgan holda olib boruvchi korxonalar moliyaviy natijalarga erishishda so'zsiz ustunlikka egadirlar. Shu jihatdan Respublikamizda 2004-yili soliq maslahatchilari palatasining tuzilishi korxonalarda soliq menejmentini amalda tashkil etish zaruratidan kelib chiqadi. Soliq maslahatchilari korxona menejerlari va bugalterlariga qanday qilib soliq qonunchiligini buzmagan holda, soliqlarni to'g'ri va aniq, qanday miqdorda va qanday muddatlarda to'lash, soliq imtiyozlarining, soliqqa tortishning turli tizimlaridan va boshqa soliq imkoniyatlaridan to'g'ri va samarali foydalanish borasida maslahat

beradilar. Soliq maslahatchilari palatasining tuzilishi respublikamizda korxonalar soliq menejmentini rivojlanishining navbatdagi bosqichidir. Bundan tashqari O'zbekiston respublikasining 21.09.2006-yildagi 55-Soliq maslahati to'g'risida (Qonunchilik palatasi tomonidan 2006-yil 29-iyunda qabul qilingan, Senat tomonidan 2006-yil 25-avgustda ma'qullangan) qonuni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2-§. Korxonalarda soliq to'lovlarini optimallashtirish jarayonida soliqlarni rejalashtirish

Korxonada soliqni rejalashtirish, avvalo soliq to'lovlarini optimallashtirishni anglatadi. Korxonada soliqni optimallashtirish bu – soliq to'lash xarajatlarini kamaytirish orqali moliyaviy natijalarga ega bo'lish yoki soliq to'lovlarini amalga oshirmagan holda ko'proq tushumga ega bo'lishdir. Soliq to'lovchi budjetga to'lovlarni qisqartirish, binobarin, mulkni saqlab qolish uchun yo'l qo'yiladigan barcha usullardan, shu jumladan, qonun hujjatlari kamchiliklardan foydalanish huquqiga egadir.

Korxonada soliqlarni rejalashtirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– soliq to'lovlarini kamaytirish korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash va investitsion qiziqishni kuchaytirish evaziga foyda miqdorini ko'paytirish;

– soliqlarni kamaytirish. Ko'p hollarda bu moliyaviy ko'rsatkichlar holatini yomonlashishi evaziga sodir bo'ladi. Shuning uchun soliqlarni minimallashtirish usullarini qo'llashdan avval ularni xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga ta'sirini chuqur tahlil qilish shart.

Ikki faoliyat turi, xattoki ishlash sharoitlari bir xil bo'lgan obyektlar uchun ham soliqlarni optimallashtirishning bir turidan foydalanishda bir xil natijalarga erishilmasligi mumkin. Masalan, 220 ishchi xodimdan tashkil topgan oyoq kiyim ishlab chiqaruvchi korxona faoliyatida optimallashtirishning bir usuli ishlab chiqildi va amaliyotda uni qo'llash evaziga muvaffoqiyatga erishildi, xuddi shu optimallashtirishning sxemasini ikkinchi xuddi shunga o'xshash korxona amaliyotda qo'llamoqchi bo'ldi, ammo u ham xuddi

shunday natijaga erishadi deb bo'lmaydi. Shuning uchun aniq tavsiyalarga ega bo'lish maqsadida, albatta daromad hisob-kitobini amalga oshirish zarur.

Korxonada soliqni rejalashtirishni samarali amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur:

– nafaqat joriy yil, balki rejalashtirilayotgan davr uchun ham soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar ta'sirini hisoblash;

– soliq davri uchun aniq biznes rejaning mavjudligi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar aniq bo'lmasdan turib, soliqni to'g'ri rejalashtirish mumkin emas. Respublikamizda ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritmayotgan korxonalar soni ko'p. Shu tufayli, soliqni rejalashtirishda faoliyat yuritishdan keladigan soliq oqibatlarining to'g'ri aniqlanishi mablag' va vaqtning tejalishiga yordam beradi;

– soliqni samarali rejalashtirish nafaqat soliq qonunchiligini yaxshi bilishni, balki turli sohaga doir iqtisodiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishni talab etadi;

– soliq to'lovchilarning o'z qonuniy huquqlarini talab qila olishlari ham korxonada soliq to'lovlarini optimallashtirish uchun muhimdir.

Amaliyotda korxonada soliqlarni rejalashtirishda quyidagi uch yo'ldan biri tanlanadi:

– rejalashtirishning mumtoz turi: uning mohiyati soliqlarni o'z vaqtida to'liq, to'g'ri to'lashni bildiradi. Bunda bugalteriya va boshqa hisobotlar aniq hamda to'g'ri yuritiladi, qonunchilikka aniq rioya qilinadi;

– optimallashtirilgan variant: bunda soliq to'lovchi kamroq soliq to'lash maqsadida amaldagi qonunchilik imtiyozlaridan va boshqa imkoniyatlardan foydalanib, o'zining iqtisodiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkil qiladi. Bunda soliq to'lovchi amaldagi qonunchilikning barcha yutuq va kamchiliklaridan, shu jumladan murakkablik, nomukammallik, qarama-qarshilik holatlaridan foydalanadi;

– soliqlarni kamaytirishning noqonuniy yo'li. Moliyaviy vaziyat yomonlashgan sharoitlarda tadbirkorlar ikki muqobil yo'ldan birini tanlaydi: daromadlari, faoliyatlari, oborotlarini yashirish yoki bankrotlik e'lon qilish. Ko'p hollarda birinchi yo'l tanlanadi. Bunda tavakkalchilikka yo'l qo'yiladi. Korxona ko'proq foyda ko'rib

qolishi mumkin, ammo bu soliq nazorati kuchli sharoitda salbiy oqibatlarga olib keladi.

Soliq yuki darajasi korxonalar foyda olishini nihoyatda chegaralaydigan (yoki ta'minlamaydigan) sharoitda korxonalar inqirozga uchrashi mumkin yoki noqonuniy yo'llarga o'tishga majbur bo'ladi.

Amaliyotda korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning quyidagi uch turidan qaysi biri tanlanishini to'liq soliq stavkasining darajasi mezon qilib olinishi ko'rsatib o'tilgan. To'liq soliq stavkasi deyilganda, barcha soliqlarning korxonada yaratilgan qo'shilgan qiymatdagi ulushi sifatidagi soliq yuki tushuniladi. Uning miqdoriga qarab, korxonada soliqni rejalashtirish turlarini tanlash mumkin:

1. Agar 10-15%ni tashkil etsa, soliqni rejalashtirilishning mumtoz yo'lini tanlash ma'qul;

2. Agar to'liq soliq stavkasi 20-35%ni tashkil etsa, soliqlarni rejalashtirishning optimallashtirilgan variantini qo'llash mumkin. Lekin bunda, maxsus chizma va dasturlardan foydalanilmaydi.

3. Agar to'liq soliq stavkasi 40-50%dan ortiq bo'lsa, soliqlarni rejalashtirishning optimallashgan variantlarini soliq ekspertizalaridan foydalangan holda, strategik soliqni rejalashtirish orqali, soliqni rejalashtirishning maxsus bo'linmalari orqali amalga oshirish tavsiya etiladi.

Birinchi yo'ldan asosan, kichik korxonalar foydalanadi, ikkinchi va uchinchi yo'ldan o'rta va yirik korxonalar foydalanadilar».

Soliqlarni rejalashtirish haqida gap ketganda. ko'p hollarda odamlar ko'z oldilariga birinchi o'rinda soliq summalarini kamaytirishni keltiradilar, lekin korxonaning xom-ashyosini iqtisod qilish kabi faktorlarni unutmaslik kerak, bunda aynan soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash va hisoblash bilan bog'liq boshqaruv va ma'muriy xarajatlarini kamaytirish masalasi ko'tariladi.

Respublikamizda shakllangan soliq tizimi (soliq yuki) sharoitida korxonalar soliqni rejalashtirishning qaysi yo'lidan ko'proq foydalanadilar yoki qaysi yo'ldan foydalanishni tavsiya etish mumkin.

Korxonalarda soliqni rejalashtirishning asosan optimallashtirilgan variantlarini qo'llash ma'qul. Bunda faqat soliq imtiyozlari, pasaytirilgan stavkalar va boshqa ustuvorliklardangina emas, balki soliq qonunchiligining kamchiliklaridan, shu jumladan, murakkablik, nomukammallik va qarama-qarshilik holatlaridan keng foyda-

laniladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Prezident qaroriga ko'ra, qonunchilikdagi noaniqliklarning soliq to'lovchilar foydasiga hal qilinishi korxonalarda soliq to'lovlarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Korxona o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlash jarayonida soliqlarni rejalashtirish maslasini ishlab chiqarish rejasining asosiy qismi tarkibiga kiritishi kerak.

Soliqlarni rejalashtirish jarayoni tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Soliq hisobini yuritish. Korxonada soliq hisobini yuritish jarayonida avvalo, shunga alohida e'tibor berish kerakki soliq hisobi korxonada mavjud bugalteriya hisobi bilan uzviy bog'liq, shunday ekan, ularni o'zaro aloqadorlikda yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Soliq qonunchiligida ta'kidlanishicha, soliq xisobini yuritish tarzi va soliq hisobotida analitik ma'lumotlarni aks ettirish tartibi, birlamchi hisob hujjatlarini yuritish tartibi soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil yuritiladi va soliqqa tortish maqsadida korxonaning hisob siyosatida ilovalar tarzida aks ettiriladi deyilgan. Ammo bu soliq to'lovchilar soliq hisobini yuritishni o'zi xohlagancha hech qanday chegaralarsiz yuritishi mumkin degani emas, Soliq qonunchiligida, soliq hisobini yuritishning va tasdiqlashning shartlari mavjud. Shu shartlarga amal qilgan holda, soliq to'lovchi shunday soliq hisobini tanlasinki, u bir tomondan soliq qonunchiligi me'yoriy hujjatlariga to'g'ri kelsin ikkinchi, tomondan bu hisob siyosati hamma uchun aniq va tushunarli sodda albatta, uni yuritish uchun sarflanadigan xarajatlar minimal bo'lsin. Hozirgi kunda soliq to'lovchi bunday natijaga erishishi uchun soliq to'lovchi bugalteriya hisobining quyidagi turlarini yuritishi shart:

– asosiy bugalteriya hisobi;

– korxona ta'sischilari qiziqishini inobatga olgan holda korxona hisobini yuritish;

– bank hisobini yuritish;

– soliq hisobini yuritish.

Bu hisoblarni yuritish albatta bugalteriya ishini yuritishga ketadigan xarajatlar ko'payishiga olib keladi, ayniqsa, kichkina korxonalarda bu yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun korxonada soliq hisobini yuritish uchun qonunchilik doirasidan

chiqmagan holda iloji boricha ish xajmini qisqatirishga intilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Hisob siyosatini yuritish. Soliqlarni rejalashtirishning bu bosqichini amalga oshirish jarayonida soliq to'lovchilar soliq hisobini yuritish bo'yicha yuzaga kelayotgan bir qancha muammoli holatlarning yechimini topish uchun taklif qilinayotgan bir qancha usullardan birini tanlashlari mumkin:

– daromad olishda pul kelib tushgan vaqtni tanlash (kassa usuli yoki pul kelib tushgandagi vaqt);

– xomashyo materiallarini baholash metodlarini tanlash, ya'ni, zahiradagi materiallar tannarxi bo'yicha baholash metodi;

– materiallarni o'rtacha qiymat bo'yicha baholash metodi;

– tannarxni birlamchi kelib tushgan mahsulot bo'yicha baholash metodi (FIFO);

– tannarxni oxirgi kelib tushgan mahsulot tannarxi bo'yicha baholash metodi (LIFO);

– amortizatsiya so'mmasini hisoblash tartibi va metodi. To'g'ri chiziqli usul, kamayib boruvchi qoldiq usuli, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuli, kumulyativ usuli;

– shubhali qarzlar bo'yicha zahirani yaratish yoki yaratmaslik haqida qarorlar qabul qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan takliflar soliq davri boshlanishidan oldin belgilanishi va butun davr mobaynida o'zgarmasdan saqlanishi lozim. Amaliyot jarayoni shuni ko'rsatadiki, soliq davri mobaynida birinchi tanlangan yo'nalishdan ikkinchi yo'nalishga o'tish soliqqa tortish bazasini qayta hisoblash zaruratini yuzaga keltiradi va bunda katta qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun u yoki bu yo'nalishni tanlashdan avval chuqur o'ylanishi shart. Tanlangan yo'nalish mukammal tarzga yetishi uchun bir necha soliq davrlari mobaynida saqlanmog'i lozim

3. Korxonada xarajatlar tarkibini qayta tahlil qilish. Korxona xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida mavjud ish, xizmatlar xajmini imkon qadar kamaytirish evaziga, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirishga intilish, faoliyat davomida ikkilamchi zaruratga ega bo'lgan xarajatlar tarkibini qayta ko'rib chiqish va kamaytirish kabi ishlarni amalga oshirish zaruriyati yuzaga keladi. Bunga asosiy sabab ayrim hollarda soliq bazasi bazaga qayta qo'shiladigan

xarajatlar evaziga kattalashi va bu albatta soliqlar miqdorini o'z-o'zidan oshishiga olib keladi. Shunday ekan soliq to'lovchi korxona soliq qonunchiligini chuqur o'rgangan holda yoki soliq maslahatchisini yollash yordamida qarorlar qabul qilishi lozim. Bundan tashqari, qonuniy xarajatlarning ko'payishi, ya'ni soliqlar bazasidan chegiriladigan xarajatlarning ko'payishi masalan, foyda solig'i bo'yicha soliq miqdorini kamayishiga olib kelishi mumkin. Ammo bunga ehtiyotkorlik bilan yondoshish kerak, chunki xarajatlarning ko'payishi budjetga ketadigan soliq to'lovlar xajmini kamaytiribgina qolmasdan, balki, korxonada qoladigan foyda xajmini ham kamaytiradi. Bunday holatlarni chuqur o'rgangan holda qarorlar qabul qilish kerak.

4. Soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish. Soliq imtiyozlaridan o'z vaqtida qonun doirasida foydalana olish o'z -o'zidan soliq to'lovlarining sezilarli tarzda qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bu imkoniyatdan foydalanish uchun esa avvalo, korxona faoliyat yuritishini shunday tashkil etish kerakki, soliq qonunchiligining imtiyozini olish uchun zarur bo'lgan barcha talablarini bajarsin.

5. Soliqqa tortish tizimini optimallashtirishning tanlangan sxemasi har tomonlama barcha soliqlar va soliq to'lovchilar tomonidan o'rganilgan bo'lishi shart. Yuqorida ta'kidlanganidek bir soliq turini kamaytirish evaziga ikinchi soliq turining xajmi sezilarli darajada ko'tarilishiga sabab bo'lishi mumkin va natijada budjetga to'lanadigan soliqlar xajmi optimallashtirishdan oldingi soliqlar xajmiga nisbatan kamayish o'rniga, aksincha, ko'payib ketishi mumkin, masalan korxona foyda solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'ldi va soliq to'lamadi, natijada infrastruktura solig'i miqdori ko'payadi (sabab infrastruktura solig'i bazasidan foyda solig'i miqdori chegirilib tashlanadi).

6. Soliqlarni rejalashtirish jarayonida Davlat soliq inspeksiyasi bilan munosabatlarni shunday yo'lga qo'yish kerakki, penya va sanktsiyalar va soliq qonunchiligining buzilishiga ketadigan xarajatlar minimum bo'lsin. Buning uchun, avvalo soliq to'lovchi qonun hujjatlarni to'liq o'rgangan bo'lishi, va qonunbuzarliklar, sanktsiyalar tarkibini har doim yodda saqlashi lozim, shundagina

soliq javobgarligiga tortiladigan qonunbuzarliklar oldini olishi mumkin bo'ladi.

7. Korxonada soliq to'lovlari bo'yicha soliq kalendarini yuritish. Bu kalendar soliq qonunchiligi asosida shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, har bir soliq to'lovi bo'yicha muddat yaqinlashganda korxonada shunga yetarli mablag' mavjud bo'lsin. Buning uchun korxona soliq kalendarini o'zining umumiy to'lov kalendari tarkibiga kiritgan bo'lishi shart va shundagina u soliqlarni o'z vaqtida muddatidan kechiktirmasdan to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Korxonada yuqorida ko'rsatilgan soliqlarni rejalashtirish bosqichlari bosib o'tilganidan so'ng, qabul qilingan qarorlarni baholash imkoniyati mavjud bo'ladi, bunda avvalo soliqlarni rejalashtirish uchun ketadigan vaqtning yetarli bo'lganligini (ya'ni bir yildan kam bo'lmagan muddatda) hisobga olish lozim. Baholash jarayonida nafaqat soliqlarga ketadigan mablag'lar bo'yicha moliyaviy natijalargagina e'tibor qaratmasdan, balki soliqlarni minimallashtirish bo'yicha soliqlarni rejalashtirish jarayonini qo'llashga korxona tomonidan qilingan qo'shimcha xarajatlar, penya, shtraflar miqdorlarini ham hisobga olish lozim.

Hozirgi kunda korxona oldida yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda, ya'ni zamonaviy soliq to'lash jarayonini tashkil etishning usullaridan biri kredit olib soliq to'lash, masalan, korxona hisobida soliq to'lashi uchun mablag' yetarli emas, bunda uning oldida ikki yo'l bor, biri kredit olib soliq to'lash yoki soliqlarni kechiktirib to'lash, bularning ikkisidan birini tanlashida korxona asosiy e'tiborni soliqlarni kechiktirib to'laganligi uchun penyaning summasi bilan bankdan olishi mumkin bo'lgan soliq kreditining stavkasi o'rtasidagi farqqa qaratadi, albatta. Bu ham soliqlarni rejalashtirish tarkibiga kiradi.

Korxonada qabul qilingan soliqlarni rejalashtirish strategiyasi butun rejalashtirish davri mobaynida faol ishlashi ustidan nazorat olib borilishi shart.

Soliqlarni rejalashtirish jarayoni quyidagilarni talab qiladi:

– korxonada axborot tizimi asosiy ko'rsatkichlarni prognoz qilishda, hisob-kitob amallarini bajarishda asosiy yordam ko'rsatadi;

– soliqlarni rejalashtirish ko'pgina iqtisodiy kategoriyalar va huquqiy vaziyatlarni analiz qilish bilan bog'liq;

Soliqlarni rejalashtirish davrida budjetga to‘lanadigan soliq summalarini aniqlashtirish soliq to‘lovchining biznes rejasini tuzishdagi eng so‘nggi bosqichlardan biri hisoblanadi. Har qanday soliq to‘lovining xajmi soliq to‘lovchidagi mavjud soliqqa tortish obyektiga, soliq bazasining xajmiga, soliq davriga, soliqlarni to‘lash tartibiga va vaqtlariga bog‘liq.

Soliqlarni rejalashtirishning birinchi bosqichida, soliq to‘lovchining biznes rejasida mavjud quyidagi ma’lumotlarni, ya’ni soliqqa tortish obyektlarini, undan soliq bazasini hisoblashni, soliq imtiyozini olish huquqiga egami, yo‘qmi kabi ma’lumotlarni tahlil qilishi asosida soliqlarni rejalashtirish davrida to‘lanadigan to‘lovlar va to‘lov grafiklari bo‘yicha soliq summalarini aniqlashtirish imkoniyatini beradi.

Soliqlarni rejalashtirishning ikkinchi bosqichida, soliq to‘lovlarini qonuniy qisqartirish maqsadida, korxona faoliyati analiz qilinadi. Bunda asosiy e’tibor soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalana olish qobiliyatlariga qaratiladi.

### 3-§. Soliq xatolarining yuzaga kelishi hamda soliq huquqbuzarliklariga qarshi qo‘llaniladigan choralar

O‘zbekiston hukumati iqtisodiyotga nisbatan soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, milliy soliq tizimini xalqaro me’yorlar va standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha izchil siyosat yuritmoqda. Soliq xatolari va unga oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni liberallashtirish ushbu sohani takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Soliqli va soliqsiz to‘lovlarni amalga oshirishda soliq to‘lovchilar tomonidan yuz beradigan soliq xatolari ko‘p hollarda ko‘zatiladi. Soliq xatolari quyidagi sun’iy, tabiiy hamda atayin ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Amaliyotda soliq xatoliklariga oid huquqbuzarliklarining quyidagi turlari mavjud:

– mansabdor shaxslar tomonidan yo‘l qo‘yilgan huquqbuzarliklar;

– soliq to‘lovchining xo‘jalik faoliyatida qonunga xilof ravishda to‘sqinlik qilish, ya’ni soliq organiga hisobga qo‘yishdan, ruxsatnoma yoki bank yohud boshqa kredit muassasasida hisob raqami

ochish uchun zarur boshqa hujjatni berishdan soliq organi mansabdor shaxsining noqonuniy bosh tortishi;

– soliq to'lovchining banklar yoki boshqa kredit muassalaridagi hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarini noqonuniy to'xtatib qo'yish yoki soliq to'lovchining mol-mulkini noqonuniy ravishda xatlash;

– soliq organi mansabdor shaxsi tomonidan soliq to'lovchining oddiy amaliy xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishni jiddiy ravishda mushkullashtiradigan usullar va yo'llar bilan nazorat harakatlarining qonunga xilof ravishda amalga oshirilishi;

– hisob harakatlari va hisobot hujjatlarining turlari va hajmlarni qonunga xilof ravishda kengaytirish talabi;

– maslahatlar berishdan bosh tortish yoki maslahatlarni taqdim etmaslik, ya'ni soliq organi mansabdor shaxsining soliq to'lovchi yoki soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchisiga soliq solish tartibi va shartlari, uning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida bepul yozma axborot berishdan bosh tortish yoki bunday axborotni belgilangan muddatda taqdim etmaslik;

– soliq sirini oshkor etish, ya'ni qonunchilikka muvofiq soliq sirini tashkil etadigan, o'zaro munosabatlar natijasida soliq organining mansabdor shaxsiga ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan g'ayriqonuniy foydalanish yoki ularni boshqa shaxsga berish.

Soliq to'lovchilar tez-tez yo'l qo'yadigan huquqbuzilishlar:

– soliq organida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tmaslik, ya'ni soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun soliq organiga murojaat qilish uchun belgilangan muddatni o'tkazib yuborish;

– soliq organida ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlash, ya'ni ataylab, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun soliq organiga murojaat qilish majburiyatini uzoq vaqt bajarmaslik;

– bugalteriya hisobini tashkil etish tartibini buzish, ya'ni bugalteriya hisobvaraqlarida soliq to'lovchi tomonidan amalga oshirilayotgan xo'jalik operatsiyalarini bugalteriya hisobining umumiy qabul qilingan uslubiy qoidalarga muvofiq aks ettirish tizimining yo'qligi;

– bugalteriya hisobini yuritish tartibining buzilishi, ya'ni xo'jalik operatsiyalarini bugalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalariga muvofiq aks ettirish tizimining yo'qligi;

– soliq to‘lamaslik yoki o‘z vaqtida to‘lamaslik, ya’ni soliq to‘lovchining soliqni qonun tomonidan belgilangan muddatda to‘lamasligi yoki belgilangan muddatdan keyin to‘lashi;

– g‘ayriqonuniy naqd hisob-kitoblar, ya’ni qonun hujjatlari tomonidan belgilangan cheklashlarni buzgan holda hisob-kitoblarni naqd pul mablag‘lari bilan amalga oshirish;

– kassa intizomini buzish, ya’ni naqd pul mablag‘larini kirim qilish, saqlash va ishlatishning qonun tomonidan belgilangan tartibini buzish;

– korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini bugalteriya hisobvaraqlarida to‘liq yoki qisman aks ettirmaslik. Masalan, bitimlarni rasmiylashtirmasdan amalga oshirish, tovar-moddiy boyliklarni kirim qilmaslik;

– soliq organi mansabdor shaxsining qonuniy talabi, farmoyishiga itoat etmaslik, ya’ni soliq organi mansabdor shaxsining soliq qonunchiligi buzilishlarini bartaraf etish yoki ularni oldini olish to‘g‘risidagi qonuniy talabi yoki farmoyishini uzoq vaqt bajarmaslik yoki tegishlicha bajarmaslik va h.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash – soliq sohasidagi huquqbuzilishlarining eng ko‘p uchraydigan va eng xavfli turi. Bunday huquqbuzilishlarining mohiyatini soliq to‘lovchining budjet oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi yoki tegishlicha bajarmasligi tashkil etadi. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, odatda, korxona tomonidan soliq imtiyozlaridan noqonuniy foydalanish, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lanmaslik daromadlarni yashirish, soliqlarni hisoblash va to‘lash uchun zarur hujjatlarni taqdim etmaslik yoki o‘z vaqtida taqdim etmaslik ko‘rinishida amalga oshiriladi. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bozorning raqobat asoslarini buzadi, boqimandachilikni halol soliq to‘lovchi bilan taqqoslanganda, e’tiborliroq mavqega chiqarib qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 106-moddasiga asosan «Soliq to‘lovchining ushbu Kodeksda javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy ayb li qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi».

Iqtisodiyotning erkinlashuvi, bozor mexanizmini real holatda harakatlanishi ko‘p jihatdan shu davlatda soliq va soliqqa tortish masalalari qay darajada ekanligiga bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida soliq mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosatini

dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Davlat soliq siyosatining asosiy belgisi bo'lib soliq yukining iste'molchilar bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi samarali nisbatini belgilashdir.

### Muzokara va muhokama uchun savollar

1. Sizning fikringizcha korxonalarda soliq menejmnetini tashkil etishining ijobiy taraflari nimalarda ko'rinadi?
2. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
3. Soliq menejmentining imitatsiyali modeli deganda nimani tushunasiz?
4. Korxona tomonidan to'lanadigan soliqlarni moliyaviy natijalarga ta'siri qanday bo'lishi mumkin (amaliyotdagi holatlardan kelib chiqqan holda muhokama qiling)?
5. Bugungi kunda amaliyotda soliq xatolarining asosiy turlarini sanab bering.

# XII BOB. MOLIYAVIY RISKLAR MOHIYATI VA ULARNI KAMAYTIRISH

## 1-§. Riskning mazmuni va uni turkumlanishi

Korxonalar moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda risklarni boshqarish muhim masalalardan biri sanaladi. Hammamizga ma'lumki hozirgi kunda hukm surayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, ko'plab davlatlarning iqtisodiyotiga, xususan real va moliyaviy sektor, korxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Albatta buning natijasida korxonalar xo'jalik moliyaviy faoliyatining risklilik darajasi keskin ortib ketishini, hatto ularning bankrot holatiga tushib qolishligini ham kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Bunday sharoitda, davlat tomonidan korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tartibga solish, ularga turli imtiyozlar berish va qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda ham ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

«Respublikamiz banklari tomonidan ko'rsatilgan yordam mahsulot eksport qiladigan korxonalarning barqaror ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Birgina o'tgan-yilning o'zida bu korxonalarga aylanma mablag'larini ko'paytirish uchun umumiy miqdori 233 milliard so'mdan iborat imtiyozli kreditlar berilgani ularga, o'z mahsulotini eksport qilish bo'yicha yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga qaramasdan, ishlab chiqarishning pasayishi oldini olish imkonini berdi. Dastur doirasida amalga oshirgan yana bir muhim tadbirimiz – soliq yukini engillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir»[8].

[8]Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O'zbekiston» 2010, 40 bet.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalar faoliyatida risklarning mavjudligi bu tabiiy holat hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik faoliyati muayyan bir tavakkalchiliklarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bunday sharoitda korxonalarda kutiladigan daromad, foyda va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarni ololmaslik ehtimolligi yuzaga kelishi mumkin.

Risk, bu – moliyaviy kategoriya bo'lib, korxonalarda rejalashtirilgan miqdorlarda daromad, foydani ololmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolligidir. Ko'plab xorijda va mamlakatimizda chop etilayotgan iqtisodiy adabiyotlarda risklarning bir necha tur sanab o'tilgan. Risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruhlarga bo'lishga bog'liq. Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni har birining umumiy tizimdagi o'rnini belgilash imkonini beradi. Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni tasniflashning turli ko'rinishlari berilgan. Bizningcha korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatida uchraydigan risklarni quyidagi xususiyatlari bo'yicha tasniflash mumkin.

1. Xo'jalik faoliyatining shakli yoki yo'nalishiga ko'ra:

– tadbirkorlik riski;

– moliyaviy risk.

Tadbirkorlik riski deyilganda asosan mahsulotlar realizatsiyasi va xomashyolarni sotib olish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar tushuniladi.

Moliyaviy risklar deyilganda, korxonalarning boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni tushunish mumkin. Bularga misol qilib, korxonalarni tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, investitsion kompaniyalar, fond birjalari va boshqa moliyaviy muassasalar bilan munosabatlarini kiritishimiz mumkin. Korxonalarda moliyaviy risklarni yuzaga kelishiga asosan, inflyatsiya, banklarda kreditlarning foiz stavkalari ortib ketishligi, qimmatli qog'ozlar narxining tushib ketishligi va boshqa omillar ta'sir qiladi.

2. Namoyon bo'lish shakliga ko'ra barcha turdagi risklar:

– sof risklar;

– chayqovchilik risklari.

Sof risklar deyilganda, korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatida zarar ko'rishlik yoki hech qanday daromad ololmaslik ehtimolini tushunish mumkin.

Chayqovchilik risklarida esa, korxonaning ijobiy natijaga yoki bo'lmasa nol (salbiy) natijaga erishishlik ehtimoli namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, spekulyativ risklar korxonalarning yoki daromad, foyda olishligini yoki zarar ko'rish ehtimolini anglatadi.

Bundan tashqari tadbirkorlik risklarini yuzaga kelish sohasiga ko'ra tashqi va ichki risklarga bo'linadi. Korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini bevosita tashqi muhit bilan bog'langan holda amalga oshiradilar. Albatta, bunday sharoitda korxonalar xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni har tomonlama chuqur o'rganish muhim hisoblanadi. Korxonalarda tashqi risklar darajasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-iqlim va b. Tashqi risklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular tadbirkorlik faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Albatta, har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalarga tashqi riskning ta'siri o'ta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tashqi risklar obyektiv xususiyatga ega bo'lib, bunday risklarni tartibga solish yoki boshqarish korxona uchun qiyin kechadi. Korxonalar faoliyatida uchraydigan asosiy tashqi risklardan yana biri iqtisodiy risklardir. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi iqtisodiy holatdan kelib chiqadi va korxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizdagi ko'plab eksportga ixtisoslashgan korxonalar va xorijiy davlatlardagi aksariyat firma va kompaniyalar faoliyatida iqtisodiy riskning yuzaga kelishi kuzatildi. Albatta bunday turdagi risklarni boshqarish yoki tartibga solish faqat korxona menejerlarigagina bog'liq bo'lmay, balki xalqaro bozordagi holat va boshqa davlatlardagi iqtisodiy vaziyatlarga ham bog'liqdir.

Ichki risklar, korxonaning ichki xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bunday risklar korxona xodimlarning malakasi boshqaruv strategiyasining qanday darajada ekanligi bilan, asosiy vositalarning holati va texnika xavfsizligi bilan bog'liq.

Moliyaviy risklarning yuzaga kelishi korxonalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lib, ularni asosan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

– foiz riski;

– investitsion risk;

– valyuta riski;

– kredit riski;

– soliq riski;

– inflyatsion risk va b.

## 2-§. Risklarni boshqarish, ularni kamaytirish usullari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar xo'jalik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni kamaytirishning jahon tajribasini keng o'rgangan holda amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Avval ta'kidlaganimizdek, korxonalar faoliyatida asosiy e'tibor berilishi lozim bo'lgan masalalardan biri risklarni boshqarishdir. Bugungi kunda riskni boshqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Korxonaning strategiyasi va maqsadini belgilash.
2. Riskni aniqlash.
3. Riskni baholash.
4. Riskni boshqarish choralari, usullarini tanlash va joriy qilish.
5. Amalga oshirilgan ishlarni samaradorligini nazorat qilish.

Korxonalarda riskni boshqarish jarayonini quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin (12.1-chizma).




***12.1-chizma. Korxonalarda riskni boshqarish jarayoni.***

Korxonalarda riskni boshqarishning muhim jihatlaridan biri ularni kamaytirish yo'llarini to'g'ri tanlash va amaliyotga samarali tadbiq etish hisoblanadi. Risklarni kamaytirishni xorijiy davlatlar va mamlakatimizda foydalaniladigan quyidagi usullari mavjud:

1. Korxonaning ichki moliyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda risklarni kamaytirish. Bunda asosan, yuzaga kelgan riskni korxonaning ichki moliyaviy zahiralari va moliyaviy resurslari hisobiga kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu usul korxona uchun riskni kamaytirishni eng optimal yo'llaridan biri bo'lib, korxonada qo'shimcha majburiyatlar paydo bo'lishini oldini oladi. Albatta, buning uchun korxonalar ixtiyorida qoladigan foydaning bir qismini ko'zda tutilmagan holatlar uchun zahiralar shakllantirishni yanada keng yo'lga qo'yish lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat korxonalarda bunday tartibga unchalik e'tibor qaratilmay kelmoqda. Ko'pgina holllarda korxonalar o'zlarining ixtiyorida qoladigan foydaning deyarli barcha qismini aylanma mablag'larni ko'paytirishga yo'lantiradi. Shuning uchun korxonalar faoliyatida bunday holatlarni bartaraf etish maqsadida, ularning ixtiyorida qoladigan sof foydaning bir qismini qo'shimcha

moliyaviy zahiralar yaratishga yo'naltirishni qonunchilik bilan qat'iy belgilab qo'yish riskni kamaytirishda ijobiy samara beradi.

2. Korxonada riskni kamaytirishning yana bir usuli riskni sheriklarga yoki uchinchi tomonga o'tkazish (transfert qilish) hisoblanadi. Bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan riskni uchinchi tomonga o'tkazish quyidagi operatsiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- faktoring operatsiyalari orqali;
- kafillik shartnomlari tuzish orqali;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan riskni hamkorlar o'rtasida taqsimlash va boshqalar.

3. O'z oqibatlari bo'yicha eng xavfli risklar sug'urtalash orqali pasaytiriladi. Risklarni sug'urtalash risk darajasini kamaytirishning eng tarqalgan usullaridn biridir. Syg'ypta uchun albatta ikki tomon bo'lishi zarur sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi. sug'urtalochi sug'urtalanuvchining to'lovlari hisobiga pul fondini tashkil qiladi.

Riskni birlashtirish - bu umumiy muammolarni hal qilishga hamkorlar sifatida boshqa korxonalar yoki yuridik shaxslarni jalb qilish orqali o'z riskining darajasini pasaytirishdir. Buning uchun aksionerlik jamiyatlari, moliya - sanoat guruhlari tashkil etishlari, korxonalar bir-birlarining aksiyalarini sotib olishi yoki almashishlari, turli assosatsiya va konsernlarga a'zo bo'lishlari mumkin. Shunday qilib, risklarni birlashtirish deganda riskni iqtisodiyotning bir nechta subyektlari o'rtasida bo'lish orqali uni pasaytirish tushuniladi.

Diversifikatsiya risklarning alohida turlarini pasaytirish imkoniyatini beradi. Risklarning bunday turlariga kredit, depozitin vestitsion hamda valyuta risklari kiradi. Diversifikatsiya - bu investitsion riskni qo'yish, ya'ni investitsiya qilayotgan mablag'larni bevosita bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan obyekt o'rtasida taqsimlashdir. Diversifikatsiya tamoyili asosida faoliyat yurituvchi sifatida investitsion fondlarni misol qilib keltirish mumkin. Ular mijozlarga o'z aksiyalarini sotishadi, olingan mablag'larni turli qimmatli qog'ozlarga qo'yishadi va ular barqaror daromad keltiradi. Diversifikatsiya riskning bir qismini chetlab o'tish imkoniyatini beradi. Bunda kapital turli xil faoliyat o'rtasida taqsimlanadi. Lekin, deversifikatsiya investitsion riskni umuman yo'qota olmaydi. Bu

tadbirkorlik va investitsion faoliyatga tashqi faktorlar ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liqdir.

Tashqi bozorlar butun moliya bozoriga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ular investitsion institutlar, banklar, moliyaviy kompaniyalarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Tashqi faktorlarga butun bir mamlakat iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayonlar kiradi: harbiy harakatlar, fuqarolarning tashvishlanishi, inflyatsiya va deflyatsiya, markaziy bank hisob stavkasining o'zgarishi, tijorat banklarining depozit va kreditlar bo'yicha foiz tavkalarining o'zgarishlaridir.

Diversifikatsiyaning turli shakllari mavjud bo'lib, korxona moliyaviy holatining diversifikatsiyasi turli moliyaviy operatsiyalardan daromad olish alternativ imkoniyatlaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Bunda agar ko'zda tutilmagan holatlar natijasida moliyaviy operatsiyalardan biri zararli bo'lib qolsa, boshqa operatsiyalar daromad olib keladi. Qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiyasida investitsion portfelning daromadlilik darajasini kamaytirmasdan investitsion risklarni pasaytirish imkoniyatini beradi.

Real investitsiyalash dasturining diversifikatsiyasi bunda real investitsion portfelni shakllantirish sohasida korxonaga uncha katta bo'lmagan kapital sig'imiga ega bir nechta loyihalarni realizatsiya qilish dasturlariga bitta yirik investitsion loyihadan iborat bo'lgan dasturga nisbatan ustunlik berish tavsiya etiladi. Xaridorlar diversifikatsiyasi tijorat kreditlashda vujudga keladigan kredit riskini pasaytirishga hizmat qiladi. Korxona depozit quyilmalarining diversifikatsiyasi bir nechta banklardan daromad olish maqsadida vaqtincha bo'sh to'rgan yirik pul mablag'larini joylashni ko'zda tutadi.

Korxona valyutalarining diversifikatsiyasi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida valyutaning bir nechta turini tanlashni ko'zda tutadi (bu valyuta riskini minimallashtirish imkonini beradi). Xejirlash korxona tomonidan riskni boshqa tarafga o'tkazib yuborish yo'li bilan olayotgan daromad darajasini sug'urtalash uchun foydalaniladi. Foydalanilayotgan qimmatli qog'ozlar turiga bog'liq holda moliyaviy resurslarni xejirlashning bir nechta turi mavjud:

– fyuchers shartnomalaridan foydalanish orqali xejirlash;

– «svop» operatsiyasidan foydalanish orqali xejirlash;

Risklarni pasaytirishning boshqa usullari va yo‘llari ham mavjud:

– korxona faoliyatini strategik rejalashtirish;

– shartnomalarga kiritilgan jarima sanksiyalari tizimi hisobiga mumkin bo‘lgan moliyaviy zararlarning qoplanishi ta’minlanadi;

– hamkorlar bilan shartnomalardagi fors-major vaziyatlar ro‘yxatini qisqartirish;

– korxona aylanma mablaglarini boshqarishni takomillashtirish;

– moliya bozori to‘g‘risidagi qushimcha ma’lumotlarni yigish va tahlil qilish;

– tashqi muhit va moliya bozori konyukturasining o‘zgarish tendensiyalarini prognoz qilish;

– xo‘jalik faoliyatining axborot bilan ta’minlash darajasini oshirish;

Korxona menejerlarining risklarni boshqarishdagi asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, risklarni paydo bo‘lish manbalarini aniqlash, ularni bartaraf etishning alohida yo‘llari va usullarini belgilash hamda bunday risklarni kelgusida oldini olish bo‘yicha aniq chora tadbirlar ishlab chiqish hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda risklarni boshqarish mexanizmini to‘g‘ri tashkil etish va risklarni samarali boshqarish, korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish bilan birgalikda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonining uzluksizligini ta’minlovchi muhim omillardan biri sanaladi. Xorijiy kompaniyalarda risklarni boshqarish bo‘yicha alohida bo‘limlar va mas’ul xodimlar tayinlangan bo‘lib, ushbu bo‘lim yoki risk menejmentining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

– risklarni yuzaga kelish sohalari va manbalarini aniqlash;

– risklarni kamaytirish yo‘llari va usullarini belgilash;

– risklarni sug‘urtalash jarayonini boshqarish;

– risklarni bashoratlash;

– diversifikatsiyalash jarayonini boshqarish;

– risklarni boshqarish va kamaytirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

– rag‘batlantirish;

– nazorat va boshqalar.

Risk menejmentining asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatining maqsadi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda risklarni kamaytirish yoki oldini olishning eng optimal usulini tanlash hisobiga foydani maksimallashtirish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, iqtisodiyotni rivojlanish siklining har qanday bosqichida ham korxonalarda riskni samarali boshqarish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham korxonalar moliyaviy siyosatini ishlab chiqishda riskni boshqarishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Korxonada riskni boshqaruvchi menejerlar yuksak mahorat, nazariy bilimlarning mukammalligi va chuqur amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rgangan holda amaliyotga tadbiq qilishlari istiqbolda ijobiy natajalarga olib keladi.

## Muzokara uchun savollar

1. Korxonada risklarning qanday turlari mavjud?
2. Korxona risklarni boshqarish jarayoni nechta bosqichdan iborat?
3. Moliyaviy risklar deganda nimani tushunasiz?
4. Risklarni kamaytirishni qanday usullarini bilasiz?
5. Korxonada moliyaviy menejerni risklarni boshqarishdagi asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
6. Tadbirkorlik riski deganda nimani tushunasiz?
7. Risklarni boshqarishda xorijiy davlatlar tajribasini tushuntirib bering.
8. Korxonalarda riskni sug'urtalash usuli qanday samara berishi mumkin?

## «MOLIYAVIY MENEJMENT» FANIDAN TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

**Aktivlar** – xo'jalik subyekti tomonidan nazorat qilinuvchi, avvalgi davrlarda qandaydir hodisa yoki jarayon natijasida paydo bo'lgan va bulardan kelajakda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan iqtisodiy manfaat olishni ko'zlaydigan resurslar tushuniladi.

**Aylanma mablag'lar** – xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil etuvchi mablag'lar. Aylanma fondlar tarkibiga ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari kiradi. Muomala fondlari tarkibiga tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, hisob-kitobdagi mablag'lar kiradi.

**Aksiyadorlik jamiyati** – investor (aksiyador)lar kapitalini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadigan hamda o'z aksiyadorlari foydasi manfaati yo'lida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan tijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli.

**Aksiya** – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz;

**Aksept** - o'tkazma vekselni to'lov kafolatini majburiyatini o'z zimmasiga olish. Inglizcha «aktsept» o'z mohiyatiga asosan «qabul

qilindi», «to'layman» ma'nosini anglatadi. Aktsept yozma ravishda vekselning usti tomonida amalga oshiriladi.

**Amerika opsioni** – ijro etilishiga kelishilgan sanagacha va kelishilgan bo'lajak sanada istalgan vaqtda ruxsat etiladigan shartnomadir.

**Axborotni oshkor qilish** – qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni olish maqsadidan qat'iy nazar axborotdan foydalanishini ta'minlash.

**Brokerlik faoliyati** – qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni topshiriq yoki vositachilik shartnomasi yohud bunday bitimlarni bajarish uchun ishonch qog'ozi ostida amal qiluvchi ishonchli shaxs yoki komissioner sifatida mukofot evaziga bajarishdir.

**Bank marjasi** – kredit berish ta'minoti summasi bilan kredit berilgan summasi o'rtasidagi farq.

**Tashqi moliyaviy muhit** – korxonaning kontragentlar bilan moliyaviy operatsiyalar va bitimlar bo'yicha moliyaviy munosabatlari jarayonida shakllanadigan, tashkilotga, uning moliyaviy faoliyat shakllari va natijalariga ta'sir etuvchi tashqi shart-sharoitlar va omillar tizimini. Tashqi moliyaviy muhit bevosita kommunikativlik (o'zaro) aloqa jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday kontragentlar bilan moliyaviy faoliyat bo'yicha samarali moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish korxona uchun ijobiy bo'lgan tegishli shart-sharoitlar va omillar tizimini boshqarish imkonini beradi.

**Barcha strategik maqsadlar o'rtasida bog'liqlik va korxona moliyaviy strategiyasi «maqsadlar daraxti»ni shakllantirish** – bosh, asosiy va yordamchi maqsadlar yagona kompleks tizim sifatida qaraladi va shuning uchun ularning muhimligi hamda darajasini hisobga olgan holda aniq o'zaro bog'liqlik talab qilinadi. Bunday korxona moliyaviy faoliyati alohida strategik maqsadlari bog'liqligi «maqsadlar daraxti» asosida ta'minlanadi. Bu metodik usul asosida faoliyatning turli maqsadlari o'zaro bog'liqligi va bo'ysunuvchanligi grafik tasviri yotadi. Korxona moliyaviy strategiyasi «maqsadlar daraxti» qurilishining prinsipial sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.

**Bankrot** – xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la xajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emaslik.

**Biznes** – foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyati.

**Bozor kon'yunkturasi** – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat. Quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zahiralari harakati; narxlar dinamikasi va b.

**Budjet taqchilligi** – budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

**Valyuta** – xalqaro pul hisob-kitoblariga jalb qiluvchi tashqi iqtisodiy va halqaro aloqalarning boshqa shakllanish ishtirok etuvchi mamlakatning pul birligi.

**Valyuta bozori** – chet el valyutasiga talabning uning taklifi bilan o'zaro ta'sirlash tizimi.

**Valyuta kursi** - bir mamlakatning boshqa mamlakatning pul birliklarida ifodalashning pul birligi narxi.

**Valyuta tizimi** – valyutaning amal qilishi bilan bog'liq iqtisodiy va huquqiy munosabatlar majmuasi.

**Veksel** – veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimatli qog'oz.

**Davr xarajatlari** – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

**Davlat qimmatli qog'ozlari** – O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

**Depo hisobvarag'i** – deponentning qimmatli qog'ozlarini saqlash va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish

uchun mo'ljallangan depozitariyni hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig'indisi.

**Depo hisobvarag'idan ko'chirma** – deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, depozitariy tomonidan beriladigan hujjat.

**Depozitar operatsiyalar** – hisobga olish registrlarida depozitariylar tomonidan depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

**Depozit sertifikati** – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchi (sertifikat saqlovchi)ning omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

**Dividend** – aksiyalar bo'yicha olinadigan daromad. Odatda, aksiyadorlik jamiyatining foydasiga bog'liq bo'ladi. Agar aksiyadorlik jamiyati hisobot yili natijalariga ko'ra katta foydaga ega bo'lsa, unda katta dividend to'lash imkoniyati bo'ladi va aksincha. Agar foyda mutlaqo bo'lmasa, dividend to'lanmasligi mumkin. Lekin, imtiyozli aksiya bo'yicha belgilab qo'yilgan dividend aksiyadorlik jamiyati xo'jalik – moliya faoliyati natijalaridan qat'iy nazar to'lab berilishi shart.

**Dilerlik faoliyati** – bu qimmatli qog'ozlar oldi – sotdisiga doir bitimlarni o'z nomidan va o'z hisobidan muayyan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va (yoki) sotish narxlarini ochiqchasiga e'lon qilish yo'li bilan ushbu qimmatli qog'ozlarni e'lon qilishga

narxlar bo‘yicha xarid qilish va (yoki) sotib olish majburiyati bilan amalga oshirishdir.

**Domitsilyatsiya** – uchinchi bir shaxsni veksel bo‘yicha to‘lovchi etib tayinlash.

**Yevropa optsioni** – ijro etilishiga kelishilgan bo‘lajak sanada ruxsat etiladigan shartnomadir.

**Investitsiya aktivlari** – qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e’tirof etiladigan boshqa mol – mulk ;

**Investor** – qimmatli qog‘ozlarni o‘z nomidan va o‘z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Indossament** – qimmatli qog‘oz, veksel ustidagi ushbu hujjat bo‘yicha xuquqlarning boshqa shaxsga o‘tganligini tasdiqlovchi yozuv.

**Imtiyozli aksiya** – aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish huquqini beradi, lekin boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi. Ularning imtiyozliligi, bir tomondan aksiyadorlik jamiyati xo‘jalik faoliyati natijalaridan qat’iy nazar, kafolat-lanmagan dividendni olish imkoniyatidan, ikkinchi tomondan esa, aksiyadorlik jamiyati tugatilgan vaqtda aksiyalar qiymatini birinchi navbatda olish huquqini berishligidadir.

**Korporativ obligatsiya** – ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan qimmatli qog‘oz.

**Obligatsiya** – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar. Obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa

mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shahsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatga olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo'lgan huquqini yohud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

**Oddiy aksiya** – akdiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqini beradi, u bo'yicha olinadigan dividend miqdori esa, aksiyadorlik jamiyatining yil davomidagi ish faoliyatining natijalariga bog'liq va boshqa hech narsa bilan kafolatlanmagan.

**Sotish optsioni (rut)** – o'z egasiga kelajakda bazis aktivini qimmatli qog'oz hosilasi shartlariga muvofiq sotish huquqini beradi.

**Fond birjasi** – ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtda va belgilangan joyda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs;

**Forfeyting** – bu mol (tovarlarni) yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha talablar qo'yish huquqini olish, ushbu talabga doir operatsiyalarni bajarish va uni kassaga olish xatarini qabul qilishdir.

**Xarid uchun optsion (Sall)** – kelajakda qimmatli qog'ozlar hosilasi tomonidan uning egasiga belgilangan shartlarda bazis aktivini sotib olish huquqini beradi.

**Emitent** – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs;

**Qimmatli qog'oz** – hujjatlar. U chiqargan yuridik shaxs bilan uning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividentlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.

**Qimmatli qog'ozlar bozori** – yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlar tizimi;

**Qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers** – nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qatiy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz;

**Qimmatli qog'ozlarning hosilalari** – o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning optsionlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

**Moliyaviy menejmentda arbitraj** – bir xil aktivlarga turli baholardan foydalanish yo'li bilan tavakkalchiliksiz daromad olish tushuniladi. Arbitraj keng tarqalgan investitsion taktika hisoblanadi va bir davrning o'zida bir xil aktivlarni (yoki uning funktsional ekvivalentini) nisbatan yuqori baholarda sotish va nisbatan past narxlarda sotib olishdan iborat.

**Diversifikatsiya** – (lot. diversus – *har xil va facere qilmoq*, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar ko'paytirish.

**Diversifikatsiya strategiyasi** – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasi. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo'lgan raqobatbardoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo'shma korxonalar tuzish, korxonalarni sotib olish va b.

**Dividend** – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qismi. Aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

**Iqtisodiy nochor korxonalar** – muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xomashyo, yonilg'i, mehnat resurslari sarflaydigan samarasiz korxona.

**Investitsion kreditlar** – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va

rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

**Investitsion siyosat** – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.

**Investitsiya** – iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa boyliklar.

**Investitsiya faoliyati** – investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

**Innovatsion texnologiyalar** – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui. O'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

**Innovatsiya jarayoni** – yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillik uzluksiz harakat. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish. Yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirishdan iborat bosqichlarga ega.

**Inflyatsiya** – milliy valyutaning qadrsizlanishi. Pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida, narxlarning o'sishi.

**Ishlab chiqarish** – ma'lum davrda alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati.

**Korporatsiya (lotincha *corporatio* – birlashish)** – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil subyektini – huquqiy shaxsni tashkil qilgan jismoniy va/yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir.

**Korporativ boshqaruv** – qonunchilik, me'yorlar va hususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasiga tushuniladiki, ular kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi va oqibatda aksiyadorlar, boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyatning manfaatlariga rioya qilingan holda o'z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko'paytirish orqali o'zining mavjudligini saqlab qolishni ta'minlaydi.

**Korporativ boshqaruvning maqsadi** – korxona investitsiya jozibadorligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining oqilona muvozanatiga rioya qilgan holda, amaldagi qonunchilik doirasida OAJning barcha faoliyat turlaridan imkoni qadar yuqoriroq foyda olish.

**Korporativ boshqaruvning vazifalari** – aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish; OAJ investitsion jozibadorligini oshirish; aksiyalar narxining o'sishi orqali uzoq muddatli iqtisodiy

qiymatning jamg'arilishi; jamiyatni rivojlanish strategiyasini aniqlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish; AJ biznes-rejalarini tasdiqlash va ular bajarilishini nazorat qilish va faoliyatning boshqa muhim masalalarini hal qilish.

**Korporativ boshqaruv qoidalarida adolatlilik tamoyili** – halol raqobatchilik sharoitida kompaniyaga muvaffaqiyatli harakat qilishga imkoniyat berishi va shu bilan birga barcha qatnashchilarning, shu jumladan minoritar aksiyadorlarning ham, huquqlarini ta'minlashi lozim. Barcha aksiyadorlar o'z huquqlariga dahl qilinganda ularni himoya qilishning samarali usullariga ega bo'lishlari kerak.

**Korporativ boshqaruvning oshkorlik tamoyili** – kompaniyaga aloqador barcha muhim axborotlarning, shu jumladan mulkchilik shakli, moliyaviy holat, faoliyat natijalari va boshqalarni o'z vaqtida va aniq oshkora qilinishni nazarda tutadi.

**Korporativ boshqaruv modellari** – unitar (investor) modeli – AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya; ikki pog'onali (manfaatdor shaxslar) modeli – Germaniya; kontinental model; tarmoq modeli – Yaponiya (keyretsu), Koreya (chaebol).

**Korporativ boshqaruvda davlat ishtiroki bo'yicha AQSh modeli** – Ishlab-chiqarish sektorida davlatning ulushi kichik bo'lgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Ularda davlat aksiya paketlarini shartnoma asosida xususiy kompaniyalarga berish xosdir. Mazkur modelda «jamoatchilik uchun ochiq korporatsiyalar» mavjud bo'lib, ular mos ravishda tarmoq departamenti va vazirlikga bo'ysunadilar.

**Korporativ boshqaruvda davlat ishtiroki bo'yicha Italiya modeli** – korxonalarda davlat ulushi katta bo'lgan davlatlarga xosdir. Davlat korxonalarini va davlat aksiya paketlarini boshqarish uchun davlat mulki vazirligiga qarashli ko'p tarmoqli xolding kompaniyalar tashkil qilinadi.

**Korporativ boshqaruvda davlat ishtiroki bo'yicha aralash model** – yuqorida sanab o'tilgan ikki modelning xususiyatlarini o'zida birlashtiradi. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

**Korporativ boshqaruv organlari** – ijroiya organi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi; kuzatuv kengashi (Direktorlar kengashi);

**Korporativ nazorat organlari** – taftish komissiyasi; ichki audit xizmati; auditorlik tashkiloti.

**Korporativ huquq** – korxonada ishlab chiqilgan qoidalar tizimi bo'lib, manfaatdor tomonlarning irodasini ifodalaydi va tashkilot faoliyatining turli tomonlarini tartibga soladi.

**Korporativ boshqaruv kodeksi** – ixtiyoriy belgilanuvchi andozalar va ichki me'yorlar yig'indisi. Korporativ munosabatlarning tartibini o'rnatadi va tartibga soladi. Kodeks korxonadagi korporativ boshqaruvning barcha muhim unsurlariga taalluqli bo'lgan asosiy me'yorlardan va tavsiyalardan tarkib topadi.

**Korporativ boshqaruvda riskni boshqarish** – Har qanday salbiy vaziyatda ham foydaning birmuncha kamayishiga erishishdir.

**Strategiya** – bozorlarning va huquqiy tizimning holati, ichki va tashqi korxonalar bilan raqobatchilik kabi korxonaning hozirda va kelajakda tushib qolishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarni hisobga olgan holda korxonaning boshqaruvchilik, texnik, moliyaviy va boshqa resurslarini ishlatish haqida qaror qabul qilish. Strategiya mahsulot nomenklaturasi va ishlab-chiqarish hajmlari, sotish bozorlari, xomashyo va investitsiya manbalarini o'z ichiga oluvchi turli bosqichlarida korxonani rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

**Kapital** – real kapitalning qog'ozdagi timsoli. Foxta kapitalning bahosi ikki holatda aniqlanadi: a) kapitalga bo'lgan talabning taklifga nisbatiga ko'ra; b) qimmatli qog'oz bo'yicha kapitallashgan daromad miqdoriga ko'ra. U kapitalga bo'lgan talabning taklifga nisbatan oshishiga va qimmatli qog'ozdan keladigan daromad miqdoriga to'g'ri, kapital taklifining talabdan oshishi va mamlakatdagi bank foizi me'yor darajasiga teskari proporsionaldir. Shuning uchun soxta kapital narxi qiymatli bozor kategoriyasi hisoblanib, uning bahosi o'zgaruvchan (tebranma) bo'ladi.

**Korxonaning innovatsion salohiyati** – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsion salohiyatining ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

**Kutilayotgan inflyatsiya darajasi** – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

**Moliyaviy strategiya** – Tashqi vositalar o'zgaruvchanligi sharoitida uzoq muddatga mo'ljallangan moliyaviy reja. Strategik reja muvaffaqiyatini ta'minlashning eng samarali yo'llarini tanlash, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish, yo'nalishlarini korrektirovka qilish, moliyaviy faoliyat va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish, asosiy yo'nalishlarni belgilash zarur.

**Moliyaviy strategiya tamoyillari** – korxonaning o'z-o'zini tashkil etishga qodir ochiq tizim sifatida qarash tamoyili; korxona operatsion faoliyati bazaviy strategiyalarini hisobga olish tamoyili; moliyaviy faoliyatni strategik boshqarishni tadbirkorlikka maqsadli yo'naltirish tamoyili; strategik moliyaviy rivojlanishning yetakchi sohalarini belgilash tamoyili; moliyaviy strategiyaning moslashuvchanligini ta'minlash tamoyili; strategik moliyaviy tanlovlarning muqobilini tanlash tamoyili; moliyaviy faoliyatda texnologik rivojlanish natijalaridan doimiy foydalanishni ta'minlash tamoyili; strategik moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida moliyaviy risklar darajasini hisobga olish tamoyili; moliyaviy strategiyani amalga oshirish jarayonini moliyaviy menejerlar professional apparatiga yo'naltirish tamoyili; ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyaning tashkiliy tuzilma va tashkiliy madaniyatga muvofiqligini ta'minlash tamoyili.

**Moliyaviy menejment** – xo'jalik subyektining joriy va strategik maqsadlarga erishishda, moliyaviy resurslar va moliyaviy faoliyatni boshqarish.

**Moliya** – taqsimot xarakteriga ega bo'lgan, pul ko'rinishidagi daromad va yig'imlar shaklida moddiylashuvchi, o'zaro bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui. Xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat tomonidan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ishchilarni moddiy rag'batlantirish, jamiyatni ijtimoiy extiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Moliyaning ikki asosiy funtsiyasi mavjud: taqsimlash; qayta taqsimlash; nazorat.

**Makroiqtisod ko'rsatkichlari** – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkonini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va b.

**Mikrofirma** – kichik biznes korxona. Sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 nafar, xizmat ko'rsatish sohasida 10 nafar, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 nafar ishlovchiga ega korxona.

**Modernizatsiya** – obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

**Moliya tizimi** – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

**Moliyaviy institut** – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi moliya-kredit tashkiloti.

**Narx** – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

**Preferensiya** – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha, tarmoq, korxona va ishlab chiqarish turiga beriladigan imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

**Pul** – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

**Rekonstruksiya** (qayta tiklash) – faolliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirish. Qayta tiklashda eski tsexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

**Rentabellik** – korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko'rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko'rsatkichini korxona aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

**Strategik moliyaviy boshqaruv** – korxona moliyaviy faoliyatining rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan holatda qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar muqobil variantlarini minimallashtirishni qaratilgan harakat va rivojlanish darajasini saqlab qolishga.

**Strategik moliyaviy boshqaruvning tadbirkorlik stili** – moliyaviy faoliyatning barcha yo'nalishlari va shakllari bo'yicha samarali boshqaruv qarorlari ustida faol ishlash tashkil etadi. Moliyaviy boshqaruvning bu stili tashqi omillar o'zgarishini hisobga olgan holda qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish uchun barcha yo'llarda moliyaviy faoliyatlarni amalga oshirishning yo'nalishlari, shakllari va metodlari doimiy transformatsiyasi bilan bog'liq.

**Soliq imtiyozi** – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish.

**Soliq krediti** – budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ma'lum muddatga kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli.

**Soliq tortishning soddalashtirilgan tartibi** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Soliq stavkasi** – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yori.

**Soliq yuki** – mablag'larni boshqa foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlardan olib, soliqlarni to'lash uchun yo'naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo'lib, odatda soliq to'lovchining muayyan davrda budjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i orqali ifodalanadi.

**Soliq yukini yengillashtirish** – soliq foiz stavkasini kamaytirish va imtiyozlar berish.

**Soliq** – belgilangan va muayyan miqdorda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lov.

**Soliq unifikatsiyalash** – soliq mexanizmini soddalashtirish. Iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini birxillashtirish.

**Talab** – muayyan tovar, ne'matni sotib olish istagi. Bozorga olib chiqilgan va pul imkoniyatlari bilan ta'minlanadigan ehtiyoj.

**Tannarx** – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq barcha chiqim.

**To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash** – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital kiritish. To'g'ridan-to'g'ri investitsiya investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

**Xususiy tadbirkorlik** – O‘z tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida mavjud qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan shaxsiy tashabbuskor xo‘jalik faoliyati.

**Eksport** – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Akromov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2010 y - 223 b.

2. Антонов В.Г. И др.Корпоративное управление. Учебное пособие. – М.: ИНФРА, 2010. – 288 с.

3. Берзон Н.И. Финансовый менежмент. Практикум/ – М.: Издателъский центр «Академия», 2011. - 240 с

4. Бурмистрова Л.А., Ветрова Е.Ю., Женолюкова О.А., и др. Финансовый Менежмент: Практикум / Под ред. Н.Ф. Самсонова., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.

5. Брейли Р., МайэрсС., Принципи корпоративных финан сов/Пер. с анг. – М., 2004.

6. Братухина О.А. «Финансовый менежмент» Учебное пособие. – М.: «КНОРУС» 2010. 238 с.

7. Бочарев В.В. «Управление денежным оборотом предприй и корпорации» – М.: «Финансы и статистика», 2007. - 645 с.

8. Бочарев В.В. Финансовый анализ. –СПБ: – Питер, 2005.

9. Жеймс К. Ван Хорн, Жон М. Вахович. Основы финансового менежмента, 11- издание.: Пер санг. Издательский дом «Вильямс», 2004. -992 с.

10. Jiyanova N. Moliyaviy menejment. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. - 108 b,

11. Леонтев В.Е. Финансовый менежмент. Учебник/ - Москва: «Элит», 2005. - 560 с

12. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. O'quv qo'llanma. –T.: «Iqtisod-moliya», 2010. - 276 b.

13. Под ред. А.А.Володина. Управление финансами (Финансы предприятий): Учебник / – М.: ИНФРА-М, 2006. - 504 с. - (Высшееобразование).

14. Под ред. И.Ф.Самсонова. Финансовый менежмент. – М.: «Юниты», 2002.

15. Стоянова Э.С. Финансовый менежмент. Теория и практика. Учебник. / – Москва: Изд-воперспектива, 2010. - 656 с

16. Husanov G.N., Tursunxo'djaev M.L. Moliyaviy menejment. O'quv qo'llanma. – T.: «Voris nashriyot», 2006. -176 b.

17. Madaminova Z. «Moliyaviy menejment uslubiy ko'rsatma». –T.: TIMI 2014.

## I. Qo'shimcha adabiyot

18. Vaxobov A., Malikov –T.: – T.: Iqtisod - moliya. 2008 .

19. Vahobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. – T.: «Sharq» 2005.

20. В.В Ковалев, О.Н. Волкова. Анализ хозяйсивенной деятельности предприятия: Учебник. – М: ТК Велби, «Проспект», 2004.- 424 с.

21. Василева М.В., Малий Н.А. Финансовая политика – Ростова Н/Д Феникс. 2008.

22. Галицкая С.В. Финансовый менежмент. –М.: Эксмо, 2009 .

23. Галицкая С.В. Финансовый анализ. –М.: Эксмо, 2009.

24. Жеймс К. Ван Хорн, Жон М. Вахович. Основы финансового менежмента, 11-издание.: Пер. с анг. Издательский дом Вилямс, 2004. - 992 с.

25. Дементева А.Г. Основы корпоративного управления. Учебное пособие. – М.: Магистр, 2009. - 575 с.

26. Ковалева В.В., ковалев Вит В. Финансовый менежмент воросах и ответах. Учебное пособие./ – М.: Проспект, 2011. - 304 с

27. Люкассевич И.Я. Финансовый менежмент. Учебник. –М.: ЕКСМО, 2011. - 768 с.

28. Никулина Н.Н.. СуходоевД.В., Ериашвили Н.Д. Финансовый менежмент организации. Учебное пособие./ – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. - 511 с

29. Павлова Л.Н. Финансовый менежмент.: /Учебник. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. - 269 с

30. Яблукова Р.З. Финансовый менежмент.: В вопросах и ответах/ – М.: «Проспект», 2005. - 256 с

31. Исаев Д.В. Корпоративное управление и стратегических менежмент информационных аспект. /Учебное посоьие. – М.: Высшей школы экономики, 2010. – 219 с.

32. Иванова Е. и др. Корпоративное управление: /Учебник. –М.: Ростовна Дону Феникс, 2008. – 258 с.

33. Ионова А.Ф., Селезнева Н.Н. «Финансовый менежмент» Учебное пособие. – М.: «Проспект» 2010. 583 с.

34. Крылов Е.И., Власов В.М., Иванов И.В. Управление финансовым состоянием организации (предприятия). /Учебное пособие – М.: Ексмо, 2009

35. Леонтев В. Финансовый менежмент. Учебник/ – М.: «Елит», 2005. – 560 с

36. Moliyaviy boshqaruv / Mualliflar jamoasi R.R.Hasanov, N.H.Haydarov, T.S.Malikov va boshq.; O‘zRDJQNA. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 y.

37. Поляк Г.Б. Финансы. – М.: Юнити-Дана. 2008. – 703 с.

38. Rashidov O.Y., Qurbonov X.A., Karlibaeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2005. -128 bet.

39. Zaynutdinov Sh.N., Raximova D. «Korporativ boshqaruv asoslari» Darslik. –T.: «Akademiya» 2007. – 160 b.

40. Toshmurodova B., Hamdamov O. Moliyaviy menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya nashriyoti. 2012.

41. Фалко С.Г., Аксёнов А.Р., Берзин И.Е. Экономика предприятия, /Учебник. –М.: «HNOPУС» 2011. -346 с.

42. Шохин Е.И., Болшаков С.В., Булатова М.Г. «Финансовый менежмент /Учебник. 3-издание. –М.: КРОНУС. 2011. -475с.

## II. Xorijiy adabiyot

1. Eugene F. Brigham, Michael C. Ehrhardt Financial Management: Theory and Practice Cengage Learning, 2011. – 1184 p.

2. James C. Van Horne, John M.Vachowicz JR. Fundamentals of Financial Management. Prentice Hall, New Jersy 2004 y.–950 p.

3. Pandey I. M. Financial Management 10 Edition. Vikas Publication House 2010 y – 480 p.

4. Prasanna Chandra.Financial Management Tata McGraw-Hill Education, 2008 y– 1124 p.

5. Антонов В.Г. и др. Корпоративное управление. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2010 г. – 288 с.

6. Ионова А.Ф. Селезнева Н.Н. «Финансовый менеджмент» Учебное пособие. –М.: «Проспект» 2010 г. 583 с.

7. Ковалев В.В. «Курс финансового менеджмента» Учебник 2-издание. --М.: «Проспект» 2011 г.478 с.

8. Шохин Е.И., Большаков С.В., Булатова М.Г. «Финансовый менеджмент» Учебник. 3-издание. –М.: «КНОРУС» 2011 г. 475 .

9. Jürgen Stiefl. Finanzmanagement. Oldenbourg Wissenschaftsverlag, jahr 2008 - 473 seiten

10.Pascal Quiry, Yann Le Fur. Finance d'entreprise. Dalloz-Sirey, 2013 - 1207 r.

## III. Internet saytlar

www.minfin.ru
www.mf.uz
www.budget.ru
www.df.ru
www.gov.uz
www.mfa.uz
www.mfer.uz
www.cer.uz
www.analitik.org.ua
www.mstu.edu.ru
www.eduworld.ru
www.businessvoc.ru
www.i-u.ru
www.yeerc.ru
www.darvoza.uz/
www.cagateway.org.
www.dcc.uz.

**MUNDARIJA**

Kirish.....3
I bob. Moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati,
maqsad va vazifalari.....6
II bob. Turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarda
moliyaviy menejment xususiyatlari.....23
III bob. Korxonalarda moliyaviy ta'minot
jarayonini boshqarish.....31
IV bob. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish.....40
V bob. Korxona aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish.....67
VI bob. Aylanma mablag'larni moliyalashtirish
jarayonini boshqarish.....77
VII bob. Xo'jalik subyektlarida pul oqimlarini boshqarish.....91
VIII bob. Xarajatlarni optimallashtirish
va daromadlarni maksimallashtirish masalalari.....114
IX bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish.....129
X bob. Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish.....145
XI bob. Korxonalarda xolq menejmentini tashkil etish .....177
XII bob. Moliyaviy risklar mohiyati va ularni kamaytirish.....196
«Moliyaviy menejment» fanidan tayanch so'z va iboralar.....205
Foydalanilgan adabiyotlar.....225

chafi

Sirey

**A.G.IBRAGIMOV, Z.R.MADAMINOVA,**
**M.E. RAXMATALIYEV**

# MOLIYAVIY MENEJMENT

**Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2016**

| | |
|---|---|
| Muharrir: | Z.Tohirov |
| Tex. muharrir: | M.Holmuhamedov |
| Musavvir: | D.Azizov |
| Musahhih: | Sh.Aliyeva |
| Kompyuterda sahifalovchi: | Sh.Mirqosimova |

**Nashr.lits. AI№284, 12.08.16. Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2016.**
**Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.**
**Shartli bosma tabog'i 14,0. Nashriyot bosma tabog'i 14,5.**
**Tiraji 400. Buyurtma №282.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining**
**bosmaxonasi» da chop etildi.**
**100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**

ISBN 978-9943-11-378-7